O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
TOSHKENT FARMATSEVTIKA INSTITUTI

**IJTIMOIY FANLAR KAFEDRASI**

**TARBIYAVIY ISHLAR METODIKASI**

fanidan

# O‘QUV–USLUBIY MAJMUA

**Bilim sohasi:** 500000 - Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy ta’minot
100000-Gumanitar soha

**Ta’lim sohasi:** 510000 - Sog‘liqni saqlash
110000 - Pedagogika
**Ta’lim yo’nalishi:** 5111000 – Kasb ta’limi (5510500- Farmatsiya (farmatsevtika ishi))

**Toshkent-2021**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI**

**TOSHKENT FARMATSEVTIKA INSTITUTI**

**IJTIMOIY FANLAR KAFEDRASI**

**"Tasdiqlayman "**

Toshkent farmatsevtika instituti

O'quv ishlari bo'yicha prorektor

prof. Z.A. [illegible] ____________

2021 yil "___" ____________

# TARBIYAVIY ISHLAR METODIKASI FANIDAN O'QUV-USLUBIY MAJMUA

**Bilim sohalari:** 500000 – Sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot

100000 - Gumanitar soha

**Ta'lim sohalari:** 510000 – Sog'liqni saqlash

110000 – Pedagogika

**Ta'lim yo'nalishi:** 5111000 – Kasb ta'limi (5510500 – Farmatsiya (farmatsevtika ishi))

**Umumiy o'quv soati - 104**

Shu jumladan:

| | |
|---|---|
| Ma'ruza | - 32 (9 semestr -16 soat; 10 semestr - 16 soat) |
| Amaliy (seminar) mashg'ulot | - 34 (9 semestr 18 soat; 10 semestr -16 soat) |
| Mustaqil ish | - 38 (9 semestr – 20 soat; 10 semestr -18 soat ) |

**Toshkent-2021**

Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanning o'quv-uslubiy majmuasi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2017yil " 28" 06_dagi "434"-sonli buyrug'i bilan ( buyruqning 1-ilovasi) tasdiqlangan "Tarbiyaviy ishlar metodikasi" fani dasturi asosida tayyorlangan.

**Tuzuvchi:**

D.O.Kamalova Ijtimoiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi

**Taqrizchilar:**

S.A.Kaldibekova- Nizomiy nomidagi TDPU "Umumiy pedagogika" kafedrasi Pedagogika fanlari nomzodi., dotsent

G.M.Qurbonova - Nizomiy nomidagi TDPU "Umumiy pedagogika" kafedrasi Pedagogika fanlari nomzodi., dotsent

Fanning o'quv-uslubiy majmuasi Ijtimoiy fanlar soha uslubiy Kengashining 2021yil "18" 06 dagi 11 sonli yig'ilishida muhokama qilingan va tasdiqlashga tavsiya etilgan.

**Soha uslubiy kengashi raisi** **K.K.Ismailov**

Fanning o'quv-uslubiy majmuasi institut Markaziy uslubiy kengashining 2021yil "28" 06 dagi 11 -sonli yig'ilishida muhokama qilingan va tasdiqlashga tavsiya etilgan.

**Markaziy uslubiy kengash raisi** **Z.A.Yuldashev**

Fanning o'quv-uslubiy majmuasi institut Kengashining 2021yil "29" 06 dagi 11 -sonli yig'ilishida muhokama qilingan va tasdiqlashga tavsiya qilingan.

**Kengash kotibi** **V.R.Xaydarov**

## Mundarija:

**Kirish…………………………………………………………………5**

**I.Nazariy ma'lumotlar**

**1-SEMESTR**

1. "Tarbiyaviy ishlar metodikasi" fanining predmeti va mazmuni ………………7
2. Milliy urf-odat, qadriyat va an'analar-tarbiya asosi ………….……………...14
3. Pedagogik texnika-pedagogik mahoratning birinchi bosqichi sifatida…..…… 17
4. Guruh rahbari ishini tashkil etish ……………………………………….……20
5. Munosabat pedagogikasi …………………………………………….….…….25
6. Jamoani shakllantirish metodikasi ……………………………...……..29
7.Jamoani shakllantirish metodikasi va jamoada shaxsni shakllantirish…..…..35
8. Oila, jamoa o'quv bilim yurtining tarbiyaviy ishlari hamkorligi…...………...45

**2-SEMESTR**

1.Ta'lim tarbiya jarayonida tarbiyaviy ishlar texnologiyasi. Tarbiya jarayonini texnologiyalashtirish……………………………………………………….……62
2.Tarbiyaviy jarayonlarda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish usullari….65
3.Tarbiyaviy texnologiyalar…………………………...………………………71
4.Tarbiyaviy interfaol usullar………………………………………...............76
5.Tarbiyaviy treninglar……………………………………………….............78
6.Kasb-hunar kollejlarda tarbiyaviy ta'sir etish va boshqarish. Darsdan tashqari vaqtdagi tarbiyaviy ishlarni tashkil etish…………………………..………....81
7.Ta'lim-tarbiya muassasalarida bayramlarni, ommaviy tadbirlarni namunali o`tkazish………………………………………………………………………87

**II.Amaliy mashg`ulotlar**

**1-SEMESTR**

1. "Tarbiyaviy ishlar metodikasi" fanining predmeti va mazmuni …………..…88
2. Milliy urf-odat, qadriyat va an'analar-tarbiya ………………………….…92
3.Pedagogik texnika-pedagogik mahoratning birinchi bosqichi sifatida ……………………………………………………………………………..100
4. Guruh rahbari ishini tashkil etish……………………………………..…....100
5. Munosabat pedagogikasi ……………….……………..……………...104
6. Jamoani shakllantirish metodikasi………………..……………………........108
7.Jamoani shakllantirish metodikasi va jamoada shaxsni shakllantirish…….109
8. Oila, jamoa o'quv bilim yurtining tarbiyaviy ishlari hamkorligi …..............110
9. Oila, jamoa o'quv bilim yurtining tarbiyaviy ishlari hamkorligi...…..........112

**2-SEMESTR**

1.Ta'lim- tarbiya jarayonida tarbiyaviy ishlar texnologiyasi. Tarbiya jarayonini texnologiyalashtirish…………………………………………………………..…116
2.Tarbiyaviy jarayonlarda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish usullari…………………………………………………………………….……..119
3.Tarbiyaviy texnologiyalari…………………………………………………….121

4.Tarbiyaviy interfaol usullar…………………………………………………..….125
5.Tarbiyaviy treninglar…………………………………………….……….127
6.Kasb-hunar kollejlarda tarbiyaviy ta’sir etish va boshqarish. Darsdan tashqari vaqtdagi tarbiyaviy ishlarni tashkil etish…………………………..…...........129
7.8.Ta’lim-tarbiya muassasalarida bayramlarni, ommaviy tadbirlarni namunali o`tkazish……………………………………….................................134
**III.Keyslar banki……………………………………………………..145**
**IV.Talabalar mustaqil ishlarni tashkil etishda ko`rsatma berish........157**
**V.Testlar………………………………………………………………158**
**VI.Glossary……………………………………………………………165**
**VII.Talabalarni baholash mezoni………………………………...……174**
**VIII.ADABIYOTLAR RO’YXATI..................................................176**
**IX.ILOVALAR…………………………………………………………..178**
**Tarqatma materiallar………………………………………………...178**
**Fan dasturi………………………………………………….......217**
**Ishchi dasturi………………………………………………..….......219**

KIRISH

“Tarbiyaviy ishlar metodikasi” o`quv-uslubiy majmuasidan Farmatsevtika instituti talabalari pedagogika fanidan egallashi kerak boʻlgan nazariyalar, davlatimizning taʼlim sohasidagi islohatlari chuqur yoritib berilgan.

2017 – 2021 yillarda Oʻzbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yoʻnalishi boʻyicha Harakatlar strategiyasi oʻrta muddatli istiqbolda davlat siyosatining ustuvor yoʻnalishlarini belgilab bergan eng muhim dasturiy hujjat hisoblanadi. Mazkur hujjat asosida taʼlim sohasiga doir qator islohotlar amalga oshirildi.

Jumladan Oʻzbekistan Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy taʼlim muassasalarida taʼlim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini taʼminlash boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgrisida”gi qaroriga muvofiq oliy taʼlim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimini belgilashga oid 3069 Adliya vazirligi tomonidan nizom ishlab chiqildiki talabalar bilimini baholashda ularni imkoniyatidan, individual holatidan kelib chiqish, baholashda shaffovlikga rioya qilish hamda professor-oʻqituvchilarning pedagogik faoliyatida baholashdagi qiyinchiliklarini bartaraf etish muhim masala sifatida qaralgan.

Aynan taʼlim tizimini rivojlantirishda oliy taʼlimning alohida oʻrni mavjud boʻlib, undan yetishib chiqayotgan kadrlar zamon talabiga mos vazifalarni bajarishida pedagogikaning oʻrni beqiyosdir. Pedagogika maʼruzalar matni pedagogika fan sifatida, tibbiyotda pedagogik bilimlarning oʻrni va ahamiyati, predmetning obʼekti va predmetining takomillashganligi, maʼrifiy fikrlar taraqqiyoti va ularning tarixiyligi.pedagogikaning maqsad, vazifalari va asosiy kategoriyalari, pedagogikaning ilmiy-tadqiqot metodlari, kadrlar tayyorlash milliy dasturi uning maqsad va vazifalari, pedagogikada shaxs shakllanishi va rivojlanishining umumiy qonuniyatlari, shaxsning biologik va psixologik rivojlanishi, shaxs shakllanishiga taʼsir etuvchi asosiy omillar, bolalarning yosh davrlari hususiyatlari, tarbiya jarayonlarining mazmun va mohiyati, tarbiyaning maqsad va vazifalari, tarbiya jarayonlarining oʻziga xos xususiyatlari, tarbiya turlari, tarbiyaviy taʼsir etish usullari, vositalari va uni amalda qoʻllash shakllari, tarbiya qoidalari va tamoyillari, tarbiya usullari haqida tushuncha, tushunchasi kabi masalalarni oʻz ichiga olgan va bu ularni taʼlimiy, tarbiyaviy hamda rivojlantiruvchi pedagogik vazifasini bajaradi.

# I.NAZARIY MATERIALLAR



**1-MAVZU: “Tarbiyaviy ishlar metodikasi” fanining predmeti va mazmuni**

**Reja**

1. Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanining maqsadi, vazifasi, asosiy tushuncha va tamoyillari.
2. Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanining mazmuni, mohiyati va shaxs tarbiyasidagi roli.
3. Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanining dolzarb muamolari va uni bartaraf etish yo‘llari.
4. Tarbiyaviy jarayonda g‘oyaviy-siyosiy-ahloqiy tarbiyani tashkil etish.
5. Guruh rahbari ishini rejalashtirish.

Hozirgi kunda yoshlarni barkamol inson, o‘z vatanining ilg‘or kishisi sifatida tarbiyalash eng asosiy masalalardan biri hisoblanadi. CHunki aynan yoshlar davlatimizning kelajagidir.

YAngi asrga qadam qo‘yar ekanmiz mamlakatimizda chuqur, keng qamrovli iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy islohatlar amalga oshirilmoqda. Jamiyat ma’naviy yukasalishi va yangilanishi sari yuz tutgun bir paytda O‘zbekiston Respublkasi Birinchi Prezidentining 1999 yil 3–sentyabrdagi “Respublika ma’naviyat va ma’rifat kengashining qo‘llab quvvatlash to‘g‘risida”gi Farmoni zamiridagi g‘oyalar, ulardan kelib chiqadigan asosiy maqsadlar ma’naviyatning ustuvorligini yana bir karra tasdiqlaydi.

Xalqning ma’naviy ruhini mustahkamlash va rivojlantirish – O‘zbekistonda davlat va jamiyatning eng muhim vazifasidir. Ma’naviyat shunday qimmatbaho mevaki, u bizning qadimiy va navqiron xalqimiz qalbida butun Insoniyatning ulkan oilasida o‘z mustaqilligini tushunib etish va ozodlikni sevish tuyg‘usi Bilan birgalikda etilgan. Ma’naviyat insonga ona suti, ota namunasi, ajdodlar o‘giti bilan birga singadi. Ona tilining buyuk ahamiyati shundaki, u ma’naviyat belgisi sifatida kishilarni yaqin qilib jipslashtiradi. Tabiatga yaqinlik, jonajon o‘lkaning benihoyat go‘zalligidan bahramand bo‘lish ma’naviyatga oziq beradi, kuchaytiradi. Ma’naviyat o‘z xalqining tarixini, uning madaniyati va vazifalarini chuqur bilish va tushinib etishga suyangandagina qudratli kuchga aylanadi.[1]

---

[1] Raximjonov N. “Ëshlar iqtisodiy tafakkurini shakllantirishda oilaninr roli” T., 2005 (B.M.I.)

Ma’naviyati yuksak shaxslar yurtni tanitadi. SHaxsni esa uning ma’naviy qiyofasi tanitadi. Ma’naviyat–tarbiyadan boshlanadi. Ta’lim – tarbiyasiz ma’naviyatning bo‘lmasligi barchaga ayon haqiqatdir.

Milliy pedagogika asoschilaridan biri Abdulla Avloniyning “Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot – yo halokat, yo sadoqat, yo falokat masalasidir!” degan so‘zlari fikrimizga dalil bo‘ladi.

Respublikamiz hukumati tomonidan mustaqillikning ilk yillaridanoq, jismonan sog‘lom, ma’nan etuk shaxs yaratishga e’tibor berila boshlandi. Bu boradagi ishlarni aniq, maqsadli amalga oshirish uchun davlat ahamiyatiga molik dasturlar, rejalar ishlab chiqildi.[2]

Mazkur “Tarbiyaviy ishlar metodikasi” fanining o‘qitilishi ham aynan ushbu qarorga asosan pedagogikaga ixtisoslashgan mutaxassislar uchun ishlab chiqilgan. Bunda metodika tarbiya nazariyasining umumiy qoidalariga asoslanishi, lekin ularni takrorlamasligi, bu qoidalarni ro‘yobga chiqarish usullarining vositalari, yo‘llari va shakllaridan iborat bo‘lishi lozim.

Tarbiyaviy ish metodikasini o‘rganish o‘quvchilarni tarbiyalashning umumiy masalalarini mustaqil, ijodiy va dadil hal qilishga tayyorlashi lozim.

Tarbiyaviy ishlarni davr talabiga javob beradigan holatga keltirishi uchun tarbiyaning asosi bo‘lgan barcha g‘oyalar qaytadan ko‘rib chiqilishi, asosiy e’tibor shaxs shaxsiga qaratilishi, yillar davomida to‘plangan ijobiy tajribadan unumli foydalanish zarurligini taqazo etadi.

Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanining bosh maqsadi – yosh avlodni ma’naviy axloqiy tarbiyalashda xalqning boy milliy, ma’naviy – tarixiy an’analarga , urf – odatlari hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali, tashkiliy, pedagogik shakl va vositalarni ishlab chiqib amalga joriy etishdir.

Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanining asosiy vazifasi esa – shaxsning aqliy erkin fikrlovchi va jismoniy rivojlanishi, uning qobiliyatlarini har tomonlama ochish uchun imkoniyat yaratishdir.

Buning uchun: yoshlarni erkin fikrlashga tayyorlash, hayot mazmunini tushunib olishga ko‘maklashish, o‘z – o‘zini idora va nazorat qila bilishni shakllantirish, o‘z shaxsiy turmushiga maqsadli yondoshuv, ularda reja va amal birligi hissini uyg‘otish;

O‘quvchilarda madaniy hamda dunyoviy bilimlarni egallashga bo‘lgan talablarini shakllantirish, malaka hosil qildirish, tobora o‘stirib–boyitib borish va estetik tushunchalarni shakllantirish;

Har bir o‘smirning bilimdonligini va ijodiy imkoniyatlarini aniqlab, ularni rivojlantirish, inson faoliyatini turli sohalarda joriy qilib ko‘rish;

Insonparvarlik odobi me’yorlarini shakllantirish (bir–birini tushinadigan, mehribon, shafqatli, irqiy kamsitishlarga yo‘l qo‘ymaslik) muomala odobi kabi tarbiya vositalari keng qo‘llanishi lozim.

---

[2] Z. Qurbaniyazova “Tarbiyaviy ishlar jaraёnida tarbiyalanuvchilarda milliy o’zlikni anrlashni shakllantrishninr pedarorik asoslari” nomzodlik dissertastiyasi. T., 2002.

Tarbiya – tarbiyalanuvchi shaxsini oliy ijtimoiy qadriyat deb tan olish, har bir shaxs, o‘smir va yosh yigit – qizning betakror va o‘ziga xosligini e’tiborga olish;

Amalda tarbiyaviy jarayon yaxlit va uzluksiz ishiga va turli yoshdagi tarbiyalanuvchilarni qamrab olishiga alohida ahamiyat berish lozim.

O‘smir yigit va qizlar nafaqat bo‘lg‘usi katta hayotga tayyorgarlik ko‘radilar, balki ana shu haqiqiy hayot bilan yashaydilar.

Tarbiyaviy ishlar metodikasi “Pedagogika” fanining bir qismi bo‘lib, fan sifatida ajralib chiqdi. Va o‘zining nazariy, uslubiy, Amaliy asoslarini yaratdi. Natijada tarbiyaviy ishlarning tarmoqlari vujudga keldi. Tarbiyaviy ishlar metodikasi fani bir necha qismga bo‘lib o‘rganiladi. Bular quydagilardir: “Odobnoma fanini o‘qitish” metodikasi, “Jamoani tashkil qilish” metodikasi, “Guruh rahbarining tarbiyaviy ishlarni tashkil etish” metodikasi hamda “YOshlarni tarbiyalashda oila, mahalla hamkorligini amalga oshirish” metodikasi va hakozolar.

Tarbiyaviy ishlar metodikasi “Pedagogika” fanining bir qismi bo‘lib, fan sifatida qaraladi va o‘zining nazariy, uslubiy, amaliy asoslarini yaratdi. Natijada tarbiyaviy ishlarning tarmoqlari vujudga keldi. Tarbiyaviy ishlar metodikasi fani bir necha qismga bo‘lib o‘rganiladi.

Demak bu fanni o‘qitishdan maqsad kelajakda o‘quvchilarimizga ta’lim muassasalarida ta’lim – tarbiyaga davr talablaridan kelib chiqqan holda yangicha yondoshishni, ishni sifat, mazmun jihatdan to‘g‘ri tashkil etishni o‘rgatishdan iboratdir.

Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanining bosh maqsadi – yosh avlodni ma’naviy axloqiy tarbiyalashda xalqning boy milliy, ma’naviy – tarixiy an’analarga , urf – odatlari hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali, tashkiliy, pedagogik shakl va vositalarni ishlab chiqib amalga joriy etishdir.

Pedagogik texnika – bu shunday bir malakalar yig‘indisidirki, u pedagogga tarbiyalanuvchilar ko‘rib va eshitib turgan narsalar orqali ularga o‘z fikrlari va qalbini etkazish imkonini beradi. O‘quvchilar bilan bevosita muomala qilishda pedagogning xuddi ana shu malakalari (yoki ularning yo‘qligi) uning xulq atvorida namoyon bo‘ladi.

Pedagogik mahorat bu fahm – farosat va bilimlarning, chinakam ilmiy, tarbiyadagi qiyinchiliklarni engishga qodir bo‘lgan nufuzli rahbarlikning, o‘quvchilar qalbining qandayligini his qilish mahorati, ichki dunyosi nozik va zaif bo‘lgan o‘quvchi shaxsiga mohirlik bilan avaylab yondoshishi, donolik va ijodiy dallilik, ilmiy tahlil, xayol va fantaziyaga bo‘lgan qobiliyat majmuasidir.

Pedagogik texnikani egallashning asosiy yo‘llari pedagog rahbarligidagi mashg‘ulotlar (pedagogik texnikani o‘rganish) va mustaqil ishlash (kasbiy jihatdan o‘z – o‘zini tarbiyalash) dir. Pedagogik texnika malakalarining individual – shaxsiy tusda ekanligini hisobga olib, pedagogik texnikani egallashda va uni takomillashtirishda kasbiy jihatdan o‘z – o‘zini tarbiyalash, ya’ni o‘quvchining o‘zida mohir pedagog shaxsiy fazilatlarini va kasbiy malakalarini shakllantirishga qaratilgan faoliyat etakchi rol o‘ynaydi.

O‘zbekistonning mustaqilligi tufayli ota – bobolarimizning axloq – odob haqidagi hikmatli hikoyalari, naql – rivoyatlari yoshlarning ma’naviy qadriyatlarini

shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Buni biz Odobnoma fanining o‘qitilishi misolida ko‘rishimiz mumkin. Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishda esa har bir pedagog axloq odob haqidagi bilimlarga ega bo‘lishi kerak.

Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanini o‘qitishda jamoani tashkil qilish metodikasiga katta e’tibor beriladi, chunki shaxsni jamoada tarbiyalash bilangina jamiyatni yuksaltirish mumkin. Bu vazifalarni esa biz odatda guruh rahbarlarining zimmasiga yuklaymiz. Guruh rahbarlari o‘z navbatida guruhdagi o‘quvchilarning bevosita ta’lim – tarbiya jarayoni, ya’ni darslar davomida hamda darsdan keyingi faoliyatini nazorat qilishga ma’suldirlar.

Keyingi yillarda davlatimiza qabul qilinayotgan ta’lim va tarbiya to‘g‘risidagi qator me’yoriy hujjatlar, jumladan «Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” bozor iqtisodiyoti sharoitida muvaffaqiyatli ishlay oladigan, mustaqil fikrlovchi kadrlarni tayyorlashda oila, mahalla va o‘quv maskanlarining nufuzini yanada yuqori pag‘onaga ko‘tarishni taqozo etadi.SHu maqsadda tarbiyaviy ishlarni tashkil etish va uni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish maqsadida biz sizlar bilan o‘qish davomida ushbu uslublardan foydalangan holda darslarni tashkil etamiz. Va har bir yo‘nalishga alohida to‘xtalib o‘tishga harakat qilamiz.YAna shuni ta’kidlab o‘tish kerakki tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda huquq – tartibot organlari, ijodiy uyushmalar, Davlat va nodavlat jamg‘armalar, qo‘mitalar va tashkilotlar bilan hamkorlikda ish olib borilsa maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

***Tarbiyaviy ishlar metodikasi faniniing dolzarb muammolari va uni amalga oshirish yo‘llari.*** Hozirgi kunda yoshlarni barkamol inson, o‘z vatanining ilg‘or kishisi sifatida tarbiyalash eng asosiy masalalardan biri hisoblanadi. CHunki aynan yoshlar davlatimizning kelajagidir.

YAngi asrga qadam qo‘yar ekanmiz mamlakatimizda chuqur, keng qamrovli iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy islohatlar amalga oshirilmoqda. Jamiyat ma’naviy yukasalishi va yangilanishi sari yuz tutgun bir paytda O‘zbekiston Respublkasi Birinchi Prezidentining 1999 yil 3–sentyabrdagi “Respublika ma’naviyat va ma’rifat kengashining qo‘llab quvvatlash to‘g‘risida”gi Farmoni zamiridagi g‘oyalar, ulardan kelib chiqadigan asosiy maqsadlar ma’naviyatning ustuvorligini yana bir karra tasdiqlaydi.

Xalqning ma’naviy ruhini mustahkamlash va rivojlantirish – O‘zbekistonda davlat va jamiyatning eng muhim vazifasidir. Ma’naviyat shunday qimmatbaho mevaki, u bizning qadimiy va navqiron xalqimiz qalbida butun insoniyatning ulkan oilasida o‘z mustaqilligini tushunib etish va ozodlikni sevish tuyg‘usi bilan birgalikda etilgan. Ma’naviyat insonga ona suti, ota namunasi, ajdodlar o‘giti bilan birga singadi. Ona tilining buyuk ahamiyati shundaki, u ma’naviyat belgisi sifatida kishilarni yaqin qilib jipslashtiradi. Tabiatga yaqinlik, jonajon ulkaning benihoya go‘zalligidan bahramand bo‘lish ma’naviyatga oziq beradi, kuchaytiradi. Ma’naviyat o‘z xalqining tarixini, uning madaniyati va vazifalarini chuqur bilish va tushinib etishga suyangandagina qudratli kuchga aylanadi.

Ma’naviyati yuksak SHaxslar yurtni tanitadi. SHaxsni esa uning ma’naviy qiyofasi tanitadi. Ma’naviyat – tarbiyadan boshlanadi. Ta’lim – tarbiyasiz

ma'naviyatning bo'lmasligi barchaga ayon haqiqatdir.

Milliy pedagogika asoschilaridan biri Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot – yo halokat, yo sadoqat, yo falokat masalasidir!" degan so'zlari fikrimizga dalil bo'ladi.

Respublikamiz hukumati tomonidan mustaqillikning ilk yillaridanoq, jismonan sog'lom, ma'nan etuk shaxs yaratishga e'tibor berila boshlandi. Bu boradagi ishlarni aniq, maqsadli amalga oshirish uchun davlat ahamiyatiga molik dasturlar, rejalar ishlab chiqildi.

Mazkur "Tarbiyaviy ishlar metodikasi" fanining o'qitilishi ham aynan ushbu qarorga asosoan pedagogikaga ixtisoslashgan mutaxassislar uchun ishlab chiqilgan. Bunda metodika tarbiya nazariyasining umumiy qoidalariga asoslanishi, lekin ularni takrorlamasligi, bu qoidalarni ro'yobga chiqarish usullarining vositalari, yo'llari va shakllaridan iborat bo'lishi lozim.

Tarbiyaviy ish metodikasini o'rganish o'quvchilarni tarbiyalashning umumiy masalalarini mustaqil, ijodiy va dadil hal qilishga tayyorlashi lozim.

Tarbiyaviy ishlarni davr talabiga javob beradigan holatga keltirishi uchun tarbiyaning asosi bo'lgan barcha g'oyalar qaytadan ko'rib chiqilishi, asosiy e'tibor shaxs shaxsiga qaratilishi, yillar davomida to'plangan ijobiy tajribadan unumli foydalanish zarurligini taqazo etadi.

Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanining bosh maqsadi – yosh avlodni ma'naviy axloqiy tarbiyalashda xalqning boy milliy, ma'naviy – tarixiy an'analarga , urf – odatlari hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali, tashkiliy, pedagogik shakl va vositalarni ishlab chiqib amalga joriy etishdir.

Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanining asosiy vazifasi esa – shaxsning aqliy erkin fikrlovchi, axloqan barkamol va jismoniy jihatdan rivojlangan shaxsni shakllantirish hamda uning qobiliyatlarini har tomonlama ochish uchun imkoniyat yaratishdir.

Buning uchun: yoshlarni erkin fikrlashga tayyorlash, hayot mazmunini tushunib olishga ko'maklashish, o'z – o'zini idora va nazorat qila bilishni shakllantirish, o'z shaxsiy turmushiga maqsadli yondoshuv, ularda reja va amal birligi hissini uyg'otish;

O'quvchilarda madaniy hamda dunyoviy bilimlarni egallashga bo'lgan talablarini shakllantirish, malaka hosil qildirish, tobora o'stirib–boyitib borish va estetik tushunchalarni shakllantirish;

Har bir o'smirning bilimdonligini va ijodiy imkoniyatlarini aniqlab, ularni rivojlantirish, inson faoliyatini turli sohalarda joriy qilib ko'rish;

Insonparvarlik odobi me'yorlarini shakllantirish (bir – birini tushinadigan, mehribon, shafqatli, irqiy kamsitishlarga yo'l qo'ymaslik) muomala odobi kabi tarbiya vositalari keng qo'llanishi lozim.

Tarbiya – tarbiyalanuvchi shaxsini oliy ijtimoiy qadriyat deb tan olish, har bir shaxs, o'smir va yosh yigit – qizning betakror va o'ziga xosligini e'tiborga olish;

kengaytirildi. Bu ishlar vaqt o'lchovining chegaralanmaganligi, emotsional ta'sir imkoniyatining kengligi shaxsiy ehtiyojga muvofiqligi tufayli o'quvchilar tomonidan darsdagidan ko'ra boshqacharoq qabul qilinadi. Bu

narsa ya'ni milliy g'oyalar xar bir kishining xulq-atvorida, har bir jamoa va har bir tashkilotning faoliyatidagi ishlar bilan uzviy bog'lab olib borilishi lozim. Ana shunga amal qilgan guruh rahbari har bir o'quvchini va butun guruh jamoasini faol ijtimoiy ishlarga jalb qiladi, ularda ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan faoliyatda qatnashish extiyojini uyg'otadi, bu esa g'oyaviy-siyosiy tarbiyaning natijasidir.

O'quvchilarning o'zlari gazeta va jurnallardan maqolalar to'plami guruh burchagida ko'rgamalar tayyorlashi, maxsus gazetalar chiqarishi, axborotlarni o'zlari mustaqil o'tkazishlari foydaldir. YUqori kurslarda bu ishlarning mazmuni, shakli va metodlari yanada murakkablashadi, manbalar hajmi ko'payadi va ular xalqaro voqealarga doir ma'ruzalar o'quvchilar anjumanlari, jamoatchilik muhokamalari, munozaralar shaklida o'tadi.

Siyosiy axborotlar o'quvchilarda siyosiy bilimlarga chuqur qiziqish uyg'otish, gazeta o'qish, ichki va tashqi voqealarga doir radio eshittirishlarni va teleko'rsatuvlarni tinglash va kurish ehtiyojini tarbiyalash kerak. Guruh rahbari bolalarning turli hil voqealar haqidagi o'zaro mulohazalardagi noto'g'ri fikrlarni tuzatishi, ijtimoiy xayotning muxim voqealarini ilmiy asosda sharxlab berishi g'oyat muhimdir.

Ayni vaqtda guruh rahbari o'quvchilarning axloqiy shakllanishi, ma'naviy dunyosining tarkib topishi uchun ham g'amxo'rlik qiladi. Xalqimiz moddiy farovonligining, madaniy darajasining, ma'naviy dunyosining o'sib borishi, mamlakatimiz ma'naviy hayotida eng ilg'or va eng insonparvar ijtimoiy munosabatlar tizimining qaror topganligi gurux rahbari amalga oshiradigan ahloq tarbiyasining muvoffaqiyatini ta'minlash uchun garovdir.

O'quvchilarning axloqiy shakllanishi faoliyat jarayonida ro'y beradi. Faoliyatni tashkil etish bilan gurux raxbari xar bir o'quvchi shaxsini g'oyaviy –axloqiy jixatdan tarkib topishni ta'minlaydi. O'quvchilarni faoliyatning ma'lum bir turiga jalb qilish aniq maqsadga qaratilishi kerak.

O'quvchilarni axloq nazariyasiga doir bilimlar bilan qurollantirish va ularni ijtimoiy hayot voqealaridan axloqiy tomonlarni ajrata olishga, axloq me'yorlariga muvofiq baxolashga o'rgatish bilan gurux rahbari yigit-qizlarning o'z xulqini axloq me'yor va qoidalari nuqtai nazaridan idora qila olishlariga erishadi.

YOshlar bilan o'tkaziladigan odob va axloqqa oid suhbatlar ulaar ishtirok etadigan ijtimoiy foydali va unumli mexnat, turli xil ijod ishlari «Kamolot» tashkiloti faoliyati bilan uzviy bog'liq tarzda borsagina, ijobiy natija beradi.

Axloqqa oid suhbatlar samaradorligini ta'minlovchi muhim shartlardan biri o'quvchilarning ongi bilan xulqi o'rtasidagi birlikni ta'minlash hisoblanadi. Axloqiy bilim berishdan maqad, tashqi ta'sirni ongli harakat bilan bog'lovchi ichki istakka aylantirishni ta'minlashdir. Bunda u o'ziga ma'lum bo'lgan axloq me'yoriga rioya qilgan holda to'g'ri harakat qilish yo'lini tanlab olishga o'rganadi. Masalan, gurux rahbari o'z suhbatini shunday boshlaydi. «Avtobusda ketayotgan bir necha yoshlar qo'llaridagi

radiopleyrni baland qo‘yib, allaqaysi gurux ijrosidagi sershovqin kuy tinglab borardilar. Keksa ayol ulardan ovozni pasaytirishni iltimos qilib qoldi. Bunga javoban «Eshitgingiz kelmasa qulog‘ingizni berkitib oling»dedi yoshlardan biri. Ikkinchisi esa vaziyatni yumshatish uchunmi, yoki noqulay axvoldan chiqish uchunmi xar xolda «Xolajon, siz zamonaviy kuylarni yomon ko‘rarkansiz-da»--dedi, uchinchisi esa, «Siz birginasiz, biz esa ko‘pchilikmiz. Ko‘pchilikni istagini xurmat qilish kerak buvijon!»-- deb qo‘shib qo‘ydi. Gurux raxbari o‘quvchilar bilan vujudga kelgan ushbu vaziyatni muhokama qilib, o‘z fikrlarini bildirishni taklif qiladi.

Axloqiy bilim berishda gurux rahbari bilan oilaviy hamjixatlik g‘oyat muhim omildir. SHuning uchun yoshlar bilan bir qatorda ota-onalar o‘rtasida ham axloqiy tarbiyaga doir bilimlar tarqatish kerak. Axloqqa oid suxbatlarni bir oyda bir marta o‘tkazgan ma’qul. Har bir suhbatga 7-10kun tayyorlaniladi. Suhbat vaqti 40-45 minutdan oshmasligi kerak. Navbatdagi suxbatga tayyorlik davrida gurux raxbari hamda yoshlar turli xil faoliyatda ishtirok etadilar. Mavzu tanlashda guruh rahbari mamlakatning ijtimoiy hayotida ro‘y berayotgan voqealarga, o‘quv materialining mazmuniga, o‘quvchilarning axloq me’yoriga doir bilimlari darajasiga asoslanadi.

Axloqiy ongni shakllantirishda guruh rahbari suhbatlar bilan bir qatorda tushuntirish, ma’ruza, namuna-ibrat kabilardan xa keng foydalaniladi. Ana shu jarayonda u o‘quvchining axloqiy mulohazasini o‘stirishga o‘zining va boshqalarning xulqini axloq me’yorlari asosida baholay olishga qaratilgan ishlarga, ularni jalb qilishga alohida e’tibor berish lozim. Odatda o‘quvchilar o‘rtoqlarining, atrofdagi kishilarning xulqidagi ijobiy, salbiy tomonlrni baholay olganlari holda o‘z xulqidagi tomonlarga u qadar e’tibor berishmaydi va ularda o‘z xulqini baholash ancha kech ko‘rina boshlaydi. Mana shuning uchun gurux rahbari o‘quvchilarni o‘z xulqini baholash ancha kech ko‘rina boshlaydi. Mana shuning uchun gurux raxbari o‘quvchilarni o‘z xulqini axloq me’yor va talablari asosida quyi kurslardan boshlaboq baholashga o‘rgata boshlashi maqsadga muvofiqdir.

Gurux raxbari axloq tarbiyasini amalga oshirishda har bir o‘quvchining xulqiga, xarakter xislatlariga alohida e’tibor berib borishi kerak. Guruhda pedagogik qarovsiz qolgan, tarbiyasi qiyin bolalarga ham uchraydi. Agar bu xil bolalarning xulqi o‘z vaqtida tuzatilmasa, u jamiyatdagi axloq me’yorlariga xilof yo‘nalish kasb etishi ham mumkin. SHuning uchun ham guruh raxbari bu xil yoshning xulqidagi salbiy yo‘nalishni qancha tez aniqlasa, uni tuzatishga qanchalik tez va faol aralashsa, shuncha yaxshi ish qilgan bo‘ladi.

Munozara uchun yoshlarni to‘lqilantirayotgan masalalar mavzu bo‘ladi, masalan: «Hayotda o‘z o‘rnini topishning ma’nosini qanday anglaysiz?», «YAshashning ma’nosi va xayotdan maqsad», «Inson qachon baxtli bo‘la oladi?», «Zamonaviy bo‘lishning ma’nosi nimada?».

Gurux rahbari har bir mavzuning mazmuniga kiradigan masalalarni aniqlashda o‘quvchilarga yordam beradi.

Munozara uchun tavsiya etilayotgan bu mavzular yoshlarning fikrini band qiladigan asosiy mavzular bo‘lib, ulardan qaysi birini tanlash, qanday uyushtirish gurux o‘quvchilarning extiyojiga, jamoadagi kayfiyat va qiziqishga bog‘liq. Bu mavzular mazmuniga kiradigan masalalar xammasi axloq, ma’naviy xayot bilan bog‘liq bo‘lgan bo‘lib, ular yuzasidan yuritiladigan baxslar yordamida o‘quvchilar axloqiy bilimga jamiyatdagi odamlar munosabati bilan bog‘liq me’yor va qoidalarga oid tushunchalarga ega bo‘ladilar, asta-sekin ularda ishonch va qarashlar tarkib topa boradi.

Gurux rahbari faoliyatining mazmuniga kiradigan axloq tarbiyasi faqat yuqoridagilar bilangina hal bo‘la qolmaydi. Axloqiy tarbiyani amalga oshirish murakkab jarayon bo‘lib, asosiy e’tibor talablarda axloqiy ong, axloqiy his, tushuncha, muloxaza kabilarga muvofiq axloqiy malaka va odatlarni shakllantirishga qaratilishi kerak.

**Nazorat uchun savollar:**

1.Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanining maqsadi va vazifalari, asosiy tushuncha va tamoyillari.

2.Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanining asosiy tushuncha va tamoyillari.

3.Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanining mazmuni, mohiyati va shaxs tarbiyasidagi roli.

4.Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanining dolzarb muamolari nimalardan iborat?

5.Guruh rahbari ishini qanday rejalashtiriladi?.

**Foydalangan adabiyotlar**


1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev “Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga ko‘ramiz” Toshkent “O‘zbekiston” 2017 y.

2.Fayzullaeva N., Shodmonova SH. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. O‘quv qo‘llanma. –T.: TDIU, 2008. -18 bet.

3. Mavlonova R., Rahmonqulova N., Normurodova B. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. – T.: Tib-kitob, 2010.

4. Ishmuxammedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar/ – T.: Fan va texnologiya, 2010.

5.Ilinicha V.I. Fizicheskaya kultura studenta.Uchebnik.– M.:Gardariki,2005. – 448 str.


## 2-MAVZU: Milliy urf-odat, qadriyat va an’analar-tarbiya asosi

**Reja:**

1.Shaxs hayotida qadriyatlar tizimi.

2.Milliy urf-odatlarimiz, milliy o’zligimiz namunasi sifatida.

3.Milliy tarbiya va uning mazmuni

**Tayanch tushunchalar: Qadr-qimmat, mintaletet, ma’naviyat, madaniyat, milliy urf-odat, milliy o’zlik, milliy g’urur, milliy tarbiya, aksiologiya.**

Eng avvalo, shuni qayd qilish kerakki, qadriyatlar juda sermazmun va ko'p qirrali tushuncha. Qadriyatlar ichida eng birinchi va eng umumiysi hayotning o'zidir, chunki hayotdan mahrum bo'lish qolgan barcha qadriyatlardan foydalanishni yo'qqa chiqaradi… qolgan qadriyatlar, aslini olganda, hayot ne'matlarining mohiyatidir, madaniy qadriyatlardir". Qadriyat turlari: 1. Inson yashab turgan moddiy muhit bilan bog'liq bo'lgan qadriyatlar. 2. An'analar, urf-odatlar va marosimlarda namoyon bo'ladigan axloqiy qadriyatlar. 3. Insonning aql-idroki va amaliy faoliyati zaminida shakllangan mehnat malakalari va ko'nikmalari, bilim va tajribalari, qobiliyat va iste'dodlarida namoyon bo'ladigan qadriyatlar. 4.Odamlar o'rtasidagi jamoatchilik, hamkorlik, hayrihohlik, hamjihatlikka asoslangan munosabatlarda namoyon bo'ladigan qadriyatlar

Xalqimizning turmush tarzida yil taqvimi bilan bog'liq turli xil udumlar, urf-odat va marosimlar mavjud bo'lib, ularning barchasi Sharq xalqlarining quyosh taqvimidagi birinchi kun bo'lmish Navro'z (Nav-Yangi, Ro'z-kun) bayramidan boshlanadi. Biz katta tantanalar bilan nishonlayotgan ulug' ayyom, bahor bayrami - Navro'zni ajdodlarimiz tabarruk kun deb bilib, uni katta quvonch va xursandchilik bilan o'tkazishga harakat qilganlar. Navro'z Yer haqidagi dastlabki ilmiy-geografik tasavvurlar paydo bo'lgan zamonlardan boshlab shakllangan bo'lib, dastlab ushbu bayramni o'tkazish o'troq dehqonlarda, so'ngra yarim o'troq va ko'chmanchi turkiy xalqlarning ham urf-odatlariga aylangan. O'rta asr muarrixlari uning vujudga kelish tarixini bundan uch, uch yarim ming yil oldin bo'lgan deb yozgan bo'lsalar, zamonamiz tarixchilari Navro'zning tarixiy ildizlarini tosh asri(er.av.10-5 ming yillar)ga borib taqaladi, degan xulosani bildiradilar. Tarixiy ildizlari juda chuqur bo'lgan ushbu bayram Markaziy Osiyo va O'rta Sharq mamlakatlarida ancha qadim davrlardan tarkib topgan tantana bo'lib, uning qadimiy an'ana ekanligini isbotlovchi qator tarixiy yozma manbalar va tarixiy asarlar mavjud. Jumladan, Abu Rayhon Beruniy, Abu Mansur Salabiy, Umar Hayyom singari adiblarning tarixiy, ilmiy va adabiy asarlarida Navro'zning kelib chiqishi, uning o'ziga xos qadimiy rasm-rusumlari va marosimlari to'g'risida qiziqarli ma'lumotlar mavjud. O'rta asrlarning mashhur qomusiy olimlari asarlarida Navro'zning kelib chiqish tarixi afsonaviy shohlar Qayumars, Jamshid va Sulaymon bilan bog'lab talqin qilinadi. Navro'z bayram tarzida nishonlana boshlangandan beri o'tgan turli hukmdorlar va davlat xizmatida bo'lgan yuqori martabali tarixiy shaxslar ham ushbu bayramni nishonlashga turfa xil munosabat bildirganlar. Zamonamizda esa mazkur milliy bayramga juda katta e'tibor berilib, turli hududlarda o'ziga xos tarzda nishonlanmoqda. Jumladan, Namangan viloyatining barcha tumanlarida ham bahor kelishi bilan yoshu-qari ushbu bayramni intiqlik bilan kutadilar va unga tayyorgarlik ko'radilar. Navro'z bilan bog'liq udumlarni ikkiga: bayramdan oldin va bayramdan keyin o'tkaziladiganga bo'lish mumkin. Bayramgacha bo'lgan tadbirlarga ekin-tikin ishlariga tayyorgarlik ko'rish, o'chalar, hovli-joylar, ziyoratgoh va mozorlarni tozalash, bayram taomlarini pishirish kabilar kiradi. Navro'z oldidan viloyatimizning barcha tumanlarida ko'chalar, qishloq qabristonlari, atrof-muhit tozalanib, yangi yilning barcha uchun xayrli kelishini Ollohdan so'rab

"xudoyi", "darveshona" kabi marosimlar o'tkaziladi. Odamlarning o'zlari ham yangi yilni poklangan holda kutib olishga harakat qiladilar. Shu bilan birgalikda barcha sug'orish tarmoqlari loyqadan hashar usulida tozalanib, suv yo'llari ravon qilinadi. Ajdodlarimiz qadimdan erta bahorda yangi yilda suvning mo'l-ko'l bo'lishini niyat qilishib, qurbonlik marosimlarini o'tkazib kelganlar. Mazkur an'analari hozirga qadar o'z ahamiyatini yo'qotgan emas. Xalqimizning qadimiy an'anasiga ko'ra, Navro'z bayrami hut oyining oxirgi kechasi oila davrasida o'tkaziladigan "qozon to'ldi" udumi bilan boshlangan. U sof oilaviy udum bo'lib, har bir xonadon o'z imkoniyati doirasida tansiq taomlar tayyorlab, o'tgan ajdodlar ruhiga "is" chiqaradilar. "Qozon to'ldi" oqshomida barcha idishlar suvga to'ldirib qo'yilgan. Xalq qarashlariga ko'ra, suv to'ldirilgan idishlarga tangrining marhamati bilan qut-baraka to'ladi deb tasavvur qilingan.

"Qozon to'ldi" oqshomida har bir xonadon qozonlarini to'ldirib biror lazzatli taom tayyorlasa, kelayotgan yilda hosil mo'l bo'ladi degan qarashlar mavjud bo'lib, uning tarixiy asoslari "Avesto"da qayd qilingan "Xamaspaeta" bayrami bilan bog'lanadi. Qadimda bu udum ezgu ruhlarning yangi yil arafasida o'zlari yashagan xonadonga tashrif buyurishi bilan aloqador marosim sifatida o'tkazib kelingan. Bayram dasturxonlarining bezatilishi xo'jalik mashg'ulotlari bilan ham bog'liq bo'lgan. Masalan, dehqonlarning dasturxoni ziroatchilik ne'matlari bilan to'lsa, chorvadorlarning dasturxonida go'sht va sut-qatiq mahsulotlari ko'proq bo'lgan.Uy bekalari ushbu kunda har yilgi odatlariga ko'ra "uy ko'taradilar". Ya'ni uydagi gilam, kigizlarni tashqariga olib chiqib yoyadilar, hammayoqni supurib-sidiradilar, qishi bilan isingan sandallarni olib tashlab, o'rnini tuproq bilan ko'mib, tekislaydilar. Shu kuni tanadagi bodni quvib chiqarish uchun marosimiy o'rik turshagidan tayyorlangan sharbat ichiladi. XIX asrda Qo'qon xonligida yangi yil bayrami - "Sari-sol"da xon haramiga o'rik turshagidan tayyorlanadigan sharbat uchun ma'lum miqdorda shakar va o'rik turshagi ajratilishi to'g'risidagi ma'lumot ham fikrimizni isbotlaydi.

Mirishkor dehqonlar Navro'z arafasida yetti taxtacha ustiga bug'doy, arpa, sholi, jo'hori, tariq, javdar, mosh kabi donli ekinlarning urug'larini yoyib qo'yib, har kuni suv sepib turganlar. "Qozon to'ldi" kuni ana shu donlarning unishiga qarab, kelayotgan mavsumda qaysi ekindan mo'l hosil olish mumkinligini chamalaganlar. Ushbu odat dastlab sosoniylar davrida shoh saroyida o'tkazilgan bo'lib, yangi yilning qanday kelishini oldindan taxmin qilganlar. Bulardan tashqari Navro'z bayrami boshlanadigan kun - 21 martning haftaning qaysi kuniga va qaysi muchal hayvoniga to'g'ri kelishiga qarab ham kelgusi yil to'g'risida turli tahmin, bashoratlar qilingan.

Farg'ona vodiysida tabiatda bo'layotgan o'zgarishlarga alohida e'tibor beruvchi sinchilar - sinchkov kishilar tabiat alomatlari hamda uzoq o'lkalarga uchib ketgan qushlarning qaytib kelish vaqti va ularning tashqi ko'rinishlarini kuzatib yangi yilda ob-havoning qanday bo'lishi to'g'risida turli taxminlarni bildiradilar. Shu bilan birgalikda Yangi yilning dastlabki kunlari ham yangi yilning qanday kelishini bildirgan. Masalan, ozarbayjonlarda Navro'zning birinchi kuni bahorni, ikkinchi kuni yozni, uchinchi kuni kuzni, to'rtinchi kungi ob-havo esa qishning qanday

kelishini bildiradi. Har yili Navro'z bayramida doshqozonlarda sumalak, halim va boshqa bahoriy taomlar pishiriladi.
Ushbu taomlar ichida eng keng tarqalgani sumalak bo'lib, bu taomni tayyorlashning o'zi alohida bir marosim hisoblanadi. "Sumalak" kalimasi "sharbat uchun undirilgan arpa" yoki bug'doy ma'nolarini anglatuvchi qadimiy turkiy so'z "suma"dan kelib chiqqan. Muhammad Husayn Burxonning "Burxoni qot'i" asarida (1650 y) "samanu - holvaytarga o'xshagan narsa, uni ko'klagan bug'doy o'simtalarining shirasidan tayyorlanadi", deb izohlanadi. Sumalak pishirish ishlariga yoshi ulug', ko'p farzandli, xalq orasida katta hurmat qozongan ayollar yetakchilik qilishi va sumalak o'chog'idan odamlardagi shamollashni haydovchi vosita sifatida foydalanib, farzand ko'rmayotgan juvonlarning sumalak o'chog'iga kirib o'tirishlari sumalakning hosildorlik kulti bilan bog'liq ekanligini tasdiqlaydi. Ulkan qozonlar qadimdan muqaddas sanalib, ularda tangrilar sharafiga maxsus taomlar pishirilgan. Serhosillik timsoli hisoblangan bunday qozonlarda pishirilgan sumalakdan tanovul qilgan kishiga yil bo'yi omad, qut-baraka yor bo'ladi degan qarashlar mavjud bo'lgan. Bir idishda taom iste'mol qilish odamlarni o'zaro yaqinlashtiradi degan qadimiy qarashlarga hamohang holda bitta qozonda bayram taomlarini tayyorlash ham kishilarni g'oyaviy jihatdan birlashtiradi deyishimiz mumkin.
Pop tumani Tepaqo'rg'on qishlog'ida 21 mart kuni bir sinfda o'qigan tengqurlarning barchasi biror xonadonda to'planib, sumalak pishiradilar va tonggacha o'yin-kulgi qiladilar. Sumalak pishirilayotgan boshqa joylarga ham tashrif buyurishib, hamqishloqlarini bayram bilan tabriklaydilar. Bu kabi odatlar hamqishloqlar o'rtasidagi o'zaro mehr-oqibatni yanada kuchaytiradi. Navro'z bayrami kuni kishilarning biror bir mehnat turi bilan shug'ullanishi ma'qullanmaganligi bois yoshu-qari bu kunni bayram tarzida, xursandchilik bilan nishonlashga harakat qilgan. Butun dunyo xalqlarida mavjud bo'lgan "birinchi kun magiyasi"ga ko'ra yangi yilning birinchi kuni qanday kutib olinsa, yil bo'yi o'sha kayfiyat odamlarga hamroh bo'ladi degan qarashlar mavjud. Bayram kuni erta tongdan odamlar olamdan o'tgan ajdodlarini xotirlaganlar, muqaddas joylar-mozorlarni, ota-onalari, qarindosh-urug'larini ziyorat qilganlar. So'ngra bayram saylgohiga boradilar. U yerda turli tomoshalar: uloq, kurash, dorbozlik o'yinlari kechga qadar davom etgan. Bolalar turli ranglarga bo'yalgan tuxumlarni urishtirib, varrak uchirish musobaqalarini o'tkazishgan. Bayramda o'rgatilgan xo'roz, it, qo'chqor, tuyalarni o'zaro urishtirish kabi tomoshalar bo'lgan. Qadimdan odamlar urushayotgan hayvonlarni hosiyatli va hosiyatsizga bo'lishib, ularning qaysi biri yutib chiqishiga qarab yangi yilning "xosiyatli" va "xosiyatsiz" kelishini tahmin qilganlar. Qiz-juvonlar esa qishloq chetidagi bog'larda qadimiy odatlardan bo'lgan arg'imchoq-halinchak uchganlar. Arg'imchoq uchish dunyoning boshqa xalqlarida ham mavjud bo'lib, balog'atga yetganlik ramzi hisoblanadi. Namangan viloyatida arg'imchoq arqonlari asosan o'rik daraxti shohlariga bog'lanib, halinchak uchayotganlar iloji boricha balandroq uchib, eng baland shohchadagi o'rik guli yoki g'o'ra(dovuchcha)ni uzib olishga harakat qilganlar. Kimki bunga erishsa uning barcha istaklari ro'yobga chiqadi, deb qaralgan. Qadimdan Navro'z bayrami qishloq joylarda dalaga qo'sh chiqarib, urug'lik don sepish bilan yakunlangan. Ushbu marosimlar ham bir necha

bosqichlardan iborat bo'lib, "shohmoylar", "urug' sepish", "qo'sh oshi" kabilarni qamrab oladi. Mazkur marosimlarning tarixiy ildizlari mil. av. III ming yillik oxiri II ming yillik boshlariga borib taqaladi va qadimiy e'tiqodlar bilan bog'liq bo'lib, haftaning belgilangan kunlarida o'tkazilgan.
Dalaga birinchi qo'sh chiqarilgan kuni Buvoyi Dehqonga atab biror bir hayvon, ko'pincha qo'chqor so'yilgan va marosimiy taom tarzida "qo'sh oshi", "qo'sh go'ja", "xudoyi sho'rva" pishirilgan. Namangan viloyati Mingbuloq tumani Qayrog'ochovul qishlog'idagi qoraqalpoqlar orasida esa yerga urug' qadashdan oldin dala boshida jonliq (odatda xo'roz) so'yiladi. Yil barakali, unumli kelsin degan niyatda bu ishni bo'ydoq o'spiringa bajartirganlar. Eng keksa usta dehqon fotiha berganidan so'nggina xudodan mo'l-ko'l hosil so'rab, yaxshi niyatlar qilishib ishga kirishilgan. Qurbonlik hayvon go'shtidan palov yoki sho'rva kabi taomlardan biri tayyorlangan. "Qozon to'ldi" kungi "is" yog'iga bo'g'irsoq, o'yma-qatlama pishirilgan yog' bilan ho'kiz shoxlarini, bo'yinlarini hamda bo'yinturuqni moylaganlar. Keksalarning aytishicha, shunday qilinsa ho'kiz muguzlari baquvvat, bo'ynini bo'yinturuq yara qilmaydigan, ho'kizlarning o'zi esa mehnatdan charchamaydigan bo'ladi.
Zamonamizda ham yangi yildagi birinchi ish kunida dalalarda yoki muqaddas hisoblangan ozor va ziyoratgohlarda xudoyi qilish odati mavjud bo'lib, Kosonsoy tumanidagi Sad piri komil, Chust tumanidagi Buonamozor mozorlari shular jumlasidandir. Shuningdek, joylardagi mashina traktor parklarida ham yil bo'yi qishloq xo'jaligi texnikasining soz ishlashi uchun "temirchilik piri" hisoblangan Dovud payg'ambarga atab qurbonliklar qilinmoqda. Birinchi qo'shni qishloqning keksa, hurmatli, piru-badavlat oqsoqollaridan biri solgan. Umuman olganda, dehqonchilikda har qanday ishning boshida Bobodehqon ramzidagi keksa kishilar turgan. Oqsoqol kuchi yetishiga qarab bir, uch yoki besh marta, umuman toq marta borib kelgan, so'ngra ho'kizlar toliqishining oldini olish maqsadida birinchi haydov kuni tugatilgan. Marosimdan so'ng barcha dehqonlar ho'kizlarini yetaklab o'z uylariga qaytganlar va bayramni davom ettirganlar.
Umuman olganda "qo'sh chiqarish", "shoh moylar", "qo'sh oshi", "urug' sepish" nomlari bilan aytiluvchi marosimlar dehqonlarning yangi yildagi birinchi ish kuni bo'lib, "birinchi kun magiyasi" bilan bog'liq holda iloji boricha xursandchilik bilan kutib olishga harakat qilingan. Necha ming yillik tarixga ega bo'lgan Navro'z bayramini tahlil qilar ekanmiz, u bilan bog'liq marosimlar orasida quyidagi umumiylikni ko'rishimiz mumkin: olov yoqish; bir-birlariga suv sepish yoki cho'milish; bashorat qilish; o'rik turshagi suvini yoki afsun, duo o'qilgan suv ichish; "qozon to'ldi" marosimi; pishirib, turli ranglarga bo'yalgan tuxumlar bilan bog'liq odatlar; baland joylar-tepaliklarga, mozorlarga, muqaddas joylarga chiqish, ziyorat qilish; bir-birlarini va ota-onalarni yo'qlash; qiz-juvonlarning arg'imchoq uchishlari; shahardan tashqarida sayl, uloq, kurash uyushtirish... kabilar.
Yuqorida keltirilgan Navro'z bilan bog'liq barcha odatlar zamirida xalqning yagona ezgu niyati - yangi yil hosildorlik, mo'l-ko'lchilik yili bo'lsin, degan umid-istagi yotadi. Qadimgi ajdodlarimizning dunyoqarashi, ma'naviy saviyasining yorqin na'munasi bo'lgan Navro'z tabiat va hayotning qayta tug'ilishi bilan birga, poklik va shodlik, ma'naviyat va birdamlik, milliy iftixor, o'zlikni anglash va hamjihatlik

ramzi hisoblanib, bahoriy marosimlarni boshlab beradi va butun bir faslni o'z ichiga qamrab oladi.

## Gul sayillari

Navbatdagi bahorgi marosimlar, ya'ni tabiatni ulug'lash va o'simliklar kulti bilan bog'liq an'analar zamirida "hayot daraxti", "tabiatning o'lishi va qayta jonlanishi" bilan bog'liq qarashlar yotadi. Aynan mazkur qarashlarda tabiatning uyg'onishi, tog' va qir-adirlarda turli gullarning ochilishi munosabati bilan o'ziga xos fenologik taqvim shaklida o'tadigan turli sayillarda namoyon bo'ladi.
Gul bilan bog'liq shu kabi sayillar qadimdan xalq orasida nishonlanib kelingan. Ular jumlasiga boychechak, lola, sumbula sayli kabilarni kiritishimiz mumkin. Mazkur sayillarning barchasi shahardan tashqarida, tabiat qo'ynida bo'lib o'tgan. Rus tadqiqotchisi V.P. Nalivkinning yozib qoldirgan ma'lumotlariga ko'ra, Namanganda XIX asr oxirida mart, aprel oylarida qatorasiga uch yoki to'rt juma shahar aholisi shahardan tashqariga sayil uchun chiqqanlar. Mazkur sayillarda ko'chma savdo do'konlari, oziq-ovqat, non, choy va shirinlik rastalari faoliyat yuritgan. Ayollar va erkaklar alohida alohida joylarda hordiq chiqarganlar.
Bahor darakchisi bo'lgan - boychechak, lola bilan bog'liq marosimlar Chust, Yangiqo'rg'on, Kosonsoy va To'raqo'rg'on tumanlarida hozirga qadar o'tkaziladi. Bolalar boychechakni avval keksa yoshdagi qariyalarga berishadi. Chunki, bu gul ular uchun qadrli bo'lib, qishdan eson-omon chiqqanligidan, yana bahor kelganidan, yangi hayot boshlanganidan darak bergan. Namangan shahri va uning atroflaridagi qishloqlarda ham bolalar qir, adirlardan boychechak terishib, belbog' yoki ro'molga solishib qishloq xonadonlarini aylanganlar va:
**Boka-boka boy, boy tilla, Uyingizga tosh tilla, Xudoyim o'g'il bersin, Kattasini oti Rahmatilla, Kichigini oti Ismatilla,** - deb qo'shiq aytganlar. Qaysi xonadonga borishsa, uy egalari boychechakni yuz-ko'zlariga surtib, "Omonlik-omonlik, hech ko'rmaylik yomonlik, yanagi yil shu kunlarga eson-omon etaylik",- deb yaxshi niyat qilganlar va bolalarga meva-cheva hamda turli shirinliklar hadya qilganlar.
Mazkur odatlar hayotning davomiyligi va zamon charxpalagining aylanishi ramzi hisoblangan. Bahorgi sayillardan yana biri "Sunbula sayli" Chust tumanidan boshqa hududlarda uchramaydi. Islomiy qarashlarga asoslangan mazkur sayil erta bahordan boshlangan. Sunbul sayli islom olamida mashhur bo'lgan sahobalardan biri Xoja Abdurahmon ibn Avf nomi bilan bog'liq ziyoratgohdan boshlanib, Sunbul g'orida nihoyasiga yetadi. XX asrning 80- yillaridan boshlab ushbu sayilga alohida e'tibor berilgan. Asosiy sayil may oyida bo'lib o'tadi. Sayil ishtirokchilari dehqonlar, hunarmandlar, chorvadorlar hamda savdogarlardan iborat bo'lgan. Bunday sayillar bahoriy marosimlarning hayotning davomiyligi, tabiatning o'lishi va qayta jonlanishi kulti bilan bevosita bog'liq bo'lib, o'zida qadimgi ajdodlarimizning dunyo to'g'risidagi falsafiy qarashlarini mujassamlashtirgan. Transformasiyaga uchrab, bizning zamonamizga qadar rivojlanib keng xalq ommasi tomonidan keng ko'lamda nishonlanib kelayotgan marosimlardan biri "Gul bayrami" hisoblanadi. Mazkur gul bayrami O'zbekistonda mashhur bo'lib, respublikaning boshqa hududlarida bu kabi marosim o'tkazilmagan. Ushbu bayram ilk marotaba XX asrning 60- yillarida

o'tkazilgan. Unda havaskor gulchilar mahalliy nashrlar, radio, madaniy-ma'rifiy uchrashuvlar orqali shahar aholisini hovli va shahar ko'chalarini chiroyli gullar bilan bezatishga chaqirganlar. Tezda "Namanganni gullar shahriga aylantiramiz" shiori ostida keng ko'lamdagi ishlar boshlanib ketgan. Namangandagi A. S. Pushkin (hozirgi Bobur) nomli istirohat bog'ida eng yaxshi gul yetishtirish musobaqasi o'tkazilishi e'lon qilingan. 1961 yili unda 16 nafar gulchilar ishtirok etgan. Hozirda yaxshi bir an'anaga aylanib ulgurgan ushbu bayram kunlari (ko'pincha avgust oyining ikkinchi yarmida 2 kun - shanba va yakshanba kunlari) istirohat bog'ida gulchilarning fotoko'rgazmalari, havaskor gulchilarga maslahat beruvchi navbatchi mutaxassis gulchilar tashkil etiladi. Mazkur bayram viloyat, vodiy, hatto Respublika mehnatkash aholisi tomonidan uzoq vaqt kutiluvchi bayramlardan hisoblanib, odamlar o'z oilalari bilan ishtirok etadilar. Gul bayrami aholining estetik ehtiyojini qondirish bilan birga shaharni yaxshilikka burkashi bilan ham katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Shuningdek, mazkur bayram bahoriy marosimlar singari o'zining etnoekologik jihatlari bilan ham ajralib turadi. Chunki, bayramga tayyorgarlik bir-ikki hafta oldin boshlanib, unda shahar ko'chalari tozalanadi. Bular esa tabiatni asrash bilan bog'liq an'anaviy qadriyatlarning hamon davom etayotganligini ko'rsatishi bilan birga ezgulikning yovuzlik ustidan g'alaba qozonishida odamlar tomonidan unga quvvat berish kabi ramziy ma'nolarga ham egadir. Namanganda hozirga qadar davom etib kelayotgan "gul bayrami" taqvimiy urf-odat va marosimlar tarkibidagi gul bilan aloqador sayillarning transformasiyaga uchrab, yangicha shakl olgan ko'rinishlaridan bo'lib, o'zbek xalqi ma'naviyatini o'ziga xos tarzda namoyon qiladi. Milliy ma'naviyatni har tomonlama yuksaltirish masalasi asosiy vazifa qilib qo'yilgan bugungi kunda ma'naviyatimizni shakllantiradigan va unga ta'sir o'tkazadigan barcha omil va mezonlarni chuqur tahlil qilish jarayonida bu kabi bayramlarning keng targ'ib qilinishi maqsadga muvofiqdir.

## Tut sayli

Bahorning oxirlarida nishonlanuvchi taqvimiy marosimlardan yana biri "Tut sayli" hisoblanadi. O'rta Osiyo xalqlari qadimdan tutni nihoyatda e'zozlab, qadrlab, uni muqaddas hisoblaganlar hamda tut daraxti o'sgan hovli fayzli, barakali va omadli sanalgan. Tut daraxti va uning mevasini qadrlashga bag'ishlangan eng katta tadbir - tut sayli deb atalgan va u asosan katta tutzorlari bor joylarda o'tkazilgan. Bu sayilni o'tkazishning barcha joylarda birday amal qilinadigan qat'iy tartiblari ham mavjud emas. Odamlarning o'z bog'laridagi tut mevasini terib yeyish oddiy hol bo'lsa, tevarak-atrofdagi tutzorlarga ommaviy chiqish - "Tut sayli", ya'ni katta bayram hisoblanadi.

Er-xotin Nalivkinlarning ma'lumotlariga ko'ra, vodiyning tog'li hududlarida, masalan, Chust uezdi aholisi tut daraxti mevalarini terib olishib, shinni va tut tolqon tayyorlaganlar.

Mazkur sayil oila yoki bir necha qo'ni-qo'shnilar ishtirokida uyushtirilgan bo'lsa-da, o'ziga xos xursandchilik bilan nishonlangan. Sayil davomida marvarak, balx tuti kabi shirin va yirik tut mevalari qoqilib, shinni va qoqi tayyorlangan. Mazkur sayilda asosan ayollar va bolalar ishtirok etganlar. "Tut sayli"ni o'tkazish davomida

odamlar qish uchun kerakli oziqlik hozirlaganlar, shuningdek, o'yin-kulgi qilishib, dam olganlar, tomoshalar va musobaqalar uyushtirganlar. Xullas, tut sayli kishilarga moddiy va ma'naviy foyda keltirgan.

## Qovun sayli

Hosilni yig'ishtirib olish bilan bog'liq marosimlar turli tuman bo'lib, ulardan biri - "qovun sayli"dir. Qovun sayli o'rta asrlarda katta tantanalar bilan o'tkazilgan. Poliz mahsulotlari pisha boshlagan vaqtda dehqonlar qishloq oqsoqollari, qo'ni-qo'shni va yoru birodarlarini bir kun oldin: "Ertaga falon vaqtga paykalga qovun sayliga boringlar", - deb taklif qilgan. Bunga oldindan tayyorgarlik ko'rilgan. Saharda kun isib ketmasidan oldin dehqonlar eng sara, band bergan qovunlardan uzib salqin joylarga olib qo'yilgan. Shuningdek, kelgan mehmonlar uchun biror mazali taom ham pishirilgan. Sayilga oqsoqollar, bolalar, barcha taklif etilgan. Sayilda erkaklar askiya aytishib, suhbatlashib o'tirganlar. Taomdan so'ng oqsoqollar dehqonning hosiliga baraka tilab duo qiladilar va hosil yig'imiga ruxsat beradilar. Sayil ishtirokchilari eng shirin qovunlar bilan mehmon qilingan. Bog'dorchilikka ixtisoslashgan hududlarda "olma sayli", "uzum sayli", "anor sayli", "anjir sayli" kabi bayram sayillari o'tkaziladi. Bu kabi sayillarning qadimgi xorazm va so'g'dliklarda ham o'tkazilganligi Beruniy ma'lumotlarida qayd etilgan bo'lib, unga ko'ra qadimda "qovoq bayrami" va uzum bilan bog'liq bayramlar nishonlangan.

## Mehrjon

O'zbeklar orasida kuzgi tengkunlikda o'tkaziluvchi qadimiy taqvimiy bayram"Mehrjon" dehqon va chorvadorlarning eng tantanali ravishda o'tadigan bayramlaridan biri sanalgan. Abu Rayhon Beruniy o'z asarlarida "Quyosh va oy falakning ikki ko'zi bo'lganidek, Navro'z va Mehrjon zamonning ikki ko'zidir", - deb bejiz ta'kidlamagan.

Mazkur bayram qadimiy forslar taqvimidagi yettinchi oyning nomidan olingan bo'lib, 23 sentyabrdan 22 oktyabrgacha bo'lgan davrni o'z ichiga olgan. Beruniyning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida yozilishicha "..."mehr" - Quyosh nomi, Quyosh shu kuni olamga zohir bo'lib, (bayram) uning nomi bilan atalgan". Beruniyning ta'kidlashicha "Zardusht Mehrjon bilan romro'z (ushbu oyning 21 kuni)ni birga hayit qilishni buyurgan. Keyinchalik mazkur bayram huddi Navro'zdagi singari bir oy davomida aholining turli tabaqalari o'rtasida besh kundan bayram qilingan". Demak, qadimdan "Navro'z" yangi yil va yangi ish mavsumining boshlanishi sifatida tantana qilingan bo'lsa, "Mehrjon" o'simliklar dunyosining o'sishdan to'xtab, "uyquga ketishi" va mehnat mavsumining yakunlanishi sifatida bayram qilingan. Hozirda esa "Mehrjon" o'zining asl ma'nosini yo'qotib, "birinchi chanoq", "paxta bayrami" va hosil bayramlariga bo'lingan holda davom etmoqda. Xalqimizda har bir meva yoki sabzavotga bag'ishlangan alohida sayillar bilan bir qatorda, ularning barchasiga bag'ishlab bir yo'la o'tkaziladigan bayram ham bo'lgan. U "Hosil bayrami", "Hosil to'yi" yoki "Xirmon to'yi" deb atalgan. Bu bayramlar

mehnat mavsumlari yakunlanib, dehqonlarning bo'sh vaqtlarida uyushtirilgan. "Hosil bayrami" tomosha - o'yinlarga juda boy bo'lganidan, katta sayilga aylanib ketgan. Hozirgi davrda bunday bayramlar tuman markazlarida o'tkazilib, ularda karnay-surnaychilar, polvonlar, dorbozlar, turli ansambllar ishtirok etadilar. Shuningdek, bu kabi bayramlarda o'zbek xalqi an'anaviy o'yinlaridan bo'lgan uloq - ko'pkarining o'tkazilishi odamlarga o'ziga xos xursandchilik baxsh etadi. Hozirgi davrda oldiga qo'ygan rejalarini amalda bajara olgan tumanlarda har yili mehnat mavsumi yakunlanganidan so'ng navbati bilan "Hosil bayram"lari o'tkazilib kelinmoqda. Hosil yig'imi oldidan o'tkazilib kelinadigan marosimlar zamirida shukronalikka xos ko'rinishlar mavjud bo'lishi bilan birga hosilni magik himoyalash yoki unga qo'yilgan tabuni olib tashlash kabi g'oyalar ham yetakchilik qiladi.

## Qor xat

Dunyoning qor yog'uvchi barcha hududlarida birinchi qor yoqqanida xursandchilik bilan "qor bo'ron" o'yinlari boshlangan. Bunday o'yinlar o'zbeklarning taqvimiy marosimlari tarkibida ham mavjud. Bundan tashqari, birinchi marta qor yog'ishi bilan bog'liq bo'lgan "Birinchi qor" nomli odat keng tarqalgan. "Qor xat" odati qadimdan keng tarqalgan an'ana bo'lib, hozirga qadar davom etib kelmoqda. Odamlar belgilangan shartlarga ko'ra, "qor xat"ni o'ziga yaqin kishilardan, ya'ni do'stlari yoki qarindoshlaridan biriga yozadilar va sezdirmasdan ularning qo'liga berishlari yoki cho'ntagiga solib qo'yishlari kerak. Xatni muallifning o'zi yoki boshqa biror odamni yollab yetkazishi mumkin, faqat xatni berganidan so'ng borgan hovlisining chegarasidan chiqib olguniga qadar qo'lga tushmay, qochib ketishi kerak. Aks holda, u kulgili ko'rinishdagi ko'ngilsizliklarga uchrashi mumkin, ya'ni qo'yilgan shartni o'zi bajarishiga to'g'ri keladi. Maktubni "bilmay" qabul qilgan kishi xatni olib kelgan odamni hovlisining chegarasidan chiqmay turib ushlab olib, xatni uning qo'liga qaytara olmasa, xatda yozilgan shartlarni o'zi bajarishga majbur bo'ladi. Agar "qor xat" muallifga qaytarilsa, unda ko'rsatilgan shartlarni maktub egasining o'zi bajarishi kerak. Vodiyning Chust tumani qishloqlarida "qor xat" olib keladigan odamning maqsadini xonadon egasi sezib qolsa, oldindan uning yo'liga poyloqchi qo'ygan va xat olib kelgan kishini qaytishda ushlab olib, qor bilan yuzlariga ishqalab, qiynaganlar va uning o'zini ziyofat berishga majbur qilganlar. Qor xat yozishdan asosiy maqsad "raqib"ni ziyofatga tushirish bo'lganligi uchun xatda ziyofat qachon, qaerda, necha kishiga berilishi lozimligi albatta ko'rsatilgan. Shuningdek, odatga ko'ra ziyofatga qanday taomlar va nozu ne'matlar tayyorlash sharti aytilib, unga xat muallifi bilan birga boruvchi mehmonlarning nomlari ham ma'lum qilingan. Bunday uslubdagi "qor xat"lar vodiyning deyarli barcha hududlarida yaqin vaqtlargacha o'tkazilib kelingan. Eng muhimi, birinchi qor yoqqan kuni qilingan ziyofat tufayli ginalar, xafagarchiliklar unutilishi, unda suhbat, yalla, qah-qaha avjiga chiqishi lozim ekanligi ta'kidlangan. Farg'ona vodiysida olib borilgan dala tadqiqotlariga ko'ra, bizning davrimizda yozilgan "qor xat"larda ziyofat emas, balki biror bir buyum olib berish yoki biror ko'ngilochar sayilgohlarga olib borish kabi shartlar ko'rsatilmoqda. O'yin tarzida o'tkaziluvchi mazkur marosimdan ko'zlangan asosiy maqsad aslida kelgusi yil hosilining mo'l bo'lishida

muhim ahamiyatga ega bo'lgan qorning birinchi bor yog'ishini tantanali ravishda nishonlash, shuningdek, ziyofat uchun tuzalgan dasturxon aslida shukronalik tarzidagi pishirilgan qurbonlik, hadya timsolini bildirgan

### 3. Milliy tarbiya va uning mazmuni

“Milliy tarbiya” tushunchasi ko‘p qirrali boiib, uning milliy qadriyatlar asosida olib boriluvchi maqsadga yo‘naltirilgan tarbiyaviy faoliyat; umuminsoniy tarbiyaning har bir xalqqa xos va mos betakror shakli; xalq va uning madaniyatini saqlab qolish, tiklash va rivojlantirishdan iborat. MilHy tarbiyaning manbai -

milliylikdir!. "Millat", "milliylik", ’’milliy g‘urur", ’’milliy odob", "millatlararo muloqot madaniyati" tushunchalarining oczagini arabcha "mil” so‘zi tashkil qiladi. Bu so‘z arabchada "o‘zak", ’’’tub mohiyat", ’’negiz" ma’nolarini anglatadi. "Millat" so‘zi esa bir necha ma’noni; 1) din: mazhab; 2) ummat: bir mazhabga mansub aholi: 3) xalq ma’nolarini anglatadi. "Millat", "milliylik’’ tushunchalarining talqini bilan tanishar ekanmiz, ulaming g‘arbona va sharqona tarzlari bor ekanligini ko‘ramiz. Aniqrog‘i, g‘arbiy talqin xristian, sharqiy talqin esa islomiy o‘zbeklarga borib tutashadi. Ya’ni Ovro‘po xalqlari tillariga “millat" tushunchasi lotincha "natio" - qabila, xalq sifatida xristian dini bilan birga kirib kelgan bolsa, Osiyoga esa Islom talimoti orqali yuqoridagi uch xil ma’noda kirib kelib singdi. Milliy tarbiya mazmunini eng yaxshi o‘zbek oilalarida amal qilingan va amal qilinib kelinayotgan tarbiya mazmuni va mustaqillik sharoitida davlat, jamiyat maktab tarbiyasiga qo‘ygan talablardan mujassamlangan fazilatlar hosil qiladi. Muayyan .fazilatlaming izchil, turli vaziyatlarda, turli vositalar yordamida singdirilib, tuzatilib, takomillashtirilib borilishi pirovard natijada davlat va jamiyat, oila, mahalla, maktab uchun namunaviy o‘quvchi, o‘g‘il-qiz axloqini hosil qiladi. Milliy tarbiya mazmunini quyidagi bilim, ko‘nikma va malakalar uyg‘unligini pedagogik ta’minlash tashkil qiladi:

• katta-yu kichik bilan awal salomlashib, keyin so‘z boshlash;

• ota-onaga mehrlilik;

• nafaqat yoshi ulug4lami, balki o‘zidan kichiklami ham samimiy izzat qilish;

• boshqa millat bolalarini ham xuddi o’zidan millatparvar bilib, hurmat bilan e’zozlovchi, ulaming milliy madaniyatiga samimiy qiziqish;

• nohaqlik va axloqsizlikni ko’rsa xoh katta, xoh kichikni noto‘g‘ri ishlardan qaytarib, insofga chaqira olish;

• jamoat transportida o‘zidan katta va kichikka izzat ko‘rsatish;

• o‘zi mansub jamoa muammolariga tegishli yig‘ilish, majlis, xayriyalarda faollik;

• yo’lovchilarga xalaqit beruvchi narsalanii yo‘ldan olib qo‘yish; qanoatlilik; xalqlar, millatlar orasidagi fitua-fasod,

jaholatga qarshi turish;

• umummilliy jipslikni hamshaharlik, mahalliychilikdan

ustun qo‘ya olish;

• o‘zining tabiatga. jamiyatga, o‘ziga bo‘lgan munosabatlami

“yaxshi niyat”, “yaxshi so‘z”, “yaxshi ish” asosiga qura olish,

tavozelilik, ochiq chehralik;
• inson umri, vaqtini qadrlash;
• gunoh, xato qilsa, kechirim so‘ray olish;
• o‘zining yetti pushti tarixini mufassal aytib bera olish;
• barcha qarindoshlarining yaqinlik darajalari va nomlarini bilish va ularga mehrini namoyish qilish;
• sinfdoshi, o‘rtog‘i oilasida noxush voqea sodir boiganida, bemor bo‘lganida albatta borib, hol-ahvol so‘rash;
• tanishlari, do'stlari, notanish bolalar arazlashganda ulami yarashtirishga harakat qilish;
• birovning shodligidan shodlanish, qayg‘usiga hamdard, sherikligini bildira olish;
• (o‘ g‘il bolalar uchun) qiz bolalami har tomonlama nozik deb e’zozlash, ularga o‘z hurmatini amalda namoyon qilish;
• (qiz bolalar uchun) o‘g‘il bolalani g‘ururli, mard, shijoatli deb bilish, ularga o‘z hurmatini bildirish;
• aka va opani ota-ona kabi izzat qilish;
• bir marta ko‘rishgan kishining ismini so‘rab qocyish va esda saqlash;
• vafot etgan yoki o‘zi shu yerda yo‘q kishi haqqiga g‘iybat va tuhmatdan xazar qilish;
• Unga ishongan kishining sirini saqlay olish;
• “Yomon” deb nom chiqargan bolalardan o‘zini tuta olish;
• yaxshi kishilarga havas va taqlid qilish;
• birovning aybiga kulmaslik, yuziga solmaslik;
• kek saqlamaslik;
• badavlat kiyingan bola qarshisida o‘zini xor tutmaslik, kambag‘al kiyingan bola oldida kekkaymaslik;
• og‘il bola qizlaning, qiz bolib og’illarning kiyimini kiymaslik;
• milliy axloq va sharoitga xilof xatti-harakatlardan tiyilish;
• o‘ziga topshirilgan ishni oliy darajada bajarishni ilohiy e’tiqod darajasida tushunuvchi;
• sinab va ortaga Allohni qo‘yib do’st bo‘lish, millat, vatan ma’nfaatlariga zid harakat qilgan do’stidan kecha olish, ota-onasi lozim ko’rib bergan ovqat, kiyim-boshga qanoat qilish;
• balog’atga yetgach, g‘usl qilish;
• nonni ilohiy darajada e’zozlash;
• ona tilida sof fikrlash, so’zlash;
• uyat, xarom so‘zlami hech qachon, hech qayerda, hatto urishgan paytida ham tiliga keltirmaslik, kattalaming ijobiy-axloq

namunalarini diqqat bilan kuzatish va asta-sekin o4z xattiharakatlarida namoyon qila borish;
• har bir jiddiy ishni ota-ona bilan maslahatlashgan holda boshlash, o’z tarixi haqida allomalari, xizmatlari haqida, minnatdorlik bilan hikoya qilib bera olish;

• milliy madaniy yodgorliklar tarixini yaxshi bilish va ulami asrashga xizmat qilish;

• savdo-sotiq, bozor munosabatlarida insofli, chaqqon, jur’atli bo’lish;

• milliy istiqlol mafkurasi g’oyalarini o’zlashtirish, ijtimoiy siyosiy voqealarga tarixiy nuqtayi-nazardan turib mustaqil munosabat bildira olish;

• kitobxonlik, barvaqt uyquga yotib, barvaqt uyg’onish;

• sabrli, andishalilik;

• o’z kelajagiga taalluqli masalalar bo’yicha mustaqil, yoshiga mos fikr yurita olish va h.k.

Axloqiy tarbiyaning eng ta’sirchan vositalaridan biri hadisdir. Chunonchi, Qur’oni Karim oyatlari mazmuni, Payg‘ambarimiz Muhammad alayhissalom Hadislari, sharq allomalari va faylasuflarining kitoblari tarbiyamizning manbai bo’lib xizmat qilgan. Islomiy tarbiya musulmonlar hayotining barcha qirralarini, hatto mayda jihatlarigacha qamrab olgan. U go‘daklami emizishdan tortib, qanday kiyintirishgacha, ovqatlanish odobidan tortib, ko‘cha-ko‘yda, kattalar qoshida o‘zini qanday tutish lozimligining barcha jihatlarini o‘z ichiga olgan. Eng asosiysi, islomiy odob farzandlaming halol, pok, mehnatkash, ilmga intiluvchan, kattalami, ayniqsa, ota-onani hurmatlash ruhida tarbiyalanishni shart qilib qo'ygan.

Payg‘ambar alayhissalom Hadislarida: “Farzandlaringizni izzat-ikrom qilish bilan birga, axloq-odobini ham yaxshilanglar!” “Hech bir ota o‘z farzandiga xulq-u odobdan buyukroq meros bera olmaydi”, deyilgan. Yana bir Hadisda esa: “Mo‘min ki shiga berilgan narsalarning eng yaxshisi chiroyli xulqdir”, deyilgani bejiz emas. Bobokalonlarimiz hamisha barkamol inson shaxsini tarbiyalashga intilganlar va o‘z farzandlari, mahalla yoshlari va bumn jamiyatning tarbiyali bo’lishi uchun kurashganlar. Yoshlami tarbiyalashda “Mening bolam”, “Sening bolang” deb ajratishmagan. Tarbiya berish hammaning vijdoniy burchi, deb qaralgan. Payg'ambar alayhissalom Hadislarida yana shunday deyilgan:

Masalan: Munofiqlikning belgisi 3 tadir

1) Yolg‘on so‘zlash

2) Va’daning ustidan chiqmaslik

3) Omonatga hiyonat qilish

Tangri nazarida eng yaxshi gap-rost gapdir. Yana xadislarda, halokatga olib boruvchi 7 xil gunohdan saqlaning deyilgan:

1. Tangriga shak keltirmaslik
2. Sehr ishlari bilan shug‘ullanmoq
3. Birovni nohaq o’ldirmoq
4. Sudxo‘rlik
5. Yetimlar molini yemoqlik
6. Vatan mudofaasi uchun bo‘layotgan urushdan qochmoq
7. Erli, mo‘mina, iffatli ayollami fohisha deb haqoratlamoq.

**Foydalangan adabiyotlar**

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev “Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga ko‘ramiz” Toshkent “O‘zbekiston” 2017 y.

2.Fayzullaeva N., Shodmonova SH. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. O‘quv qo‘llanma. –T.: TDIU, 2008. -18 bet.

3. Mavlonova R., Rahmonqulova N., Normurodova B. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. – T.: Tib-kitob, 2010.

4. Ishmuxammedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar/ – T.: Fan va texnologiya, 2010.

5.Ilinicha V.I. Fizicheskaya kultura studenta.Uchebnik.– M.:Gardariki,2005. – 448 str

## 3- MAVZU: PEDAGOGIK TEXNIKA-PEDAGOGIK MAHORATNING BIRINCHI BOSQICHI SIFATIDA 2S.

**Reja:**

1.Pedagogik texnika haqida ma’lumot.

2.Pedagogik texnika malakalarini mukammal egallash

3. Pedagogik texnikani egallash yo’llari.

**Tayanch iboralar:** pedagogik oliyjanoblik, oliyjanoblik hissini shakllantirish, kasbga nisbatan munosabati, o‘quvchining munosabati, nuqsonlarni yo‘qotishga yordam berish, o‘quvchilrning yutuqlaridan hursand bo‘lish.

**Pedagogik texnika haqida ma’lumot.** Pedagogik texnika – o’qituvchining nafaqat ta’lim–tarbiya jarayonida, balki butun kasbiy faoliyatida zarur bo’lgan umumiy pedagogik bilim va malakalari majmuidir. Pedagogik texnikaning muhim jihatlari – bu avvalo o’qituvchining mahoratini belgilovchi kasbiy ko’nikmalari hisoblanadi, ya’ni uning savodli va ifodali so’zlay olishi, o’z fikr-mulohazasini va bilimini tushunarli tilda ta’sirchan bayon qilishi, his-tuyg’usini jilovlay olishi, o’zining shaxsiy xususiyatlariga xos mimik va pantomimik qobiliyatlarga ega bo’lishi, aniq imo-ishora, ma’noli qarash, rag’batlantiruvchi yoki istehzoli tabassum, so’zning cheksiz qudrati orqali o’quvchilar ongiga va tafakkuriga ta’sir o’tkazishi, hozirjavoblik, psixologik bilimlarga ega bo’lishi kabilardir.

O’qituvchining pedagogik texnikasi qanday ko’nikma va malakalardan iborat ekanligi, pedagogik texnika vositasida o’qituvchi ta’lim muassasalarida ta’lim-tarbiyaviy faoliyatni zamonaviy talablar asosida qanday tashkil qilishi, o’quvchilarga tarbiyaviy ta’sir ko’rsatishida qanday ahamiyatga ega ekanligi kabi muammolar hozirgi kungacha dunyo olimlarining diqqatini o’ziga jalb etib kelmoqda.

Hozirgi kunda pedagogik texnika tushunchasi ikkita guruhga bo’lib o’rganiladi. Birinchi guruh komponentlari o’qituvchining shaxsiy axloqiy fazilatlari va xulqi bilan bog’liq bo’lib, ta’lim–tarbiya jarayonida o’z–o’zini boshqarish malakalarida ( refleksiya) namoyon bo’ladi:

- ta'lim-tarbiya jarayonida o'z xatti-harakatlarini boshqarishi, (mimika, pantomimika);
- ta'lim-tarbiya jarayonida o'z hissiyotini va kayfiyatini jilovlay olishi va turli nojo'ya ta'sirlarga berilmaslik;
- mukammal ijtimoiy perseptiv qobiliyatlarga (diqqat, kuzatuvchanlik, xayol) egaligi;
- nutq texnikasini (nafas olish, ovozni boshqarish, nutq tempi) bilishi va o'z o'rnida qo'llay olishi.

Pedagogik texnikaning ikkinchi guruh komponentlari o'qituvchining shaxs va jamoaga ta'sir ko'rsatish malakalari bilan bog'liq bo'lib, bu guruh ta'lim-tarbiya jarayonining texnologik tomonini qamrab oladi:

- o'qituvchining didaktik, tashkilotchilik, konstruktiv, kommunikativ qobiliyatlari;
- ma'lum bir reja asosida o'z oldiga qo'yilgan talablarning bajarilishini nazorat qilishi;
- ta'lim muassasasida va o'quvchilar jamoasida ta'lim-tarbiya bilan bog'liq bo'lgan ijodiy faoliyatni tashkil eta olishi;
- o'quvchilar bilan pedagogik muloqot jarayonini bir muvozanatda saqlab boshqara olishi.

O'qituvchining tarbiyalanuvchi obyektlar oldida o'z harakatlarini boshqarishida aktyorlik san'atiga xos bo'lgan xususiyatlari, ya'ni mimik va pantomimik qobiliyatlari muhim rol o'ynaydi. Aktyor bir obrazni ma'lum bir muddatda tayyorlab, bir yoki bir necha marotaba bir xil ko'rinishda sahnada namoyish etsa, o'qituvchi butun o'quv yili davomida, har bir darsda yangi mavzuni o'tilgan mavzular bilan bog'lab, zamonaviy innovatsion usullar vositasida o'quvchilar ongiga etkazish uchun chuqur tayyorgarlik ko'radi, sinf jamoasidagi o'ziga xos pedagogik va psixologik muhitni, har bir o'quvchining shaxsiy xususiyatlarini e'tiborga olib pedagogik faoliyat ko'rsatishga majbur. Bunday ulkan mas'uliyatni yuqori saviyada bajarish uchun o'qituvchidan yuksak pedagogik texnik tayyorgarlikka ega bo'lish talab etiladi.

Hozirgi zamon o'qituvchisi pedagogik mahorat tizimida pedagogik texnikaning rolini beqiyos deb biladi. Chunki u o'qituvchiga o'z gavdasini tuta bilishi (mimika, pantomimika), his-tuyg'ularini (emotsiyasini) boshqara olishi, ishtiyoq, qobiliyatlar, nutq texnikasini egallashi va ularni o'quv faoliyatida, o'qishdan tashqari ta'lim va tarbiyaviy faoliyatlar jarayonida qo'llash yo'llarini tushuntiradi.

Demak, pedagogik texnika o'qituvchi kasbiy faoliyatida shunday kasbiy va shaxsiy malakalar yig'indisiki, u o'qituvchining pedagogik faoliyatiga ta'sir ko'rsatishi, ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilish va boshqarish ishlarida asosiy yo'l ko'rsatuvchi bo'lib xizmat qiladi.

**Pedagogik texnikaning namoyon bo'lish xususiyatlari.** O'qituvchining tashqi ko'rinishi pedagogik texnikasini namoyon etuvchi muhim xususiyatlaridan biridir. Har qanday insonning tashqi ko'rinishi atrofdagilarga estetik ma'no va zavq kasb

etib, doimiy e'tiborda bo'lishini unutmaslik kerak. O'qituvchining tashqi ko'rinishini asosan namoyish etuvchi muhim hususiyatlari uning chehrasidagi mehribonlik, jiddiylik, yurishida bosiqlik, tabiiylikdir. O'qituvchi sinfga kirishi bilan so'zsiz o'quvchilar e'tiborida bo'ladi, ular bilan muloqotga kirishadi.

Sinf sahnasida bajarilayotgan uning xoh ijobiy, xoh salbiy xatti-harakatlari o'quvchilarga ta'sir o'tkaza boshlaydi. Ayniqsa, yosh o'qituvchilar ilk bor darsga kirishlaridan oldin his-hayajonini, qo'rquvini engishlari, o'zlarini erkin tutishlari, birinchi dars paytida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan har qanday muvaffaqiyatsizlikdan o'zlarini yo'qotmasliklari lozim.

O'qituvchining tashqi ko'rinishida, pedagogik texnikasi tizimidagi mimik, pantomimik holatlar muhim ahamiyatga ega. O'qituvchining hatti-harakatini bevosita namoyish etuvchi mimik va pantomimik ifodasi, o'qituvchining imo-ishorasida, ma'noli qarashlarida, rag'batlantiruvchi yoki istehzoli tabassumida namoyon bo'ladi va ular o'qituvchi-tarbiyachining pedagogik ta'sir ko'rsatishida, mashg'ulotlarni samarali va mazmunli o'tishida puxta zamin tayyorlab beradi.

Pantomimika - bu gavda, qo'l va oyoqlarning harakatidir. U asosiy firkni ajratib ko'rsatishga imkon beradi. O'qituvchi o'z gavdasi, qo'li, oyoq harakatlarining holati orqali har qanday pedagogik ma'lumotlarning obrazini "chiza" olsa, o'quvchilar bundan zavqlanadilar, ular ichki his-tuyg'ulari, tashqi hissiyotlari bilan qo'shilib butun ongini o'quv materiallari mazmunini o'zlashtirishga qaratadilar. Pantomimika gavdani rost tutib yura bilish, qo'l va oyoq harakatlarining bir-biriga mosligi, fikrlarini aniq va to'liq bayon qilib qo'lini, boshini turli harakatlarda ifodalash o'qituvchining o'z bilimiga, kuchiga ishonchini bildiradi. Shuning uchun o'qituvchining o'quvchilar oldida o'zini tuta bilish holatini tarbiyalashi lozim (oyoqlari 12-15 sm. kenglikda, bir oyoq sal oldinga surilgan holda turish). O'qituvchining yurishi, qo'l va oyoq orqali imo-ishoralari ortiqcha harakatlardan holi bo'lishi kerak. Masalan: auditoriyada orqaga oldinga tez-tez yurish, qo'llari bilan turli imo-ishoralar qilish, boshini har tomonga tashlash va hokazo. Bunday holatlar dars davomida o'quvchilarning e'tiborini bo'lib, g'ashini keltiradi va o'r-ganilayotgan fanga, o'qituvchiga nisbatan hurmatsizlik kayfiyatini uyg'otadi.

O'qituvchining pantomimik harakatlari tizimida o'z hissiy holatini boshqara olishi muhim ahamiyatga ega. O'qituvchi o'quvchilar bilan muloqot jarayonida qizg'in kuzatuv ostida bo'ladi. Uning kayfiyatidagi o'zgarishlar pantomimik harakatlarida namoyon bo'ladi. Shu tufayli o'quvchilarga ta'lim-tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish jarayonida (darsda, darsdan tashqari mashg'ulotlar paytida, tarbiyaviy ishlar jarayonida) o'z hissiyotini boshqara olishi, jiddiy bo'lishi, umidbaxshlik, xayrixohlik kayfiyatida bo'la olish qobiliyatlariga ega bo'lishi zarur. Pantomimik harakatlar tizimi o'qituvchiga birdaniga paydo bo'ladigan ko'nikma emas. Buning uchun o'qituvchi o'z ustida tinimsiz ishlashi, ilk pedagogik faoliyati davrida kamchiliklarini tezda topib bartaraf eta olishi darkor. Chunki, yillar davomida o'qituvchi o'zining har bir harakatiga moslashib uni odat qilib olishi mumkin.

Mukammal pantomimik malakalarga ega bo’lgan o’qituvchi o’z-o’zini nazorat qila oladi, ko’p yillik faoliyati davomida sog’lom asab tizimini o’zida tarbiyalab asabiylashishdan, hissiy va aqliy zo’riqishlardan o’zini saqlay oladi.

*Gavda tutish estetikasi* oldinga-orqaga tebranish, og`irlikni bir oyoqdan ikkinchi oyoqqa o’tkazib turish, stul suyanchig`iga tayanib turish, boshni qashlash, burunni artish, quloq kavlash kabi zararli odatlarga yo’l qo’ymaydi. O’qituvchi gavdasining harakati chegarali va bosiq bo’lishi, ortiqcha silkinish va keskin harakatlardan holi bo’lishi shart.

Mimika - yuz muskullari orqali o’z sezgisi, fikri, kayfiyatini ifodalashdir. O’qituvchining yuz ifodasi va qarashi ba’zan o’quvchilarga so’zdan ham qattiqroq ta’sir ko’rsatadi. Mimika axborotning xususiy ahamiyatini oshiradi, uni puxtaroq o’zlashtirilishini ta’minlaydi. O’quvchilar o’qituvchi kayfiyati va munosabatini uning yuzidan uqib oladilar. Shuning uchun ham o’qituvchining yuzi uning sezgirligini ifodalashi bilan birga ularni yashirib turishi ham lozim. Oila tashvishlari, tashqaridagi kelishmovchiliklarni o’qituvchi o’zining yuz ifodasida bildirmasligi kerak. Yuz ifodasi va harakatlar faqat dars maqsadiga, o’quv-tarbiyaviy ishni yaxshilashga yo’naltirilishi lozim. Yuz ifodasida ko’zlar muhim o’rin tutadi. Jozibasiz ko’zlar ma’nosiz qalbni aks ettiradi. O’qituvchi yuz muskullari va ko’zlarini tez-tez harakatlantirish bilan birga ularni birday qotib qolishidan ehtiyot bo’lishi lozim. O’qituvchi nigohi o’quvchilarga qaratilgan bo’lishi, bevosita ko’rish kontaktini vujudga keltirishi zarur, barcha o’quvchilarni diqqat markazida ushlab turishga intilishi lozim.

Mimik harakatlar, ifodalar ma’lumotlarning hissiy ahamiyatini kuchaytirib, ularni chuqur o’zlashtirish imkoniyatini beradi. O’quvchilar o’qituvchining muomalasi va xatti-harakatiga qarab kayfiyatini, munosabatini tezda «uqib» oladilar. Shuning uchun oiladagi ba’zi noxushliklar, hissiyotga berilish, g’am va tashvishning o’qituvchi chehrasida va mimik belgilarida ifodalanishi mumkin emas. Chunki ushbu noxushliklar o’qituvchining pedagogik faoliyatiga dars mashg’ulotlarini mukammal bajarishida o’zining salbiy ta’sirini ko’rsatadi. O’qituvchining chehrasida, mimik belgilarida faqat dars mashg’ulotlariga xos bo’lgan, o’quvchilarga ta’lim va tarbiyaviy topshiriqlarni yechishga yordam bera oladigan ko’rinishlarni ifodalash lozim.

O’qituvchining chehrasidagi ifoda, nutqi, o’quvchilar bilan o’zaro munosabati uning individual xarakteriga mos bo’lishi kerak. O’qituvchi chehra ko’rinishidagi mimik ifoda, ta’lim-tarbiya qonuniyatlariga mos ishonch, ma’qullash, ta’qiqlash, norozilik, quvonch, faxrlanish, qiziquvchanlik, befarqlik, ikkilanish kabi xususiyatlarni ifodalashi mumkin. Bunda ovozdagi turli o’zgarishlar, nutqning tushunarli bayon etilishi muhim ahamiyatga ega. Mimik ifodaning asosiy belgilarini namoyish etishda qosh, ko’z, chehra ko’rinishi ishtirok etadi.

Inson his tuyg'ulari uning yuzida – yuz mushaklarini qisqarishi va bo'shashishi natijasida – namoyon bo'ladi. Yuz mushaklari holatini boshqarish unchalik qiyin bo'lmaganligi uchun odamlar haqiqiy hislarini yashirishga ham urinadilar.

Yuz mushaklari harakatlari simmetrikligi ushbu insonning samimiyligidan dalolat beradi. Inson so'zlarida qanchalik yolg'onni ko'p qo'shsa, simmetriya shunchalik buziladi.

Haqiqatni bildiruvchi mimika juda tez, sezdirmasdan namoyon bo'lishi mumkin va uni to'g'ri talqin qilish uchun tajriba yoki hattoki maxsus trenirovka kerak. Yana bir xususiyat: ijobiy hissiyotlar salbiyga qaraganda osonroq anglanadi.

Ayniqsa, inson lablari hissiy ifodaliligi bilan ajralib turadi (masalan, lablarni tishlash – hayajonni, bir tomonga qiyshaygan lablar ishonqiramaslik yoki istehzoni anglatishi mumkin)

Tabassum odatda do'stona munosabat yoki qo'llab quvvatlashga bo'lgan ehtiyojni bildiradi. Erkak kishi uchun tabassum u har qanday vaziyatda ham o'zini tuta olishini namoyish qilishi bo'lsa, ayol tabassumi ko'proq haqiqiy kayfiyatini bildiradi.

Tabassum turli hissiyotlarni anglatganligi uchun ularning ba'zi turlarini hisobga olish maqsadga muvofiq:

1) ortiqcha ko'p jilmayish – qo'llab quvvatlanishga ehtiyoj;
2) qiyshiq kulish – nazorat qilinayotgan asabiylik;
3) ko'tarilgan qoshlar va tabassum - bo'ysunishga tayyorlik;
4) pastga tushirilgan qoshlar va tabassum – o'zini katta olish;
5) tabassum bilan bir paytda pastki qovoqlarning ko'tarilmasligi – samimiyatsizlik;
6) tabassum bilan bir paytda ko'zlarning olayishi – qo'rqitish.

Turli hislar kechirayotganda yuz mimikasini bilish faqatgina boshqalarni tushunishdagina emas, balki o'z imitatsiya mahoratini o'stirish uchun ham zarurdir.

Odamning ichki kechinmalari haqida eng to'g'ri ma'lumotni ko'zlar namoyon qiladi:

1) ko'zning odatiy ifodasidagi o'zgarish;
2) ko'zlarning beixtiyor harakatlari – hayajon, oriyat, yolg'on, qo'rquv, asabiylashuv;
3) yonib turgan nigoh – qizishish;
4) qotib qolgan nigoh – o'yga cho'kkanlik yoki holsizlik;
5) qorachig'larning kattarishi qiziqish va qabul qilinayotgan axborotdan, atrofdagilardan, taomdan va boshqa shunga o'xshash omillardan qoniqish his etayotganligi yoki qattiq og'riq: ma'lum dori-darmon yoki narkotik qabul qilganligi;

6) qorachiqlarning kichrayishi – g'azablanish yoki ma'lum turdagi narkotiklarni qabul qilganligi va boshqalar.

Muloqot davomida ko'proq eshitayotgan odam suhbatdoshi ko'ziga qarab turadi. Muloqotning umumiy vaqtining uchdan biridan kamroq vaqt ichida ko'zingizga qarab turgan insonning sizga nisbatan samimiyligiga shubhalaning; butun dialog davomida tikilib qarayotgan inson yoki sizga nisbatan katta qiziqish bildirmoqda yoki (agar qorachig'i kichraygan bo'lsa) uning sizga nisbatan adovati bor, yoki sizni o'ziga tobe qilmoqchi.

Insonning ichki holati haqida uning statik holati ma'lumot berishi mumkin. Shunisi qiziqki, agar ma'lum bir turishlar (poza) inson uchun odatiy bo'lib qolgan bo'lsa bu uning xarakteridagi turg'un sifatlardan dalolat beradi. .

Quyida bir necha pozaning psixologik nuqtai nazardan talqinini ko'rib chiqamiz:

1) qo'llar orqada, bosh yuqori ko'tarilgan, iyak oldinga surilgan – o'ziga ishonch, o'zini boshqalardan ustun qo'yish;

2) tananing yuqori qismi oldga intilgan, qo'llar belda – dadillik, o'ziga ishonch va faol harakatlarga tayyorligi, tajovuzkorlik, o'z fikrini oxirigacha himoya qilishlikka tayyorlik;

3) qo'llar bilan stol yoki stulga tayanish – suhbatdoshi bilan to'la kontakt yo'qligi;

4) qo'llar tirsaklar ochilgan holda bosh orqasida qovushgan – o'zini boshqalardan ustunligini his etish;

5) bosh barmoqlarini belbog' yoki cho'ntaklarga solib turish – tajovuz, o'ziga ishonganlikni ifodalaydi;

6) bosh barmoqni cho'ntaklardan chiqargan holda turish – o'zini katta olishlik;

7) qo'l va oyoqlar almashtirilgan holda – suhbatdoshiga nisbatan ishonqiramaslik va o'zini himoyalash;

8) qo'l va oyoqlar almashtirilmagan holda, pidjak tugmalari echilgan – ishonish belgisi;

9) boshning chetga egilishi – qiziqish uyg'onganligi;

10) boshning quyi egilganligi – salbiy munosabat;

11) boshning sal ortga egilganligi – tajovuz belgisi;

12) stul chetida o'tirish – har qaysi momentda turib ketishga tayyorgarlik: chiqib ketish uchun yoki harakt qilish uchun, o'ziga e'tiborni qaratib, suhbatga qo'shilish uchun yoki qizishgan inson o'zini qo'lda tutish uchun qilgan harakati.

Insonlar his-tuyg'ularini aniqlashda faqat beixtiyor qo'l harakatlariga diqqatni qaratish lozim. Har xil odamlarda bir xil qo'l harakatlari turli ma'noga ega bo'lishi mumkin, lekin ma'nosi o'xshash holatlar ham mavjud:

1) qo'llarning faol harakati – ko'pincha ijobiy emotsiyalar, do'stona munosabat va qiziqishni anglatadi;
2) ortiqcha qo'l harakati – hayajon, o'ziga ishonchsizlik belgisi;
3) kaftlar ochiq – ochiqlik ifodasi;
4) qo'llarni musht qilish – ichki qo'zg'alish, tajovuz;
5) so'zlayotganda og'izni qo'l bilan to'sish – hayron bo'lish / yolg'on so'zlash / suhbatdoshiga ma'lumotni ishonib etkazish;
6) so'zlayotganda burunga tegib turish – aytayotgan so'zlariga ishonqiramaslik / yolg'on / yangidan-yangi dalillar izlash;
7) qovog'ini barmoq bilan ishqalamoq – yolg'on / ishonqiramaslik; so'zlayotganda yuzining turli qismlarini ishqalash – tashvish, uyalish, o'ziga ishonmaslik;
8) iyagini silash – qaror qabul qilish;
9) qo'llarning beixtiyor ortiqcha harakatlanishi (biror narsani aylantirish, burash, kiyimining detallariga tegish) - ogohlik, asabiylashganlik, uyalish;
10) kiyim yoqasini tortish – yolg'oni oshkor bo'lganligini sezgan odam yoki g'azabdan havo etishmasligi;
11) biror narsaga tayanishga bo'lgan intilish – vaziyatning murakkabligini his qilish, ushbu vaziyatdan chiqib ketish yo'lini topa olmayotganligidan dalolat beradi.

**Pedagogik texnikani egallash yo'llari.** O'qituvchi pedagogik faoliyatida pedagogik texnikaning ko'nikma va malakalarini mukammal takomillashtirgan holda o'z mahoratini oshirish uchun quyidagi jarayonlarni bilishi lozim:

1. O'qituvchi o'zlashtirishi lozim bo'lgan pedagogik texnikaning muhim tarkibiy qismlaridan biri uning nutq texnikasidir (nutq tempi, diksiyasi, tovush ohangini baland, o'rta, past qila olishi va hokazo).

Dars jarayonida o'quv materiallarini idrok qilishda o'qituvchining nutqi muhim rol o'ynaydi. Olimlarning fikricha, o'quvchilar tomonidan 1/2 foiz o'quv materialini tafakkur orqali idrok qilish va o'zlashtirish o'qituvchilarning nutqiga va uning so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishiga bog'liq. O'quvchilar o'qituvchining nutqini nihoyatda kuzatuvchanlik va qiziqish bilan tinglaydilar. Past ohangda gapiradigan o'qituvchining darsi o'quvchilar uchun zerikarli bo'ladi, nihoyatda baland gapirish, oddiy suhbat chog'ida ovozni baland qilib so'zlashish o'quvchilarni darsdan bezdiradi va charchatadi. O'quvchilarning bunday o'qituvchi ta'limidan ko'ngillari soviydi. Shuning uchun o'qituvchi savodli gapirishi, o'z nutqini chiroyli va tushunarli, ta'sirchan qilib bayon qilishi, o'z fikr va his-tuyg'ularini so'zda aniq ifodalash malakalariga ega bo'lishi lozim.

Chiroyli, savodli, ta'sirchan gapiruvchi o'qituvchilarning nutqlari o'quvchilar ongiga tez ta'sir etadi, o'quv materiallarini oson o'zlashtirib olishiga katta

imkoniyat yaratadi, o'quvchilar bunday o'qituvchilarning darslarini toqatsizlik bilan kutadilar. O'qituvchilar o'z nutqlari ustida tinimsiz ishlashlari, so'zlarning chiroyli, ma'noli, ta'sirchan bo'lishi uchun mashq qilishlari, ovoz diapazonlarining kuchi, nutq tembrining harakatchanligi va diksiyasini doimo mashq qilib borishlari lozim.

Ovoz diapazoni chegarasi baland yoki past gapirish toni bilan belgilanadi. Diapazonning qisqarishi tovushning past tonligiga olib keladi. Past ohangda so'zlashish o'qituvchining idrokini bo'shashtiradi va susaytiradi.

O'qituvchi tovush diapazonini, uning tembri bilan bog'lab ishlatsa, gaplari chiroyli, mayin, jozibali chiqib, tinglovchilarni o'ziga jalb etadi va o'quv materiallari mazmuni yanada yaxshi idrok qilinadi.

O'qituvchining notiqlik texnikasi so'zlarni aniq, to'g'ri, tiniq eshitilarli va tushunarli bayon qilishida namoyon bo'ladi. To'g'ri va mukammal ovoz diksiyasiga ega bo'lgan o'qituvchi so'zlarni ifodali bayon qiladi. Ifodali gapirishda til, lab, kichik tilcha, pastki jag' ishtirok etadi. O'qituvchi ifodali gapirishi, so'zlarni talaffuz qilishi uchun yuqoridagi organlarni doimo mashq qildirishi lozim. Shunday qilib, pedagogik texnikada nutq malakalari muhim ahamiyat kashf etar ekan, o'qituvchi doimo gapirish tempi, ritmi, diksiyasi, ovoz kuchi, diapazoni, harakatchanligi ustida mashq qilishi zarur, ushbu jarayon alohida bir faslda ko'rib chiqiladi.

2. Pedagogik texnika malakalarini mukammal egallash uchun avvalo, o'qituvchi o'z fanini, o'qitadigan predmetining boshqa fanlar bilan o'zaro aloqadorlikda bilishi, pedagogik va axborot texnologiyalarini, pedagogika va psixologiya fanlari asoslarini davr taraqqiyoti darajasida bilishi, kasbiy jihatdan o'z-o'zini tarbiyalay oladigan bo'lishi zarur. Chunki pedagogik texnika o'qituvchilarning individual shaxsiy xususiyatlariga ham bog'liq. Har bir o'qituvchi o'z tafakkuriga, fikrlash qobiliyatiga, o'zining kasbiy yo'nalishi, kasbiy laboratoriyasiga ega bo'lishi kerak. Bu yo'nalish va laboratoriyani o'qituvchilarning o'zlari mustaqil fikr yuritishlari, mustaqil bilim olishlari, pedagogik mahoratini oshirib borishlari orqali qo'lga kiritadilar va mohir o'qituvchiga xos fazilatlarni tarbiyalaydilar hamda kasbiy ideal sari harakat qiladilar.

3. Pedagogik texnika sirlarini mukammal bilish o'qituvchining tashkiliy - metodik malakalarni egallashiga ham bog'liq. Bu malakalar zarur bilimlar bo'yicha ma'ruzalarni tinglash, maxsus adabiyotlarni o'qish orqali qo'lga kiritiladi. Tashkiliy-metodik malakalar aytilgan yo'l-yo'riqlar, ko'rsatmalarni o'zining individual kasbiy tajribasida sinab, ko'nikma hosil qilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Tashkiliy-metodik malakalarning individual xususiyatlari, jamoa va guruh bo'lib ishlash, o'qish, faoliyat ko'rsatish asosida qurilgani ma'qul. Chunki guruh yoki jamoa bo'lib o'qish, ishlash har bir o'qituvchiga refleksiv qobiliyatlari

asosida, o’zini boshqalar ko’zi bilan ko’rishni va baho berishni, faoliyatidagi nuqsonlarni seza bilishni, muomala va xulq-atvorning yangi shakllarini izlab topish va sinash imkoniyatini beradi. Bu esa o’z-o’zini bilish, o’z-o’zini tarbiyalash uchun asos bo’ladi va pedagogik vazifalarning yangi usullarini tekshirib ko’rish, nazariy masalalarini hal qilish uchun tajriba maydonini tashkil qilishga zamin yaratadi. Demak, tashkiliy - metodik malakalarni egallashda guruh, jamoa faoliyati, mashg’ulotlar pedagogik texnika asoslarini egallash imkoniyatini beradi.

4. Pedagogik texnikani bir maromda egallashda, har bir o’qituvchining o’z individual dasturini ishlab chiqishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday dasturni tuzishdan oldin o’qituvchi o’zida pedagogik texnika malakalarini shakllanganligining boshlang’ich darajasini aniqlab olish zarur. Ya’ni, o’qituvchining dastlabki o’quv-tarbiya ishlaridagi natijalarida, nutq madaniyatining to’g’ri yoki noto’g’ri qo’yilishida, harakatidagi mimik va pantomimik holatlarda ro’y beradigan nuqsonlar e’tirof etiladi. Bunda natija yaxshi bo’lsa, kelajakda pedagogik texnikani egallash ancha oson bo’ladi.

Ushbu faoliyat natijasida ko’nikma va malakalar yanada rivojlantiriladi. Individual dastur pedagogik texnika malakalarining yetishmaydigan jihatlarini to’ldirish uchun xizmat qiladi. Bu dastur ma’lum mashqlar yoki mashqlar majmuini o’z ichiga oladi.

5. Shuni ham unutmaslik lozimki, pedagogik texnikani namoyish etishda o’qituvchining umumiy madaniyati, ma’naviy va estetik dunyoqarashi muhim o’rin tutadi. Agar o’qituvchining tashqi ko’rinishi qashshoq, so’zlarni talaffuz qilish qobiliyati past, estetik jihatdan omi, bo’lar-bo’lmas voqealarga nisbatan o’z hissiyotiga erk beradigan bo’lsa, tarbiyalanuvchilarning e’tiqodiga, aql-idrokiga, bilish va anglash tafakkuriga salbiy ta’sir ko’rsatadi. Demak, o’qituvchi o’zidagi ana shu nuqsonlarni qayta tarbiyalashi lozim.

Ta’kidlash joizki, pedagogik texnikaning ko’nikma va malakalarini egallash yo’llari to’g’risida bildirilgan fikrlarga e’tibor bermaslik, pedagogik faoliyat jarayonida ularning beqiyos ahamiyatiga yetarlicha baho bermaslik, shuningdek, pedagogik texnika malakalarini tanqidiy, har bir o’qituvchining individual xususiyatlarini hisobga olmay ish yuritish pedagogik mahoratni egallashga salbiy ta’sir ko’rsatadi va o’quv-tarbiyaviy jarayonda o’qituvchilarning ta’lim-tarbiyaviy faoliyatida nuqsonlarning ko’payishiga olib keladi.

Pedagogik texnikani egallashning asosiy yo’llari o’qituvchining malaka oshirish kurslariga ishtiroki, ustoz murabbiylar rahbarligidagi mashg’ulotlar (ulardan pedagogik texnika sirlarini o’rganish) va mustaqil (kasbiy jihatdan o’z-o’zini tarbiyalash) ishlashdir. Pedagogik texnika ko’nikma va malakalarini egallash individual-shaxsiy salohiyat ekanligini hisobga olib, pedagogik texnikani egallashda va uni takomillashtirishda kasbiy jihatdan o’z-o’zini tarbiyalash, ya’ni talabalik yillarida o’zida tajribali o’qituvchilarning shaxsiy fazilatlarini va kasbiy

malakalarini shakllantirishga qaratilgan faoliyat yetakchi rol o'ynaydi, deb aytish mumkin. Kasbiy ideal sari intilishda bu harakat pedagogik texnikani egallashda muhim rol o'ynaydi.

Tashkiliy-metodik jihatdan pedagogik texnika mashg'ulotlari individual, guruh yoki ketma-ketlikda o'tkaziladi. Masalan, zarur bilimlar ma'ruzalarda yoki tegishli adabiyotlarni mustaqil o'qish asosida, integratsion bilimlarni egallash, portal, kompyuter texnologiyalari yordamida egallanishi mumkin. Avtomatlashtirishga doir ayrim oddiy harakatlar (turli artikulyatsiya, fonatsion nafas olish usullari, relaksatsiya usullari va shu kabilar) o'qituvchi tomonidan muntazam mashg'ulotlar asosida egallanadi. Tegishli ko'nikmalarni ishlab chiqish, individual ishlashni dastlab o'qituvchining nazorati va rahbarligida, keyin esa mustaqil ishlash talab qiladi.

Pedagogik texnika malakalarini shakllantirishda o'qituvchining jamoada faoliyat olib borishi va mashg'ulotlarda o'z-o'zini nazorat qilishi alohida rol o'ynaydi. Pedagogik texnika mashg'ulotlarining bu shaklini ancha batafsilroq ochib berish maqsadga muvofiqdir, chunki u hozirga qadar o'qituvchilar uchun mo'ljallangan o'quv va metodik adabiyotlarda ma'lum darajada ko'rsatib berilmagan.

Har qanday jamoada, xoh o'qituvchilar, xoh o'quvchilar jamoasi bo'lsin, o'qituvchi ular oldida o'zini boshqa kishilar ko'zi bilan ko'rishi, hulq-atvor va muomalaning yangi shakllarini izlab topishi va sinab ko'rishi, o'zining jamoa bilan birga bajaradigan ishi xususiyatlarini anglashi lozim. Shundagina pedagogik faoliyatning individual uslublarini ongli ravishda shakllantirish imkoniyati paydo bo'ladi. Jamoa shaxsning o'z-o'zini bilishi va o'z-o'zini tarbiyalash laboratoriyasi, pedagogik vazifalarni hal qilishning yangi usullarini tekshirib ko'radigan, nazariy va amaliy masalalar, turli muammolar muhokama qilinadigan tajriba maydoni bo'lib qolishi mumkin.

Psixologlar pedagogik texnikaning keng imkoniyatlarini jamoa bo'lib o'rganishni, o'qituvchilar orasida bunday jamoalarning eng qulay miqdorini 10–14 kishidan iborat etib belgilashni ta'kidlab o'tadilar. Qatnashchilarning xuddi shunday miqdori ulardan har birining boshqa o'qituvchilar bilan birga faoliyat olib borishda individual psixologik muammolarini juda to'liq ravishda aniqlab hal etish, refleksiv va empatik darajasini jiddiy oshirish, kasbiy pedagogik fahm-farosatini rivojlantirish, boshqalarga ta'sir etish vositalarining kengaytirish imkoniyatlarini ochib beradi.

Shu narsa muhimki, guruh qatnashchilari, bo'lajak o'qituvchilar kasbiy hamkorlik jihatidan birga ishlash malakalarini egallashga faol intilishlari, o'z-o'zini bilish va kasbiy jihatdan o'z-o'zini tarbiyalash bo'yicha muvaffaqiyatli faoliyat olib borishga psixologik jihatdan tayyor bo'lishlari kerak.

Barcha hollarda ham individual, ham guruhiy mashg’ulotlar boshlanishidan oldin pedagogik texnikani egallashning individual dasturi tuzib chiqilishi lozim. Bunday dasturni tuzish uchun avvalo pedagogik texnika malakalarini shakllantirishning boshlang’ich darajasini aniqlab olish zarur. Biroq, tajribalarning ko’rsatishicha, odatda, mazkur bosqichda faqat malakalar haqidagina emas, shu bilan birga dastlab avtomatlashtirilgan (ta’limni boshlash vaqtiga kelib) ko’nikmalar haqida ham mulohazalar olib borish mumkin. Masalan, nafas olish va ovozning tabiiy bir holatga qo’yilishi, so’zlarni to’g’ri talaffuz qilish, bundan oldingi tarbiyaviy metodlarning natijasi bo’lgan savodli, ifodali nutq, mimik va pantomimik harakatlar bo’lishi mumkin.

Bunday ko’nikma va malakalarning mavjudligi pedagogik texnika imkoniyatlarini mukammal shakllantirishni ancha osonlashtiradi. Shunga qaramasdan barcha hollarda ana shu ko’nikmalarni tegishli malakalar tarkibiga kiritish yuzasidan muayyan faoliyat olib borilishi zarur. Pedagogik texnika malakalarini shakllantirishning boshlang’ich darajasiga qarab uni egallashning individual dasturi yetishmaydigan malakalarni shakllantirishga qaratilgan ayrim mashqlarni yoki ularning to’liq majmuasini ishlab chiqish lozim.

Pedagog va psixolog olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarning ko’rsatishicha, o’z faoliyatini endigina boshlayotgan o’qituvchilar duch keladigan qiyinchiliklarning asosiy sababi aynan pedagogik texnikaga oid ma’lumotlarni bilmasligi oqibatida sodir bo’lmoqda. Pedagogik texnika to’g’risida yuqorida aytib o’tilgan fikr va mulohazalarga e’tibor qilmaslik, pedagogik faoliyatda nazariy va amaliy tajribalarning yo’qligi, o’z faoliyatiga tanqidiy nazar bilan baho berolmaslik oqibatida hamda o’qituvchida individual pedagogik texnikani rivojlantirish, tahlil qilish va uni takomillashtirish yuzasidan aniq maqsadga qaratilgan pedagogik faoliyatning yo’qligi mazkur qiyinchiliklarning asosiy sabablaridan biri ekanligini unutmaslik kerak.

### Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Pedagogik texnika deganda nimani tushunasiz?
2. Pedagogik texnikaning qanday tamoyillari mavjud?
3. Pedagogik texnikaning tarkibiy qismlariga nimalar kiradi? Nima uchun ular ikki guruhga bo’linadi?
4. Pedagogik texnikaning usul va vositalari haqida nimalarni bilasiz?
5. Yosh o’qituvchilar faoliyatida yo’l qo’yadigan pedagogik texnikaga doir xatolarni tahlil eting.
6. Mimika va pantomimikaning o’qituvchining pedagogik mahoratida tutgan o’rni qanday?
7. O’qituvchining pantomimik harakatlari tizimida qanday psixologik holatlar o’z aksini topadi?

## 4- MAVZU: GURUH RAHBARI ISHINI TASHKIL ETISH – 2S.

### Reja:

1. Guruh rahbarining tashkilotchilik funksiyasi
2. Guruh rahbari sifatida guruhda uchrashi mumkin bo’lgan turli muommolarni bartaraf etish.

**Tayanch iboralar:** pedagogik oliyjanoblik, oliyjanoblik hissini shakllantirish, kasbga nisbatan munosabati, o‘quvchining munosabati, nuqsonlarni yo‘qotishga yordam berish, o‘quvchilrning yutuqlaridan hursand bo‘lish.

1.

Guruh rahbarining pedagogik faoliyati va ma moharati o‘quv faoliyatida ham, o‘qishdan tashqari faoliyatda ham zarur bo‘lgan umumiy pedgogik malakalar majmuidan tashkil topadi.

Xo‘sh, tarbiyachining pedagogik mahorati, texnikasi qanday malakalarni o‘z ichiga oladi? Ularning pedagogik ta’sir ko‘rsatishdagi roli qanday?

Avvalo, pedagogik texnikaning tarkibiy qismi sifatida pedagogning *nutq malakalarini, ya’ni savodli gapirish, o‘z fikr va his tuyg‘ularini so‘zda aniq ifodalash malakalarini* aytib o‘tish mumkin.

Pedagogik texnikaning boshqa tarkibiy qismi guruh rahbarining *mimika va pantomimik ifodaliligidir.* Aniq imo–ishora, ma’noli qarash, rag‘batlantiruvchi yoki istehzoli tabassum pedagogik ta’sir ko‘rsatishda ko‘p so‘zli tushuntirish yoki e’tiroz bildirishga qaraganda ancha samarali muomala vositalari bo‘ladi.

Pedagogik o‘zaro ta’sir ko‘rsatishda guruh rahbarining o‘z hissiy holatini boshqarish, o‘zida eng qulay hissiy jiddiylik darajasini va umidbaxshlik, xayrixohlik kayfiyatini saqlash, o‘zining hissiy dam olishini tashkil etish mahorati muhim rol o‘ynaydi. Bu mahorat pedagogning kasbiy jihatdan o‘z – o‘zini nazorat qilishni ta’minlaydi. Ko‘p yillar davomida sog‘lom asab sistemasini saqlab qolish, asabiy buzilishlardan, hissiy va aqliy zo‘riqishdan o‘zini tiyishga yordam beradi.

Samarali o‘zaro ta’sir ko‘rsatishni tashkil tish uchun pedagog aktyorlik va rejissyorlik mahorati tarkibiy qismlarini egallashi zarur, ular pedagogga tarbiyalanuvchilar bilan muomala qilishda tarbiyalanuvchilarning aql – idorkigagina emas, balki ularning his tuyg‘ulariga ham ta’sir ko‘rsatishga yordamlashadi.

SHunday qilib, guruh rahbarining pedagogik texnikasi – bu shunday bir malakalar yig‘indisidirki, u guruh rahbariga tarbiyalanuvchilar ko‘rib va eshitib turgan narsalar orqali ulaga o‘z fikrlari va qalbini etkazish imkonini beradi. A.S.Makraenko shularni nazarda tutib, «Trabiyachi tashkil etishni, yurishni, hazillashishni, quvnoq, jahldor bo‘lishini bilishi lozim, u o‘zini shunday tutishi kerakki, uning har biri harakati tarbiyalasin”, deb yozgan edi. Pedagogik texnikani egallashning asosiy yo‘llari pedagog rahbarligidagi mashg‘ulotlar (pedagogik texnikani o‘rganish) va mustaqil ishlash (kasbiy jihatdan o‘z – o‘zini tarbiyalash) dir. Pedagogik texnika malakalrining individual – shaxsiy tusda ekanligini hisobga olib, pedagogik texnikani egallashda va uni takomillashtirishda kasbiy jihatdan o‘z – o‘zini tarbiyalash, ya’ni o‘quvchining o‘zida mohir pedagog shaxsiy fazilatlarini

va kasbiy malakalarini shakllantirishga qaratilgan faoliyat etakchi rol’ o‘ynaydi, deb aytish mumkin.

Pedagogik texnik-malakalarini shakllantirishda gruppaviy ish olib borish alohida rol o‘ynaydi. Pedagogik texnik mashg‘ulotlarining bu shaklini batafsiliroq ochib berish maqsadga muvofiqdir, chunki u hozirga qadar pedagoglar uchun muljallangan o‘quv va metodik adabiyotlarda lozim darajada ko‘rsatib berilmagan. Guruh shaxsning o‘z – o‘zini bilish va o‘z–o‘zini tarbiyalash labaratoriyasi, pedagogik vazifalarni hal qilishning yangi usullari tekshirib ko‘riladigan, nazariy masalalar muhokama qilinadigan tajriba maydoni bo‘lib qolishi mumkin.[3]

SHu narsa muhimki, guruh qatnashchilari, bo‘lajak pedagoglar kasbiy jihatdan birga ishlash malakalarini ishlash malakalarni egallashga faol intilishlari, o‘z – o‘zini bilish va kasbiy jihatdan  o‘z –o‘zini tarbiyalash bo‘yicha chuqur ish olib borishga psixologik jihatdan tayyor bo‘lishlari kerak.

Barcha hollarda ham individual, ham guruhiy mashg‘ulotlar boshlani-shidan oldin pedagogik texnikani egallashning individual dasturi tuzib chiqilishi lozim. Bunday dasturni tuzish uchun avvalo pedagogik texnika malakalri shakllanishining boshlang‘ich darajasini aniqlab olish zarur. Biroq tajribaning ko‘rsatishicha, odatda, mazkur bosqichda faqat malakalar haqidagina emas, shu Bilan birga dastlab avtomatlashtirlgan (ta’limni boshlash vaqtiga kelib) ko‘nikmalar haqida ham borishi mumkin ekan. Bular masalan, nafas olish va ovozning tabiiy yo‘lga qo‘yilishi, to‘g‘ri talaffuz, bundan oldingi tarbiyaning natijasi bo‘lgan savodli, ifodali nutq, mimik va pantomimik aniqlik va boshqalar bo‘lishi mumkin. Bunday ko‘nikmalarning mavjudligi pedagogik texnika malaklarini shakllantirishni ancha osonlashtiradi.

O‘qrta-maxsus o‘quv yurtlaridagi kasbiy tayyorgarlik jarayonida pedagogik texnikani egallash guruh rahbariga o‘zining kasb yo‘nalishining boshlani-shidayoq ko‘pgina xatolardan holi bo‘lishda, o‘quvchilarga ta’lim tarbiya berishning yuksak samaradorligiga erishishda yordam beradi.

Guruh rahbari  vaziyatlarning haddan tashqari xilma – xilligi pedagogdan ijodiy xulq – atvorni talab qiladi. Pedagogik texnika pedagog malakalarining eng yaxshi ijodiy xulq atvoriga, boshqacha qilib aytganda, har qanday pedagogik vaziyatda tarbiyalanuvchilarga  samarali ta’sir ko‘rsatishga yordam beradi.

Pedagogik texnika malakalari tarbiyachining individual–shaxsiy xususiyatlari bilan chambarchas bog‘liqligi faqat bu malakalarning individual tusda bo‘lishi emas, balki ularning shakllanishi va rivojlanishi pedagog  shaxsiga ta’sir ko‘rsatishda ham nomoyon bo‘ladi. [4]

Pedagogik texnikaning yana muhim xususiyatlaridan biri pedagogning ma’naviy va estetik nuqtai nazarlari tarbiyalanuvchilarga yanada to‘laroq ochib beriladi. Agar pedagogning nutqi qashshoq va tartibsiz bo‘lsa, agar u bo‘lar bo‘lmas

[3] Mahkamov M. «Bo’lajak tarbiyachilarninr pedarorik muloqat madaniyatini shakllantirish” nomzodlik dissertastiyasi. T., 2005.

[4] Mahkamov M. «Bo’lajak tarbiyachilarninr pedarorik muloqat madaniyatini shakllantirish” nomzodlik dissertastiyasi. T., 2005.

sabablar bilan o‘z hissiyotlariga erk bersa, didi past, estetik jihatdan omi bo‘lsa, u holda “eng to‘g‘ri” so‘zlar ham, eng “kerakli” tadbirlar ham tarbiyalanuvchilarning na aql – idrokiga, na hissiyotiga ta’sir qiladi.

Pedagogik texnika to‘g‘risida aytilganlarning hammasi har bir guruh rahbari uchun bu texnikani tashkil etuvchi malakalarni egallash nihoyatda zarurligini ochiq – oydin ko‘rsatib turibdi va bu pedagogik vaziyat hamda san’at bilan bog‘liq. CHunki inson o‘zining har bir qadamini oldindan ko‘rishi, rejalashtirishi amalda mumkin bo‘lmaydi. Guruh rahbari ning mehnati – bu behad izlanish va azob – uqubatli kechinmalar, ilhom va betakror nurlanish oni, ko‘pdan ko‘p kundalik ishlar, hafsalasi pir bo‘lish va shaxslar birgalikda boshdan kechirilgan quvonchdan qanoat hosil qilishdir. Pedagogk san’at – bu qandaydir qul bilan tutib bo‘lmaydigan, fahm – farosat bilan amalga oshiriladigan mahorat mahsulidi.

Xo‘sh, pedagogik mahorat nima va u nimalardan tashkil topadi?

Pedagogik mahorat fahm – farosat va bilimlarning, chinakam ilmiy, tarbiyadagi qiyinchiliklarni engishga qodir bo‘lgan nufuzli rahbarlikning, shaxslar qalbining qandayligini his qilish mahorati, ichki dunyosi nozik va zaif bo‘lgan shaxs shaxsiga mohirlik bilan avaylab yondoshishi, donolik va ijodiy dallilik, ilmiy tahlil, xayol va fantaziyaga bo‘lgan qobiliyat majmuasidir. Pedagogik mahoratga pedagogik bilimlar, fahm – farosat bilan bir qatorda pedagogik texnika sohasidagi malakalr ham kiradiki, ular tarbiyaga ozroq kuch sarflab, ko‘proq natijalarga erishish imkonini beradi.

Pedagogik mahorat nazariyasi va metodikasining ishlab chiqilmaganligi shunga olib keladiki, pedagoglarning har biri o‘zicha, paypslab ijodiy izlanish olib boadi, Ayni bir xil savollarni: shaxslar bilan, pedagoglar jamoai bilan qanday qilib til topish mumkin? Qanday qilib qisqa muddat ichida tarbiyalanuvchilar o‘rtasidagi munosabatlarning haqqoniy manzarasiga erishmoq kerak? Tarbiyalanuvchilarni pedagogik talablarni bajarishga qanday qilib majbur etish mumkin? Qanday qilib yaxshi pedagogik ruhiyatni saqlab qolish va o‘z kuch – qo‘vvatini oqilona sarflash mumkin? Degan savollarni muttasil takrorlaydi va hakoza.

Bu kabi savollarga javob berish uchun pedagogdan odatdan tashqari kuch – g‘ayratni, qat’iyatni, tirishqoqlikni, tadqiqotlar olib boirishga intilishni, yangi vaziyatga, yangi jamoaga kirish qobiliyatini, samimiyatni, to‘g‘rilik va halollikni, o‘tkir aql idrokni, o‘z topilmalarining qimmatini aniqlash qobiliyatini talab qiladi. Pedagogika fani bilan tarbiya san’atining o‘zviy aloqadorligi zarurki, u yuksak kasb mahoratini ta’minlaydi.

Pedagogika fikrlashga o‘rgatadi, murakkab pedagogik muammolarni hal qilish uchun to‘g‘ri yo‘l yo‘riq va ilmiy asoslangan yo‘llarni ko‘rsatadi, pedagogning pedagogik ta’sir ko‘rsatish metodikasi va texnikasi bilan qurollantiradi. Biroq texnikaning tarkibiy qismlari bilan mahorat o‘rtasidagi nisbatning dialektik muammolarini to‘g‘ri hal qilish uchun tayyor andazalar, mutloqo aniq tavsiyalar qaerda bo‘lishi mumkin, qaerda bo‘lishi mumkin emas, degan savolga javob berishi mumkin.

Tarbiyaning maqsadlari, vositalari va natijalari o‘rtasida, shuningdek, tarbiyalanuvchi va tarbiyachi tafakkuri, motivlari o‘rtasida g‘oyat murakkab

bog‘liqlik bor. Kattalarning maqsadi, odatda, yoshlarning maqsadlari (hatto strategik maqsadlari) bor. O‘quvchining rivojlanish mantiqi, uning tafakkuri, harakatlari bitta nuqtai nazarda, tarbiyachining mantiqi boshqa nuqtai nazarda turishi mumkin. Bunday variantda hech qanday tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatish bo‘lmaydi.

Pedagogik faoliyatda vositalar, maqsadlar va natijalarning nisbatini doimo tahlil qilib borish zarur. Ular uzviy birlikni tashkil etadi, bir – biriga bog‘liq bo‘ladi va alohida tarzdi amalga oshirilmaydi. Maqsadni amlga oshirish usuli – bo‘lajak natijadir. Natija yangi vositalarni tanlash, yangi maqsadlarni qo‘yish uchun amaliy asos hisoblanadi. Tajribada ma’lum darajada qo‘llanilgan har qanday vosita natija beradi, hatto biror sababga ko‘ra maqsad aniq ifodalanmagan bo‘lsa ham natija bervermaydi.

Tajribada mavjud bo‘lgan pedagogik vositalarni ikkitasini ko‘rib chiqamiz.

Birinchisi: har qanday pedagogik vosita hamisha bir qator boshqa vositalar, usullar, shartlar Bilan bog‘liq bo‘ladi, ular pedagogik jarayoning muayyan bosqichida ta’sir ko‘rsatish natijasini belgilab beradi. Masalan rag‘batlantirish bir xil jarayonlarni tezlashtirish va boshqarishga to‘siqnlik qilish, turli salbiy va ijobiy hissiyotlarning turli – tuman ko‘rinishlarini vujudga keltirishi mumkin.

Ikkinchi: ayrim vositalarni qo‘llanish pedagogning ular ta’sirini, mumkin bo‘lgan o‘zgarishini anglash qobiliyatlariga butunlay bog‘liq bo‘ladi. jamoa muomala sharoitida vositalarni qo‘llash minut sayin o‘zgarib turadigan vaziyatni hisobga olish zarurligini taqazo qiladi.

Hozircha biz ko‘proq mavhum kategoriyalardan foydalanamiz. Amaliy faoliyatda esa vositalar, maqsadlar va natijalar dialektikasi ovozlar shovqini, g‘oyat turli – tuman ehtiyojlar va da’volarning avj olishi bilan to‘la bo‘ladiki, bu barcha jonli manzara doimo bir kishining – pedagog tarbiyachining diqqat markazida bo‘lishi lozim.

Agar pedagogik san’at haqida gapirganda, chamasi, uning asosiy ko‘rinishlari – o‘quvchilarga umidbaxsh faraz bilan yondoshish, talab va ishonchning birligi, uning shaxsga avayla munosabatda bo‘lish, uni hurmat qilishdan iborat bo‘lishi mumkin.

Pedagogik umidbaxshlik hatto eng qarovsiz o‘quvchi ham o‘zida ko‘pgina ijobiy narsalarga egadir, degan ishonchga asoslangan.

Pedagogik mahorat o‘ziga o‘quvchilar haqidagi, ularning psixologiyasi to‘g‘risidagi, ta’lim muassasasi haqidagi, ta’lim – tarbiya jarayonini tashkil etish va uning mazmuni, metodlari haqidagi keng bilimlarni qamrab oladi. Bu bilimlar umumiy pedagogik madaniyani tashkil etadi, pedagog, tarbiyachi bu madaniyatni egallamasa, hech vaqt o‘z ishining chinakam ustasi bo‘la olmaydi, eski usuldan, bir qolipdagi tayyor andazalarni ishlatishdan nariga o‘tmaydi.

Biroq zamonaviy guruh rahbariga birgina umumiy madaniyatning o‘zi kifoya qilmaydi – maxsus bilimlar va malakalar: o‘quvchilarni kuzatish, ularning o‘sishidagi muhim narsalarni aniqlay olish, bu muhim narsalarni jamiyatda vujudga kelgan asosiy ijtimoiy g‘oyalar bilan taqqoslash, ularni rivojlantirish yo‘llari va usullarini aniqlash, turli vositalar, tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatish

usullarining o‘zaro bir – biriga o‘tish dialektikasini chuqur tahlil qilish, pedagogik izlanishlar va yutuqlarni ilmiy jihatdan bir sistemaga solish malakalari zarur bo‘ladi.

Guruh rahbari yangi tajribalarni o‘rganar ekan, o‘zining hayotiy bilmini, his etgan va anglagan narsalarini, o‘z tajribasini aslo kamsitmasligi kerak. Guruh rahbarni keng va dadil tajribachilik ishlariga yo‘llash zarur.

Demak, guruh rahbarining pedagogik texnikasi – bu shunday bir malakalar yig‘indisidirki, u guruh rahbariga tarbiyalanuvchilar ko‘rib va eshitib turgan narsalar orqali ularga o‘z fikrlari va qalbini etkazish imkonini beradi. O‘quvchilar bilan bevosita muomala qilishda guruh rahbarining xuddi ana shu malakalari (yoki ularning yo‘qligi) uning xulq atvorida namoyon bo‘ladi.

Guruh rahbarining pedagogik mahorati bu tarbiyachining fahm – farosat va bilimlarning, chinakam ilmiy, tarbiyadagi qiyinchiliklarni engishga qodir bo‘lgan nufuzli rahbarlikning, o‘quvchilar qalbining qandayligini his qilish mahorati, ichki dunyosi nozik va zaif bo‘lgan o‘quvchi shaxsiga mohirlik bilan avaylab yondoshishi, donolik va ijodiy dallilik, ilmiy tahlil, xayol va fantaziyaga bo‘lgan qobiliyat majmuasidir.

Pedagogik texnika, mahorat, san’at, pedagogik malakalar, pedagogik vaziyatlar, maqsad, o‘z – o‘zini tarbiyalash, moxirlik, tashkilotchilik, aktyorlik, rejissyorlik, mimika, pantomimika, savodli gapirish, ma’noli qarash, rag‘batlantiruvchi yoki istehzoli tabassum, pedgogik ta’sir ko‘rsatish.

3.

Guruh rahbari noxoyatda ma’sulyatli va murakkab vazifani bajaradi. U guruhdagi tarbiyaviy ishlar tashkilotchisi, o‘quvchilarning murab-biysi, guruxni tashkil etadi hamda kamolot tashkilotchilari, o‘qituvchilar, oila, keng jamoatchilik ahli bilan birga ish olib boradi. So‘nggi yillarda guruh rahbarining faoliyati turli shakl va metodlar bilan boyitildi. Tarbiyaviy ishlarni tashkil etish va o‘tkazishda o‘quv yurti jamoat tashkilotlarining roli tobora oshirildi. Ushbu ishni tayyorlashdan maqsad o‘quv yurtining guruh raxbariga xozirgi vaqtda mamlakatda uzluksiz ta’limning yagona tizimini yaratish borasidagi ish uslublarini xar tomonlama keng joriy qilish va metodik yordam ko‘rsatishdan iboratdir. Ideologik muassasalar sifatida o‘quv yurti oldiga muhim tarbiyaviy vazifalar ko‘yilgan, bu esa ayni vaqtda har bir guruh rahbarining asosiy vazifalarni xisoblanadi, shunday qilib. Alohida guruh birlashib o‘quv yurtini tashkil etadilar. Alohida guruh jamoalari ko‘lga kiritgan ta’lim va tarbiya borasidagi muvaffaqiyatlar butun o‘quv yurti jamoasining muvaffaqiyatini ta’minlaydi. SHu nuqtai nazardan guruh rahbarining ma’suliyati jamiyat oldida raxbarlik ma’suliyatidan kam emas. SHuning uchun o‘quv yurti direktorlari gurux rahbari vazifasiga tajribali, tashkilotchi, mexnatsevar, mahoratli, yosh avlodni sevadigan o‘qituvchilarni tayinlab, ular bilan muntazam ish olib boradilar.

Guruh rahbarining muhim vazifalaridan biri bu o‘quvchining o‘qishga bo‘lgan havasi, e’tiqodi va bilim, qobilyatini rivojlantirish, kasb-xunarga

bo‘lgan layoqatini, yosh va ruxiy xususiyatlar asosida rivojlantirish, har bir o‘quvchining bo‘lg‘usi hayoti rejalarini amalga oshirish, o‘quvchilarning salomatligini muxofaza qilishdan iborat. Faollarga ishonish, ularning gurux jamoasi orasida obro‘sini ko‘tarish, o‘z vaqtida ularga tegishli yordam ko‘rsatish gurux rahbarining bevosita asosiy vazifasidir.

**SHuningdek, *guruh rahbarining tashkilotchilik funksiyasi tarbiya jarayonida muhim vosita sanaladi*.** CHunki, *t*ashkilotchilik tushunchasining o‘zi keng ma’noga ega. Maxsus bir maqsadni ko‘zlab u yoki bu ishni tadbiriy choralarni tashkil etish guruh rahbaridan katta malaka va maxsus mahoratni talab qiladi.

Tashkilotchilik funksiyasi bir necha elementlarga bog‘liqdir:

A. O‘tgan ishlarni tashkil qilish, uning muvaffaqiyati yoki muvaffaqiyat-sizligi sabablarini belgilab olish.

B. Guruhda o‘tkaziladigan barcha ishlar tarbiyaviy xarakterga ega bo‘lib, ma’lum maqsadni ko‘zlab o‘tkazilishi va guruh rahbari turli tarbiy ishlarini o‘tkazishda oldin shu ishning modelini tuza bilish lozim.

D. Guruh rahbari oldiga qo‘yilgan maqsadga etishish uchun o‘z oldiga aniq vazifa qo‘ya bilish lozim.

E. Guruh rahbari har bir tarbiriy choralarni amalga oshirishda o‘qituvchi va o‘quvchilarning qobiiliyatlariga qarab, vazifalarni taqsimlash, ma’lum reja asosida tarbiyaviy tadbirlarning o‘tazish o‘rni, vaqti, soati, javobgar shaxslar va tizimligini aniqlash lozim.

F. Ma’lumki tarbiyaviy ish bajarishda bajaruvchi kishilarni to‘g‘ri taqsimlash, ishga boshqa o‘qituvchilarni, ota-onalar, o‘quvchilar, otalik tashkilotlari va ish obe’ktini aniqlash lozim.

***Guruh rahbarining asosiy faoliyati esa quyidagilarni bilishni talab etadi.***

1. Har bir o‘quvchini shaxs sifatida o‘rganish.
2. O‘quvchilarning guruhda tarbiyalashni tashkil etish.
3. Talablarning bilim-tarbiyasini oshirish va ularning tartib intizomini mustahkamlash.
4. Guruhda darsdan tashqari ishlarni tashkil etish va o‘tkazish.
5. Fan o‘qituvchilarning tarbiyaviy ishlarni ( koordinatsiyalash) birlashtirish.
6. O‘quvchilarning ota-onalari bilan ishlash.
7. Guruh rahbari fan o‘qituv ishlariga nisbatan tarbiyaning ko‘p qirrali muhim vazifalarini bajaradi. SHuning uchun uning oldiga juda katta pedagogik va psixologik talablar qo‘ygan, bu talablar tarbiyaviy ishlarni yuqori darajaga ko‘tarishda muhim rol o‘ynaydi.
8. Demak yuqoridagilarga tayangan holda guruh rahbarining faoliyatiga nisbatan qo‘yilgan talablar quyidagilardan iborat**.**

1.YUqori g‘oyafiylik va onglilik.

2 Guruh rahbari katta obro‘ga ehtiromga va hurmatga ega bo‘lishi

3 Pedagogik mahorat

4 Madaniy qobiliyatning mavdudligi

5 Pedagogie odibga ega bo‘lish

6 YOsh avlodga nisbatan hurmat va ehtirom bo‘lish
7 Tashkilotchilik malakasi va mahoratiga ega bqlish
8 Tarbiya ishlariga nisbatan ijodiy munosabatda bo‘lish
9 Guruh rahbari kasbini yuqoriga ko‘tarish mustaqil bilim olish qobiliyatiga ega bo‘lish.

Rasmiy hujjatlarga guruh rahbarining vazifalari qisman bayon qilingan bo‘lsa ham biz quyida guruh rahbarining vazifalarini aniq tarzda ko‘rsatishni zarur deb bildik.

Guruh rahbarining vazifalari:

1. Anatomik, fiziologik va psixologik xususviyatlarini o‘rganish.
2. O‘quvchilarning kundalik davomati odob, xulqi va jamoat ishlariga qatnashishini tekshirib borish.
3. O‘quvchilarning rejimga rioya qilishlari va uyga berilgan vazifalarni tayyorlab borishlarini kuzatish.
4. Guruhda ishlaydigan fan o‘qituvchilari bilan majlis o‘tkazish
5. Darsda o‘quvchilarning davomatini ta’minlash, guruhda va o‘quv yurtida navbatchilikni tashkil etish , xonani jihozlash, xonadagi o‘quv asboblarini saqlashga o‘rtgatish, o‘quvchilarning qiyinchiliklarini nazorat qilib ular bilan suhbat o‘tkazish
6. Guruh majlichlarini tizimli va tartibli o‘tkazish
7. Yoshlar ittifoqi tashkiloti bilan ish rejalariga muvofiq darsdan tashqvari ishlarini tashkil etish.
8. O‘quvchirlarning darsdan ashqari o‘kishlari va anjumanlarini o‘ikazish
9. Guruh o‘quvchilari bilan sport, harbiy vatanparlik tarbiyasi borasida tadbiriy choralar ko‘rish, o‘quvchilar sog‘lig‘ini muntazam nazorat qilish, jismoniy tarbiya o‘qituvchilari, harbiy ta’lim o‘qituvchilari bilan doimiy aloqada bo‘lish
10. O‘quvchilarni rag‘batlantirish va zarur vaqtlarda ularga nisbatan chora ko‘rish.
11. O‘quvchilarning ota-onalari bilan tarbiya borasida doimiy aloqada bo‘lish va ular bilan individual suhbatda bo‘lish.
12. O‘quvchilarning shaxsiy va guruhga oid hujjvtlarni tartibli olib borish.

## 4- MAVZU: GURUH RAHBARI ISHINI TASHKIL ETISH – 2S.

**Reja:**

3. Guruh rahbarining tashkilotchilik funksiyasi
4. Guruh rahbari sifatida guruhda uchrashi mumkin bo’lgan turli muommolarni bartaraf etish.

**Tayanch iboralar:** pedagogik oliyjanoblik, oliyjanoblik hissini shakllantirish, kasbga nisbatan munosabati, o‘quvchining munosabati, nuqsonlarni yo‘qotishga yordam berish, o‘quvchilrning yutuqlaridan hursand bo‘lish.

1.

Guruh rahbarining pedagogik faoliyati va ma moharati o‘quv faoliyatida ham, o‘qishdan tashqari faoliyatda ham zarur bo‘lgan umumiy pedgogik malakalar majmuidan tashkil topadi.

Xo‘sh, tarbiyachining pedagogik mahorati, texnikasi qanday malakalarni o‘z ichiga oladi? Ularning pedagogik ta’sir ko‘rsatishdagi roli qanday?

Avvalo, pedagogik texnikaning tarkibiy qismi sifatida pedagogning *nutq malakalarini, ya’ni savodli gapirish, o‘z fikr va his tuyg‘ularini so‘zda aniq ifodalash malakalarini* aytib o‘tish mumkin.

Pedagogik texnikaning boshqa tarkibiy qismi guruh rahbarining *mimika va pantomimik ifodaliligidir.* Aniq imo–ishora, ma’noli qarash, rag‘batlantiruvchi yoki istehzoli tabassum pedagogik ta’sir ko‘rsatishda ko‘p so‘zli tushuntirish yoki e’tiroz bildirishga qaraganda ancha samarali muomala vositalari bo‘ladi.

Pedagogik o‘zaro ta’sir ko‘rsatishda guruh rahbarining o‘z hissiy holatini boshqarish, o‘zida eng qulay hissiy jiddiylik darajasini va umidbaxshlik, xayrixohlik kayfiyatini saqlash, o‘zining hissiy dam olishini tashkil etish mahorati muhim rol o‘ynaydi. Bu mahorat pedagogning kasbiy jihatdan o‘z – o‘zini nazorat qilishni ta’minlaydi. Ko‘p yillar davomida sog‘lom asab sistemasini saqlab qolish, asabiy buzilishlardan, hissiy va aqliy zo‘riqishdan o‘zini tiyishga yordam beradi.

Samarali o‘zaro ta’sir ko‘rsatishni tashkil tish uchun pedagog aktyorlik va rejissyorlik mahorati tarkibiy qismlarini egallashi zarur, ular pedagogga tarbiyalanuvchilar bilan muomala qilishda tarbiyalanuvchilarning aql – idorkigagina emas, balki ularning his tuyg‘ulariga ham ta’sir ko‘rsatishga yordamlashadi.

SHunday qilib, guruh rahbarining pedagogik texnikasi – bu shunday bir malakalar yig‘indisidirki, u guruh rahbariga tarbiyalanuvchilar ko‘rib va eshitib turgan narsalar orqali ulaga o‘z fikrlari va qalbini etkazish imkonini beradi. A.S.Makraenko shularni nazarda tutib, «Trabiyachi tashkil etishni, yurishni, hazillashishni, quvnoq, jahldor bo‘lishini bilishi lozim, u o‘zini shunday tutishi kerakki, uning har biri harakati tarbiyalasin”, deb yozgan edi. Pedagogik texnikani egallashning asosiy yo‘llari pedagog rahbarligidagi mashg‘ulotlar (pedagogik texnikani o‘rganish) va mustaqil ishlash (kasbiy jihatdan o‘z – o‘zini tarbiyalash) dir. Pedagogik texnika malakalrining individual – shaxsiy tusda ekanligini hisobga olib, pedagogik texnikani egallashda va uni takomillashtirishda kasbiy jihatdan o‘z – o‘zini tarbiyalash, ya’ni o‘quvchining o‘zida mohir pedagog shaxsiy fazilatlarini va kasbiy malakalarini shakllantirishga qaratilgan faoliyat etakchi rol’ o‘ynaydi, deb aytish mumkin.

Pedagogik texnik-malakalarini shakllantirishda gruppaviy ish olib borish alohida rol o‘ynaydi. Pedagogik texnik mashg‘ulotlarining bu shaklini batafsiliroq ochib berish maqsadga muvofiqdir, chunki u hozirga qadar pedagoglar uchun muljallangan o‘quv va metodik adabiyotlarda lozim darajada ko‘rsatib berilmagan. Guruh shaxsning o‘z – o‘zini bilish va o‘z–o‘zini tarbiyalash labaratoriyasi,

pedagogik vazifalarni hal qilishning yangi usullari tekshirib ko‘riladigan, nazariy masalalar muhokama qilinadigan tajriba maydoni bo‘lib qolishi mumkin.[5]

SHu narsa muhimki, guruh qatnashchilari, bo‘lajak pedagoglar kasbiy jihatdan birga ishlash malakalarini ishlash malakalarni egallashga faol intilishlari, o‘z – o‘zini bilish va kasbiy jihatdan o‘z –o‘zini tarbiyalash bo‘yicha chuqur ish olib borishga psixologik jihatdan tayyor bo‘lishlari kerak.

Barcha hollarda ham individual, ham guruhiy mashg‘ulotlar boshlani-shidan oldin pedagogik texnikani egallashning individual dasturi tuzib chiqilishi lozim. Bunday dasturni tuzish uchun avvalo pedagogik texnika malakalri shakllanishining boshlang‘ich darajasini aniqlab olish zarur. Biroq tajribaning ko‘rsatishicha, odatda, mazkur bosqichda faqat malakalar haqidagina emas, shu Bilan birga dastlab avtomatlashtirlgan (ta’limni boshlash vaqtiga kelib) ko‘nikmalar haqida ham borishi mumkin ekan. Bular masalan, nafas olish va ovozning tabiiy yo‘lga qo‘yilishi, to‘g‘ri talaffuz, bundan oldingi tarbiyaning natijasi bo‘lgan savodli, ifodali nutq, mimik va pantomimik aniqlik va boshqalar bo‘lishi mumkin. Bunday ko‘nikmalarning mavjudligi pedagogik texnika malaklarini shakllantirishni ancha osonlashtiradi.

O‘qrta-maxsus o‘quv yurtlaridagi kasbiy tayyorgarlik jarayonida pedagogik texnikani egallash guruh rahbariga o‘zining kasb yo‘nalishining boshlani-shidayoq ko‘pgina xatolardan holi bo‘lishda, o‘quvchilarga ta’lim tarbiya berishning yuksak samaradorligiga erishishda yordam beradi.

Guruh rahbari vaziyatlarning haddan tashqari xilma – xilligi pedagogdan ijodiy xulq – atvorni talab qiladi. Pedagogik texnika pedagog malakalarining eng yaxshi ijodiy xulq atvoriga, boshqacha qilib aytganda, har qanday pedagogik vaziyatda tarbiyalanuvchilarga samarali ta’sir ko‘rsatishga yordam beradi.

Pedagogik texnika malakalari tarbiyachining individual–shaxsiy xususiyatlari bilan chambarchas bog‘liqligi faqat bu malakalarning individual tusda bo‘lishi emas, balki ularning shakllanishi va rivojlanishi pedagog shaxsiga ta’sir ko‘rsatishda ham nomoyon bo‘ladi.[6]

Pedagogik texnikaning yana muhim xususiyatlaridan biri pedagogning ma’naviy va estetik nuqtai nazarlari tarbiyalanuvchilarga yanada to‘laroq ochib beriladi. Agar pedagogning nutqi qashshoq va tartibsiz bo‘lsa, agar u bo‘lar bo‘lmas sabablar bilan o‘z hissiyotlariga erk bersa, didi past, estetik jihatdan omi bo‘lsa, u holda “eng to‘g‘ri” so‘zlar ham, eng “kerakli” tadbirlar ham tarbiyalanuvchilarning na aql – idrokiga, na hissiyotiga ta’sir qiladi.

Pedagogik texnika to‘g‘risida aytilganlarning hammasi har bir guruh rahbari uchun bu texnikani tashkil etuvchi malakalarni egallash nihoyatda zarurligini ochiq – oydin ko‘rsatib turibdi va bu pedagogik vaziyat hamda san’at bilan bog‘liq. CHunki inson o‘zining har bir qadamini oldindan ko‘rishi, rejalashtirishi amalda

[5] Mahkamov M. «Bo’lajak tarbiyachilarninr pedarorik muloqat madaniyatini shakllantirish” nomzodlik dissertastiyasi. T., 2005.

[6] Mahkamov M. «Bo’lajak tarbiyachilarninr pedarorik muloqat madaniyatini shakllantirish” nomzodlik dissertastiyasi. T., 2005.

mumkin bo‘lmaydi. Guruh rahbari ning mehnati – bu behad izlanish va azob – uqubatli kechinmalar, ilhom va betakror nurlanish oni, ko‘pdan ko‘p kundalik ishlar, hafsalasi pir bo‘lish va shaxslar birgalikda boshdan kechirilgan quvonchdan qanoat hosil qilishdir. Pedagogk san’at – bu qandaydir qul bilan tutib bo‘lmaydigan, fahm – farosat bilan amalga oshiriladigan mahorat mahsulidi.

Xo‘sh, pedagogik mahorat nima va u nimalardan tashkil topadi?

Pedagogik mahorat fahm – farosat va bilimlarning, chinakam ilmiy, tarbiyadagi qiyinchiliklarni engishga qodir bo‘lgan nufuzli rahbarlikning, shaxslar qalbining qandayligini his qilish mahorati, ichki dunyosi nozik va zaif bo‘lgan shaxs shaxsiga mohirlik bilan avaylab yondoshishi, donolik va ijodiy dallilik, ilmiy tahlil, xayol va fantaziyaga bo‘lgan qobiliyat majmuasidir. Pedagogik mahoratga pedagogik bilimlar, fahm – farosat bilan bir qatorda pedagogik texnika sohasidagi malakalr ham kiradiki, ular tarbiyaga ozroq kuch sarflab, ko‘proq natijalarga erishish imkonini beradi.

Pedagogik mahorat nazariyasi va metodikasining ishlab chiqilmaganligi shunga olib keladiki, pedagoglarning har biri o‘zicha, paypslab ijodiy izlanish olib boadi, Ayni bir xil savollarni: shaxslar bilan, pedagoglar jamoai bilan qanday qilib til topish mumkin? Qanday qilib qisqa muddat ichida tarbiyalanuvchilar o‘rtasidagi munosabatlarning haqqoniy manzarasiga erishmoq kerak? Tarbiyalanuvchilarni pedagogik talablarni bajarishga qanday qilib majbur etish mumkin? Qanday qilib yaxshi pedagogik ruhiyatni saqlab qolish va o‘z kuch – qo‘vvatini oqilona sarflash mumkin? Degan savollarni muttasil takrorlaydi va hakoza.

Bu kabi savollarga javob berish uchun pedagogdan odatdan tashqari kuch – g‘ayratni, qat’iyatni, tirishqoqlikni, tadqiqotlar olib boirishga intilishni, yangi vaziyatga, yangi jamoaga kirish qobiliyatini, samimiyatni, to‘g‘rilik va halollikni, o‘tkir aql idrokni, o‘z topilmalarining qimmatini aniqlash qobiliyatini talab qiladi. Pedagogika fani bilan tarbiya san’atining o‘zviy aloqadorligi zarurki, u yuksak kasb mahoratini ta’minlaydi.

Pedagogika fikrlashga o‘rgatadi, murakkab pedagogik muammolarni hal qilish uchun to‘g‘ri yo‘l yo‘riq va ilmiy asoslangan yo‘llarni ko‘rsatadi, pedagogning pedagogik ta’sir ko‘rsatish metodikasi va texnikasi bilan qurollantiradi. Biroq texnikaning tarkibiy qismlari bilan mahorat o‘rtasidagi nisbatning dialektik muammolarini to‘g‘ri hal qilish uchun tayyor andazalar, mutloqo aniq tavsiyalar qaerda bo‘lishi mumkin, qaerda bo‘lishi mumkin emas, degan savolga javob berishi mumkin.

Tarbiyaning maqsadlari, vositalari va natijalari o‘rtasida, shuningdek, tarbiyalanuvchi va tarbiyachi tafakkuri, motivlari o‘rtasida g‘oyat murakkab bog‘liqlik bor. Kattalarning maqsadi, odatda, yoshlarning maqsadlari (hatto strategik maqsadlari) bor. O‘quvchining rivojlanish mantiqi, uning tafakkuri, harakatlari bitta nuqtai nazarda, tarbiyachining mantiqi boshqa nuqtai nazarda turishi mumkin. Bunday variantda hech qanday tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatish bo‘lmaydi.

Pedagogik faoliyatda vositalar, maqsadlar va natijalarning nisbatini doimo tahlil qilib borish zarur. Ular uzviy birlikni tashkil etadi, bir – biriga bog‘liq bo‘ladi va

alohida tarzdi amalga oshirilmaydi. Maqsadni amlga oshirish usuli – bo‘lajak natijadir. Natija yangi vositalarni tanlash, yangi maqsadlarni qo‘yish uchun amaliy asos hisoblanadi. Tajribada ma’lum darajada qo‘llanilgan har qanday vosita natija beradi, hatto biror sababga ko‘ra maqsad aniq ifodalanmagan bo‘lsa ham natija bervermaydi.

Tajribada mavjud bo‘lgan pedagogik vositalarni ikkitasini ko‘rib chiqamiz.

Birinchisi: har qanday pedagogik vosita hamisha bir qator boshqa vositalar, usullar, shartlar Bilan bog‘liq bo‘ladi, ular pedagogik jarayoning muayyan bosqichida ta’sir ko‘rsatish natijasini belgilab beradi. Masalan rag‘batlantirish bir xil jarayonlarni tezlashtirish va boshqarishga to‘siqnlik qilish, turli salbiy va ijobiy hissiyotlarning turli – tuman ko‘rinishlarini vujudga keltirishi mumkin.

Ikkinchi: ayrim vositalarni qo‘llanish pedagogning ular ta’sirini, mumkin bo‘lgan o‘zgarishini anglash qobiliyatlariga butunlay bog‘liq bo‘ladi. jamoa muomala sharoitida vositalarni qo‘llash minut sayin o‘zgarib turadigan vaziyatni hisobga olish zarurligini taqazo qiladi.

Hozircha biz ko‘proq mavhum kategoriyalardan foydalanamiz. Amaliy faoliyatda esa vositalar, maqsadlar va natijalar dialektikasi ovozlar shovqini, g‘oyat turli – tuman ehtiyojlar va da’volarning avj olishi bilan to‘la bo‘ladiki, bu barcha jonli manzara doimo bir kishining – pedagog tarbiyachining diqqat markazida bo‘lishi lozim.

Agar pedagogik san’at haqida gapirganda, chamasi, uning asosiy ko‘rinishlari – o‘quvchilarga umidbaxsh faraz bilan yondoshish, talab va ishonchning birligi, uning shaxsga avayla munosabatda bo‘lish, uni hurmat qilishdan iborat bo‘lishi mumkin.

Pedagogik umidbaxshlik hatto eng qarovsiz o‘quvchi ham o‘zida ko‘pgina ijobiy narsalarga egadir, degan ishonchga asoslangan.

Pedagogik mahorat o‘ziga o‘quvchilar haqidagi, ularning psixologiyasi to‘g‘risidagi, ta’lim muassasasi haqidagi, ta’lim – tarbiya jarayonini tashkil etish va uning mazmuni, metodlari haqidagi keng bilimlarni qamrab oladi. Bu bilimlar umumiy pedagogik madaniyani tashkil etadi, pedagog, tarbiyachi bu madaniyatni egallamasa, hech vaqt o‘z ishining chinakam ustasi bo‘la olmaydi, eski usuldan, bir qolipdagi tayyor andazalarni ishlatishdan nariga o‘tmaydi.

Biroq zamonaviy guruh rahbariga birgina umumiy madaniyatning o‘zi kifoya qilmaydi – maxsus bilimlar va malakalar: o‘quvchilarni kuzatish, ularning o‘sishidagi muhim narsalarni aniqlay olish, bu muhim narsalarni jamiyatda vujudga kelgan asosiy ijtimoiy g‘oyalar bilan taqqoslash, ularni rivojlantirish yo‘llari va usullarini aniqlash, turli vositalar, tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatish usullarining o‘zaro bir – biriga o‘tish dialektikasini chuqur tahlil qilish, pedagogik izlanishlar va yutuqlarni ilmiy jihatdan bir sistemaga solish malakalari zarur bo‘ladi.

Guruh rahbari yangi tajribalarni o‘rganar ekan, o‘zining hayotiy bilmini, his etgan va anglagan narsalarini, o‘z tajribasini aslo kamsitmasligi kerak. Guruh rahbarni keng va dadil tajribachilik ishlariga yo‘llash zarur.

Demak, guruh rahbarining pedagogik texnikasi – bu shunday bir malakalar yig‘indisidirki, u guruh rahbariga tarbiyalanuvchilar ko‘rib va eshitib turgan narsalar orqali ularga o‘z fikrlari va qalbini etkazish imkonini beradi. O‘quvchilar bilan bevosita muomala qilishda guruh rahbarining xuddi ana shu malakalari (yoki ularning yo‘qligi) uning xulq atvorida namoyon bo‘ladi.

Guruh rahbarining pedagogik mahorati bu tarbiyachining fahm – farosat va bilimlarning, chinakam ilmiy, tarbiyadagi qiyinchiliklarni engishga qodir bo‘lgan nufuzli rahbarlikning, o‘quvchilar qalbining qandayligini his qilish mahorati, ichki dunyosi nozik va zaif bo‘lgan o‘quvchi shaxsiga mohirlik bilan avaylab yondoshishi, donolik va ijodiy dallilik, ilmiy tahlil, xayol va fantaziyaga bo‘lgan qobiliyat majmuasidir.

Pedagogik texnika, mahorat, san’at, pedagogik malakalar, pedagogik vaziyatlar, maqsad, o‘z – o‘zini tarbiyalash, moxirlik, tashkilotchilik, aktyorlik, rejissyorlik, mimika, pantomimika, savodli gapirish, ma’noli qarash, rag‘batlantiruvchi yoki istehzoli tabassum, pedgogik ta’sir ko‘rsatish.

3.

Guruh rahbari noxoyatda ma’sulyatli va murakkab vazifani bajaradi. U guruhdagi tarbiyaviy ishlar tashkilotchisi, o‘quvchilarning murab-biysi, guruxni tashkil etadi hamda kamolot tashkilotchilari, o‘qituvchilar, oila, keng jamoatchilik ahli bilan birga ish olib boradi. So‘nggi yillarda guruh rahbarining faoliyati turli shakl va metodlar bilan boyitildi. Tarbiyaviy ishlarni tashkil etish va o‘tkazishda o‘quv yurti jamoat tashkilotlarining roli tobora oshirildi. Ushbu ishni tayyorlashdan maqsad o‘quv yurtining guruh raxbariga xozirgi vaqtda mamlakatda uzluksiz ta’limning yagona tizimini yaratish borasidagi ish uslublarini xar tomonlama keng joriy qilish va metodik yordam ko‘rsatishdan iboratdir. Ideologik muassasalar sifatida o‘quv yurti oldiga muhim tarbiyaviy vazifalar ko‘yilgan, bu esa ayni vaqtda har bir guruh rahbarining asosiy vazifalarni xisoblanadi, shunday qilib. Alohida guruh birlashib o‘quv yurtini tashkil etadilar. Alohida guruh jamoalari ko‘lga kiritgan ta’lim va tarbiya borasidagi muvaffaqiyatlar butun o‘quv yurti jamoasining muvaffaqiyatini ta’minlaydi. SHu nuqtai nazardan guruh rahbarining ma’suliyati jamiyat oldida raxbarlik ma’suliyatidan kam emas. SHuning uchun o‘quv yurti direktorlari gurux rahbari vazifasiga tajribali, tashkilotchi, mexnatsevar, mahoratli, yosh avlodni sevadigan o‘qituvchilarni tayinlab, ular bilan muntazam ish olib boradilar.

Guruh rahbarining muhim vazifalaridan biri bu o‘quvchining o‘qishga bo‘lgan havasi, e’tiqodi va bilim, qobilyatini rivojlantirish, kasb-xunarga bo‘lgan layoqatini, yosh va ruxiy xususiyatlar asosida rivojlantirish, har bir o‘quvchining bo‘lg‘usi hayoti rejalarini amalga oshirish, o‘quvchilarning salomatligini muxofaza qilishdan iborat. Faollarga ishonish, ularning gurux jamoasi orasida obro‘sini ko‘tarish, o‘z vaqtida ularga tegishli yordam ko‘rsatish gurux rahbarining bevosita asosiy vazifasidir.

**SHuningdek,** ***guruh rahbarining tashkilotchilik funksiyasi tarbiya jarayonida muhim vosita sanaladi***. CHunki, *t*ashkilotchilik tushunchasining o‘zi keng ma’noga ega. Maxsus bir maqsadni ko‘zlab u yoki bu ishni tadbiriy choralarni tashkil etish guruh rahbaridan katta malaka va maxsus mahoratni talab qiladi.

Tashkilotchilik funksiyasi bir necha elementlarga bog‘liqdir:

A. O‘tgan ishlarni tashkil qilish, uning muvaffaqiyati yoki muvaffaqiyat-sizligi sabablarini belgilab olish.

B. Guruhda o‘tkaziladigan barcha ishlar tarbiyaviy xarakterga ega bo‘lib, ma’lum maqsadni ko‘zlab o‘tkazilishi va guruh rahbari turli tarbiy ishlarini o‘tkazishda oldin shu ishning modelini tuza bilish lozim.

D. Guruh rahbari oldiga qo‘yilgan maqsadga etishish uchun o‘z oldiga aniq vazifa qo‘ya bilish lozim.

E. Guruh rahbari har bir tarbiriy choralarni amalga oshirishda o‘qituvchi va o‘quvchilarning qobiiliyatlariga qarab, vazifalarni taqsimlash, ma’lum reja asosida tarbiyaviy tadbirlarning o‘tazish o‘rni, vaqti, soati, javobgar shaxslar va tizimligini aniqlash lozim.

F. Ma’lumki tarbiyaviy ish bajarishda bajaruvchi kishilarni to‘g‘ri taqsimlash, ishga boshqa o‘qituvchilarni, ota-onalar, o‘quvchilar, otalik tashkilotlari va ish obe’ktini aniqlash lozim.

***Guruh rahbarining asosiy faoliyati esa quyidagilarni bilishni talab etadi.***

9. Har bir o‘quvchini shaxs sifatida o‘rganish.
10. O‘quvchilarning guruhda tarbiyalashni tashkil etish.
11. Talablarning bilim-tarbiyasini oshirish va ularning tartib intizomini mustahkamlash.
12. Guruhda darsdan tashqari ishlarni tashkil etish va o‘tkazish.
13. Fan o‘qituvchilarning tarbiyaviy ishlarni ( koordinatsiyalash) birlashtirish.
14. O‘quvchilarning ota-onalari bilan ishlash.
15. Guruh rahbari fan o‘qituv ishlariga nisbatan tarbiyaning ko‘p qirrali muhim vazifalarini bajaradi. SHuning uchun uning oldiga juda katta pedagogik va psixologik talablar qo‘ygan, bu talablar tarbiyaviy ishlarni yuqori darajaga ko‘tarishda muhim rol o‘ynaydi.
16. Demak yuqoridagilarga tayangan holda guruh rahbarining faoliyatiga nisbatan qo‘yilgan talablar quyidagilardan iborat**.**

1.YUqori g‘oyafiylik va onglilik.
2 Guruh rahbari katta obro‘ga ehtiromga va hurmatga ega bo‘lishi
3 Pedagogik mahorat
4 Madaniy qobiliyatning mavdudligi
5 Pedagogie odibga ega bo‘lish
6 YOsh avlodga nisbatan hurmat va ehtirom bo‘lish
7 Tashkilotchilik malakasi va mahoratiga ega bqlish
8 Tarbiya ishlariga nisbatan ijodiy munosabatda bo‘lish
9 Guruh rahbari kasbini yuqoriga ko‘tarish mustaqil bilim olish qobiliyatiga ega bo‘lish.

Rasmiy hujjatlarga guruh rahbarining vazifalari qisman bayon qilingan bo‘lsa ham biz quyida guruh rahbarining vazifalarini aniq tarzda ko‘rsatishni zarur deb bildik.

Guruh rahbarining vazifalari:

13. Anatomik, fiziologik va psixologik xususviyatlarini o‘rganish.
14. O‘quvchilarning kundalik davomati  odob, xulqi va jamoat ishlariga qatnashishini tekshirib borish.
15. O‘quvchilarning rejimga rioya qilishlari va uyga berilgan vazifalarni tayyorlab borishlarini kuzatish.
16. Guruhda ishlaydigan fan o‘qituvchilari bilan majlis o‘tkazish
17. Darsda o‘quvchilarning davomatini ta’minlash, guruhda va o‘quv yurtida navbatchilikni tashkil etish , xonani jihozlash, xonadagi o‘quv asboblarini saqlashga o‘rtgatish, o‘quvchilarning qiyinchiliklarini nazorat qilib ular bilan suhbat o‘tkazish
18. Guruh majlichlarini tizimli va tartibli o‘tkazish
19. Yoshlar ittifoqi tashkiloti bilan ish rejalariga muvofiq darsdan tashqvari ishlarini tashkil etish.
20. O‘quvchirlarning darsdan ashqari o‘kishlari va anjumanlarini o‘ikazish
21. Guruh o‘quvchilari bilan sport, harbiy vatanparlik tarbiyasi borasida tadbiriy choralar ko‘rish, o‘quvchilar sog‘lig‘ini muntazam nazorat qilish, jismoniy tarbiya o‘qituvchilari, harbiy ta’lim o‘qituvchilari bilan doimiy aloqada bo‘lish
22. O‘quvchilarni rag‘batlantirish va zarur vaqtlarda ularga nisbatan chora ko‘rish.
23. O‘quvchilarning ota-onalari bilan tarbiya borasida doimiy aloqada bo‘lish va ular bilan individual suhbatda bo‘lish.
24. O‘quvchilarning shaxsiy va guruhga oid hujjvtlarni tartibli olib borish.

## 6-MAVZU: Jamoani shakllantirish metodikasi

**Reja:**

1.Jamoa haqida tushuncha.
2.Jamoani shakllantirish va uning bosqichlari.
3.O’qituvchining muhim vazifalaridan biri jamoani uyushtirish va jipslashtirish

**Tayanch tushunchalar:** jamoa, o’quvchilar jamoasi, jamoaning shakllanish bosqichlari, jamoaning shakllanish darajalari, konformizm, lider, norasmiy lider.

**Jamoa haqida tushuncha**. **Jamoa** (lotincha «kollektivus» so’zining tarjimasi bo’lib, yig’ilma, omma, birgalikdagi majlis, birlashma, guruh) bir necha a’zo (kishi)lardan iborat bo’lib, ijtimoiy ahamiyatga ega umumiy maqsad asosida tashkil topgan guruh demakdir. Zamonaviy talqinda «jamoa» tushunchasi ikki xil ma’noda ishlatiladi. Birinchidan, jamoa deganda bir necha kishilarning muayyan maqsad yo’lida birlashuvidan iborat tashkiliy guruhi tushuniladi (masalan ishlab

chiqarish jamoasi, zavod jamoasi, o’quv yurti jamoasi, xo’jalik jamosi va hokazo). Ikkinchidan, jamoa deganda yuqori darajada uyushtirilgan guruh tushuniladi.

**O‘quvchilar jamoasi** yuqori darajada uyushtirilgan birlashma hisoblanadi.

**«Jamoa» tushunchasi**

| | | |
|---|---|---|
| Jamoa (lotincha “kollektivus” so'zi-ning tarjimasi bo'lib, yig'ilma, omma, birgalik-dagi majlis) bir necha a'zolardan iborat bo'lib, ijtimoiy ahamiyat ahamiyatga ega umumiy maqsad asosida tashkil. | Bir necha kishilar-ning muayyan maqsad yo'lida birlashuvi-dan iborat guruh (ishlab chiqarish jamoasi, zavod jamoasi, o'quv yurti jamoasi, xo'jalik jamoasi) | Yuqori darajada uyushtirilgan guruh. Chunonchi o'quvchilar jamoasi yuqori darajada uyushtirilgan birlashma hisoblanadi |

**“Jamoa” tushunchasi tavsifi**

Jamoada va jamoa yordamida tarbiyalash – tarbiya tizimida muhim ahamiyatga ega bo’lgan tamoyillardan biridir. Shaxsni shakllantirishda jamoaning yetakchi rol o’ynashi to’g’risidagi fikrlar pedagogika fanining ilk rivojlanish davrlaridayoq bildirilgan. Jamoada uning a’zolari o’rtasidagi munosabatning alohida shakli yuzaga keladi, bu esa shaxsning jamoa bilan birgalikda rivojlanshini ta’minlaydi. Lekin har qanday guruhni ham jamoa deb hisoblab bo’lmaydi. Jamoa bir qator belgilarga egadirki, mazkur belgilar jamoani kishilarning etarli darajada uyushgan har qanday guruhdan ajratib turadi.

**Ijtimoiy ahamiyatga ega yagona maqsadning mavjudligi.** Jamoaning maqsadi albatta ijtimoiy maqsadlar bilan mos kelishi, jamiyat va davlat tomonidan qo’llab-quvvatlanishi, Davlat konstitusisi va qonunlariga, jamiyat mafkurasiga qarama-qarshi bo’lmasligi zarur.

**Umumiy birgalikdagi faoliyat.** Kishilar aniq maqsadga birgalikda tez erishish uchun jamoaga birlashadilar. Buning uchun jamoaning har bir a’zosi birgalikdagi faoliyatda faol ishtirok etishi zarur, faoliyat Umumiy tashkil eitilishi kerak. Jamoa

a’zolari birgalikdagi faoliyat natijalari uchun yuqori shaxsiy javobgarlikni his qilishlari bilan ajralib turishadi.

**Majburiy mas’uliyatli munosabatning yo’lga qo’yilishi.** Jamoa a’zolar orasida faqatgina yagona maqsad va faoliyat emas, ularning g’am-qayg’ularining aloqador birligi aks etuvchi maxsus munosabatlar yuzaga keladi.

**Saylangan umumiy rahbariy organga egalik.** Jamoada demokratik munosabatlar o’rnatiladi. Jamoani boshqarish organlari jamoaning obro’li a’zolarini to’g’ridan-to’g’ri, ochiq saylab olish asosida shakllantiriladi.Mazkur aytilgan belgilaridan tashqari jamoa boshqa muhim o’ziga xosliklari bilan ham farqlanadi. Bu jamoa ichki muhitida aks etuvchi o’ziga xoslik, psixologik iqlim, jamoa a’zolari orasidagi munosabatlarda ko’rinadi. Maktab jamoasi tarkibida eng barqaror bo’g’in – bu muayyan sinflar negizida shakllangan jamoalar sanaladi. Sinf jamoasi tarkibida o’quvchilar tomonidan amalga oshiriluvchi asosiy faoliyat o’qish faoliyati sanaladi. Aynan sinf jamoasida shaxslararo aloqa va munosabatlar tarkib topadi. Shuningdek, sinflar jamoalari negizida maktab jamoasi shakllanadi. Yuqoridagi jamoaning o’ziga xos belgilaridan kelib chiqib, shunday xulosa chiqarish mumkin. O’quvchilar jamoasi – bu  ijtimoiy ahamiyatga ega yagona maqsadni ko’zda tutuvchi, birgalikdagi faoliyatni tashkil etuvchi, umumiy saylab qo’yilgan organiga ega bo’lgan, mustahkamlik, umumiy javobgarlik bilan ajralib turuvchi, barcha a’zolarining huquq va majburiyatlarda tengligi sharoitida majburiy aloqadorlikka ega bo’lgan o’quvchilar guruhidir.

**Jamoani shakllantirish bosqichlari.** Jamoani shakllantirish muayyan qonuniyatlarga bo’ysunadigan uzoq muddatli murakkab jarayondir.

O’quvchilar jamoasini shakllantirish **to’rt bosqich**da amalga oshiriladi.

**Jamoa shakllanishining birinchi bosqichi.** Mazkur bosqichda talab faqat o’qituvchilar tomonidan qo’yiladi. Bu jamoa rivojlanishining boshlang’ich nuqtasidir. Ushbu davrdagi jamoa hali tarbiyalovchi jamoa bo’lmay, balki «tashkil etuvchi birlik» (sinf yoki guruh) hisoblanadi. Ushbu bosqichda o’quvchilar o’qituvchi tomonidan talablarning qo’yilishiga e’tiborsiz qaraydilar. Jamoa a’zolarining uzluksiz ijodiy faoliyatini tashkil qilish va ularni muayyan (yagona) maqsad atrofida birlashtirishga erishish orqaligina jamoa qaror topadi. O’quvchilarning jamoa faoliyatida ishtirok etishi tufayli asta sekin boyib boradigan tajriba, faoliyat natijasini birgalikda muhokama qilish, qilinajak ishlarni rejalashtirish jamoa a’zolarida mas’uliyat, javobgarlik, faoliyat biriligi, shuningdek, ishchanlik munosabatining paydo bo’lishi, shuningdek, o’quvchilarda jamoa faoliyatiga nisbatan qiziqishni paydo bo’lishiga olib keladi. Bolalarning jamoa faoliyatini tashkil etish borasdagi tajribaga ega emasliklari bois so’z yuritilayotgan bosqichda o’qituvchining asosiy maqsadi jamoa a’zolarini oddiy tarzda uyushtirishdan iborat bo’ladi.

Jamoa hayotining birinchi bosqichida jamoa faollarining paydo bo'lishi ushbu davr uchun xarakterli hodisadir. Jamoa faoli (aktivi) muayyan guruhning shunday a'zolaridirki, ular jamoa manfaatiga muvofiq tarzda harakat qiladilar, o'qituvchi faoliyati va talabiga nisbatan xayrixohlik bilan munosabatda bo'ladilar. Faollar o'qituvchining yaqin yordamchilari sifatida ish olib boradilar.

**Jamoa rivojlanishining ikkinchi bosqichi.** Ushbu bosqich jamoa faolining o'qituvchi talabini qo'llab-quvvatlash hamda o'z navbatida uning o'zi bu talablarni jamoa a'zolari zimmasiga qo'yishi bilan tafsiflanadi. Endilikda o'qituvchi jamoada paydo bo'lgan va u bilan bog'liq muammo, masalalarni yolg'iz o'zi hal qilmaydi. Jamoa faoli bilan maxsus tarbiyaviy ish olib borish orqali bu ishga uni jalb etadi. Ushbu bosqichda jamoa hayotini tashkil qilish usuli murakkablashib boradi, ya'ni, jamoa o'z-o'zini boshqarishga o'tadi.

O'quvchilar amaliy faoliyatining doimiy ravishda murakkablashib borishi mazkur davrining muhim xususiyati sanaladi. Ikkinchi bosqichda jamoaning muhim ishlarini o'quvchilar tomonidan mustaqil rejalashtirilishi, tadbirlarni o'tkazishga tiyyorgarlik, uni o'tkazish hamda faoliyat natijalarini muhokama qilish jamoa faoliyatining ijodiy xususyat kasb etishini ko'rsatuvchi omillar sanaladi.

Jamoaning rivojlanishi bu bosqichda to'xtab qolishi mumkin emas, chunki faoliyat ko'rsatayotgan kuch jamoaning bir qismigina xolos. Bordi-yu, jamoaning rivojlanishi ushbu bosqichda to'xtatib qolinsa, jamoa faolining guruhning boshqa a'zolari bilan qarama-qarshi qo'yish xavfli tug'ilishi mumkin. Bu bosqichda jamoaning barcha a'zolarining alohida faollik ko'rsatishga erishishlari zarur sanaladi.

**Jamoa rivojlanishining uchinchi bosqichi.** Jamoa faliyatida bu bosqich anchagina sermahsul hisoblanadi. Bu davrda butun jamoa «ayrim o'zini chetga olib qoluvchi, injiq shaxs»larga talab qo'ya boshlaydi.

Jamoa ishiga ushbu bosqichda faqat faolgina emas, balki uning butun a'zolari qiziqadi. Jamoa hayotidagi uchinchi bosqich, ijtimoiy fikr mavjudligi bilan ifodalanadi. O'qituvchi mazkur yo'nalishda maqsadga muvofiq va izchil ish olib borgan sharoitdagina ijtimoiy fikrni shakllantirishga erishishi mumkin. Shu maqsadda u yoki bu tadbir rejasi, jamoaning birgalikdagi faoliyati va uning a'zolari xatti-harakati jamoa bo'lib muhokama qilinadi, turli mavzularda suhbatlar va ma'ruzalar uyushtiriladi, o'quvchilar o'rtasida samarali axborot vositalari yordamida ijtimoiy-g'oyaviy, axloqiy, estetik, ekologik, huquqiy, iqtisodiy va hokazo bilimlarning targ'iboti tashkil etiladi. O'qituvchi jamoa a'zolarining birgalikdagi faoliyatini tashkil etar ekan, jamoa a'zolarining ijodiy tajribasiga hissa qo'shish imkonini beradigan o'zaro munosabatlarini shakllantirishga ta'sir ko'rsatadigan shakl va metodlardan foydalanadi.

**Jamoa rivojlanishining to'rtinchi bosqichi.** Bu bosqich uning barcha a'zolari jamoa oldida turgan vazifalar asosida o'z-o'zlariga talablar qo'ya olishlari bilan

tavsiflanadi. Shuni aytish joizki, har bir bosqich jamoa a'zolarining o'ziga nisbatan muayyan talab qo'yishi bilan tavsiflanadi, ammo qo'yilgan har bir talab o'ziga xos yo'nalishi (masalan o'yindan umuminsoniyat baxti yo'lida kurashishiga intilish o'rtasidagi farq) bilan ajralib turadi.

To'rtinchi bosqich jamoa a'zolarining o'ziga nisbatan yuksak axloqiy talablar qo'ya olishlari bilan ahamiyatlidir. Jamoaning hayoti va faoliyati mazmuni jamoa a'zolarining har biri uchun shaxsiy ehtiyojga aylanadi. Jamoadagi tarbiya jarayoni o'z-o'zini tarbiyalash jarayoniga aylanadi. Biroq bu holat jamoaning muayyan shaxsni yanada rivojlantirishdagi roli va o'rnini pasaytirmaydi. To'rtinchi bosqichda amalga oshiriladigan vazifalar ancha murakkab va mas'uliyatlidir. Mazkur bosqichda jamoa oldiga istiqbolli, yuksak va murakkab talablarni qo'yish uchun mutlaqo qulay sharoit yaratiladi.

**O'quvchilar jamoasini shakllantirish shart-sharoitlari.** O'quvchilar jamoasini shakllantirishning jarayonida quyidagi shart-sharoitlarni hisobga olish lozim: pedagogik talab, jamoa faolini tarbiyalash, jamoaviy an'analarni qaror toptirish.

O'quvchilar jamoasini shakllantirishning jarayonida quyidagi **shart-sharoitlar**ni hisobga olish lozim: pedagogik talab, jamoa faolini tarbiyalash, jamoaviy an'analarni qaror toptirish.

Jamoa [illegible] digan yagona talablar muhim ahamiyat kasb etadi. Yagona talab o'quvchilarning dars jarayonidagi, tanaffus, sinfdan tashqari ishlar vaqtidagi, shuningdek, jamoat joylari hamda oiladagi xulq-atvor qoidalarni o'z ichiga oladi.

O'qituvchilar tomonidan qo'yilgan talablar quyidagi sharoitlarda ijobiy natija beradi:

- qo'yilayotgan talablar o'quvchi shaxsini hurmat qilish tuyg'usi bilan uyg'unlashgan bo'lishi kerak;
- talablar muayyan maktab yoki sinfdagi mavjud sharoitni hisobga olgan holda qo'yilishi lozim;
- jamoaga nisbatan qo'yilayotgan talablar aniq bo'lishi lozim;
- o'quvchilarning tashqi qiyofasi, kiyinishi, yurish-turishi hamda muomalasiga nisbatan qo'yilayotgan talablar, ularda ma'naviy madaniyatni shakllantirishga xizmat qilishi shart.

Talablarning qo'yilishi jarayonida ularga o'quvchilarning amal qilishi ustidan nazorat o'rnatish lozim. Nazorat qilib borish turli shakllar yordamida amalga oshiriladi, chunonchi, xulq-atvor jurnalini yuritish, sinfdagi navbatchilik uchun stendda baholarni qayd etib borish va boshqalar. Qo'yilayotgan talablarning bajarilishi yuzasidan olib borilayotgan nazorat muntazam ravishda, izchil olib borilishi va haqqoniy bo'lishi zarur. Olib borilgan nazorat natijalaridan o'quvchilarni ogoh etib borish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Jamoani uyushtirish va jipslashtirish unda sinf faolini tarbiyalash bilan chambarchas bog'liq. Har bir o'qituvchining jamoani shakllantirish borasidagi harakti jamoaning tayanch yadrosini tanlashdan boshlanadi.

Jamoa faolini shakllantirish jamoaning u yoki bu faoliyatiga nisbatan ehtiyoji mazmunidan kelib chiqadi. Ishonchli, ishchan jamoa faolini yaratish uchun o'qituvchi o'quvchilar faoliyatini ularning jamoa ishlaridagi ishtiroki, xulq-atvorini kuzatib borishi har bir o'quvchining ijtimoiy faoliyatni tashkil etish layoqatini aniqlash zarur.

Jamoa faolini shakllantirishda o'quvchilarning jamoadagi obro'sini ham inobatga olish lozim. Jamoa faoli tarkibini bolalarning o'zlari, albatta, o'qituvchi ishtirokida va rahbarligida tanlasa maqsadga muvofiq bo'ladi. O'qituvchi jamoa faoli bilan maslahatlashish asosida tarbiyaviy faoliyatni tashkil etadi.

Jamoa faolining har bir a'zosi zimmasiga muayyan vazifani yuklash, ularning ma'lum davrda ana shu vazifalar yuzasidan hisobot berib borishlariga erishish maqsadga muvofiq. O'qituvchi aynan faolga oshirilgan talab qo'yadi. O'quvchilar jamoasida faol rahbarligida o'z-o'zini boshqarish jamoa a'zolaridan ayrimlarining boshqasi ustidan ustun kelishiga olib kelmasligi kerak.

Shu bois o'qituvchi faolni maqsadga muvofiq faoliyat yuritishini nazorat qilib borishi lozim.

O'quvchilar jamoasini shakllantirishda an'analar muhim o'rin tutadi. Jamoa an'analari jamoa a'zolari tomonidan birdek qo'llab-quvvatlanuvchi barqarorlashgan odatlar bo'lib, ularning mazmunida munosabatlar xususiyati hamda jamoaning ijtimoiy fikri yorqin ifodalanadi.

**Jamoa an'analari** shartli ravishda ikkiga bo'linadi: kundalik faoliyat an'analari; bayram an'analari.

Kundalik faoliyat an'analari o'quvchilarning o'quv faoliyati (o'zaro yordam turlari), va mehnat faoliyati (ko'chatlar o'tkazish, hasharlar uyushtirish va boshqalar)ni o'z ichiga oladi.

Bayram an'analariga ijtimoiy ahamiyatga ega turli voqea hamda hodisalar bilan bog'liq sanalar (xususan, «Alifbe bayrami», «Mustaqillik bayrami», «Navro'z bayrami», «Xotira va qadrlash kuni» va boshqalar)ni nishonlash maqsadida tashkil etilgan faoliyat kiradi.

## SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. “Jamoa” va “o’quvchilar jamoasi”  tushunchalariga izoh bering.
2. O’quvchilar jamoasining o’ziga xosliklarini sanab bering.
3. O’quvchilar jamoasini shakllantirish bosqichlarini izohlang.
4. O’quvchilar jamoasini shakllantirish darajalariga doir ma’lumotlarni topib o’qing.
5. O’quvchilar jamoasini shakllantirish shart-sharoitlriga tavsif yozing.

## 7-MAVZU: JAMOADA  SHAXSNI TARBIYALASH SHAKLLARI VA USULLARI

**Reja:**

**1.**Tarbiyaning o’ziga hos hususiyatlari, metodlari, qonuniyatlari haqida tushuncha.
2.Guruh jamoasini tashkil etish va tarbiyalashga qo‘yilgan talablar.
3. Guruh jamoasini o‘rganish va uni dasturini ishlab chiqish.
4.Guruh jamoasi bilan ishlash va unga rahbarlik qilish.

***Tayanch iboralar:*** “Ota-onalarga pedagogik bilim berishning namunaviy dasturi”, tarbiyaning qonuniyatlari, tarbiya metodlari,  jamoa,  adaptatsiya, jamoani shakllanish bosqichi, jamoa a’zolarining munosabati, jamoada yagona saylangan o’rganning mavjudligi.

Guruh rahbari ishida o‘quvchilar jamoasini shakllantirish markaziy vazifa hisoblanadi, chunki jamoada shaxsni tarbiyalash – tarbiyaning etakchi maqsadidir.

Bolalar jamoasini shakllantirish metodikasi hozirgi kunda ancha to‘liq va mukammal ishlab chiqilgan. Bu metodikaning umumiy asoslari pedagogika kursida bayon etilgan, jamoa va jamoada shaxsni tarbiyalash nazariyasiga tayanadi. Jamoa nazariyasi qoidalariga muvofiq uni yaratish metodikasi ishlab chiqilgan. Uning umumiy asoslari quyidagilardan iborat: talablar qo‘yish; faollarni aniqlash, o‘quv mehnat, ijtimoiy siyosiy va ommaviy madaniy faoliyatdagi istiqbollarni tashkil etish; sog‘lom jamoatchilik fikrini shakllantirish, ijobiy an’analarni yaratish, va ko‘paytirish.

Ta’riflangan bu qoidalar har qanday jamoa (ta’lim muassasasi, guruh jamoasi, ta’lim muassasasidan tashqari bolalar birlashmasi va hokazolar)ni shakllantirish va rivojlantirish uchun qo‘llanma bo‘lib hisoblanadi.

Bolalarning jamoa turmush, normalari va qoidalarining intizomini bo‘zilishiga munosabatlarini kuzatib jamoaning tashkiliy tuzulishi ta’sirchanligi ishonch hosil qilish mumkin. Jamoa rivojlanishining dastlabki bosqichlarida bolalar tarqoq bo‘lib, ularda yakdil fikr va guruh raxbari tayanishi mumkin bo‘lgan ta’sirchan faollar bo‘lmaydi. Shuning uchun jamoada salbiy hodisalar ochiq muxokama qilinmaydi va mustaqil jamoa qarori qabul qilinmaydi. Agar jamoa rivojlanishning

2-chi bosqichida bo‘lsa, nomigagina emas balki harakatlarini qo‘llab quvvatlaydigan haqiqiy harakat qiluvchi faollar bo‘lsa, uning ayrim o‘quvchilar va jamoa oldiga muayyan talablar qo‘yishini kuzatish mumkin.

Jamoaning rivojlanish darajasidan dalolat beradigan muhim belgilardan biri – o‘quvchilarning birgalikdagi faoliyatga ishtiyoqi chiqindi qog‘oz yoki metallolom to‘plash, kechaga tayyorgarlik ko‘rish kabi ta’lim muassasasi tajribasida muntazam uchrab turadigan ishlarda ko‘zga tashlanadi. Jamoaning rivojlanish darajasini aniqlashda o‘quvchilarning faqat guruhdan tashqari faoliyatida namoyon bo‘ladigan munosabatlarni tahlil etish bilangina cheklanib bo‘lmaydi.

**Tarbiya metodlari haqida tushuncha.** Tarbiya metodi (yunoncha «metodos» – yo’l) tarbiya maqsadiga erishishning yo’li. Tarbiya amaliyotiga tatbiq etilganda, metodlar – bu tarbiyalanuvchilarning ongi, irodasi, tuyg’ulari va xulqiga ta’sir etish usullaridir.

**Tarbiya metodlari** tarbiyalanuvchilarning ongi, irodasi, tuyg’ulari va xulqiga ta’sir etish usullari yig’indisidir.

Tarbiya usullari – umumiy metodning bir qismi, alohida harakati, yanada aniqlashuvi. Obrazli aytganda, usullar – bu qo’yilgan maqsadga tezroq erishish uchun tarbiyachi o’zining tarbiyalanuvchilari bilan yo’l ochadigan o’rganilmagan so’qmoq. Agar uni boshqa tarbiyachilar ham foydalana boshlasa, u holda asta-sekin usullar keng ustunli yo’llar – metodlarga aylanishi mumkin.

Tarbiya usullari – umumiy metodning bir qismi, alohida harakati

Amaliyotda tarbiya vositalari tushunchasi ham ajratiladi. Usullara deganda ta’sir ko’rsatishlar birligi, vosita deganda, usullar yig’indisi tushuniladi. Vosita – bu usul ham emas, metod ham emas. Masalan, mehnat – tarbiya vositasi, biroq uni ko’rsatib berish, mehnatni baholash, ishdagi xatoni ko’rsatish – bu usullar. So’z (keng ma’noda) – tarbiya vositasi, biroq replika, taqqoslash – usullar. Bu bilan bog’liqlikda ba’zan tarbiya metodlari qo’yilgan maqsadni muvaffaqqiyatli amalga oshirish uchun foydalaniladigan usul va vositalar tizimi sifatida aniqlanadi. Xuddi shuningdek metodning tuzilishida usullar va vosita albatta mavjud bo’ladi.

**Tarbiya vositalari** – bu usul ham emas, metod ham emas, usullar yig’indisi.

**Tarbiya metodlari tasnifi.** Zamonaviy pedagogikada ba’zilari amaliy vazifalarni hal etishga, ba’zilari faqat nazariy vazifalarni o’zida aks ettiradigan o’nlab tarbiya tasniflari mavjud. Metodlar o’ziga xos xarakteriga ko’ra ishontirish, mashq, rag’batlantirish va tanbeh berishga bo’linadi. Mazkur holatda metodning

umumiy xarakterli belgisi o'ziga xoslikni, qo'llanishga yaroqlilikni aks ettiradi. Bu tasnifga metodlarning ko'proq umumlashganligi bilan ajralib turuvchi tarbiyaning umumiy metodlari mustahkam tutashib ketadi. U o'zida ishontirsh, faoliyatni tashkil etish, o'quvchilarning xulq-atvorini rag'batlantirish metodlarini qamrab oladi. I.S.Mariyenkoning tasnifida tarbiya metodlari guruhlari quyidagicha nomlanadi: tushuntirshli-reproduktiv, muammoli vaziyatli, o'rgatish va mashq metodlari, rag'batlantirish, to'sqinlik qiluvchi, boshqarish, o'zini-o'zi tarbiyalash.

Tarbiyalanuvchilarga ta'sir etishi natijalariga ko'ra metodlarni ikki guruhga bo'lish mumkin:

- Axloqiy me'yorlar, motivlarni hosil qilishga, tasavvur, tushuncha, g'oyalarni shakllantirishga ta'sir etuvchi.
- Xulq-atvorning u yoki bu turini aniqlaydigan odatlarni hosil qilishga ta'sir etuvchi.

Hozirgi vaqtda o'zida tarbiya metodlaridagi yagona maqsad, mazmun va tartiblilikni aks ettiruvchi ko'proq ob'yektiv va qulay metodlar qo'llaniladi. Ana shunday tavsif bilan bog'liqlikda tarbiya metodlari uch guruhga bo'linadi:

- Shaxs ongini shakllantiruvchi metodlar.
- Faoliyatni tashkil etish va xulq-atvor tajribalarini shakllantirish metodlari.
- Xulq-atvorni va faoliyatni rag'batlantirish metodlari.

**Shaxs ongini shakllantirsh metodlari** o'quvchilarda ma'naviy-axloqiy sifatlar, e'tiqod hamda dunyoqarashni shakllantirish maqsadida ularning ongi, his-tuyg'usi va irodasiga ta'sir ko'rsatish usullari sanaladi.

**Shaxs ongini shakllantirish (ishontirish) metodlari**ga quyidagilar kiradi: hikoya, tushuntirish, izohlash, ma'ruza, etik suhbat, nasihat, o'git, ko'rsatma, munozara, namuna

Bu guruhga mansub metodlarning mohiyati shundaki, ular orqali o'quvchilar ongiga jamiyatda ustuvor o'rin tutuvchi ijtimoiy g'oya va maqsadlar singdiriladi. O'quvchilarda g'oyaviy onglilik va ijtimoiy faollik, ya'ni, davlatning ichki va xalqaro siyosati mazmunini tushunish va idrok qilish ko'nikmalarini tarbiyalash lozim.

**Tushuntirish** ijtimoiy ongni shakllantirishda eng ko'p ishlatiladigan metoddir. Tushuntirishning vazifasi o'quvchilarni yuksak madaniyatli, milliy g'urur tuyg'usiga ega bo'lib voyaga yetishlarini tarbiyalashga yordam berishdan iborat.

**Suhbat.** O'quvchi shaxsini g'oyaviy va ma'naviy-axloqiy jihatdan shakllantirishda o'qituvchining jonli so'zi eng ta'sirchan metod hisoblanadi. Suhbat uchun mavzu tanlashda uning mazkur sinf o'quvchilari uchun dolzarbligi, o'quvchilarning suhbat mazmuniga bo'lgan munosabatlari va suhbatdan kutilayotgan natijani hisobga olish zarur.

**Hikoya.** O'quvchilar odatda hayot va turli adabiyotlardan olingan aniq misollar bilan boyitilgan hikoyalarni katta qiziqish bilan tinglaydilar. Ularga axloq

me'yorlari, xalq o'tmishi, tabiiy boyliklar, qahramonlar hayoti va jasorati, shuningdek, tarix, adabiyot va san'at haqida hikoya qilib berish mumkin. Badiiy adabiyot namunalari, shuningdek, ommaviy axborot vositalari – radio, televidenie, gazeta va jurnallar sahifalarida hamda Internet matbuotida e'lon qilingan ma'lumotlar ham o'quvchilar uchun qimmatli material bo'lib xizmat qiladi. Suhbat ham, hikoya ham o'quvchilarning yoshiga mos mavzularda, ular tushunadigan so'zlar vositasida adabiy tilda o'tkazilishi maqsadga muvofiqdir. Suhbat yoki hikoya mavzusining o'quvchilar tomonidan belgilanishi, ularning samarali kechishini ta'minlaydi, buning natijasida o'quvchilar ilgari surilayotgan mavzuga befarq qaramaydilar.

**Namuna.** O'quvchilar o'z atrofidagi kishilarda hamma yaxshi axloqiy sifatlarni ko'rishlari va ibrat olishlari nihoyatda muhim.

O'qituvchining shaxsan o'zi namuna bo'lishi, ayniqsa, yoshlarga katta ta'sir ko'rsatadi. Ular o'qituvchining darsda va hayotda o'zini qanday tutishini, atrofdagi kishilar bilan qanday muomala qilishini, o'z vazifalarini qanday bajarishini kuzatib yuradilar.

O'quvchilar o'zlariga yaqin kishilarning xulq-atvoriga taqlid qiladilar, Xulq-atvorlar bolalarda yaxshi sifatlarning, ba'zan esa yomon sifatlarning ham tarkib topishiga ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun o'qituvchi va ota-onalar har qanday holatda ham o'zlarini tuta bilishlari kerak. Ular qaerda bo'lishmasin, atroflarida bolalar borligini his etishlari lozim. Kattalarning so'zi bilan yurish-turishi va xatti-harakatlarida tafovut bo'lmasligi kerak.

**O'z-o'zini tarbiyalash metodlari**. O'quvchida o'z-o'zini tarbiyalashga, ya'ni, o'z ustida ongli, bartartib ishlashga ehtiyoj paydo bo'lgandagina tarbiya jarayonini samarali deb hisoblash mumkin. Tarbiya jarayonida o'z-o'zini tarbiyalash metodlaridan foydalanish samarali hisoblanadi.

**O'z-o'zini tahlil (nazorat) qilish** o'z shaxsi, mavjud fazilatlari, xatti-harakati, xulq-atvorini tahlil qilish, mavjud sifatlarni boyitish yoki salbiy odatlarni bartaraf etishga qaratilgan faoliyat usuli.

O'z-o'zini tahlil (nazorat) qilish uchun o'quvchi o'zining yurish-turishi, intizomi, ijobiy fazilatlarining ortib borishi va aksincha, salbiy odatlarining kamayib borishi haqida muntazam ravishda kundaligiga yozib boradi.

**O'z-o'zini baholash** mavjud fazilatlari, xatti-harakati, xulq-atvorini tahlil qilish asosida o'z shaxsiga baho berishga yo'naltirilgan faoliyat usuli.

O'quvchining qobiliyatini o'z kuchi bilan yuzaga chiqishiga yordamlashish zarur. O'z-o'zini baholash qiyin, lekin o'quvchini bunga etarli tayyorlash mumkin. Shu bois o'quvchi irodali bo'lishi, o'z burchini tushunishi, tahsil va tarbiya olish uchun sababli asos bo'lishi, ya'ni, tarbiyalanishni xohlashi, o'zini o'rtoqlari, atrofdagilarning ko'zi bilan ko'rish va o'z-o'zini takomillashtirishga intilishi lozim.

Maktab amaliyotida izohlash ishontirishga tayanadi. **Ishontirish** vositasida o'quvchi ruhiyatiga sezilarsiz holda ta'sir etiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari

hamda o'smirlar ishonuvchan bo'lishadi. Pedagog ishontirishdan tarbiyalanuvchi ma'lum ko'rsatmani qabul qilishi zarur bo'lgan vaziyatlarda foydalanadi. Mazkur metoddan boshqa metodlarning ta'sirini kuchaytirish uchun ham foydalaniladi.

**Munozara** tarbiyalanuvchilarga hissiy-og'zaki ta'sir ko'rsatish asosida ularda ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan bahs-munozara usuli bo'lib, siyosiy, iqtisodiy, madaniy, estetik va huquqiy mavzularda o'tkaziladi. Munozara turli nuqtai nazarlar to'qnashgan vaziyatda o'quvchilarda ma'lum hodisaga nisbatan ishonch hosil qilishga yordam beradi.

**Faoliyatni tashkil etish va xulq-atvor me'yorlarini shakllantirish (mashq) metodlari:** mashq, pedagogik talab, ijtimoiy fikr, topshiriq, tarbiyalovchi vaziyat.

**Mashq va o'rgatish metodlari** muayyan mashq yordamida bolalar faoliyatini oqilona, maqsadga muvofiq va har tomonlama puxta tashkil qilish, ularni axloq me'yorlari va xulq-atvor qoidalarini bajarishga odatlantirishdir. Odatlar bolalikdan tarkib topadi va shaxs rivojlanishining keyingi bosqichlarida mustahkamlanib boradi.O'qituvchi hamda ota-onalar bolalarda ijobiy odatlarning tarbiyalanib borayotganligini kuzatib borishlari kerak. O'quvchilar odatlarni o'z yaqinlaridan meros qilib olmaydi, balki ular atrofdagilar bilan faol muloqotga kirishishlari tufayli taqlid qilish, uzluksiz tarbiyani yo'lga qo'yish asosida tarkib toptiriladi. Natijada odat xarakterga aylanadi.

Mashq muayyan xatti-harakatlarni ko'p marotaba takrorlashni o'z ichiga oladi. Mashq va odatlantirish o'quvchi uchun ongli, tjobiy jarayondir. Mashq natijasini ko'nikma, odat, yangi bilimlar hosil qilinadi, o'quvchining aqliy qobiliyati rivojlanadi, ma'naviy-axloqiy sifatlari boyiydi, hayotiy tajribasi ortadi.

O'rgatish tarbiyalanuvchilar ijtimoiy xulq-atvor ko'nikmalari, odatlarini shakllantirish maqsadida rejali va izchil tashkil qilinadigan turli harakatlar, amaliy ishlardir.

**Topshiriq** o'quvchilarda mehnat, ijtimoiy xulq va hayotiy tajriba ko'nikmalarini shakllantirish maqsadida qo'llaniladigan usul. O'quvchilarning topshiriqlarni jamoa bo'lib bajarishlari ularda ijtimoiy xulq tajribalarini shakllantirishda alohida ahamiyatga ega. O'quvchilar o'z kuchlarini umum ishiga sarflashga, jamoa uchun mas'uliyatni his etishga o'rganadilar, mehnat qilish o'quvchilarning harakatlarini shakllantiradi, mustahkamlaydi.

**Pedagogik talab** turli xatti-harakatlarni bajarish hamda faoliyatda ishtirok etish jarayonida o'quvchi tomonidan amal qilinishi zarur bo'lgan ijtimoiy xulq-atvor me'yorlari. Pedagogik talab tarbiyaning eng muhim usullaridan biridir. Pedagogik talab ma'lum harakatlarni rag'batlantiruvchi yoki to'xtatuvchi hamda o'quvchini oqilona harakatlarni bajarishga undovchi xarakterga ega bo'lishi mumkin.

**Rag'batlantirish** tarbiyalanuvchining xatti-harakati va faoliyatiga ijobiy baho berish asosida unga ishonch bildirish, ko'ngilini ko'tarish va uni qo'llab-quvvatlash usulidir. O'qituvchi har bir o'quvchi shaxsida ro'y berayotgan ijobiy o'zgarishlarni anglash olishi zarur.

**Tanbeh berish** – eng muhim jazo chorasi. O'qituvchi o'quvchiga yuzma-yuz turib tanbeh beradi, buni kundaligiga yozib qo'yish mumkin.

**Uyaltirish** – o'quvchining ma'lum xatti-harakatlariga jamoa yoki uning tarbiya uchun mas'ul bo'lgan subyektlar (ota-onalar, vasiylar, jamoatchilik vakillari va boshqalar) oldida baho berish. Odamning eng nozik sezgilaridan biri uyat, or-nomus va sharm-hayodir. Odamda insonda izzat-nafs, odamiylik qancha kuchli bo'lsa, avvalo, o'zini hurmat qilsa, unda or-nomus, uyat shunchalik kuchli bo'ladi. Bolalarni tarbiyalashda shu his-tuyg'ularni ehtiyotkorlik bilan o'stirish lozim, lekin hadeb uyaltiraverish va qizirtiraverish yaramaydi. Bundan oqilona va o'z o'rnida foydalanish kerak, shundagina ijobiy natijaga umid qilish mumkin.

**Tarbiya metodlarini tanlab olish shartlari.** Metodning ijobiy va salbiysi bo'lmaydi, tarbiya jarayonida ma'lum yo'lni yuqori darajadagi samarali va samarasiz deya baholash mumkin emas. Metodning samaradorligini u qo'llanilayotgan sharoit nuqtai nazaridan baholash mumkin.

Tarbiya metodlarini maqsadga muvofiq tanlash bir qator omillarga bog'liq:

**1. Tarbiyaning maqsad va vazifalari.** Tarbiyaning maqsad va vazifalari. Maqsad nafaqat metodlarni oqlaydi, balki ularni aniqlab beradi. Maqsad qanday bo'lsa, unga erishish metodlari unga muvofiq bo'lishi zarur.

**2. Tarbiya mazmuni.** Unutmaslik kerakki, aynan bitta vazifa turli xil fikrlar bilan to'ldirilgan bo'lishi mumkin. Shuning uchun metodlarni umuman mazmun bilan emas, balki aniq fikr bilan bog'lash g'oyat muhimdir.

**3. Tarbiyalanuvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish**. U yoki shunga o'xshash vazifalar tarbiyalanuvchilarning yoshi bilan bog'liqlikda hàë qèëèíàäè. Yosh bu oddiygina qàí÷à yashaganligi son ko'rsatkichi emas. Unda egallangan ijtimoiy tajriba, psixologik va ahloqiy sifatlarning rivojlanganlik darajasi o'z aksini topadi. Aytaylik, mas'uliyat tuyg'usini boshlang'ich ta'lim, o'rta ta'lim va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida ta'lim olayotgan o'quvchilarda hàì shakllantirish mumkin. Biroq hàð bir bosqichda mazkur sifatni shakllantirish borasida turli metodlar qo'llaniladi.

**4. Jamoaning shakllanganlik darajasi.** O'zini o'zi boshqarishning jamoa shaklining rivojlanishi bilan bog'liqlikda pedagogik ta'sir ko'rsatish metodlari hàì o'zgarmasdan qîëìàéäè. Bizga ma'lumki boshqaruvning moslashuvchanligi tarbiyachining tarbiyalanuvchilar bilan muvaffaqiyatli hamkorligining zaruriy sharti.

**5. Tarbiyalanuvchilarning individual o’ziga xosliklari.** Umumiy metodlar, umumiy dasturlarning o’zi tarbiyaviy o’zaro ta’sir etishning asosi bo’la olmaydi. Ularga indivudual va shaxsiy tuzatishlar kiritish zarur. Insonparvar pedagog har bir shaxs o’ziga xosligini rivojlanishiga, o’ziga xosligini saqlashga, o’zining «Men»ini ro’yobga chiqarishga imkon beradigan metodlarni qo’llashga harakat qiladi.

**6. Tarbiyaviy shart-sharoitlar.** Unga moddiy, psixofiziologik, sanitar-gigienikdan tashqari sinfda yuzaga keladigan munosabatlar: jamoadagi iqlim, pedagogik rahbarlik usuli va boshqalar tegishlidir. Ma’lumki, mavhum shart-sharoitlar bo’lmaydi, ular hamisha aniq. Ularning birlashuvi aniq holatlarda ko’rinadi. Tarbiya amalga oshadigan sharoit pedagogik vaziyatlar deb ataladi.

**7. Tarbiya vositalari.** Tarbiya metodlari tarbiya jarayonining tarkibiy qismi sifatida yuzaga chiqadigan tarbiya vositalaridan tashkil topadi. Metodlar ular bilan mustahkam bog’langan va birgalikda qo’llaniladigan boshqa tarbiya vositalari ham mavjud. Masalan, metodlarni samarali qo’llash uchun zaruriy yordam beruvchi ko’rgazmali qurollar, tasviriy san’at asarlari va musiqa san’ati, ommaviy axborot vositalari.

**8. Pedagogik malakani egallaganlik darajasi.** Tarbiyachi odatda faqat o’zi biladigan va qo’llay oladigan metodlarni tanlab oladi. Ko’plab metodlar murakkab bo’lganligi bois, o’qituvchidan ko’p kuch ishlatishni talab etadi. Bunday mas’uliyatdan bo’yin tovlaydigan pedagoglar ularsiz faoliyatni tashkil etishga harakat qiladi. Natija esa turli obrazli, xilma-xil maqsad, vazifa, shart-sharoitlardan kelib chiqib metodlardan foydalanishga qaraganda past samaraga ega bo’ladi.

**9. Tarbiya vaqti.** Qachonki, vaqt kam, maqsad esa katta bo’lsa, «kuchli harakatga keltiradigan» metodlar qo’llaniladi, qulay sharoitlarda esa, tarbiyaning «oddiy» metodlaridan foydalaniladi. Tarbiyani «kuchli harakatga keltiradigan» va «oddiy» metodlarga bo’linishi shartli: birinchisi tanbeh berish va majbur qilish bilan, ikkinchisi nasihat qilish va doimiy o’rgatish bilan bog’liq.

**10. Kutiladigan natija.** Metodni tanlayotganda, tarbiyachida muvaffaqiyatga erishishga nisbatan ishonch bo’lishi kerak. Buning uchun qo’llanilayotgan metod qanday natijaga olib kelishini oldindan ko’ra bilish kerak.

Guruh rahbari ishining o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, u oddiy bolalar jamoasini emas, balki o‘quvchilar jamoasini shakllantiradi. O‘quvchilarning asosiy vazifasi o‘qishdan iborat. SHuning uchun guruh rahbari dastavval bolalarning o‘qishga qanday munosabatda ekanliklarni, o‘zlarini darsda qanday tutishlarni, o‘zlarini darsda qanday tutishlarni, uy vazifalarni sidqidildan bajarishlarni yoki bajarmasliklarni aniqlaydi. Va nihoyat eng muhimi – ularning o‘qishdagi muljallari ijtimoiy mohiyatga molik yoki molik emasligi hisoblanadi.

O‘quvchilar o‘rtasida salbiy holatlar ro‘y bermasligi uchun jamoaning rivojlanish usulini aniqlab olishimiz kerak buning eng ishonchli usuli – o‘quvchilarni ular bilan darsda, darsdan tashqarida o‘zaro faol hamkorlik qilish

jarayonida ko‘zatishdan iboratdir. Maxsus diagnostik usullar. Masalan: anketa, tarqatish, pedagogik vaziyatlarni vujudga keltirish, boshqalardan ham foydalanish mumkin.

Lekin, bu usullar guruhni juda ehtiyotkorlik bilan katta pedagoglik odobi bilan qo‘llash lozim. O‘quvchilarni o‘rganishning har bir usuli ayni vaqtda tarbiya usuli ham ekanligi o‘qituvchilar uchun qonun bo‘lishi kerak.

Jamoada shaxsni yakka tartibda tarbiyalashda ta’lim muassasasi o‘quvchisini o‘z-o‘zini tarbiyalashga jalb etish, uni tegishli malaka va ko‘nikmalar bilan qurollantirishdan iboratdir. Tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatishga bo‘yini yor bermaydigan tarbiyasi qiyin bolalar – bu albatta, yomon o‘zlashtiruvchilar emas, holbuki ular orasida odatda ular ko‘pchiligi ana shunday bolalardir. Zamonaviy guruh rahbar o‘quvchidar yomon xulq atvorining, past o‘zlashtirishning sabablarini puxta o‘rganadi. Bunda o‘quvchining guruhdoshlari bilan munosabatlari, bu munosabatlarning ma’naviy asoslari eng muhim masalalardan biridir. Jamoa munosabatlari – dastavval muayyan maqsadlarga asoslangan va ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan maqsadlar yo‘naltirib turadigan o‘zaro ma’suliyatli munosabatlardir.

Guruh o‘quvchilari ko‘p bo‘lgan sharoitda har bir bolaga yakka tartibda yondashish, har bir bola qalbiga to‘g‘ri yo‘l topish juda qiyin. Agar o‘quvchilar jamoasi qo‘llab quvvatlasa, har xolda bunday yo‘lni topish mumkin.

Jamoada shaxsni tarbiyalashda yakka tartibdagi yondashuvning mohiyati alohida o‘quvchini jamoa faoliyatigan jalb etishdan jamoani esa mazkur o‘quvchi bilan qiziqtirib qo‘yishdan ham iboratdir. Har qanday jamoada tarbiyasi qiyin bolalar bo‘ladi, lekin «ajratib qo‘yilgan» bolalar bo‘lmaydi.

O‘quvchilarning xulq atvori, o‘quvchining muntazam o‘rganishni o‘z oldiga maxsus maqsad qilib qo‘ymasa uning uchun sezilmagan tarzda o‘zgarishi mumkin. Bunday o‘rganish yakka tartibda ishni tashkil etishning hal qiluvchi sharti hisoblanadi. Jamoani shakllantirish, yuzasidan olib boriladigan ish albatta ayrim o‘quvchilarning rivojlanishga ta’sir etadi va shuning uchun ham bu jarayon stixiyali emas, balki maqsadga qaratilgan va boshqariladigan bo‘lishi kerak.

Guruh rahbari o‘quvchilarni yakka tartibda va jamoa bilan tarbiyalashda ota-onalar bilan o‘zaro hamkorlikda bo‘ladi. Ota-onalarga pedagogik bilim berishni uyushtirishda guruh rahbariga muayyan tarzda yordam beradigan asosiy manba «Ota-onalarga pedagogik bilim berishning namunaviy dasturi»dir. Mazkur dastur o‘quvchilarning ota-onalari bilan xilma-xil mashg‘ulotlarni birga qo‘shib olib borishni ko‘zga tutadi.

Dasturda o‘quv yili mobaynida ikkita umumta’lim mashg‘ulotni va har bir guruh ota-onalari uchun 6 tadan 9 tagacha mashg‘ulot o‘tkazish ko‘zda tutilgan. Mashg‘ulotlar shunday tarzda quriladiki, ota-onalar pedagogika, psixologiya va fiziologiya asoslari izchil kursini o‘zlashtirib, farzandlari bilan guruhdan-guruhga o‘tgandek bo‘lishadi. Kurs bolalarning yosh xususiyatlariga muvofiq va ta’limining har bir yildagi ta’lim-tarbiya vazifalarini hisobga olib qurilgan.

Ota-onalarning yuksak ta’limiy va madaniy darajasi pedagogik va psixologik ta’sir etish sifatini oshirish uchun ular bilan bevosita muomalada, o‘qituvchilarning bu yo‘nalishidagi ijodiy jamoa ishida o‘rganish mumkin.

Ota-onalar bilan ish olib borishning an’anaviy tarkib topgan shakl bu ota-onalar yig‘ilishlaridir. Ota-onalar majlislari turli xil ko‘rinishda bo‘ladi:

1) Tashkiliy yig‘ilishlar ota-onalar komiteti saylanadi. Bunda asosan jamoatchi o‘qimishli kishilar (hisoblanadi) saylanadi.

2) Chorakdagi yakunlovchi guruh majlislari ota-onalarning e’tiborini o‘quvchilarning bilishga doir qiziqishlari, axloqiy qobilyatlari, irodali fazilatlari, rivojlantirishdagi yutuqlari, kamchiliklari, foydalanilmagan imkoniyatlarga qaratish maqsadini ko‘zda tutadi. Agar har bir ota-ona majlis-dan keyin o‘z bolasiga tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatish sistemasiga to‘zatishlar kiritishning asosiy yo‘llarini aniq tasavvur etsagina, guruh rahbari o‘tkazilgan majlislardan qanoat hosil qilishi mumkin.

3) Biror mavzuga bag‘ishlangan yig‘ilishlar, tarbiyaning eng dolzarb muammoalari yuzasidan o‘tkaziladi.

Agar ta’lim muassasasi guruh rahbarlari orqali ota-onalarga ularning pedagogik bilimini oshirishda yordam berar ekan o‘z navbatida ota-onalar ham ta’lim muassasasiga bolalarni tarbiyalashni tashkil etish ishda har tomonlama yordam berishlari mumkin va lozim.

Guruh rahbarining ota-onalar komiteti bilan mohirona, yaxshi uyushtirilgan va yo‘lga qo‘yilgan ishi, bolalar bilan olib boriladigan butun tarbiyaviy ishlarning muvafaqqiyatli bo‘lishiga garov hisoblanadi. Tashabbuskor, ijodiy ishlaydigan ota-onalar komiteti guruh rahbariga, guruh jamoasini tashkil qilishdagi bebaho yordamchisidir.

Yakka tartibdagi pedagogik suhbat guruh rahbarining o‘quvchilar ota-onalari bilan olib boriladigan ishining eng ommalashgan qulay va samarali shakli hisoblanadi.

Suhbat yordamida vujudga keladigan masalalarni tez hal etish, ota-onalar bilan ishonchli munosabatlar o‘rnatish, o‘quvchilar oilaviy tarbiya sharoitlari haqida qo‘shimcha ma’lumotlar olish, ota-onalarga pedagogik bilim berish, bolaning yakka tartibdagi rivojlanish dasturini birgalikdagi pedagogik xarakatlar sistemasini ishlab chiqish, ota-onalarning tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatishlarini va tarbiyasi qiyin bola hulqini tuzatish va o‘quvchilar o‘rtasidagi kelishmovchiliklarni hal etish, kabi keng ko‘lamdagi ta’lim-tarbiya vazifalari hal qilinadi.

O‘qituvchilar u yoqi bu o‘qituvchining biror o‘quvchi uning darsida intizomni buzganligi xususidagi shikoyatga javoban ota-onani ta’lim muassasasiga chaqirtiradilar. Guruh rahbari hamma narsani sinchiklab o‘rganib chiqishi kerak. Ba’zan o‘quvchilarning darsda yomon ishlashga, gap qaytarishga va hakozolarga o‘qituvchining o‘zlari aybdor bo‘ladilar. Bunday holda o‘qituvchida pedagogik odobning yo‘qligi yoki uning darsdan, guruhdan tashqari ta’lim-tarbiya jarayonini yomon tashkil etganligi uchun ma’suliyatni o‘qituvchi va ota-onalarga ag‘darish noto‘g‘ri bo‘lur edi. Agar o‘quvchi bir muncha tarbiyasiz intizomsiz bo‘lsa ham guruh rahbari ota-onalarga faqat uning kamchiliklari haqida gapirmasligi kerak. Bu

ularning yoqimsiz bo‘lib, ular va pedagog o‘rtasida ishonchli munosabatlar o‘rnatishiga yordam bermaydi.

Har bir ota-ona o‘z farzandini yaxshi ko‘radi, shuning uchun ular, o‘z farzandida hosil bo‘lgan yangi, ijobiy kurtaklar xususida quvonchni o‘rtoqlashadigan va bolalarning xulqidagi ijobiy jihatlarni mustahkamlash yuzasidan ehtimol tutilgan, birgalikdagi harakatlar xususida maslahat-lashishni muhim deb hisoblaydigan guruh rahbariga samimiy hurmat va ishonch bilan qaraydilar. Bunday sharoitda ota yoki ona juda hayrixoh bo‘ladi va guruh rahbari bilan bajonidil aloqa bog‘laydi.

Guruh rahbarining o‘quvchilar oilalarida bo‘lishi ta’lim muassasasi va oila o‘zaro hamkorlikning muhim shakli hisoblanadi. Oilada bo‘lishning maqsadini aniq vaziyat belgilab beradi. Guruh rahbari nima maqsadda oilaga berishga muvofiq tarzda unga oldindan tayyorgarlik qo‘radi (O‘qituvchilar bilan maslahatlashadi, o‘quvchining o‘zlashtirishi xulqini aniqlaydi, avvalgi borishi natijalari to‘g‘risidagi mavzularni ko‘rib chiqadi, suhbat mazmunini va shaklini belgilaydi, muhokama qilish ota-onalar bilan kelishish uchun masalalarni tanlaydi, yaqin kelajak uchun ota-onalarning tarbiyaviy vazifalarni, tavsiyanomalarni va hakazolarni belgilab oladi).

Oilada bo‘lganda faqat maslahatchi bo‘lib qolmasdan, o‘zi ham ota-onalarning fikri va takliflariga quloq solishlari kerak, chunki ular farzandlarining muvofaqqiyatidan bizga nisbatan kam manfatdor emaslar. YUqori guruh o‘qituvchilarining oilalariga borishni zarur deb hisoblaydigan guruh rahbari nohaqdir. YUqori guruh o‘qituvchilari oldida kasb tanlash mummosi turadi, ota-onalar esa bunga o‘z farzandlarining u yoki bu faoliyatiga qiziqishi va qobilyatini inkor etib, o‘z hayotiy tajribalari asosida yondoshadilar. Bu jihatdan guruh rahbari tamonidan odob bilan yordam berishi zarurligi ravshandir.

Nobop oilalar bilan ishlash guruh rahbari uchun alohida qiyinchilik tug‘diradi. Odatda bola oilaviy notinchlikning qurboni bo‘ladi, binobarin uni pedagogikaga zid oilaviy munosabatlardan asrash – Ta’lim muassasasining vazifasidir.

Jamoatchi va bilimli guruh rahbari har qanday vaziyatdan juda ustalik bilan chiqib ketadi va har tomonlama rivojlangan guruh jamoasini tashkil qiladi.

Ta’lim muassasasi, oila va jamoatchilikning tarbiyaviy ta’sirini muvofiqlashtirishda – oila boshqa tarbiyaviy muassasalardan farqli ravishda odamning butun hayoti davomida uning barcha tomonlariga, qirralariga ta’sir ko‘rsatishga qodir va odatda ta’sir ko‘rsatadi,

Oila tarbiya vazifasining bu ulkan miqiyosi uning mafkuraviy va psixologik ta’sir ko‘rsatishining chuqur o‘ziga xosligi bilan uyg‘unlashib ketadi. Bu esa uni oila darajasida ta’sirchan qilibgina qolmay, shu bilan birga shahsiy tiklantirish jarayoninig zarur bo‘g‘iniga aylantiradi.

Ta’lim muassasasilar tajribasida faoliyat odatda ommaviy jamoa, guruh va individual shakllarda tashkil etiladi. Tabiyki individual shakllar muammolash nazarda tutmaydi.

Faoliyatni tashkil etishning ommaviy shakllari ham (ya’ni ularda o‘quvchilarning muayyan guruhlari ishtirok etadi), o‘z mohiyatiga ko‘ra uni

amalga oshirish jarayonida faoliyat maqsadiga (masalan, leksiya, konsert va hokazo) erishish uchun qatnashchilarning o‘zaro muammosini nazarda tutmaydi.

Jamoa tashkil etishning samarali shakllaridan biri guruhiy ishdir bunda mazkur ish bolalarning tarkib jihatdan (eng ko‘pi bilan besh kishi) guruhlarda amalga oshiriladi. SHunday kichik guruhlarda barcha a’zolar bir-birlari bilan bevosita muomilada bo‘ladilar va bir-birlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadilar.

O‘qituvchilar guruhlarda muammolarning o‘ziga xos husuiyatini o‘rganish uning guruhlarni o‘quvchilar muomalasini tashkil etishning samarali shakliga aylantiriladigan xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi.

Jamoa tashkil etganda o‘quvchilar muhitida mavjud bo‘lgan haqiqiy guruh-larni tutish, bir-biriga va o‘zaro do‘stlashadigan bolalarni birlashtirish za-rur. Pedagog bu guruhlarni xususiyatlarini ularning yo‘nalishi, qiziqishlari, malakasini bilishlari hisobga olish va foydalanish kerak. Jamoa ishni tash-kil etishda va amalga oshirishda vazifalarni taqsimlash vaqtida mazkur xusu-siyatlarni hisobga olish ishining samarodorligini oshiradi. Ikkinchi tomon-dan bu hol guruhdagi muammolarni jamoaning qiziqishlari sohasiga va jamoa-ning qiziqishlarini guruhdagi muomila sohasiga olib kiradi.

Jamoa faoliyatini tashkil etishda o‘qituvchilarning shaxslararo real mav-jud bo‘lgan aloqalarni hisobga olish ikki xil maqsadga erishish: guruh a’zola-rini jamoa hayotiga jalb qilish va ular o‘rtasiga muomalaga ta’sir ko‘rsatish imkonini beradi.

**2.**

O‘qituvchi faoliyatida o‘quvchilar jamoasini shakllantirish markaziy vazifa hisoblanadi. Jamoa nazariyasi qonunlariga muvofiq uni yaratish metodikasi asoslari quyidagilardan iborat: talablar qo‘yish, faollarni tarbiyalash, o‘quv, mehnat, ijtimoiy-siyosiy va ommaviy-madaniyat faoliyatdagi istiqbollarni tashkil etish sog‘lom jamoatchilik fikrini shakllantirish, ijobiy an’analarni yaratish va ko‘paytirish.

Ta’riflangan bu qoidalar har qanday jamoani shakllantirish va rivojlantirish uchun qo‘llanma hisoblanadi.

Tarbiya metodlarini tanlashda ularning rivojlanish darajasiga mosligi muvaffakiyatining muhim sharti hisoblanadi. SHuning uchun har bir o‘qituvchi tarbiyaviy ishni guruhdan jamoa munosabatlarining rivojlanishi darajasini aniqlashdan boshlaydi. O‘qituvchining esa yangi guruh bilan ko‘p marta ish boshlashiga to‘g‘ri keladi: o‘z mehnat faoliyatining dastlabki yilida, guruhni navbatdagi bitirib chiqish mavsumidan keyin, ba’zan esa ta’lim muassasasida vujudga kelgan vaziyat taqozo bilan guruh rahbari o‘zining metodlari jamoaning rivojlanishiga to‘sqinlik qilmasligi uchun shundan keyingi ishlari davomida vaqti-vaqti bilan jamoaning rivojlanishi darajasini aniqlab turadi.

Nazariyada jamoa rivojlanishning uch yoki to‘rtta darajasi ajratib ko‘rsatiladi.

Boshlang‘ich daraja pedagogning kuch-g‘ayrati natijasida guruhda o‘rnatilgan muayyan darajadagi tartib, intizom bilan, o‘quvchilarning unga katta bo‘lmagan qismi guruh rahbarining harakatlarini qo‘llab-quvvatlashi bilan izohlanadi. Tarbiya

jarayoniga o‘z-o‘zini tarbiyalash jarayoniga o‘tganda yuksak darajaga erishiladi. Ayrim o‘quvchilar va umuman jamoa o‘z faoliyatini mustaqil rejalashtiradi va tashkil etadi, o‘ziga va bir-biriga talablar qo‘yadi va o‘z-o‘zini nazorat qiladi. Guruh rahbari va o‘quvchilar jamoasi o‘y-niyatlari va ishlarida birgadirlar.

Past darajadan yuqori darajagacha boradigan yo‘l uzoq bo‘lib, muayyan qiyinchiliklarni bartaraf etish bilan kechadi. Ayni paytda jamoani shakllantirish yuzasidan olib boriladigan ishlar yuzasidan juda qiziqarlidir. Bu guruh rahbarining asosiy ishidir. Umuman ta’lim muassasasi o‘quvchisi tarbiyasining asosiy natijalari bu ish qanchalik muvaffaqiyatli o‘tishiga bog‘liq bo‘ladi. Agar o‘quvchilar jamoasi tashkil etilmagan bo‘lsa, o‘quvchi ta’lim muassasasini hech afsuslanmay tark etadi, hatto keyinchalik ta’lim muassasasi yillarini eslamaydi ham. O‘quvchilarni inoq jamoaga birlashtirish mohir guruh rahbari qo‘lida tarbiyalangan odam baxtlidir. Ulg‘ayayotgan kishining hyotdagi mavqeini shakllantirishda, uning hayot yo‘lini belgilashda o‘z vazifasini anglash guruh rahbarining bolalar jamoasini barpo etish yuzasidan olib boriladigan faol va qat’iy faoliyatning zarur sharti hisoblanadi.

Jamoaning rivojlanish darajasini belgilash metodikasi. Uning mohiyati u yoki bu rivojlanish darajasidagi jamoa normativ ta’rifini aniq jamoa ta’rifi bilan taqqoslashdan iboratdir. Ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan maqsadning, pedagoglar bilan o‘quvchilarning birgalikdagi har tomonlama sobitqadam faoliyatining, o‘zaro ma’suliyatli munosabatlarning mavjudligi: o‘z-o‘zini boshqarish organlarining faoliyati va h.k.

Bolalarning jamoa turkum normalari va qoidalarining, intizomning buzilishga munosabatlarini kuzatib, jamoasining tashkiliy tuzilishi ta’sirchanligiga ishonch hosil qilish mumkin.

Jamoa rivojlanishining dastlabki boskichida bolalar tarqoq bo‘lib, ularda yakdil va guruh rahbari tayanishi mumkin bo‘lgan ta’sirchan faollar bo‘lmaydi. SHuning uchun bunday jamoada salbiy hodisalar ochiq muhokama qilinmaydi, mustaqil jamoa qarori qabul qilinmaydi va hakozo.

Agar jamoa rivojlanishining ikkinchi bosqichida bo‘lsa, nomigagina emas, balki pedagogning harakatlarini qo‘llab-quvvatlaydigan haqiqiy harakat qiluvchi faollar bo‘lsa, uning ayrim o‘quvchilar va jamoa oldiga muayyan talablar qo‘yishni kuzatish mumkin.

Jamoa rivojlanish darajasidan dalolat beradigan muhim belgilaridan biri – o‘quvchilarning birgalidagi faoliyatiga ishtiyoqi chiqindi qog‘oz yoki metallom to‘plash, kechaga tayyorgarlik ko‘rish kabi ta’lim muassasasi tajribasida muntazam uchrab turadigan ishlarda ko‘zga tashlanadi. Guruh rahbari jamoaning rivojlanish darajasini belgilash uchun bolalarda ularning hozirgi va bo‘lajak hayotlarida ijtimoiy ahamiyatga molik maqsadlari mavjudligini bilish muhim, ya’ni jamoaning hayotiy faoliyati istiqbollarini barcha yoki yarim o‘quvchilar qabul qilishni va bu istiqbollarning xususiyati qandayligini bilib olish zarur. Agar bo‘lajak shanbalik yoki bayram kechasi bolalar uchun faoliyatga undovchi bo‘lsa va bo‘ya kun istiqbol faqat ayrim o‘quvchilar uchun ahamiyatli bo‘lsa, jamoa rivojlanishining ikkinchi bosqichi haqida gapirish mumkin.

Jamoaning rivojlanish darajasini aniqlashda o‘quvchilarning faqat guruhdan tashqari faoliyatida namoyon bo‘ladigan munosabatilarni tahlil etish bilangina cheklanib bo‘lmaydi. Guruh rahbari ishining o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, u oddiy bolalar jamoasini emas, balki o‘quvchilar jamoasini shakllantiradi. O‘quvchilarning asosiy vazifasi o‘qishdan iborat. SHuning uchun guruh rahbari dastavval bolalarning o‘qishga qanday munosabatda ekanlilarini o‘zlarini darsda qanday tutishlarini, uy vazfalarini sidqidildan bajarishlari yoki bajarmasliklarini aniqlaydi. Va nihoyat, eng muhimi – ularning o‘qishdagi mo‘ljallari nimalardan iborat, bu mo‘ljallar ijtimoiy mohiyatga molik yoki emasligi hisoblanadi.

Pedagog guruh bilan ishlashning dastlabki bosqichida turli vaziyatlarga duch kelishi mumkin. Guruhda haqiqiy jamoa munosabatlari bo‘lmasligi mumkin, bunda o‘qituvchi ishni boshidan boshlashga to‘g‘ri keladi. Ko‘pincha bunday holat yangi shakllangan, «yig‘ma» guruhlarda, yangi qurilgan ta’lim muassasasilarda bo‘lishi mumkin.

Ikkinchi tomondan guruh rahbari guruh bilan ishlar ekan, har doim jamoa rivojlanishning boshlang‘ich davri bilan ish ko‘radi, deb mo‘ljallab bo‘lmaydi. O‘qituvchi bunday holda jamoa faoliyatining avvalgi tajribasini tahlil etadi va uning ancha yuqori rivojlanish darajasiga mos keladigan tarbiya metodlarini qo‘llaydi.

**3.**

Har bir ishning o‘ziga xos, ma’lum qonun qoidalari bo‘lganidek, bola tarbiyasining ham o‘ziga xos bpr qator muhim qonun-qoidalari borki, ularga amal qilish tarbiya ishining samarali bo‘ulishini ta’minlaydi, chunonchi,

- tarbiyaning bir maqsadga qaratilganligi;
- tarbiyaning hayot, mehnat bilan, O‘zbekistonimizning mustaqilligi, gullab yashnashi yo‘lida qilinayotgan fidoiy ishlar bilan bog‘lanishi;
- o‘quvchini jamoada, jamoa orqali tarbiyalash;
- tarbiyada bola shaxsini hurmat qilish va unga talabchanlik;
- tarbiyaviy ishlarning izchilligi, muntazamligi hamda birligi;
- tarbiyada o‘quvchilarning yoshi va o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish.

Quyida tarbiya jarayonining qonun-qoidalarini ko‘rib chiqamiz:

**1.** Tarbiyaning bir maqsadga qaratilganligi. Tarbiya maqsadini belgilashda jamiyat talablari, davr nafasi, milliy xususiyatlar asos qilib olinadi.

Tarbiyaning maqsadi – har tomonlama kamol topgan-mukammal inson shaxsini tarbiyalashdir.

O‘qituvchilar jamoasi va har bir o‘qituvchi-tarbiyachi ana shu maqsadlardan kelib chiqib, tarbiyaviy ishlarning, vazifalarini belgilaydi, uning mazmunini aniqlaydi hamda ta’lim muassasasi ish sharoitlarini hisobga olgan holda o‘quvchilarni tarbiyalashning shakl va uslublarini tanlaydi.

**2.** Tarbiyaning hayot bilan bog‘liqligi qoidasi tarbiyaviy ishlarning mazmuni va tashkil etilishini doimo yangilab turishini talab etadi. Tarbiyachilar bolalar tarbiyasini hayot bilan bog‘lar ekanlar, ularga o‘zlarida iymon-e’tiqodni tarbiyalash imkonini beradilar. Tarbiyaviy ishlar shunday tashkil qilinganda

yoshlar jamiyat hayotiga faolrok; jalb qilinadi, bu esa o‘quvchi shaxsining tarkib topishiga yordam beradi.

Ilg‘or o‘qituvchilar tajribasining ko‘rsatishicha, o‘quvchilar ahil jamoa bo‘lib uyushgandagina tarbiya ishlarini faol o‘quvchilarga tayanmog‘i, o‘quvchilarni turli ishlarni birgalikda bajarishga odatlantirib, ularga jamoatchilik ruhini snngdirib borishi lozim.

Guruh rahbari ishida o‘quvchilar jamoasini shakllantirish asosiy vazifa hisoblanadi, chunki jamoada shaxsni tarbiyalash-tarbiyaning etakchi tamoyillari hisoblanadi. Jamoa nazariyasi qoidalariga muvofiq uni yaratish usuli ishlab chiqilgan. Uning umumiy asoslari quyidagilardan iborat:

**1.** Talablar qo‘yish;

**2.** Faollarni tarbiyalash;

**3.** O‘quv mehnat, ijtimoiy-siyosiy va ommaviy-madaniy faoliyatdagi istiqbollarini tashkil etish;

**4.** Sog‘lom jamoatchilik fikrini shakllantirish;

**5.** Ijobiy an’analarni yaratish va ko‘paytirish.

Yuqorida ta’riflangan barcha qoidalar har qanday jamoani shakllantirish va rivojlantirish uchun qo‘llanma hisoblanadi.

Tarbiya usullarini tanlashda ularni jamoaning rivojlanish darajasiga mosligi muvaffaqiyatning muhim sharti hisoblanadi. SHuning uchun har bir o‘qituvchi tarbiyaviy ishni guruhdagi jamoa muvaffaqiyatning munosabatlarini rivojlanishi darajasini aniqlashdan boshlaydi. o‘qituvchining esa yangi guruh bilan kun marta ish boshlanishiga to‘g‘ri keladi: o‘z mehnat faoliyatining dastlabki yilida, guruhni navbatdagi bitirib chiqish mavsumidan keyin, ba’zan esa ta’lim muassasasida vujudga kelgan vaziyat taqozosi bilan.

Tarbiya jarayoni o‘z-o‘zini tarbiyalash jarayoniga o‘tganda yuksak darajaga erishiladi. Ayrim o‘quvchilar va umuman jamoa o‘z faoliyatini mustaqil rejalashtiradi va umuman jamoani tashkil etadi, o‘ziga va bir-biriga talablar qo‘yadi va o‘z-o‘zini nazorat qiladi.

4.

Jamoani shakllantirish yuzasidan olib boriladigan barcha ishlar juda qiziqarli bo‘lib, bu ish guruh rahbarining asosiy ishi bo‘lib hisoblanadi. O‘quvchilarni inoq jamoaga birlashtirgan mohir guruh rahbari qo‘lida tarbiyalangan odam baxtlidir. SHaxsning hayotdagi mavqeini shakllantirishda, uning hayot yo‘lini belgilashda o‘z vazifasini anglash siif rahbarining bolalar jamoasini barpo etish yuzasidan olib boradigan faol va qat’iy faoliyatning zarur sharti hisoblanadi. Guruh rahbarinnng o‘ziga xos xususiyati shundan ibo-ratki, u oddiy bolalar jamoasini emas, balki o‘quvchilar jamoasini shakllan-tiradi. O‘quvchilarning asosiy vazifasi o‘qishdan iborat. SHuning uchun guruh rahbari dastavval: bolalarning o‘qishga qanday munosabatda ekanliklarini, o‘zlarini darsda qanday tutishlarini, uy vazifalarini sidqidildan bajarish-lari yoki bajarmasliklarini aniqlaydi. Va nihoyat, eng muhimi ularning o‘qishdagi mo‘ljallari nimalardan iborat, bu mo‘ljallar ijtimoiy mohiyatga molik yoki molik emasligi hisoblanadi. Jamoaning rivojlanish darajasini aniqlashning eng ishonchli usuli – o‘quvchilarni ular bilan darsda, darsdan

tashqarida, ta'lim muassasasida, ta'lim muassasasidan tashqarida o'zaro faol hamkorlik qilish darajasida kuzatishdan iboratdir. O'qituvchi jamoaning kuch-li va zaif tamoyillarini aniqlash uchun pedagogik vaziyatlar vujudga kelti-rishni qo'llaydi. Lekin bunda shuni esda tutish kerakki, o'quvchi kamchilikla-rini hamma o'rtasida yorqin namoyish uni ma'naviy halok etishi, qalbini jaro-hatlashi mumkin.

Shunday vaziyatlarni vujudga keltirish kerakki, ular salbiy tomonlarni emas, har bir bolada odatdagi sharoitda boshqalardan yashiringan ijobiy tomon-larini ham ochib bersin. Guruh rahbari jamoa rivojlanishining aniqlangan darajasiga qarab tarbiya usullarini tanlaydi. Bunda o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish qo'shimcha shart hisoblanadi. Bu xaqda gapirmasa ham bo'lardi, chunki bu shart pedagogik tamoyillardan biridir. SHu bilan birga ishni endi boshlagan o'qituvchi, ayniqsa guruh rahbari tarbiya usullarini emas, balki shakllarini tanlashda o'z tarbiyalanuvchilari yoshini hisobga olishi muhimdir. Bunda bir hil usullar talablar, topshiriqlar va hokazolar turlicha izohlanadi. Ta'lim jarayonida jamoa munosabatlarini rivojlantirish istiq-bollari guruh rahbarining katta e'tibor berishini talab etadi. Jamoa faoliyatida ko'proq muomala qilishga bo'lgan ehtiyoj yotadi. Darslarda bu ehtiyoj kam qondiriladi. Agar darsdagi muomalaga bo'lgan ehtiyoj to'g'ri tushunilsa, uning negizida o'quvchilarning o'zaro yordami, darslarga birgalikda foydali tayyorgarlik ko'rish, kiziqishlar buyicha mashg'ulotlar tashkil etiladi. Ta'lim jarayonidagi jamoatchilik tuyg'usi ana shu, ya'ni birgalikdagi mehnat bolalarda katta qoniqish hosil qilish ijobiy kechinmadan boshlanadi. Shu tariqa o'zaro yordam tashkil etish guruhdagi jamoa munosabatlarini shakllantirishning yo'llaridan biridir. O'qituvchi yana o'quvchilarni yosh xususiyatlarini, guruh jamoasining xususiyatlarini, uning shakllanganlik darajasini hisobga oladi, o'sha talablarida jamoa fikrining qo'llab quvvatlanishiga tayanadi. Jamoa rivojlanishining har qanday darajasida guruh rahbari muayyan usullardan foydalanib, jamoatchilik fikrini shakllantirish to'g'risida maxsus g'amxo'rlik qiladi. O'quvchilar jamoasini shakllantirish jarayonini past darajadan yuqori darajaga boradigan vaqt davomidagi harakat, ijtimoiy talablar avval shaxsan guruh rahbaridan, o'qituvchidan faqat yakka bolalar, keyinchalik ko'pchilik bolalar idrok etadigan va nihoyat, barcha uchun va har bir bola uchun hayot qonuni bo'lib qoladigan tarzda jo'n tushunib bo'lmaydi. Hatto uyushgan jamoada ham jamoatchilik xususiyatlari zaif rivojlangan ayrim o'quvchilar bo'ladi. Guruh rahbari jamoa va har bir alohida o'quvchining tarbiyasi uchun ma'suldir. SHuning uchun uning jamoa tarzidagi va yakka tartibdagi shakllarini qo'shib olib borishi tarbiyaviy ishdagi o'ziga xos xususiyatlaridan biridir. Jamoaning shaxsga nisbatan yuksak talabchanligi kuzatiladi.

Ta'lim muassasasilar tajribasida faoliyat odatda ommaviy, jamoa, guruh va individulal shakllarda tashkil etiladn. Faoliyatni tashkil etishning omma-viy shakllari ham (ya'ni ularda o'quvchilarning muayyan guruhlari ishtirok eta-di) o'z mohiyatiga ko'ra uni amalga oshirish jarayonida faoliyat maqsadga (masa-lan, ma'ruza, konsert va hokazo) erishish uchun katnashchilariing o'zaro muomala-sini nazarda tutmaydi. Biroq, bundan oldingi holda bo'lgani kabi, bu shakllar-da bevosita tengdoshlar bilan birgalikda qatnashish ba'zi hollarda ularning

faoliyatidagi ishtirokini faollashtiradi, boshqa hollarda aksincha bo‘ladi. Bu ko‘p jihatdan o‘quvchilarning faoliyat mazmuniga, munosabatiga (ijobiy, passiv yoki salbiy) bog‘liq bo‘ladi. Faoliyatni amalga oshirish jarayonida uning maqsa-diga erishish uchun o‘quvchilarning o‘zaro muomalaga kirishishlarini nazarda tutuvchi faoliyat shakllari jamoa shakllari deyiladi, bu muomala jarayonida o‘quvchilar o‘rtasida jamoa aloqalar vujudga keladi. Bu shakllar ob’ektiv ji-hatdan o‘zida muomala uchun muayyan shart-sharoitlarga ega bo‘ladi. Ular o‘quvchi-larga ishning muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun vazifalarni o‘zaro taqsim-lab chiqish imkonini beradi, katnashchilar o‘rtasida aloqa ta’sirining paydo bo‘lishiga olib keladi.

Jamoada muomalani tashkil etganda, o‘quvchilar muhitida mavjud bo‘lgan haqiqiy guruhlarni nazarda tutish, bir-biriga mehr bilan qaraydigan va o‘zaro do‘stlashadigan bolalarni birlashtirish zarur. Pedagog bu guruhlarning xususiyatlarini, ularning yo‘nalishi, qiziqishlari, malakasini va hokazolarini bilishi, hisobga olishi va ulardan foydalanishi kerak.

Jamoa ishini tashkil etishda va amalga oshirishda vazifalarni taqsim-lash vaqtida mazkur xususiyatlarni hisobga olish ishining samaradorligini oshiradi. Bu hol guruhdagi muomalani jamoaning qiziqishlari sohasiga va jamoaning qiziqishlarini guruhdagi muomala sohasiga olib kiradi. Masalan, jamoa etarli darajada obro‘ qozongan, jamoatchilik yo‘nalishiga ega bo‘lgan gu-ruhga muayyan bir tadbirni tayyorlash va o‘tkazishga boshchilik qilishni topshir-sa bo‘ladi. Qandaydir o‘ziga xos qiziqishlarii bor guruhga butun jamoa uchun bu qiziqishlarga mos keladigan ishning tashabbuskori va tashkilotchisi bo‘lish taklif etiladi va hokazolar.

## Nazorat uchun savollar:

1. Tarbiya metodi, usuki va vositasi tushunchalariga ta’rif bering.
2. Tarbiya metodlarini tasniflashga doir yondashuvlarni izohlang.
3. Shaxs ongini shakllantirish metodlari haqida gapirib bering.
4. Faoliyatni tashkil etish va ijtimouy xulq-atvor tajribalarini shakllantirish metodlarini misollar asosida tushuntiring.
5. Faoliyatni rag’batlash va motivatsiyalash metodlarini qo’shimcha manbalardan o’qib to’ldiring.
6. O‘quvchilarni tarbiyalashda jamoaning roli nimalardan iborat?

# 8-MAVZU: OILA, JAMOA O’QUV BILIM YURTINING TARBIYAVIY ISHLARI HAMKORLIGI

**Reja:**

1.Guruh rahbari o’quvchilar faoliyatini tashkil etishda 3 tomonlama hamkorlik aloqalarini yo’lga qo’yish.

2.Guruh rahbarining shaxs va jamoani o‘rganishi va tarbiyaviy ishlarni rivojlantirishi.

3.Jamoada sog’lom muhitni yaratishda pedagogik va psixologik tadbirlarni olib borish.

***Tayanch iboralar:*** Pedagogik oliyjanoblik, oliyjanoblik hissini shakllantirish, kasbga nisbatan munosabati, o‘quvchining munosabati, nuqsonlarni yo‘qotishga yordam berish, o‘quvchilrning yutuqlaridan hursand bo‘lish, hamkorlik ishlari.

**“Oila men uchun muqaddas. Muqaddasligi shuki, avvalambor qayerda ishlashidan qat’i nazar, kim bo‘lishidan qat’i nazar agar oilada tarbiya, oilada muhit, oilada halollik, munosabat, tarbiyaga alohida e’tibor bermasa, hech qachon natija bo‘lmaydi. Shuning uchun men farzandlarimning tarbiyasiga juda katta e’tibor beraman. Har bir farzandimga ham, nevaramga ham alohida o‘zimning munosabatim bor. Har bir nevaramning alohida xarakterini bilaman, orzusini, istagini bilaman”, — dedi u. “Odam baxtliman deyishga qanchalik haqqi bor? Agar oilang bilan sen baxtli bo‘lsang, baxtliman deyishga haqqing bor. Faqat oilam emas, xalqim baxtli bo‘lsa men o‘zimni baxtli deb bilaman”, — deya ta’kidladi prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev.**

**2020 YIL 20 – FEVRALDAGI “O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAHALLA VA OILANI QO‘LLAB-QUVVATLASH VAZIRLIGI FAOLIYATINI TASHKIL ETISH” TO‘G‘RISIDA GI HAMDA O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING 2020-YIL 18-FEVRALDAGI “JAMIYATDA IJTIMOIY-MA’NAVIY MUHITNI SOG‘LOMLASHTIRISH, MAHALLA INSTITUTINI YANADA QO‘LLAB-QUVVATLASH HAMDA OILA VA XOTIN-QIZLAR BILAN ISHLASH TIZIMINI YANGI DARAJAGA OLIB CHIQISH CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA”GI PF–5938-SON FARMONLARI ORQALI HAM BUGUNGI SHAXS TARBIYASI UNI KELAKJAGI UCHUN OILA, JAMOA O’QUV BILIM YURTINING HAMKORLIGI MUHIM EKANLIGIGA PREZIDENTIMIZ TOMONIDAN TA’SIS ETILAYOTGAN QAROR VA FARMONLARNI KO’RISHIMIZ MUMKIN.**

Guruh rahbaridan madaniyat darajasining kengligi, pedagogik odob talablariga rioya qilish, har bir o‘quvchi shaxsini inson sifatida hurmat qilish bilan unga nisbatan talabchanlikni unutmaslik, tashkilotchilik malakalariga ega bo‘lish, o‘z

malakasini tinimsiz oshirib borish bilan ishga ijodiy yondoshish talab qilinadi. Muhimi shundaki, guruh rahbarining o‘zi bolalarda tarbiyalamoqchi bo‘lgan g‘oyaviy-axloqiy g‘oyaga mos bo‘lishi kerak. Tarbiyadagi xatolarning ko‘pligiga asosiy sabab o‘quvchilarning oldiga qo‘yilayotgan talablar tarbiyachi xarakterda hamisha ham namoyon bo‘lavermasligidadir.

Guruh rahbarining maxsus kasbiy va ijtimoiy vazifalariga odilona baho beruvchi xolis hakam – tarbiyalanuvchilar. Avvalo, guruh rahbarining amaliy faoliyati faqat yarimi tarbiya texnologiyaga asoslanganligini nazarda tutish kerak. Uning ikkinchi yarimi bu san’at. Shu tufayli guruh rahbariga qo‘yiladigan dastlabki talab – unda pedagogik qobiliyat mavjud bo‘lishi kerak. Guruh rahbarining qobiliyati – bu o‘quvchilar bilan ishlashga ishtiyoq, bolalarga nisbatan muhabbat, ular bilan bo‘lgan munosabatdan mamnun bo‘lish bilan ifoda bo‘ladigan shaxsning sifatlari.

-siyosiy mustaqillik tufayli ichki va tashqi siyosatdan Respublikamiz o‘z qadriyatlari asosida jaxonning ko‘pgina mamlakatlari bilan bog‘landi, nufuzli tashkilotlarga teng xuquqli a’zo bo‘ldi, diplomatik aloqalar o‘rnatildi;
-iqtisodiy mustaqillik tufayli tabiiy zaxiralarga boy giosiyosiy nuqtai nazardan ancha qulay xududda joylashgan yurtimiz xo‘jalikni yuritish xuquqi qo‘lga kiritildi va xalqimiz farovonligi yo‘lida ulardan foydalanishga shart-sharoitlar yaratildi;
-ma’naviy mustaqillik tufayli xalqimizning istiqlolga, ozodlikka o‘z davlatiga ega bo‘lishiga, adolatli jamiyat qurishga bo‘lgan azaliy orzu-umidlari ro‘yobga chiqdi.
Mustaqillik tufayli biz bugungi kunda barqaror bozor iqtisodiyotiga, ichki va tashqi siyosatga, demokratiyaga asoslangan xuquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurishga kirishdik.
Shuningdek, geografiyaning mazmunini uning majmualigi, xududiyligi, bir butunligi bilan bog‘liqligi xam mafkurani shakllanishi va takomillashuviga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Geografik mavzular mazmunini qiyoslash, taqqoslash va aniq taxlil qilish xam mafkuradagi farqlarni to‘g‘ri anglashga yordam beradi, uni takomillashtiradi. Geografiyadagi geografik o‘rin, tabiiy sharoit, mavzularida ma’lumotlarni aniq yoritish ishonch xissini uyg‘otadi.
Guruh o‘z navbatida umuta’lim muassasasi musobaqasiga qo‘shilishi mumkin. Bu ancha ma’suliyatli ish. Uning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan faollarning uyushqoqligi, tashabbuskorligi va mustaqilligiga bog‘liq bo‘ladi.
Sinf rahbari ishining asosiy qismi o’quvchilarni o’rganish, o’quvchilar bilim sifatini oshirish hamda ularning tartib intizomini mustahkamlash. Darsdan va sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkil etish va ularni o’tkazish.
O’quvchilarning ota-onalari bilan olib boriladigan ishlar ham maktab tashkilotchisi va sinf rahbarining asosiy vazifalaridan biridir.
O’quvchilar jamoasi – sinf rahbarining tayanchi. O’quvchilarni tarbiyalashda sinf jamoasidagi barcha o’quvchilarning bir-birlariga ta’sirlari katta ahamiyatga ega. Ularni bir-biriga ko’rsatadigan o’rnaklari intizomni yaxshilash va mustahkamlashga, ularni xulq madaniyatini, odatini, ko’nikmasini hosil qiladi.

Sinf rahbari bolalarni odobli qilib tarbiyalashni, ularga andisha bilan gapirishni, maqbul harakat qilishni o'rgatishi lozim.
Alisher Navoiy «Mahbub-ul-qulub» asarida ta'lim-tarbiya jarayonlarini, vositalarini, ahloq-odob talablarini ko'rsatadi. O'z davridagi musulmon maktablarining yutuq va kamchiliklarini tahlil etadi. O'qituvchi odobi va muallimlik kasbi, mudarrislar, maktabdorlar va ta'lim berayotgan fanini va tarbiya jaaryonini sevishi kerak deydi. O'ziga xos o'quvchi jamiyatda obro'li va hurmatga loyiq insondir, deb hisoblaydi. SHogirdlar muallimni hurmat qilishlari, e'zozlashlari zarurligini uqtiradi.
Navoiyning fikricha, ba'zan bir kishi bitta bolaga tarbiya berishga ojizlik qiladi, muallim esa bir nechta bola-sinf jamoasini tashkil etadi va ilmu-adab o'rgatadi. Bu jarayonda sinf rahbari ko'p mashaqqatlarga duch keladi. SHuning uchun shogirdlar ustoz oldida umrbod qarzdor ekanliklarini his etishlari lozim. Shogird podsholik martabasiga erishsa ham muallimga qulluq qilsa arziydi.
Xaq yo'lida senga bir harf o'qitmish ranj ila,
Aylamak bo'lmas ado oning haqin yuz ganj ila.
Sinf rahbari o'quvchilarni ma'naviy-ahloqiy tarbiyalar ekan, u o'z faoliyatida quyidagi talablarga rioya qilishi kerak:
- sinf rahbari o'quvchi ota-onasining mansabi, boyligiga qarab bolaga muomala qilmasligi lozim.
- sinf rahbari bolalarga ahloqiy normalarni o'rgatishi kerak.
- gerdayishi, manmanlik, ta'magirlik, nodonlik kabi illatlar o'qituvchi ahloqiga yod sifatlardir.
- xalq nazarida olim hisoblanadigan o'qituvchilar yomon ishlardan, fisqu fasoddan o'zlarini tiya bilishlari zarur.
Sinf rahbarining ota-onalar bilan to'g'ri muomila qila olishi murakkab, nozik ish. Chunki hozirgi ota-onalarning ko'pchiligi o'rta yoki oliy ma'lumotli kishilar, ular vaqtli matbuot, televidinie, radio orqali ko'pgina pedagogik axborotlarni bilib oladilar. SHunday vaziyatlar ham bo'ladiki, o'g'il yoki qiz bola maktabda o'zboshimchalik qiladi, lekin oilada hushyor va gapga quloq soladi, yoki aksincha. Oilada muomalasi qo'pol, o'zboshimcha, maktabda esa o'zini xushmuamola, intizomli tutadi. Buning sababi nimada? Bunday holatlarning hammasi uchun bir xil sabab va to'g'ri javobni topish amri mahol. CHunki har bir holatda uning sabablari turlicha bo'lishi mumkin. Demak, sinf rahbari va ota-onalarning maqsadlari bir xil bo'lsa ham, ularning hamkorligi, bir-birini tushunishi, muomala munosabatlari qarama-qarshiliklarsiz bo'lmaydi.
Sinf rahbarining faoliyati kamol topayotgan kishi shaxsini tarkib toptirishga qaratilgandir. Bu faoliyatning natijalari tarbiyalanuvchining qiyofasida, uning shaxsidagi xususiyatlarida, xarakter va xulq-atvorida o'z aksini topadi. Agar tarbiyachi pedagog nimaga intilayotganini ravshan va aniq tushunilmagan joyda tarbiyalanuvchilar shaxsini takomillashtirishga astoydil intilish bo'lmaydi, balki tarbiyada o'tkaziladigan ish tasodifiy tusga ega bo'lib, buning uchun ajratilgan vaqtni to'ldirish uchungina olib boriladi. Tarbiya faoliyatining maqsadlarini aniq bilmagan va bu maqsadlarni hisobga olmagan holda to'la qimmatli tarbiya yo'q va

bo'lishi ham mumkin emas. Ma'naviy-ahloqiy tarbiyaning maqsadi jamiyat talablariga bog'liq bo'lib, bu talablar o'z navbatida ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanish darajasi va jamiyatda yoshlarni o'qitish va tarbiyalash ishlarining hammasi yosh avlodda ma'naviy ahloq va e'tiqodni shakll antirishga, ularni Vatanga cheksiz sadoqat ruhida tarbiyalashga xizmat qilishi lozim.
naviy-ahloqiy tarbiyalash tuzimini takomillashtirishda
boshlang'ich maktab muhim o'rin egallaydi.
Ma'naviy ahloqiy tarbiya-ma'naviy ongni bir maqsadni ko'zlab tarkib toptirish, ahloqiy tuyg'ularni rivojlantirish hamda xulq-atvor ko'nikmalari va odatlarini hosil qilishdan iborat. Sinf rahbari o'quvchilarni ma'naviy-ahloqiy tarbiyalashning quyidagi vazifalarini hal etishi kerak.
1) Tug'ilib o'sgan joyiga, O'zbekiston Respublikasiga yuksak muhabbat tuyg'ularini, uning tabiati va kishilar haqida, Vatanning himoyachilari va mehnat qahramonlari to'g'risida, ota-bobolarimiz, ularni dunyo tsivilizitsiyasiga qo'shgan hissalari to'g'risida ko'proq bilishga intilishni tarbiyalash.
2) O'quvchilarda Vatanimizning boy tarixi, shuningdek boshqa mamlakatlar to'g'risida, tinchlik uchun kurash haqida chet ellardagi bolalar tashkilotlari haqida dastlabki tasavvurlarni hosil qilish.
3) Bolalarda o'rtoqlik tuyg'usini, boshqalarga yordam ko'rsatish ishtiyoqini, umumiy foyda yo'lida birgalikda faoliyat ko'rsatishga intilishni tarkib toptirish. Bolalar o'rtasida, o'g'il va qiz bolalar o'rtasida do'stona munosabatlarni rag'batlantirish, sohta o'rtoqlik ko'rinishlariga qarshi kurash olib borish lozim.
4) O'z so'zi va va'dasi uchun, o'qituvchi va kollektiv topshiriqlarining bajarilishi uchun ma'suliyat tuyg'usini tarbiyalash.
5) Bolalarda kishilarga to'g'ri munosabatni, keksalar, bemorlar, invalidlarga nisbatan e'tibor va g'amhurlikni, xushfe'l va betartib, kamtar va haqgo'y bulishini tarbiyalash.
O'quvchilarni barcha kishilarning yaxshi va yomon xatti-harakatlarini farqlay olishga, o'z xatti-harakatlariga va o'rtoqlarining xatti-harakatiga adolatli baho berishga o'rgatishi hamda o'z kuch g'ayratini o'quvchilarda nopoklik, adolatsizlik, kishilarga raxm-shafqatsiz bo'lishga nisbatan salbiy munosabatni tarkib topshtirishga qaratishi kerak.
O'quvchilarni tarbiyalash o'qitishga qaraganda ancha qiyin degan fikrni o'qituvchilar orasida tez-tez eshitish mumkin. Ma'naviy-ahloqiy tarbiya ta'limberish bilan mustahkam aloqada bo'lgani holda, o'zining xususiyatlariga ega. Ma'naviy-ahloqiy tarbiya o'sib kelayotgan avlodni tarbiyalashni barcha protsesslarini bilim berish va o'rgatish bilan birga qamrab oladi. Bunday ikkita o'zaro bog'langan tomon: hayotni bilish va unga bo'lgan munosabatni tarkib toptirish protsesslari ajralib turadi. Hayotni bilish ma'lumot olishning asosiy funktsiyasi, unga bo'lgan munosabatni tarkib toptirish tarbiyaning asosi, vazifasini tashkil etadi.

## XULOSA

Talabalarni tarbiyalashda oilaning bir qancha vazifalari mavjud bo‘lib ular quydagilardir:

-oilada sog‘lom muhitni yaratish, milliy ruh va turmush tarzini hisobga olish, farzandlar uchun ota-ona har tomonlama o‘rnak bo‘lishi, farzandlarning ota-onasiga, Vatanga muhabbat tuyg‘usini shakllantirish, o‘zaro g‘amxo‘r bo’lishni ta’minlash;
-oilada huquqiy tarbiyani yaxshilash, oila a’zolarining o‘z huquq va burchlarini anglab etishlarini va ularga rioya qilishlarini ta’minlash;
-farzandlariga chuqur dunyoviy bilim asoslarini berish, ma’rifatli va ma’naviyatli kishilar bo‘lib etishishlarini ta’minlash;
-bozor munosabatlariga mos bo‘lgan kasb-hunar o‘rgatish, iqtisodiy tushunchalarni farzandlar ongiga singdirish;
-shaxslarning ma’naviy barkamol va jismonan sog‘lom bo‘lishlari uchun iqtisodiy va ijtimoiy muhitni yaratish;
-shaxslarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish, istiqlol g‘oyalari va milliy mafkuraga sadoqat ruhida tarbiyalash;
-shaxslarning bo‘sh vaqtlarini pedagogik nuqtai nazardan kelib chiqib unumli tashkil qilish, ularga qo‘shimcha ta’lim berish;
-farzandlarida mavjud bo‘lgan iste’dod ko‘rtaklarini rivojlantirish uchun zarur sharoitlarni yaratish;
-o‘z farzandlarining o‘quv muassasasi, mahalla, davlat va jamiyat oldidagi burchlarini to‘la ado etishlari uchun oilada mas’uliyatli bo‘lish;
-ota-onalar o‘zlarining pedagogik va psixologik bilim saviyalarini doimo oshirib borishi;
- shaxslarda tejamkorlik va ishbilarmonlikning ma’naviy axloqiy tomonlarini shakllantirish;
—oilada milliy va umuminsoniy tarbiyaning barcha yo‘nalishlarini uyg‘un holda bosqichma-bosqich amalga oshirishga mas’ullikni ta’minlash;
—sanitariya-gigienik, ekologik ko‘nikmalarni singdirish, diniy aqidaparastlik, ichkilikbozlik, giyohvandlikka qarshi tarbiyani amalga oshirish;
—oila, o‘quv bilim yurti va mahalla oldida o‘z farzandlarining barcha hatti-harakatlari uchun javobgardir;
—sog‘ligida va aqlida nuqsonlari bo‘lgan farzandlariga hayot talablariga mos ravishda bilim va kasb-kor o‘rgatishdan iborat.Ota-onaning farzand oldidagi burchi, o‘zbekona ta’bir bilan aytganda, farzandga yaxshi nom qo‘yish, yaxshi muallim qo‘liga topshirib savodini chiqarish, ilmli, kasb-hunarli qilish, oilali va uyli-joyli qilishdan iboratdir. Ota-onalar yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar tomonidan voyaga yetmagan bolalarni tarbiyalash va ularga ta’lim berish borasidagi majburiyatlarni bajarmaslik, shu jumladan, voyaga yetmagan bolalarning ma’muriy huquqbuzarlik sodir etishiga olib kelishi holatlari qayd etilganda qonuniy jazo turlari ham mavjud.
– Ma’muriy jinoyat to‘g‘risidagi kodeksning 47-moddasida ota-onalar yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar tomonidan voyaga yetmagan bolalarni tarbiyalash va ularga ta’lim berish borasidagi majburiyatlarni bajarmaslik (shu jumladan, voyaga yetmagan bolalarning ma’muriy huquqbuzarlik sodir etishiga olib kelishi) – ya’ni Oila kodeksining (OK) 73-moddasida ko‘zda tutilgan

majburiyatlarni pisand qilmaslik huquqbuzarlik sifatida belgilangan, – deydi Toshkent shahar, Mirobod tuman Ma’muriy sudi raisi Suhrob Yo‘ldoshev. – Shu bilan birga, bolalarning majburiy umumiy o‘rta ta’lim, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi olishiga ota-onalar yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar tomonidan to‘sqinlik qilish – ya’ni OKning 73-moddasini buzishda faol harakatlarni bajarish jazosiz qolmaydi. Shuningdek, bu kabi xatti-harakatni takror sodir etganlik uchun oshirilgan jarimalar va hatto 15 sutkagacha muddatga ma’muriy qamoq joriy etilgan.

Aksariyat hollarda oiladagi salbiy muhit tarbiyasi og‘ir bola shaxsining shakllanishiga olib keladi. Oilada sog‘lom muhit bo‘lmasligi asosan xudbinlik va boshqa salbiy xislatlarni tarbiyalaydi. Ehtimol, ta’lim muassasalarida bu kabi holatlarning kuzatilayotgani ham oilaviy muhit bilan bog‘liqdir. Farzandini sevuvchi, unga faqatgina yaxshilikni ravo ko‘ruvchi ota-onalar orasida ham zarur pedagogik madaniyat yetishmasligi sababli, farzandi uchun nosog‘lom muhit yaratilishi mumkin.

## 10-SEMESTR

## 1-MAVZU: TARBIYAVIY ISH VA UNI TASHKIL ETISH METODIKASI

## 1-MAVZU. TA’LIM TARBIYA JARAYONIDA TARBIYAVIY ISHLAR TEXNOLOGIYASI. TARBIYA JARAYONINI TEXNOLOGIYALASHTIRISH.

**2 S.**

**Reja:**

1.Tarbiya jarayonini texnologiyalashtirish zaruriyati.

2. Tarbiya texnologiyasining tarkibiy qismlari (komponentlari).

***Tayanch iboralar:*** *texnologiyalashtirish, tarbiya texnologiyasi, loyiha, komponent.*

**1.**

Barkamol shaxsni shakllantirish muammosining ijtimoiy zaruriyat sifatida e’tirof etiliyotganligini hisobga olganda, tarbiya jarayonini tashkil etishga nisba-tan yangicha yondashuvni qaror toptirish, mazkur jarayonni texnologiyalashtirishga erishish muhim pedagogik vazifalardan biridir. “Pedagogik texnologiya”tushunchasi o‘z mohiyatiga ko‘ra pedagogik faoliyatning eng muhim ikki jihati, ya’ni, ta’lim hamda tarbiya jarayonining texnologiyalashtirilishini ifoda etishi zarur. Biroq so‘nggi yil-larda yangi pedagogik texnologiyalar mavzusida yaratilgan manbalarning deyarli barcha-sida ta’lim jarayonini texnologiyalashtirish asosiy ob’ekti tarzida ifodalanganli-gining guvohi bo‘ldik. Holbuki, aniq maqsadga va ijtimoiy g‘oyaga asoslangan hamda o‘quvchilarda ma’naviy axloqiy sifatlarni shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyatni tashkil etishda ushbu jarayonga texnologik yondashuvni talab qiladi.

Tarbiya jarayoni uzoq davom etadi hamda uning samarasini qisqa muddat orlig‘ida aniqlash imkoni yo‘q. SHu bois ushbu jarayonni texnologiyalashtirishga nisbatan ijodiy va mas’uliyatli yondashish muhim ahamiyatga ega.

Tarbiya jarayonini texnologiyalashtirishda mazkur jarayonni loyihalashtirish hamda uning asoslarini belgilash muxim ahamiyatga ega. Tarbiya jarayonini loyihalash quyidagi bosqichlarda kechadi:

Tarbiya jarayonini **loyihalash bosqichlari**:

1) tarbiyaviy tadbir mavzusiga doir materiallarni yig‘ish;
2) tarbiyaviy tadbir maqsadi va vazifalarini belgilash;
3) tarbiyaviy tadbirning mazmunini ishlab chiqish;
4) tarbiyaviy tadbir shakli, metodlari va vositalarini tanlash;
5) tarbiyaviy tadbirni tashkil etish va o‘tkazish (davomiyligi) vaqtini belgi-lash;
6) tarbiyaviy tadbir ssenariysini ishlab chiqish;
7) o‘quvchilar faoliyatini nazorat qilish, ularning faollik darajalarini noras-miy (o‘quvchilarni bu haqida xabardor qilmasdan) baholash;
8) loyihani amaliy faoliyatda qo‘llash;
9) tarbiyaviy tadbirni tashkil etish jarayoni;
10) tarbiyaviy tadbirning o‘tkazilish holati (samarali, samarasiz, muvaffaqiyatli, muvaffaqiyatsiz kechganligi)ni muxokama qilish va yakuniy xulosa chiqarish.

Bu jarayonda tarbiyaviy tadbirlarning tashkil etilishiga nisbatan texnologik yondashuv mohiyati o‘quvchilar mustaqilligini ta’minlashda quyidagi omillarning mavjudligiga e’tiborni qaratishni ham taqozo etadi:

– o‘quvchilarda tarbiyaviy tadbirlarning o‘tkazilishiga nisbatan ichki ehtiyoj, qiziqish va rag‘batning mavjudligi;
– o‘quvchilarning tarbiyaviy tadbirlarni mustaqil tashkil etish borasida muayyan tajribalarga ega ekanliklari;
– tarbiyaviy tadbir g‘oyasining o‘quvchilar ichki ehtiyojlariga mos kelishi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning oliy o‘quv yurtida tarbiya jarayoniga texnologik yondashuv malaka, ko‘nikmalariga ega bo‘lib borishi kelajakda ularning pedagogik faoliyatini to‘g‘ri va muvaffaqiyatli tashkil etishning muhim garovidir. SHu jihatdan olib qaraganda, bugun talabalar bilan olib boriladigan tarbiyaviy tadbirlarni texnologik yondashuv asosida tashkil etish, nafaqat ushbu tadbirlarning mufaqqiyatli o‘tishini ta’minlaydi, balki ularda bir qator ma’naviy-axloqiy sifatlarning shakllanishi uchun ham qulay sharoit hosil qiladi.

Tarbiyaviy tadbirlarga nisbatan texnologik yondashuv quyidagi holatlarning namoyon bo‘lishi bilan xarakterlanadi: mavzu hamda g‘oyasini o‘quvchi tomonidan bildirgan shaxsni tashabbuslar hamda ularning xohish-istaklari asosida belgilash; tarbiyaviy tadbir ssenariysini ishlab chiqishda o‘quvchilarning mustaqil faoliyat yuritishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish; tarbiyaviy tadbir mazmunida o‘z ifodasini topgan rollarning majburiy tarzda emas, balki ularning layoqati, qobili-yati, shuningdek, qiziqishlarini inobatga olgan holda taqsimlanishiga erishish; tarbiyaviy tadbirning tashkil etilishi va o‘tkazilishi jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida do‘stona munosabatni ta’minlash

hamda zarur hollarda maslahat berish sifa-tida aks etishiga erishish; tarbiyaviy tadbir maqsadining natijalanganligini guruh talabalarining faol ishtirokiga tayangan holda muhokama qilish. Muhokama jarayonida yo‘l qo‘yilgan xato va kamchiliklarning talabalarning o‘zlari tomonidan aniqlanib, keyingi tadbirni o‘tkazish jarayonida mazkur kamchiliklarning takrorlanmasligi uchun ma’lum chora tadbirlarning o‘tkazilishiga nisbatan ichki ehtiyoj, qiziqish va rag‘batni vujudga keltiradi: ikkinchidan, talabalarning tarbiyaviy tadbirlarni mustaqil tash-kil eta olish borasida muayyan tajribalarga ega bo‘lishlarini ta’minlaydi: uchinchi-dan, tarbiyaviy tadbir g‘oyasining talabalarning ichki ehtiyojlariga mos kelishi, ular-da bir qator ma’naviy –axloqiy sifat va fazilatlarning shakllanishida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Tarbiya texnologiyasini o‘rganish bugungi kunda eng dolzarb masaladir. Bizning xalqimizning buyuk qadriyatlaridan biri azal tarixdan ma’naviyatni, tarbiyaning ulug‘lanish, uni ijtimoiy hayotning mezoni sifatida qabul qilingani. SHuning uchun bugungi kunda jamiyat taraqqiyotining hal qiluvchi omili, ustuvor masalalaridan biri ma’naviyat, tarbiya deb qabul qilingan. Ommabop tarbiya texnologiyasining yaratilishi milliy tarbiya, milliy ong va umuminsoniy fazilat-larni shakllantirishda muhim omil bo‘ladi. Har tomonlama rivojlangan shaxsni shakllantirishga kompleks yondashish tarbiya texnologiyasining individual mahoratdan afzalligi ham ana shunda. Tarbiya – aniq maqsadga qaratilgan shaxsni ma’naviy va jismoniy kamol toptirish jarayonidir. Alisher Navoiy “Tarbiya ulug‘ ish, odob urug‘ini ekkan odamning hosili javohir bo‘ladi”, degan edi.

**2.**

Tarbiya – insonlarni, yoshlarni va.x.k. ob’ektiv va sub’ektiv ta’sirlar asosida axloqiy, aqliy, amaliy, jismoniy shakllanish jarayoni bo‘lib, tarbiyachi o‘zi xoxlagan sifatlarni tarbiyalanuvchilar ongiga singdirish uchun ularning ruhiyatiga ma’lum maqsadga yo‘naltirilgan tizimli ta’sir ko‘rsatishiga aytiladi. Tarbiya mazmuni ta’lim va ma’lumot olish jarayonlariga kiradigan ishlarning mazmuni bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ularning natijalarini o‘zida aks ettiradi.

Pedagogik texnologiya tarbiya jarayoni uchun loyihalanadi va belgilangan maqsadni yechishga qaratiladi. Binobarin, har bir jamiyat shaxsni shakllantirish maqsadini aniq belgilab beradi va shunga mos holda ma’lum pedagogik tizim mavjud bo‘ladi. Bu tizimga uzluksiz ravishda ijtimoiy buyurtma o‘z ta’sirini o‘tkazadi va ta’lim-tarbiya maqsadini umumiy holda belgilab beradi.

Kadrlar tayyorlashning milliy dasturi-ta’lim-tarbiya maqsadini yangilashni taqozo etmoqda. Unda pirovard natija: “O‘tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlardan to‘la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida yuksak ma’naviy va axloqiy talablarga javob beradigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash”dan iborat, deb belgilandi. Demak, ta’lim-tarbiyaning maqsadi butunlay yangilanadi, unga mos holda mazmunning, pedagogik jarayonning yangilanishi bilan inson faoliyati ko‘lami kengayib boryapti, auditoriyaga o‘qitish imkoniyatlari katta bo‘lgan yangi texnologiyalar kirib kelmoqda. Ro‘y berayotgan sifat o‘zgarishlari shundan dalolat beradiki, endilikda “O‘rganish”ning birlamchi

jarayonlarini an’anaviy uslubiyat va o‘qitish vositalari qolipiga sig‘may o‘qituvchining individual qobiliyatlariga mos kelmay qoldi. YAngi metodikalarni talab etadigan va ta’lim jarayonining tarkibiy komponentlariga aylanib borayotgan va unga o‘zining ma’lum xususiyatlarini joriy etadigan yangi texnikaviy, axborotli, audiovizual-vositalar mavjudki, ular yangi pedagogik texnologiyani real voqelikka aylantirmoqda.

Tarbiya texnologiyasi – qo‘yilgan vazifani bajarishga qaratilgan ilmiy tizim. Bu holat ta’lim texnologiyasidagi singari quyidagi shaklda o‘z ifodasini topadi. Yuqorida qayd etganimizdek, pedagogik texnologiyaning asosiy prinsiplaridan biri tarbiyaga kompleks yondashishdir. Kompleks yondashish: **avvalo**, tarbiyada barcha fanlarning qonuniyatlariga, natijalariga asoslanish; **ikkinchidan,** maqsad, mazmun, vosita va metodlarning birligi, o‘zaro bog‘liqligi; **uchinchidan,** ham ijtimoiy ong, ham hissiyotni xarakter va e’tiqodni tarkib toptirishi, o‘z-o‘zini tarbiyalashga yo‘llash; **to‘rtinchidan,** barcha tarbiya bilan shug‘ullanadigan ijtimoiy institut-larning tarbiyada hamkorligi; **beshinchidan**, bir butun shaxsni shakllantirishda bo‘lak-bo‘laklarga bo‘lib emas butunlikda yondashish.

Tarbiya jarayoninig moxiyati, qonuniyatlari va o‘ziga xos jixatlari hususidagi mavjud nazariy va amaliy g‘oyalarga pedagogik bilimlarga tayangan holda tarbiya texnologiyasinig **tarkibiy qismlari** quyidagicha belgilanadi**:**

1.Tarbiya jarayonini umumiy loyihasi.
2.Tarbiyani tashkil etishga bo‘lgan ijtimoiy extiyoj (rag‘bat).
3.Tarbiya maqsadi.
4.Tarbiya mazmuni (shakl, metod, usul va texnik vositalar).
5.O‘qituvchi (tarbiyachi) faoliyati.
6.O‘quvchi(tarbiyalanuvchi) faoliyati.
7.Tarbiya samarasi (natija).

## 2-MAVZU. TARBIYA JARAYONIDA ZAMONOVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH USULLARI -2 S.

**Reja:**

1. Tarbiya jarayonida zamonoviy pedagogik texnologiyalardan qo‘llashning dolzarbligi.
2. Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish jarayonida terninglarning o‘rni.
3. Bahs-munozaralarni tashkil etish metodikasi.
4. Kichik guruhlarda ishlash.

**Tayanch iboralar:** tarbiya texnologiyasi, zamonavit tarbiya texnologiyasi, trening, “Bahs-munozara” metodi, “Kichik guruhlarda ishlash” metodi.

**1.**

«**Pedagogik texnologiya** – bu ta’lim shakllarini muqobillashtirish vazifasini ko‘zlagan o‘qitish va bilimlarni o‘zlashtirishning barcha jarayonlarini texnika va inson omillarida va ularning birgalikdagi harakatlari vositasida yaratish, tatbiq etish va belgilashning izchil metodidir» (YUNESKO).

**«Texnologiya» yunoncha so‘zdan kelib chiqqan bo‘lib *«techne»* - mahorat, san’at, malaka va *«logos»* - so‘z, ta’limot ma’nolarini anglatadi.**

**Tarbiyani texnologiyalashtirish** – bu tarbiya jarayoniga texnologik yondashish asosida tarbiya maqsadlariga erishishning eng maqbul yo‘llari va samarali vositalarni tadqiq qiluvchi va qonuniyatlarni ochib beruvchi pedagogik yo‘nalishdir.

Pedagogik texnologiya tarbiya jarayonining barcha serqirra bo‘g‘inlarining bir xil ishlashini, tarbiya natijasidagi aniqlik, kafolatini ta’minlaydi.

Bu jarayonda maqsadning aniq bo‘lishi, loyihaning ilmiyligi pedagogik diagnostikaga asoslanishga bog‘liq.

**Zamonaviy pedagogik texnologiyalar** ta’lim-tarbiya jarayonining bir tizimga solingan ilmiy-nazariy va metodik asoslangan yangi shakl, usul va vositalarining majmuidir. Bunda yangi mazmun, shakl, usul va vosita uyg‘unligida maqsad, vazifa, faoliyat va pedagogik natija yaxlitligi ta’minlanadi hamda o‘quv maqsadlariga erishishni kafolatlaydigan o‘quv jarayoni loyihalashtiriladi va amalga oshiriladi. Texnologik yondashuv, eng avvalo, tasvirlash emas, balki loyihalashtirilgan natijalarni amalga oshirish imkonini beruvchi amaliy ko‘rsatmali tuzilmada o‘z ifodasini topadi.

O‘z mohiyatiga ko‘ra pedagogik texnologiya vaqt taqsimotiga muvofiq dasturlanib, ilmiy jihatdan asoslangan hamda kutilgan natijaga erishishni ta’minlovchi pedagogik jarayonning barcha bosqich va qismlarining vazifalari aniq belgilangan tizimni ifodalaydi.

O‘quv-tarbiya jarayonida pedogogik texnologiyalarning to‘g‘ri joriy etilishi o‘quvchilarning bu jarayonda asosiy tashkilotchi yoki maslahatchi sifatida faoliyat yuritishiga olib keladi. Bu esa o‘quvchilardan ko‘proq mustaqillikni, ijodni va irodaviy sifatlarni talab etadi.

**2.**

**Trening** — shaxsda mavjud bo‘lgan yoki vujudga keladigan muammolarni hal qilish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma malakalarni hosil qilish maqsadida bahs-munozara, o‘yin va mashqlar orqali o‘tkaziladigan mashg‘ulotlar yig‘indisidir.

Treningning asosiy maqsadi: shaxsni psixologik (ruhiy) ozod qilish, bunda tabiiy erkinlikni his etishni, o‘z guruhida va undan tashqarida o‘zaro munosabat va aloqa o‘rnata olishdan iborat.

SHuni alohida qayd etish lozimki, trening jarayonida muammolarni echish ham, bu boradagi bilim, ko‘nikma va malakalarni hosil qilish ham trenerdan shaxs psixolo-giyasi, shaxs individual psixologiyasi bilan ishlashni taqozo etadi. SHuning uchun psixologiyada bunday treninglar psixologik treninglar deb ataladi.

Hozirgi davrda odamlar orasida ruhiy zo‘riqish hollari avvalgi paytlardagiga nisbatan ancha ko‘p uchrayotganligi va buning natijasida ko‘pgina hayotiy muammolar vujudga kelayotganligi ko‘pchilikni, ayniqsa keng jamoatchilikni, shuningdek aynan psixolog mutaxassislarni ham tashvishga solayotganligi bejiz

emas. Aytish mumkinki bunday holatlar turli darajadagi zo‘riqishlar natijasida vujudga kelmoqda.

**3.**

**“BAHS-MUNOZARA” METODI**- biror mavzu bo‘yicha ta’lim oluvchilar bilan o‘zaro bahs, fikr almashinuv tarzida o‘tkaziladigan o‘qitish metodidir.

Har qanday mavzu va muammolar mavjud bilimlar va tajribalar asosida muhokama qilinishi nazarda tutilgan holda ushbu metod qo‘llaniladi. Bahs-munozarani boshqarib borish vazifasini ta’lim oluvchilarning biriga topshirishi yoki ta’lim beruvchining o‘zi olib borishi mumkin. Bahs-munozarani erkin holatda olib borish va har bir ta’lim oluvchini munozaraga jalb etishga harakat qilish lozim. Ushbu metod olib borilayotganda ta’lim oluvchilar orasida paydo bo‘ladigan nizolarni darhol bartaraf etishga harakat qilish kerak.

“Bahs-munozara” metodini o‘tkazishda quyidagi **qoidalarga** amal qilish kerak:

- barcha ta’lim oluvchilar ishtirok etishi uchun imkoniyat yaratish;
- “o‘ng qo‘l” qoidasi (qo‘lini ko‘tarib, ruhsat olgandan so‘ng so‘zlash)ga rioya qilish;
- fikr-g‘oyalarni tinglash madaniyati;
- bildirilgan fikr-g‘oyalarning takrorlanmasligi;
- bir-birlariga o‘zaro hurmat.

Quyida “Bahs-munozara” metodini o‘tkazish tuzilmasi berilgan.

**“Bahs-munozara” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:**

1. Ta’lim beruvchi munozara mavzusini tanlaydi va shunga doir savollar ishlab chiqadi.
2. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarga muammo bo‘yicha savol beradi va ularni munozaraga taklif etadi.
3. Ta’lim beruvchi berilgan savolga bildirilgan javoblarni, ya’ni turli g‘oya va fikrlarni yozib boradi yoki bu vazifani bajarish uchun ta’lim oluvchilardan birini kotib etib tayinlaydi. Bu bosqichda ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarga o‘z fikrlarini erkin bildirishlariga sharoit yaratib beradi.
4. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilar bilan birgalikda bildirilgan fikr va g‘oyalarni guruhlarga ajratadi, umumlashtiradi va tahlil qiladi.
5. Tahlil natijasida qo‘yilgan muammoning eng maqbul echimi tanlanadi



Har qanday mavzu va muammolar mavjud bilimlar va tajribalar asosida muhokama qilinishi nazarda tutilgan holda ushbu metod qo‘llaniladi. Bahs-munozarani boshqarib borish vazifasini ta’lim oluvchilarning biriga topshirishi yoki ta’lim beruvchining o‘zi olib borishi mumkin. Bahs-munozarani erkin holatda olib borish va har bir ta’lim oluvchini munozaraga jalb etishga harakat qilish lozim. Ushbu metod olib borilayotganda ta’lim oluvchilar orasida paydo bo‘ladigan nizolarni darhol bartaraf etishga harakat qilish kerak.

“Bahs-munozara” metodini o‘tkazishda quyidagi qoidalarga amal qilish kerak:

- barcha ta’lim oluvchilar ishtirok etishi uchun imkoniyat yaratish;
- “o‘ng qo‘l” qoidasi (qo‘lini ko‘tarib, ruhsat olgandan so‘ng so‘zlash)ga rioya qilish;
- fikr-g‘oyalarni tinglash madaniyati;
- bildirilgan fikr-g‘oyalarning takrorlanmasligi;
- bir-birlariga o‘zaro hurmat.

Quyida “Bahs-munozara” metodini o‘tkazish tuzilmasi berilgan.

**4.**

**“KICHIK GURUHLARDA ISHLASH” METODI** - ta’lim oluvchilarni faollashtirish maqsadida ularni kichik guruhlarga ajratgan holda o‘quv materialini o‘rganish yoki berilgan topshiriqni bajarishga qaratilgan darsdagi ijodiy ish.

Ushbu metod qo‘llanilganda ta’lim oluvchi kichik guruhlarda ishlab, darsda faol ishtirok etish huquqiga, boshlovchi rolida bo‘lishga, bir-biridan o‘rganishga va turli nuqtai- nazarlarni qadrlash imkoniga ega bo‘ladi.

“Kichik guruhlarda ishlash” metodi qo‘llanilganda ta’lim beruvchi boshqa interfaol metodlarga qaraganda vaqtni tejash imkoniyatiga ega bo‘ladi. CHunki ta’lim beruvchi bir vaqtning o‘zida barcha ta’lim oluvchilarni mavzuga jalb eta oladi va baholay oladi. Quyida “Kichik guruhlarda ishlash” metodining tuzilmasi keltirilgan.

**Kichik guruhlarda ishlash» metodining afzalligi:**

- o‘qitish mazmunini yaxshi o‘zlashtirishga olib keladi;
- muloqotga kirishish ko‘nikmasining takomillashishiga olib keladi;
- vaqtni tejash imkoniyati mavjud;
- barcha ta’lim oluvchilar jalb etiladi;
- o‘z-o‘zini va guruhlararo baholash imkoniyati mavjud bo‘ladi.

**«Kichik guruhlarda ishlash» metodining kamchiliklari:**

- ba’zi kichik guruhlarda kuchsiz ta’lim oluvchilar bo‘lganligi sababli kuchli ta’lim oluvchilarning ham past baho olish ehtimoli bor;
- barcha ta’lim oluvchilarni nazorat qilish imkoniyati past bo‘ladi;
- guruhlar aro o‘zaro salbiy raqobatlar paydo bo‘lib qolishi mumkin;
- guruh ichida o‘zaro nizo paydo bo‘lishi mumkin.

**“Кичик гуруҳларда ишлаш” методининг тузилмаси**




## 3-MAVZU. TARBIYAVIY TEXNOLOGIYALAR – 2 S.

**Reja:**

1. Tarbiyaviy texnologiyalarning maqsadi va vazifalari.
2. Tarbiyaviy texnologiyalarni amaga oshirish metodikasi.

**Tayanch iboralar:** tarbiyaga texnologik yondashuv, motivatsion bosqich , mazmunli bosqich, faoliyatli bosqich, qadriyatli bosqich

Tarbiyaviy texnologiyaning **umumiy belgilari**:

- tarbiyaviy ta’sir tarbiyaviy ishlarning kompleksi sifatida uziga uyinlar, tarbiyaviy suhbatlar va individual konsultatsiyalarning elementlarini qamrab oladi;
- har bir ish har bir tarbiyalanuvchining axloqiy, ijtimoiy va boshqa fazilatlari shakllanganligi darajasini tashxislash bilan boshlanadi.

- tarbiyaviy ta’sir tashxislash natijalarining faol tahlili va ideal shaxs bilan qiyoslaganda muayyan fazilatlarning shakllanganlik darajasiga etganligini anglash bilan yuzaga kelgan «jamoaviy qayg‘urish» samarasi bilan kuchaytiriladi;
- tarbiyalanuvchilar kishilar orasida hayot uchun zarur bulgan zarur fazilatlarni uzlashtiradilar, uzlarini anglashni urganadilar, uz-uzini kamolga etkazish yullarini tasavvur qiladilar;
- shaxsiy kamolotga etish dasturi (tashxislash natijalaridan qat’i nazar) individual konsultatsiyalar, maslahatlar, tarbiyaviy ishlarni tashkil etish natijasida mustahkamlanadi.

Tarbiyaga texnologik yondashuv – tarbiya natijalariga asoslanib, tarbiyaning maqsad va vazifalarini oydinlashtirish, tarbiya jarayonining har bir bosqichini alohida-alohida loyihalash, tarbiyaning shakl, metod va vositalarini aniq belgilab olishga qaratilgan tizimli jarayon.

Texnologik yondashuv imkoniyati tarbiya jarayonining o‘zida uning ko‘p omil-liligi – ko‘plab omillar ta’siriga uchrashi, natijalarning tezda namoyon bo‘lmasligi, tarbiyachi faoliyatining (bevosita yoki bilvosita) yo‘naltirilganligi, ko‘p bosqichlilik bilan bog‘liq ravishda mujassamdir. Ko‘p bosqichlilik tarbiyalanuvchining u yoki bu sifat haqida tasavvur darajasidan tushunchaga va keyinroq o‘zlashtirilganlariga muvofiq harakat qilish ko‘nikmasini shakllantirish hamda to‘g‘ri xulq-atvor odatlarini shakllantirishga o‘tish bilan tavsiflanadi. SHunga asosan V.S.Selivanov tarbiya jarayoni, uning bosqichlari ketma-ketligi murakkab o‘ziga xoslikka ega ekanligi haqidagi xulosaga keladi. Tarbiya, shaxs sifatlarini shakllantirish emotsional yo‘nalganlik, xulqning ma’lum shakliga ijodiy munosabat uyg‘otishdan boshlanadi. Ikkinchi bosqich harakatni to‘g‘ri bajarish malakasini, ya’ni to‘g‘ri xatti-harakat qilishni mashq qilish sanaladi. Keyinchalik harakatni unga ijobiy munosabat bilan ko‘p marta bajarish davomida oqilona xulq-atvorga odatlantiriladi. Tushunchani o‘zlashtirish (shakllantirish) – tarbiya jarayonining keyingi bosqichi. O‘zlashtirilgan tushunchalar asosida ijtimoiy xulq tajribasi tashkil qilinadi.

Tarbiya texnologiyasi tarbiyaviy jarayonga kompleks yondashish orqali amalga oshiriladi. Tarbiyaning zamonaviy texnologiyalari quyidagi majburiy talablarni bajargan holda kompleks yondashuvni amalga oshiradi:

Tarbiyalanuvchilarga uch yunalish – ongi, hissi va axloqi buyicha ta’sir ko‘rsatiladi.

Tarbiya va shaxsning uzini-uzi tarbiyalashi uzaro qushilib ketsa ijobiy natijalarga erishiladi.

Tarbiyaga aloqasi bulgan barcha jamoalarning harakatlarini birlashtirish. SHaxsga berilgan xislatlarni aniq tarbiyaviy ishlar tizimi orqali shakllantiriladi. Kompleks yondashuv tarbiya jarayoni va uni boshqarishga tizimli yondashuvni kuzda tutadi.

**2.**

Tarbiya texnologiyasini loyihalash quyidagi bosqichlarda amalga oshirilishi lozim:

1. **Motivatsion bosqich** – tarbiyalanuvchilarning yosh va individual xususiyat-larini hisobga olgan holda, ularda ma’naviy-axloqiy fazilatlarni egallashga qiziqish, ehtiyoj va istakni qaror toptirishga qaratilgan jarayon.

2. **Mazmunli bosqich** – tarbiyalanuvchilarda shakllantirilishi lozim bo‘lgan ma’naviy-axloqiy fazilatlarga doir tasavvur, tushuncha va bilimlar majmuini ishlab chiqish.

3. **Faoliyatli bosqich** – tarbiyalanuvchilarda shakllantirilishi lozim bo‘lgan ma’naviy-axloqiy fazilatlarga doir aniq vaziyatlar, faoliyat shakllarini yaratish orqali ularni amaliy faoliyatga jalb etish.

4. **Qadriyatli bosqich** – ma’naviy-axloqiy fazilatlarni qadriyatga aylantirish, ularda mustahkam e’tiqodni shakllantirish maqsadida tashkil etiluvchi tarbiyaviy jarayonning yuqori bosqichi.

**Tarbiyaviy ish texnologiyasida quyidagilar tavsiya etiladi.**

**1.**Tarbiyaviy ishning vazifalarini aniqlash - samaradorlik shartlarini belgilash. Bu vazifalar mahorat bilan asoslangan bo‘lishi va o‘quvchilarga tushuntirilishi shart.

**2.** Har qanday tarbiyaviy ish kompleks munosabat asosida loyihalanish. Avvalo tarbiyalanuvchilarning qiziqishi, tashabbuskorlik bilan faoliyati, ularning izchil harakati. Ikkinchidan, pedagogning har bir ishda har tomonlama natijaga erisha olishi.

**3.** Asosiy vazifani bajarishni optimallashtirish.

**4.** SHart-sharoitni hisobga olgan holda tarbiya mazmunini belgilash. Tarbiyaga o‘quvchilarning qiziqish, yo‘nalishi, xohish-irodasini tarbiyalanganlik darajasini hisobga olish.

**5.** Tarbiya jarayonining har bir bosqichida samarali metod, usul, vositalarini qo‘llashning loyihalashtirish. Tarbiyalanuvchilarning faolligi, mustaqalligini ta’minlash.

**6.** Tarbiya ishida yuqori tashkilotchilikka erishish, jamoani shakllantirish.

**7.** Tarbiya ishida andoza bo‘lmasligi, vaziyatga qarab o‘zgaruvchanlik, muvofiq-lashtirish.

**8.** Tarbiyalanuvchining xarakterini shakllantirish, hayot yo‘lini tanlashga yordam berish.

## 4-MAVZU. TARBIYAVIY INTERFAOL USULLAR – 2S.

**Reja:**

1. Interfaol texnologiyalar.
2. Interfaol usullar.

**Tayanch iboralar:** Interfaol metod, interfaol texnalogiyalar, “Bumerang” texnologiyasi, “Skarabey” , “Veer”, “Blits o‘yin” “O‘qituvchi shaxsi” kabi texnologiyalar.

**1.**

Zamonaviy metodlar yoki interfaol usullar, o‘qitishning samarasini oshirishga yordam beruvchi texnologik trenninglar o‘quvchi talabalarda mantiqiy, ijodiy, tan-qidiy, mustaqil fikrlashni shakllantirishga, qobiliyatlarini rivojlantirishga, ra-qobatbardor, etuk mutaxasis bo‘lishlariga hamda mutaxasisga kerakli bo‘lgan fazilat-larni tarbiyalashga yordam beradi.

Ushbu o‘quv jarayonini tashkil etish uchun havola etilgan texnologik trening-larni xuddi shu tartibda, o‘tkazishlari shart emas, har qaysi o‘qituvchi bu trening-larni umumiy shaklni olgan holda o‘zlarining dars texnologiyalarini yaratishlari, berilgan treninglarni to‘liq yoki ularning ba’zi bir bosqichlari, elementlarni ishlatishlari mumkin.

**“Bumerang” texnologiyasi**

Mazkur texnologiya bir mashg‘ulot davomida o‘quv materiallini chuqur va yaxlit holatda o‘rganish, ijodiy tushunib etish, erkin egallashga yo‘naltirilgan. U turli mazmun va xarakterga (muomala, munoazarali, turli mazmunli) ega bo‘lgan mavzularni o‘rganishga yaroqli bo‘lib, o‘z ichiga og‘zaki va yozma ish shakllarini qamrab oladi hamda bir mashg‘ulot davomida har bir ishtirokchining turli topshiriqlarni bajarishi, navbat Bilan o‘quvchi yoki o‘qituvchi rolida bo‘lishi, kerakli ballni to‘plashiga imkoniyat beradi.

“Bumerang” texnologiyasi tanqidiy fikrlash, mantiqli shakllantirishga, imkoniyat yaratadi; xotirani, g‘oyalarni, fikrlarni, dallillarni yozma va og‘zaki shakllarda bayon qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Ta’lim bilan bir qatorda mazkur metod tarbiyaviy xarakterdagi qator vazifalarni amalga oshirish imkonini beradi:

-Jamoa bilan ishlash mahorati;
-Muomalalik;
-Xushfe’llik;
-Ko‘nikuvchanlik;
-O‘zgalar fikriga hurmat;
-Faollik;
-Rahbarlik sifatlarini shakllantirish;
-Ishga ijodiy yondoshish;
-O‘z faoliyatining samarali bo‘lishiga qiziqish;
-O‘zini xolis baholash.

Asosiy tushunchalar quyidagilar:

Ochiq savollar - bu savollar muomala, so‘zlashuvni davom ettirishga imkon beradi. Ularga qisqa, bir xil javob berish mumkin emas.

YOpiq savollar - bu savollar oldindan “ha” yoki “yo‘q” tipidagi to‘g‘ri, ochiq, javoblarni berishni ko‘zda tutadi.

Ko‘ndalang so‘roq - bir-biriga guruhlab beriluvchi qisqa savollar qatori bo‘lib, bu o‘ziga xos axborotlar izlash hamda dallillarni, opponentlar pozitsiyasini aniqlash va muayyan qarorlar qabul qilish uchun ajoyib imkoniyatdir.

Ko‘ndalang so‘roq paytida munoazaraga kirishish mumkin emas. Bu vaqtda faqat savollar beriladi, munozaraga kirishilmaydi.

## “Skarabey” texnologiyasi

“Skarabey” interaktiv texnologiya bo‘lib, u o‘quvchilarda fikriy bog‘liqdir, mantiq, xotiraning rivojlanishiga imkoniyat yaratadi, qandaydir muammoni hal qilishda o‘z fikrini ochiq va erkin ifodalash mahoratini shakllantiradi. Mazkur texnologiya o‘quvchilarga mustaqil ravishda bilimning sifati va saviyasini holis baholash, o‘rganilayotgan mavzu haqidagi tushuncha va tasavvurlarni aniqlash imkonini beradi. U ayni paytda, turli g‘oyalarni ifodalash hamda ular orasidagi bog‘liqliklarni aniqlashga imkon yaratadi.

“Skarabey” texnologiyasi har tomonlama bo‘lib, undan o‘quv materialining turli bosqichlarini o‘rganishda ifodalanadi:

-boshida-o‘quv faoliyatini rag‘batlantirish sifatida (“Aqliy hujum”);

-mavzuni o‘rganish jarayonida - uning mohiyati, tuzilishi va mazmunini beligilash; ular orasidagi asosiy qismlar, tushunchalar, aloqalar xarakterini aniqlash, mavzuni yanada chuqurroq o‘rganish, YAngi jihatlarni ko‘rsatish;

-oxirida- olingan bilimlarni mustahkamlash va yakunlash maqsadida.

“Skarabey” texnologiyasi o‘quvchilar tomonidan oson qabul qilinadi, chunki u faoliyatning fikrlash, bilish xususiyatlari inobatga olingan holda ishlab chiqilgan. U o‘quvchilar tajribasidan foydalanishni ko‘zda tutadi, reflektiv kuzatishlarni amalga oshiradi, faol ijodiy izlash va fikriy tajriba o‘tkazish imkoniyatlariga ega.

Mazkur texnologiyalarning ayrim afzalliklari sifatida idrok qilishni engillashtiruvchi chizma shakllardan foydalanishni ko‘rsatish mumkin.

“Skarabey” alohida ishlarda, kichik guruhlarda hamda o‘quv jamoalarida qo‘llanishi mumkin.

Ta’limdan tashqari mazkur metod tarbiyaviy xarakterdagi qator vazifalarni amalga oshirish imkonini beradi;

-O‘zgalar fikriga hurmat;
-Jamoa bilan ishlash mahorati;
-Faollik;
-Xushmuomalalik;
-Ishga ijodiy yondashish;
-Imkoniyatlarini ko‘rsatish ehtiyoji;
-O‘z qobiliyai va mikoniyatlarini tekshirishga yordam beradi;
-“men”ligini ifodalashga imkon beradi;
-o‘z faoliyati natijalariga mas’ullik va qiziqish uyg‘otadi.

## “VEER” texnologiyasi

Bu texnologiya murakkab, ko‘ptarmoqli, mumkin qadar, muammo xarakteridagi mavzularni o‘rganishga qaratilgan.

Texnologiyaning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo‘yicha biryo‘la axborot beriladi. Ayni paytda, ularning har biri alohida nuqta-lardan muhokama etiladi. Masalan, ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari belgilanadi.

Bu iteraktiv texnologiyasi tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni mu-vaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o‘z g‘oyalari, fikrlarini yozma va og‘zaki shaklda ixcham bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi.

“VEER” texnologiyasi umumiy mavzuni ayrim tarmoqlarini muxokama qiluvchi kichik guruhlarning har bir qatnashuvchining, guruhning faol ishlashiga qaratilgan.

“VEER” texnologiyasi mavzuni o‘rganishning turli bosqichlarida qo‘llanilishi mumkin:

-boshida: o‘z bilimlarini erkin faollashtirish;

-mavzuni o‘rganish jarayonida; uning asosilarini chuqur fahmlash va anglab etish:

-yakunalsh bosqichida;; olingan bilimlarni tartibga solish.

Ta’limdan tashqari “VEER” texnologiyasi tarbiyaviy xarakterdagi qator vazifalarni amalga oshirish imkonini beradi:

-Jamoa, guruhlarda ishlash mahorat;
-Muammolar, vaziyatlarni turli nuqtai nazardan muhokama qilish mahorat;
-Murosali qarorlarni topa olish mahorati;
-O‘zgalar fikriga hurmat;
-Xushmuomalalik;
-Ishga ijodiy yondoshish;
-Faollik;
-Muammoga diqqatini jamlay olish mahorati.

## “BLITS O‘YIN” TEXNOLOGIYASI

Ushbu texnologiya o‘quvchi talabalarni xarakatlar ketma ketligini to‘g‘ri tashkil etishga, mantiqiy fikrlashga, o‘rganayotgan predmeti asosila ko‘p, xilma xil fikrlardan, ma’lumotlardan kerakligini tanlab olishni o‘rgatishga qaratilgan. Ushbu texnologiya davomida o‘quvchi talabalar o‘zlarining mustaqil fikrlarini boshqalarga o‘tkaza oladilar, chunki bu texnologiya shunga to‘liq sharoit yaratib beradi.

**Maqsad:** Ushbu texnologiya tinglovchilarga tarqatilgan qog‘ozlarda ko‘rsatilgan harakatlar ketma ketligini avkorpus yakka holda mustaqil ravishda belgilab, so‘ngra o‘z fikrini boshqalarga o‘tkaza olish yoki o‘z fikrida qolish, boshqalar bilan hamfikr bo‘la olishga yordam beradi.

**texnologiyasi: u**shbu texnologiya bir necha bosqichda o‘tkaziladi.

**1- bosqich.**

-Trener ushbu trening bir necha bosqichda o‘tkazilishi haqida tinglovchilarga (o‘quvchi talabalarga) tushuncha beradi. Har bosqichdagi vazifani bajarishga aniq vaqt berilishi, tinglovchilar esa shu vaqtdan unumli foydalanishlari kerakligi haqida ularni ogohlantiradi;

-Trener hamma tinglovchilarga alohida  alohida tarqatma material beradi va tinglovchilardan ushbu materialni sinchiklab oʻrganishlarini soʻraydi;

-Trener tarqatma material mazmuni va bajariladigan vazifani tushuntiradi, ya’ni tarqatma materialda  berilgan 13 ta xarakatni ketma ketligini toʻgʻri belgilash kerakligi, beligini esa qogʻozdagi alohida ajratilgan boʻlimga raqamlar bilan belgilash kerakligini tushuntiradi;

-Qoʻyilgan vazifa avkorpus yakka tartibda bajarilishini aytadi.

**2- bosqich.**

Trener birinchi berilgan vazifani har bir tinglovchi tomonidan yakka tartibda bajarilishini kuzatadi, qiynalganlarga yordam beradi, yoki qaytadan tushuntiradi:

Har bir tinglovchi tarqatma materialdagi “YAKKA BAHO”  boʻlimiga shu erda berilgan harakatlardan oʻzining shaxsiy fikri asosida mantiqiy ketma ketligini raqamlar Bilan belgilab chiqadi,  ya’ni berilgan 13 harakatdan, uning fikricha qaysi biri, birinchi boʻlishi, qaysi biri esa ikkinchi boʻlishini  va hokazo. Bu vazifani bajarish uchun trener tinglovchilarga 10 daqiqa vaqt beradi.

**3 -bosqich**

-trener tinglovchilardan 3 kishidan iborat kichik guruhlar tashkil etishlarini soʻraydi.  3 kishilik guruhlar tinglovchilarning xoxishlariga qarab yoki raqamlar boʻyicha tashkil etilishi mumkin:

-kichik guruhlardagi tinglovchilarning har biri oʻz qogʻozidagi yakka baho boʻlimida belgilangan xarakatlar ketma ketligi Bilan bir birini tanishtiradilar, keyin 3 kishidan uch xil boʻlgan ketma ketlikni birlashib, bir birlari Bilan tortishib, bahgʻslashib, bir bilariga ta’sir oʻtkazib, oʻz fikrlariga ishontirib kelishgan holda bir muqimga kelib ularga tarqatilgan qogʻozdagi “GURUH BAHOSI” boʻlimiga raqamlar Bilan belgilab chiqadilar.

-Trener kichik guruhdagi tortishuvlarda ishtirok etmaydi, faqat kichik guruhlar va har bir tinglovchi faoliyatini kuzatadi.Bu vazifani bajarish uchun 20 daqiqa vaqt beriladi.

**4 -bosqich.**

-Barcha kichik guruhlar oʻz ishlarini tugatgach, trener xarakatlar ketma ketligi boʻyicha toʻgʻri javobni beradi, ya’ni tinglovchilardan ularga tarqatilgan qogʻozlardan “TOʻGʻRI JAVOB” boʻlimini topishni va unga trener tomonidan aytilgan harakatlar ketma ketligining raqamlarini yozishini soʻraydi.

**5-bosqich.**

-Trener “TOʻGʻRI JAVOB” boʻlimida berilgan raqamlardan “YAKKA BAHO” boʻlimida berilgan baholarni (yoki aksincha), ya’ni kattadan-kichikni yairgan holda “YAKKA HATO” boʻlimiga chiqqan farqli yozishni soʻraydi. “YAKKA BAHO” boʻlimidagi sonlani yuqoridan pastga qarab qishib chiqib umumiysini hisoblashlari kerakligini uqtiradi.

**6- bosqich.**

-Xudi shu tartibda “TOʻGʻRI JAVOB” va “GURUH BAHOSI” oʻrtasidagi farq kattadan-kichikni ayirish orqali bajariladi, chiqarilgan farqlar soni “GURUH HATOSI” boʻlimiga yozilib, yuqoridan pastga qarab qoʻshiladi va umumiy son keltirib chiqariladi.

**7-bosqich.**

-Trener yakka va guruh hatolarining soni bo‘yicha tushuncha beradi, ularni alohida alohida sharhlab beradi.

“yakka hato” bo‘limidagi umumiy sonlarning sharhi:

Agar yakka hatolar soni 30 gacha bo‘lsa, bunday tinglovchilardan tashkilotchilik, konstruktivlik qobiliyati etarli, ular mustaqil ravishda har bir ishni eta oladilar, turlisharoitlardagi harakatlar vaqtida mantiqan ularning ketma ketlini tashkil eta oladilar.

Agar yakka hatolar soni 30 dan 40 gacha bo‘lsa, bunday tinglovchilarda tashkilotchilik qobiliyati etarli emas, biron bir ishni yoki faoliyatini tashkil etishlarida qiynaladilar yoki pala partishlikka yo‘l qo‘yadilar. SHuning uchun ular alohida kurslarda o‘qishlar yoki mantiqan fikrlashga o‘rganishlari kerak bo‘ladi.

Agar hatolar soni 40 dan yuqori bo‘lsa, bunday tinglovchilar tashkilotchilik, mantiqiy fikrlash qobiliyati etarli emas, ular o‘z ustilarida ishlashlari kerak bo‘ladi yoki maxsus treninglar, kurslarda o‘qishlariga to‘g‘ri keladi.

“Guruh hatosi” bo‘limidagi umumiy sonlarning sharhi:

Agar hatolar soni 30 gacha bo‘lsa, bu guruhlarda tinglovchilar bir birlarini tushunishga harakat qilganlar, bir birlarini ishontira olganlar va natijada bir xil natijaga erishganlar. Demak, guruhda samimiy munosabat o‘rnatilgan, fikrlar bir joydan chiqqan.

Agar guruhning hatolar soni 30 dan 40 gacha bo‘lsa, bu guruhda tinglovchilarning bir muqimga kelishlari qiyin bo‘lgan, tortishuvlar yuzaki yoki ishonarsiz bo‘lgan yoki guruh a’zolari bir birlarini tushunishga sust holda intilganlar, yoki vazifaga beparvoroq bo‘lganlar, yoki bir birlarini hafa qilib qo‘yishdan cho‘chiganlar yoki guruhning barcha a’zolari yuzaki holda kelishigan u, aslida esa har Kim o‘z fikrida qolgan bo‘lishi mumkin. Samimiy munosabat bu guruhda o‘z aksini topmagan.

Agar guruh hatosining soni 40 dan ortiq bo‘lsa, bu guruh ahzolari umuman bir birlari Bilan kelisha olmaganlar, o‘zaro ishontirish bo‘lmagan. Har kim o‘z fikrida qolgan. Samimiy munosabat o‘rnatilgan.

## 2.

**Interaktiv metodlar** – bu jamoa bo‘lib fikrlashdan iborat deb yuritiladi, ya’ni pedagogik ta’sir etish usullari bo‘lib, ta’lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarning o‘ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o‘quvchilarning birgalikda faoliyat ko‘rsatishi orqali amalga oshiriladi.

Biz quyidagi o‘qitish jarayonida qo‘llash mumkin bo‘lgan ba’zi bir terninglar (texnologiyalar)ga tavsifnoma berib, ba’zilarni o‘tkazish tartibi to‘g‘risida metodik tavsiyanoma berib o‘tamiz.

**“TARMOQLAR”** metodi – o‘quvchi-talabani mantiqiy fikrlash, umumiy fikr doirasini kengaytirish, mustaqil ravishda adabiyotlardan foydalanishni o‘rgatishga qaratilgan.

**“3x4”** metodi – o‘quvchi-talabalarni erkin fikrlashi, keng doirada turli g‘oyalarni bera olishi, ta’lim jarayonida yakka, kichik guruh holda tahlil etib, xulosa chiqara olishi,ta’rif Bera olishiga qaratilgan.

**“BLITS O‘YIN”** metodi - harakatlar ketma-ketligini to‘g‘ri tashkil etishga mantiqiy fikrlashga, o‘rganayotgan predmeti asosida ko‘p, xilma xil fikrlardan, ma’lumotlardan kerakligini tanlab olishni o‘rgatishga qaratilgan.

**“INTERVYU”** texnikasi – o‘quvchi-talaba savol berish, eshita olish, to‘g‘ri javob berish, savolni to‘g‘ri tuzishni o‘rgatishga qaratilgan.

**“IERARXIYA”** texnikasi - oddiydan murakkabga, murakkabdan oddiyga o‘tish usullarini qo‘llash orqali ularni mantiqiy, tanqidiy, ijodiy fikrlashga o‘rgatishga qaratilgan.

**“BUMERANG”** texnikasi – o‘quvchi-talabalarni dars jarayonida, darsdan tashqarida turli adabiyotlar, matnlar bilan ishlash, o‘rganilgan materiallarni yoddan saqlab qolish, so‘zlab Bera olish, fikrni erkin holda bayon eta olish hamda bir dars davomida barcha o‘quvchi talabalarni baholay olishga qaratilgan.

**“TALABA”** treningi – o‘quvchi-talabalar bilan individual holda ishlash o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi to‘siqni yo‘q qilish, hamkorlikda ishlash yo‘llarini o‘rgatishga qaratilgan.

**“O‘QITUVCHI SHAXSI”** trening - o‘qituvchi innovatsion faoliyatini ochib beruvchi “O‘qituvchi shaxsiga qo‘yiladigan talablar” mavzusidagi mustaqil fikrlashga, ijodiy insho yozish orqali bayon qilishga qaratilgan.

**“MULOQOT”** texnikasi o‘qituvchilarni auditoriya diqqatini o‘ziga jalb etish, dars jarayonida hamkorlikda faoliyat ko‘rsatishga, uni tashkil etishni o‘rgatishga qaratilgan.

**“BOSHQARUV”** texnikasi o‘qituvchilarni auditoriyani boshqarishdagi usullari hamda o‘quvchi talabalarni ish jarayonida boshqaruv usullari bilan tanishtiruvchi va shunga o‘rgatishga qaratilgan.

**“Tarmoqlar metodi” (Klaster)**

Fikrlarning tarmoqlanishi - bu pedagogik stratigiya bo‘lib, u o‘quvchilarni Biron bir mavzuni chuqur o‘rganishlariga yordam berib, o‘quvchilarni mavzuga taalluqli tushuncha va aniq fikrni erkin va ochiq ravishda ketma-ketlik bilan uzviy bog‘lagan holda tarmoqlashlariga o‘rgatadi.

Bu metod Biron mavzuni chuqur o‘rganishdan avkorpus o‘quvchilarning fikrlash faoliyatni jadkorpuslashtirish hamda kengaytirish uchun hizmat qilishi mumkin. SHuningdek, o‘tilgan mavzuni mustahkamlash, yaxshi o‘zlashtirish, umumlashtirish hamda o‘quvchilarni shu mavzu bo‘yicha tasavvurlarini chizma shaklida chizma shaklida ifodalashga undaydi. Quyida biz, namuna sifatida misol keltirdik;

**Aqliy hujum**

Aqliy hujum guruhlararo ishlarda qo‘llaniladigan, ko‘plab g‘oyalarni ishlab chiqish mumkin bo‘lgan metodlar. Bu haqiqatdan ham talabalarning o‘quv jarayonida faol ishtirok etishlari, turli g‘oyalarni bayon qilish chog‘ida boshqalarni ham qizg‘in ishga yo‘llashlari, ilhom bilan ishlashlariga imkon beruvchi va unga

rag‘batlantiruvchi metoddir. Aqliy hujum shuning uchun ham faollashtirishning muhim usuliki, unda tanho ishlash mumkin emas, birgina g‘oya guruhning barcha ishtirokchilarini bir xilda o‘ziga tortib oladi.

O‘qituvchi mavzuni yoki savolni ajratib olishi zarur, keyin esa o‘quv faolligi 5-10 daqiqa oralig‘idagi vaqt chegarasida engillashtiriladi.

Aqliy hujum turli tarzda qo‘llanishi mumkin; masalan, qandaydir mavzuni muhokama qilish uchun, yangi savol qo‘yish yoki istalgan qandaydir muammoni hal etish uchun.

**Asosiy qoidalar quyidagilar:**

1. Aytilayotgan barcha g‘oyalar bir biriga nisbatan muhimlikda tengdir.
2. Kiritilayotgan g‘oyalarga nisbatan tanqid mavjud emas.
3. G‘oyani taqdim etayotgan paytda so‘zlovchining gapini bo‘lmaslik.
4. So‘zlovchiga nisbatan baholovchi komponent mavjud emas.

## 5-MAVZU. TARBIYAVIY TRENINGLAR – 2 S.

**Reja:**

1. Tarbiyaviy treninglarning maqsadi va vazifalari.
2. Trening o‘tkazish metodikasi.

***Tayanch iboralar:*** trening, trening qoidalari, tzamonaviy tarbiyaviy treninglar, trening bosqichlari.

**1.**

Trening inglizcha “traening”-so‘zidan olingan bo‘lib, bilim berish, mashq qilish degan ma’noni bildiradi. Qisqacha mazmunga kelganda asosan, guruhlar orasidagi munosabatlarni inson shaxsini har tomonlama rivojlantirish maqsadida o‘zaro ta’sir etish munosabatlarini tashkillashtirish maqsadida qo‘llaniladigan uslublar yig‘indisidir. Trening yordamida individlarning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish bilan birga o‘zini va boshqalarni to‘g‘ri idrok eta olishga qaratilgan muammolar o‘rganiladi.

Trening — emotsiyaga boy, noan’anaviy mashg‘ulot bo‘lib, shaxsning muloqot usu-lini o‘zgartirish, uyg‘unlashtirishga, shaxslararo munosabatlarni yaxshilash, boshqa odamlar bilan muloqotda yuzaga keladigan qarama-qarshiliklarni hal etishga yo‘naltirilgan.

Trening maqsadlari inson psixologiyasining murakkab jarayonlariga, nozik tomonlariga ta’sir etishi mumkin, shuning uchun trenerning ishini qimmatbaho toshga ishlov berayotgan zargar mehnati bilan taqqoslash mumkin.

Treningning **asosiy maqsadi**: shaxsni psixologik (ruhiy) ozod qilish, bunda tabiiy erkinlikni his etishni, o‘z guruhida va undan tashqarida o‘zaro munosabat va aloqa o‘rnata olishdan iborat.

Trening — shaxsda mavjud bo‘lgan yoki vujudga keladigan muammolarni hal qilish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma malakalarni hosil qilish maqsadida

bahs-munozara, o‘yin va mashqlar orqali o‘tkaziladigan mashg‘ulotlar yig‘indisidir.

**Har qanday psixologik treninglarni tashkil etish quyidagi bosqichlardan tashkil topadi.**

1. Guruhni tashkil etish yoki yig‘ish bosqichi.
2. Boshlang‘ich bosqich.
3. Ishni olib borish bosqichi.
4. Yakunlash bosqichi.

Eng muhimi guruhni tashkil qilish bosqichi bo‘lib, bunda quyidagi jihatlarga e’tibor berish kerak:

— Har qanday treningda (faqat nogironlar bilan o‘tkaziladigan maxsus treninglarni hisobga olmaganda) tashqi jismoniy defektga ega bo‘lgan va psixik holatida buzilishlar bo‘lgan kishilar ishtirok etmasligi lozim. Negaki, bunday holatlarda aynan ana shunday kamchilikka ega bo‘lganlarda aks ta’sir bo‘lishi ehtimoli kuchliroqligi har qanday mutaxassis uchun tushunarli bo‘lsa kerak.

— guruh a’zolarining soni 8 tadan 12 tagacha (ba’zi hollardagina 20 tagacha) bo‘lgani ma’qul.

— ishtirokchilarning yoshi iloji boricha taxminan teng bo‘lishi, ya’ni ular orasidagi farq 4-5 yoshni tashkil etishi mumkin (Alohida qayd etish lozim, 45-50 yoshdan kattalar uchun trening juda katta va ahamiyatli ta’sirga ega bo‘lmasligi va ular kutganchalik natija bermasligi ham mumkin).

— ishtirokchilar orasida ayol va erkaklar soni imkoni boricha teng bo‘lishi kerak.

Bundan tashqari yana quyidagilarga xam e’tibor berish lozim bo‘ladi:

Treningda muammosi bir xil bo‘lgan odamlarni to‘plash kerak. Trening ishtirokchilari iloji boricha bir-biriga notanish bo‘lishlari lozim. Trening o‘tkaziladigan xona albatta izolyasiyalangan bo‘lishi shart, ya’ni hech kim ularni bezovta qilishi mumkin emas va ular ham boshqalarga halaqit bermasligi kerak.

Rasmiylashgan guruh bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik lozim. Trenerdan auditoriya erkin bo‘lishini ta’minlash va auditoriyani yaxshi bilish talab etiladi.

Biz «psixogimnastika» so‘ziga e’tiborimizni qaratamiz. Bu tushuncha o‘z ichiga ko‘plab turdagi mashqlarni: Yozma, og‘zaki, verbal, noverbal mashqlarni oladi. Ular uncha katta bo‘lmagan 2-3 kishidan iborat bo‘lgan yoki barcha ishtirokchilar bilan olib boriladi.

**2.**

Trening yoki o‘yin jarayonida ma’lum qoidalarga rioya qilish quyidagi ko‘rinish-larda tavsiya etiladi;

– bir biriga samimiylik va xayrihoxlik;
– bir- biriga ishonish;
– qatnashuvchining faoliyatiga va muloqot usullariga baho berish;
– o‘z taassurotlarini trening mashg‘ulotlarida boshqaruvchiga ma’lum qila olish;
– topshiriqlarni bajarishda faqat ijodiy farazga mo‘ljal bo‘lishi;
– jismoniy nuqsonlarga e’tibor bermaslik; – mashg‘ulot jarayonida hech kimga hech qanday maslahat bermaslik;

– albatta “bu erda va hozir” degan shartni bajarishi ya’ni, trening mashg‘ulotida ro‘y bergan hodisa yoki narsa tashqariga chiqmasligi zarur;

– qatnashuvchi guruhlarning barcha a’zolari xohish-istaklari bilan ishtirok etishlari kerak.

O‘yin jarayonida ro‘y berib turadigan qiyinchiliklarni nazarda tutish zarur bo‘ladi.

Barcha ishtirokchilar mashg‘ulot boshlanishiga va tanaffusdan keyin kechikmay kelishlari, bunda trener ularga namuna bo‘lishi kerak. Trening boshlovchisi faqatgina treningni boshqarmasdan guruh bilan birgalikda tahlil qiladi va o‘zini tutishi va muloqoti bilan qatnashchilarga namuna bo‘ladi. Treningni boshlashdan avval guruh a’zolarining bir-biriga murojaat etish usulini aniqlab olish lozim bo‘ladi. Bunda trener 4 xil variantni taklif etadi: «Sen», «Siz», «Ism», «Familiya». Odatda, o‘zbek mentalitetida ismini aytib murojaat etilishi kishilar orasida o‘zaro yaqinlik his-sini vujudga keltirishi sir emas. Garchi, ba’zi idoralarda ism-sharifi bilan muro-jaat etish rasman tan olingan bo‘lsada, ism bilangina murojaat etish treningda ko‘p-chilik tomonidan tasdiqlansa, har qanday katta mansabda ishlaydigan ishtirokchini ham ismi bilan chaqirish talab etiladi.

Mashg‘ulot o‘tkaziladigan joy shinam, keng, erkin harakatlanishga mo‘ljallangan, stullar bilan jihozlangan bo‘lishi shart. Xonada ishtirokchilarning orasiga to‘siq bo‘ladigan ortiqcha jihozlar (ortiqcha stol, stullar) bo‘lmasligi kerak.

Guruh a’zolari doira shaklida o‘tiradilar. Doira shaklida o‘tirishning afzalli-gi shundaki, hamma ishtirokchilar bir-birining borligini his qilishi va bir-birini ko‘rib turishiga imkoniyat bo‘ladi. Bu esa ishtirokchilarda ishonch, qiziqish, diqqat kabi xususiyatlarni vujudga keltiradi. SHuningdek, boshlovchi va ishtirokchilar ora-sida erkin muloqot qilish imkoniyatini yaratadi. Ayniqsa, bolalar guruhi bilan ish-laganda ular qarshisida o‘qituvchining bo‘lmasligi o‘smirlarda haqiqiy tenglikni his etishga yordam beradi. Bu orqali guruh a’zolarining haqiqiy ijtimoiy tengligini ta’minlovchi psixologik muhit (iklim) yaratiladi.

## 6-MAVZU. DARSDAN TASHQARI VAQTLARDA TARBIYAVIY ISHLARNI TASHKIL ETISH – 2 S.

**Reja:**

1. Darsdan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning mazmuni.
2. Darsdan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkil etish shakllari.

**Tayanch iboralar:** Tadbirlar, tarbiyaviy tadbirlar, ommaviy tadbirlar, milliy tadbirlar, to’garak.

**1.**

**Tarbiyaviy tadbirlar mazmuni va unga qo‘yiladigan talablar.** SHaxs sog‘lom va har tomonlama barkamol shakllanishi uchun unda o‘qishga intilish hissini takomil-lashtirish bilan cheklanib bo‘lmaydi. Ular ongida kasb - hunar va

mehnat ko‘nikmala-rini hosil qilish, umummadaniy bilimlarni, milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarini tarbiyalash bilan o‘z vatani va xalqiga nisbatan sadoqatni shakllantirish, atrof-muhitga nisbatan ongli munosa-batda bo‘lish tuyg‘usini, huquqiy ongini tarbiyalash lozim. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da madaniy estetik, ilmiy, texnikaviy, sport va boshqa yo‘nalishlarda o‘quv yurtidan tashqari davlat va nodavlat ta’lim muassasalarini tashkil etish ta’kid-langan hamda ta’lim sifatini yahshilash, uning to‘zilmasi va mazmun-mundarijasini takomillashtirish vazifalari belgilab berilgan.

**Tarbiyaviy ishlarni tashkil etish bo‘yicha tavsiyalar:**

Tarbiyaviy ishlarning aniq vazifalarini chuqur anglash.

Har qanday tarbiyaviy ish ishchan va kompleks yunalish asosida loyihalashtiri-ladi.

Tarbiyaviy ishlar mazmunini uning vazifalari va amalga oshirish sharoitlari bilan bog‘liq holda belgilab olinadi.

Maqsadga muvofiq metodlar, usullar va vositalar tarbiyaviy ishlarning har bir bosqichi uchun alohida loyihalanadi.

Tarbiyaviy ishlar turli-tuman bulishi kerak.

Tarbiyaviy ishlar his-tuyg‘ularning qudratli katalizatori kabi loyihalashtiri-ladi.

Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning **asosiy qoidalari**:

- bajarilishi lozim bulgan ishlarning maqsadini aniq belgilash, harakatni boshidan oxirigacha yaxlit tasavvur qilish;
- qatnashuvchilarning har biri uchun aniq vazifalarni belgilash;
- kutilayotgan ish uchun barcha zarur narsalarni tayyorlash;
- natijalarni aniqlash uchun muayyan mezonlarni urnatish;
- javobgarlik, adresat va hisobot vaqtini taqsimlash;
- tashkiliy tizimni uyushtirish vositasi sifatida ijrochilarga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish.

Mazkur bosqichdagi **tavsiyalar** quyidagicha:

- tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda ishtirok etayotgan har bir kishining huquq va majburiyatlarini aniq belgilab bering;
- har bir ishtirokchiga uning imkoniyatlari va xohishiga mos keluvchi bitta vazi-fa ajrating;
- tarbiyalanuvchilarning tashkilotchilik qobiliyatiga ega emasligini hisobga oling.

**2.**

Darsdan tashqari ta’limni urf-odatlarimiz, milliy qadriyatlarimiz, Respub-lika hududlari talablari asosida tashkil etib, uning tarmog‘ini kengaytirib, hozirgi zamon talablari darajasida isloh, qilish kun tartibida turgan dolzarb masaladir. Hozirgi paytda yangi pedagogik va axborot texnologiyasi qonuniyatlari asosida pedagog olimlarimiz ta’lim muassasalaridan tashqari ta’limni tashkil etishning turli shakl va metodlarini ishlab chiqish yo‘nalishida tegishli tadqiqotlarni olib bormok-dalar.

Ta'lim muassasalarining to'garak qatnashchilari ongida yuksak ma'naviy-ahloqiy fazilatlar mujassamlashgan bo'lishi kerak. Ta'lim muassasalari to'garak qatnashchila-rini doimiy ravishda fan va madaniyatning eng so'nggi yutuqlaridan habardor qilib turish ular ongini ijobiy ishlar va tarbiyaviy tadbirlar bilan band qilish muhim o'rin tutadi. To'garak qatnashchilarida mustaqillik tushunchasi shakllangan bo'lishi, ular Davlatimiz ramzlarini, madhiyasini, urf-odatlarimizni bilishi shart.

O'quvchilar qaysi to'garakka qatnashishidan qat'iy nazar shu kasb yoki hunar to'g'ri-sida boshlang'ich ko'nikmalarga zga bo'lishi lozim.

**Tarbiyaviy tadbirlarning shakllari**. Ta'lim muassasalari oldida turgan muhim tarbiyaviy faoliyati bu yoshlarga estetik, ekologik, axloqiy, huquqiy, iqtisodiy va shunga o'xshash boshqa turdagi tarbiyaviy ishlarni o'rgatishdan iboratdir. Tarbiya-ning ushbu turlarini yosh avlodga singdirish uchun avvalo muassasada o'tkaziladigan o'quvchilar his – tuyg'usini shakllantirishga asoslangan turli tadbirlarda, to'garaklar faoliyatida milliy madaniy-tarixiy an'analarga, urf-odatlar va umumbashariy qa-driyatlarga tayangan holda amalga oshiriladi. Masalan estetik tarbiyani yoshlar ongiga singdirish maqsadda o'quvchilar uylari, saroylari, shaxslar va usmirlar ijodiyot uylarida doirachilar, paqc, vokal-cholg'u, folklor, maqom, karnay-surnaychilar, ashula va paqc, o'zbek xalq cholg'u dastalari, hor studiyasi, qo'g'irchoq teatri, drama tugaragi, san'at sevarlar klublari tashkil etadi. To'garak a'zolari ushbu dasta, to'garak va klublarda san'atni sevishga, ardoqlashga, san'at orqali go'zallikni kura bilishga, shu go'zallik orqali uz ona yurtini ulug'lashga, undagi go'zallikni, chiroyni asrab qolishga intiladi.

SHuningdek, estetik ta'lim tasviriy va halq amaliy san'ati yo'nalishlaridagi to'garaklar mashg'ulotlari orqali ham o'quvchilar qalbiga singdiriladi. Bu o'rinda o'quvchilar uylari, saroylarida tashkil etilgan «Tasviriy san'at», «Haykaltarosh-lik", «Kulolchilik", «Milliy kashtachilik" , «Naqqoshlik», «YOg'och o'ymakorligi», «Ganch o'ymakorligi», «YOsh ta'mirlovchilar» to'garaklari ayni maqsadni doimiy va uzluksiz amalga oshiradi.

Sayyohlik to'garaklariga o'quvchilar ularning qiziqishlarini hisobga olgan holda keng jalb qilinadi. To'garakka qabul qilinayotgan o'quvchi yoshlar avvalo sayyohlik to'garaklarining biror bir yo'nalishiga qiziqqan, sayyohlik ekspeditsiyasi to'g'risida tasavvurga ega bo'lgan, sog'lom bo'lishi kerak. Sayyohlik yo'nalishi bo'yicha qatnashadi-gan o'quvchilar birinchi o'quv yilidan keyin quyidagilarni bilishi lozim:

-yurtimiz haqida tasavvurga ega bo'lishi;

-yurtimizning tarixini, qadimiy obidalarini, ular haqidagi afsona va rivoyatlarni bilishi;

-ma'lum joy, ulkani o'rganish bo'yicha reja va yo'nalishlarni ishlab chiqish;

-sayohat davomida kuzatuvchanlikni bilish, sayyohlikka oid materiallarni o'rganish;

-turli hildagi sayyohlikka oid adabiyotlar bilan doimiy tanishib borishi va ularni bilish kerak.

Ekologik tabiatshunoslikdan tashkil qilingan to‘garaklarning asosiy maqsadi yoshlarda jonli va jonsiz tabiat haqida yaxlit tasavvur hosil qilish, tarbiyalanuvchilarni o‘simlik va hayvonot olami bilan tanishtirish. To‘garak a’zolarida o‘simlik va hayvonlarni himoya qilish kerakligi to‘g‘risida tasavvur hosil qilish, to‘garak a’zo-lari o‘quv bilim yurtilarida er maydonlarida va tirik tabiat burchagida o‘simlik va hayvonlarni parvarish qilgandagina, yaxshi hosil olish mumkinligiga ishonch hosil qilishdan iboratdir.

To‘garak a’zolariga birinchi o‘quv yili oxirida quyidagi talablar qo‘yilishi lozim:

-jonli va jonsiz tabiat haqida tasavvurga ega bo‘lishi;

-jonli va jonsiz tabiatni bir-biri bilan o‘zaro bog‘liqligini;

-yoz, kuz, qish va bahorning harakterli belgilarini;

-yilning turli fasllarida odamning yashab turgan joyidagi mehnati va ularning turlarini;

-o‘simlik nomlari, ildiz, poya, barg, meva va urug‘larini;

-o‘t o‘simliklar, daraxtlar nomini;

-meva va manzarali dara htlarni aa ularning bir biridan farqlarini

-uchib ketuvchi va qishlovchi qushlarning hayoti va xususiyatlarini;

-tabiat bilan inson orasidagi qonun-qoidani doimo muvozanatda saqlashni bilgan, kuzatgan ishlari yuzasidan hisobot yoza bilishni, ma’ruza qilishni bilishilari kerak.

Ta’lim muassasalaridan tashqari ta’limning barcha yo‘alishlari va to‘garaklaridagi o‘quvchilarning ma’naviy fazilatlari, boy madaniy merosimiz, tarixiy an’analarimizga, umuminsoniy k,adriyatlarga hurmat, vatanga muhabbat, istiqlol g‘oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalanishi bilan belgilanadi.

O‘quv yurtlaridan tashqari ta’lim muassasalari klub va to‘garaklari boradilar. Bilimga tashnalik ham ahloqiy tarbiyaning tarkibiy qismidir tarbiyachi, muassasa hodimlari o‘quvchi qalbida kitobni sevish, uni o‘qish va ardoqlash kabi fazilatlarni doimiy ravishda shakllantiradilar.

Ta’lim muassasalarida rejalashtirilayotgan har bir tadbir mazmunida, klub va to‘garaklar faoliyatida - Vatanga muhabbat va komilinson tarbiyasi aks etishi lozim. O‘quvchilarda Vatanga muhabbat tuyg‘usini tarbiyalashda yurtimiz madaniyati tari hi, muayyan davrlardagi mavqei, buyuk mutafakkirlarimizning jahon fan va madaniyati sohasidagi o‘rni, mamlakatimizning yorqin istiqboliga ishonch to‘g‘pisida ma’lumot beriladi. Vatanni sevish, uning istiqboli haqida qayg‘urish iymon-e’tiqod ramzi ekanligi o‘qtiriladi. SHu nuqtai nazardan asosiy maqsad - komil insonni tarbiyalash amalga oshiriladi.

## 7.8-MAVZU. TA’LIM-TARBIYA MUASSASALARIDA BAYRAMLARNI, OMMAVIY TADBIRLARNI NAMUNALI O‘TKAZISH – 4 S.

**Reja:**

1. Ta’lim muassasalarida bayramlar va ommaviy tadbirlarni o‘tkazish mazmuni.
2. Bayramlar va ommaviy tadbirlarni o‘tkazish metodikasi.

**1.**

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, yurtimizda ko‘plab bayramlar nishonlana boshlandi. Ular o‘z mazmunicha xalqimizning azaliy an’analarini, urf – odatlarini va orzu umidlarini olgan bo‘lib, ommaviy tarzda muntazam nishonlanib kelyapti. Al-batta, bu bayramlar kishilarga zavqu shavq bag‘ishlash barobarida, yoshlarda vatanpar-varlik, an’analarimizga sadoqat, urf – odatlarimizga hurmat hissini shakllantirish-da muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Ushbu darslar o‘quvchilar qalbida iymon – e’tiqod hissini munavvar etib, ona – Vatan, xalqiga mehir muhabbat uyg‘otish zarur. SHu bois avvalo dars mavzusini to‘g‘ri tanlab olish, o‘quvchining bilimdarajasi, malaka va ko‘nikmalariga mos ravishda aniq belgilay bilishi lozim. Dars o‘tiladigan xona ham mavzuga mos ravishda bezatilgan bo‘lishi lozim. YA’ni qanday bayram o‘tkazilishga qarab O‘zbekiston Respublikasi Davlat bayrog‘i, Gerbi, Madhiyasi, Konstitutsiyasi, “Ta’lim to‘g‘risida” gi Qonun, Mutafakkir olimlarning ibratli so‘zlaridan namunalar keltirish mumkin va hakozolar.

Saboqlar suhbat, savol–javob, bahs–munozara, hikoya shakllarida sahnalashtirilgan lavhalar yordamida tashkil etilsa, yanada maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Bunday bayram tadbirlariga eng asosiylaridan misol tariqasida aytib o‘tishimiz mukin bo‘lganlari “Mustaqillik – buyuk ne’mat” umumxalq bayrami – “O‘qituvchilar va murabbiylar kuni”, 9 may – “Xotira va Qadrlash kuni”, “Navro‘z – gul bayrami” kabilardir.

Ushbu bayramlarni tashkil etishda Milliy dastur talablariga muvofiq vujudga kelayotgan akademik litsey va kasb–hunar kollejlarida, ayniqsa, behad ko‘tarinki ruhda alohida mahorat va izlanuvchanlikni talab qiladi.

Ta’lim muassasalarida, akademik-litsey, kasb-xunar kollejlarida, o‘quv yurtlarida, mahallalarda, korxonalarda «1oktyabr—O‘qituvchilar va murabbiylar kuni» bayramini o‘tkazish o‘sib kelaetgan yosh avlodni tarbiyalashda xalqimizning ustoz murabbiyga bo‘lgan munosabatlarining eng yaxshi namunalari misolida o‘quvchi yoshlar, umuman insonlar dunyoqarashini shakllantirishda katta ahamiyatga ega.

Bayram doirasida dars, tarbiyaviy soat, seminar-adabiyot, adabiy-badiiy va ilmiy kechalar, uchrashuv va davra suhbatlari o‘tkazilishi mumkin.

Bayram tantanalari «O‘qituvchi—ulug‘ nom, u Mag‘pyp jaranglaydi», «Ustoz—otangdan ulug‘», «Ustoz va murabbiylar, sizlarni sharaflaymiz», «Men sevgan ustoz», «Agar hayot bo‘ston bo‘lsa, bog‘bon muallim», «Ustozlar kuni — umumxalq bayramidir» kabi mavzularda o‘tkazilishi mumkin.

SHuningdek, yosh musavvirlar, yosh xunarmandlar yosh raqqosalar, yosh chevarlar ko‘rik-tanlovlarini, yosh polvonlar, yosh sportchilar, o‘tkir zehnlilar, topqirlar musobaqalarini, she’rxonlik va mushoiralarni o‘tkazish lozim.

Ustoz va murabbiylar bayramini nishonlashda o‘tganlar ruhini shod etishga alohida e’tibor berish maqsadga muvofiqdir.

«O‘qituvchilar va murabbiylar kuni» bayramini quydagicha reja asosida o‘tkazish mumkin:

— 1 oktyabr — «O‘qituvchi va murabbiylar kuni» bayrami — dam olish kuni ekanligi;

—o‘qituvchi—ulug‘ zot ekanligi haqida;

—ustoz—otangdek ulug‘ligi;

—o‘qituvchi va murabbiylar mehnatining qadr-qiymati haqida;

—buyuk ustozlar haqida O‘qituvchilar sulolasi haqida;

—ustozlar ruhini shod etish;

—o‘qituvchilarni munosib taqdirlash, sovg‘alar ulashish;

—rivoyat, hikoyalar, she’r va kuy-qo‘shiqlar ijro etish;

—saxna lavhalaridan, sport o‘yinlaridan namoyish etish;

—san’atkorlar chiqishi;

—sayl-sayohatga borish;

—nafaqaxo‘r, faxriy o‘qituvchilar holidan xabar olish;

—ko‘rgazma tashkil etish, kimoshdi savdosini uyushtirish.

Bayramni ikki bosqichli tadbir asosida o‘tkazish ham mumkin.

**Birinchisi** — ma’rifiy, ma’naviy tadbirlar bo‘lsa, **ikkinchisi,** ko‘ngil ochar, estetik zavq-shavq olishga bag‘ishlangan o‘yin-kulgi, tomoshali tadbirlardir. Sayohat va sayllarda, muzey va muqaddas qadamjoylarga, «Xotira va Qadrlash» maydonlariga borish.

O‘quv yurtlarida «O‘qituvchi va murabbiylar» bayrami teatrlashtirilgan reja asosida olib borilishi bayramning estetik tarbiyaviy qimmatini yanada oshiradi. Buning uchun, o‘quv yurtlarining havaskorlik drama teatri a’zolari, musiqa va cholg‘u asboblari to‘garaklarining ishtirokchilari bilan teatrlashtirilgan badiiy qismlar tashkil qilish maqsadga muvofiq.

Toshkent, Buxoro, Samarqand, Farg‘ona, SHaxrisabz, Termiz, Xiva shaharlariga o‘qituvchilar sayohatini uyushtirish. Bu ishlarda xalq ta’limi bo‘limi, hokimiyat, mahalla, homiy tashkilotlar, san’at va adabiyot ahli hamkorlikda faollik ko‘rsatishlari lozim.

Tomoshalar, konsertlar, Musiqali kechalar va lektoriylarga ustozu yosh murabbiylar va o‘quvchilarning bepul kirishini ta’minlash, shuningdek, ijodkor xodimlar guruhlari ta’lim-tarbiya muassasalariga tashrif buyurishlari lozim. «O‘qituvchi va murabbiylar kuni» bayramini o‘tkazishni Respublika, viloyat, shahar, tuman ommaviy axborot vositalari orqali yoritish maqsadga muvofiqdir. Bayram o‘tkaziladigan joyni bezashda quyidagilarga e’tibor berish tavsiya etiladi:

—»O‘qituvchi va murabbiylar kuni» bayramini o‘tkazish uchun, avvalo, sahna mavzuga mos qilib, did bilan bezatilishi — o‘qituvchi ustoz haqida Hadisu SHarif, Qur’oni Karim, YUsuf Xos Xojyb, A.Jomiy, A.Navoiy, A.Avloniy, Usmon Nosir, Fitrat, CHo‘lpon, Munavvar Qori hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov so‘zlaridan namunalar bitilib, shior qilib osib ko‘yilishi;

—Davlat Bayrog‘i, Gerbi, Madhiyasi o‘rniga tug‘ri joylashtirilishi;

—»Qur’oni Karim», «Hadisu SHarif», «Qutadg‘u bilig», «Qobusnoma», «Mahbub ulqulub», «Muhokamatul lug‘atayn», «Odobnoma», «Turkiy guliston yoxud axloq», «Alifbe», «Ustoz-muallim», «Odob saboqlari» va boshqa qadimiy hamda zamonaviy darslik va ko‘llanmalardan namunalar qo‘yilishi;

—fidoyi o‘qituvchilar suratlari, eng yaxshi dars va darsdan tashqari ma’naviy tarbiya ishlari bayonidan lavhalar, shuningdek, devoriy gazetalarning bayram sonlari ko‘rgazma sifatida namoyish etilishi;

—O‘zbekistonda «Davlat tili», «Ta’lim to‘g‘risida», «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», «O‘q,ituvchilar va murabbiylar kuni», «Davlat Mustaqilligi to‘g‘risida»gi Davlat Qonunlari hamda O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi o‘z aksini topishi;

—katta zalda dasturxon bayramona nozu-ne’matlar bilan tuzalishi, o‘rindiqlar hozirlanishi;

—bayramga mahalla oqsoqollari, faxriy o‘qituvchilar-murabbiylar, xalq ta’limi, tuman, shahar hokimiyati, xayriya jamg‘armalari, homiy tashkilotlar va matbuot xodimlari, vakillari, yozuvchilar, san’atkorlar taklif etilishi;

—ota-onalar, a’lochi o‘quvchilar ham ishtirok etishlari;

—bayram zarur texnik va musiqiy asbob-uskunalari, boshlovchi, badiiy havaskorlar bilan ta’minlanishi, azaliy o‘zbekona udumga binoan shodiyona karnay-surnay sadolari bilan boshlanishi lozim.

Quyida bayram tantanalarini o‘tadigan joyni bezatishda foydalanish uchun buyuk allomalarning ustoz va murabbiylar haqidagi fikr va mulohazalaridan namunalarni ilova qilamiz:

1. O‘quv qayda bo‘lsa, ulug‘lik bo‘lur,
Bilim qayda bo‘lsa, buyuklik bo‘lur.
(YUsuf Xos Hojib)

2. Haq yo‘lida kim senga bir harf o‘qitmish ranj ila
Aylamak bo‘lmas ado oning haqin yuz ganj ila.
(A. Navoiy)

3. Jahonda bo‘lmasa muallim agar
Hayot ham bo‘lmasdi go‘zal bu qadar.
(A. Jomiy)

4. Ustoz, muallimsiz qolganda zamon,
Nodonlikdan bo‘lurdi qora jahon.
A. Jomiy

5. Ustozlar—aziz yurtning eng aziz, eng ulug‘ va mo‘‘tabar kishilaridandir.
I.A. Karimov

6. Hayot yo‘lida birinchi masala — maktab masalasidir.
Abdurauf Fitrat

7. Ustoz yo‘li porloqdir, ustoz yo‘li porloqdir,
Ustoz ko‘ngli xazina, sahovatga to‘likdir.
P. Mumin

Akdemik litseylar, kasb – hunar kollejlari, bilim yurtdagi o‘quvchilarga jangohlarda “Vatan, Vatan, Vatan, ona, ona, ona” - deb jon berganlar ko‘p

bo‘lganidek, “Fevral voqealari”dek “Vatan”ni, “Ona”ni sariq chaqaga almashtiruvchi “Vatanfurush” bo‘lib olmaslikni tushuntirish lozim.

SHuningdek, quydagilarga e’tibor qaratish tavsiya etiladi:

- “Xotira va Qadrlash kuni” umumxalq bayramini O‘tkazuvchi maxsus komissiya to‘zish, tadbirlar ishlab chiqish;
- “Xotira – qalb chirog‘i”, “Inson buyuk zot, uni qadrlash oliy hikmat” kabi mazularda maxsus darslar, turli – tuman kechalar, davra suhbatlari, savol – javob, bahslar va tarbiyaviy soatlar o‘tkazish;
- «Osmonimiz musaffo, erimiz tinch bo‘lsin”, “YUrtimiz husni jamoliga ko‘z tegmasin”, “Toshkent – tinchlik shahri”, “O‘tganlar xotirasi, tariklar farovonligidir”, “Xotira va Qadrlash - burchimiz” kabi mavzularda sherxonlik tanlovini o‘tkazish;
- Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari bilan uchrashuv o‘tkazish, ularning xonodonlariga borish, ularni tabriklash, ularga ma’naviy va amaliy yordam berish;
- “Xotira va Qadrlash” kuniga bag‘ishlab adabiyotlar ko‘rgazmasini tashkil etish.

SHuni ta’kidlash lozimki, tadbirlar o‘quvchilarning bilim ko‘nikma va malaka-larga qarab ijodkorlik bilan o‘tkazish tavsiya etiladi.

“Xotira va Qadrlash kuni”da nafaqat ikinchi jahon urushi qatnashchilari balki qatog‘on yillarida nohaq ayblangan, qamoqxonalarda hamda mustabid tuzum davridagi afg‘on urushida halok bo‘lganlarni eslash maqsadga muvofiqdir.

## II. AMALIY MASHG‘ULOTLAR UCHUN MATERIALLARI



### 1-AMALIY: TARBIYAVIY ISHLAR METODIKASI FANINING NAZARIY ASOSLARI.

**Reja**

1. Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanining maqsadi, vazifasi, asosiy tushuncha va tamoyillari.

2.Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanining mazmuni, mohiyati va shaxs tarbiyasidagi roli.

3.Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanining dolzarb muamolari va uni bartaraf etish yo‘llari.

4.Tarbiyaviy jarayonda g‘oyaviy-siyosiy-ahloqiy tarbiyani tashkil etish.

5.Guruh rahbari ishini rejalashtirish.

**Ishdan maqsad:** *:* O‘quvchilarga Tarbiyaviy ishlar metodikasi fani haqida to‘liq ma’lumot berish, fanining mazmuni, maqsadi va vazifalari haqida to‘liq ma’lumot berish va uning kategoriyalari tushuntirish va lar xaqida bilim, malaka va ko‘nikmalar shakllantirish.

**Tayanch tushunchalar:** barkamol inson, ma’naviy ruh, m’naviyat, tarbiyaviy ish metodikasini, o‘quvchilarning axloqiy shakllanishi, axloqiy bilim berish, axloqiy ongni shakllantirish, gurux rahbarining axloqiy tarbiyasi, guruh rahbarining madaniyati.

**Agar mendan sizni nima qiynaydi?” deb so‘rasangiz, farzandlarimizning ta’lim va tarbiyasi deb javob beraman.**

BIZNI HAMISHA O‘YLANTIRIB KELADIGAN YANA BIR MUHIM MASALA – BU YOSHLARIMIZNING ODOB-AXLOQI, YURISH-TURISHI, BIR SO‘Z BILAN AYTGANDA, DUNYOQARASHI BILAN BOG‘LIQ. BUGUN ZAMON SHIDDAT BILAN O‘ZGARYAPTI. BU O‘ZGARISHLARNI HAMMADAN HAM KO‘PROQ HIS ETADIGAN KIM – YOSHLAR. MAYLI, YOSHLAR O‘Z DAVRINING TALABLARI BILAN UYG‘UN BO‘LSIN. LEKIN AYNI PAYTDA O‘ZLIGINI HAM UNUTMASIN. BIZ KIMMIZ, QANDAY ULUG‘ ZOTLARNING AVLODIMIZ, DEGAN DA’VAT ULARNING QALBIDA DOIMO AKS-SADO BERIB, O‘ZLIGIGA SODIQ QOLISHGA UNDAB TURSIN. BUNGA NIMANING HISOBIDAN ERISHAMIZ? TARBIYA, TARBIYA VA FAQAT TARBIYA HISOBIDAN.

**O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev**

**Blits savollar:**

1.Tarbiyaviy ishlar metodikasining dolzarbligi. (Prezidentimiz tomonidan taqdim etilayotgan qonuniy hujjatlar misolida asoslab bering!)

2.Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanini o’rganish zaruriyati va muhimlik jihatlari nimalardan iborat?

3.Tarbiya bu nima? Shaxsiy qarashingizni asoslab bering!

4.Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanining bosh maqsadi bu….?

5.Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanining asosiy vazifasi esa nimani anglatadi?

6.Tarbiyaviy ishlar metodikasi faning Pedagogika faniga aloqadorligini ko’rsatib bering!

7.Tarbiyaviy ishlar metodikasi faniniing dolzarb muammolari va uni bartaraf etish yo’llari nimalardan iborat?

8.Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanining asosiy tushuncha va tamoyillarini asosiylarini sanab bering?

9.Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanining mazmuni, mohiyati va shaxs tarbiyasidagi roli qanday?

**“SHAXS PORTRETI”** metodikasi.

Sizning ta’ssavuringizda Ma’naviyati yetuk boshqalarga o’rnak bo’la oladigan darajadagi shaxs qiyofasini gavdalantirgan obraz haqidagi fikrlaringizni ushbu jadvalda to’ldiring!

(U bo’lishi mumkin, kino qahramoni, badiiy kitob qahramoni, hayotdagi idealingiz, teatr qahramoni, mashhur va tarixiy inson siymosi va boshqalar)

E’tibor bering, topshiriqlarni individual tarzda bajarishingiz muhimdir va bu reyting ballingizga ham ta’sir etadi.

Batafsil va aniq javob bering!

Bilamizki har qanday insonning ideallari bo’ladi!

| **Sizning idealingizdagi qahramoningiz nomi qanday?** | **Bu qahramon qachon yuzaga kelgan?** | **Sizga aynan qaysi fazilatlari yoqadi?** | **Siz uning qaysi fazilatlarini takrorlagansiz ?** | **Bugungi kunda jamiyatimizda bunday qahramonlar bormi?** |
|---|---|---|---|---|
| | | | | |
| | | | | |

Baholash mezoni:

1-Blits savollarga-50-71gacha ball

2-Jadval-10-15 gacha

3-Tezkorlik va aniqlik-5-14 ball

## 2-MAVZU: Milliy urf-odat, qadriyat va an’analar-tarbiya asosi

**Reja:**

1.Shaxs hayotida qadriyatlar tizimi.

2.Milliy urf-odatlarimiz, milliy o’zligimiz namunasi sifatida.

3. Milliy tarbiya va uning mazmuni

**Tayanch tushunchalar: Qadr-qimmat, mintaletet, ma’naviyat, madaniyat, milliy urf-odat, milliy o’zlik, milliy g’urur, milliy tarbiya, aksiologiya.**

**1-topshiriq:** Blits savollar:

1.Milliy urf-odat deganda nimani tushunasiz?

2.Qadriyat deb nimaga aytiladi?

3.An'analarning shakllanish omillari?

4.Respublikamizda keng nishonlanadigan milliy urf-odatlar hamda alohida joylarga (ovul, qishloq, shaharlarga) hos bo'lgan marosimlar.

| | |
|---|---|
| | 2-topshiriq:<br><br>Ushbu javoblar orasidan qadriyat turlarini ajratib chiqing!<br><br>1. Inson yashab turgan moddiy muhit bilan bog'liq bo'lgan qadriyatlar.<br><br>2. Moddiy va ma'naviy qadriyatlar.<br><br>3.An'analar, urf-odatlar va marosimlarda namoyon bo'ladigan axloqiy qadriyatlar. 4. Turli yaratilgan urf-odat, an'analarga amal qilish.<br><br>5.Insonning aql-idroki va amaliy faoliyati zaminida shakllangan mehnat malakalari va ko'nikmalari, bilim va tajribalari, qobiliyat va iste'dodlarida namoyon bo'ladigan qadriyatlar. |

**Mavsumiy nishonlanadigan tadbirlarni ajratib ko'rsating!**

| № | Bahor fasli | Yoz fasli | Kuz fasli | Qish fasli |
|---|---|---|---|---|
| | | | | |

**Milliy urf-odat, qadriyat va an'analarning shaxs rivojlanishiga ta'siri "Afzalliklari Kamchiliklar" iga oid fikrlarni bayon eting, Jadvalni to'ldiring!**

| + | - |
|---|---|
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |

## 3- MAVZU: PEDAGOGIK TEXNIKA-PEDAGOGIK MAHORATNING BIRINCHI BOSQICHI SIFATIDA 2S.

**Reja:**

1.Pedagogik texnika haqida ma'lumot.
2.Pedagogik texnika malakalarini mukammal egallash
3. Pedagogik texnikani egallash yo'llari.

**Tayanch iboralar:** pedagogik oliyjanoblik, oliyjanoblik hissini shakllantirish, kasbga nisbatan munosabati, o'quvchining munosabati, nuqsonlarni yo'qotishga yordam berish, o'quvchilrning yutuqlaridan hursand bo'lish.

**1-topshiriq: Tushunchalar tahlili metodi orqali asosiy tushunchalarni o'z guruhlariga ajrating! (+ tartibda)**

| № | Pedagogik texnikaning komponentlari | Birinchi guruh komponentlari o'qituvchining shaxsiy axloqiy fazilatlari va xulqi | Ikkinchi guruh komponentlari o'qituvchining shaxs va jamoaga ta'sir ko'rsatish malakalari |
|---|---|---|---|
| 1 | • o'quvchilar bilan pedagogik muloqot jarayonini bir muvozanatda saqlab boshqara olishi. | | |
| 2 | • ta'lim-tarbiya jarayonida o'z hissiyotini va kayfiyatini jilovlay olishi va turli nojo'ya ta'sirlarga berilmaslik; | | |
| | • o'qituvchining didaktik, tashkilotchilik, konstruktiv, kommunikativ qobiliyatlari; | | |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 3<br>4<br>5<br>6<br>7 | • nutq texnikasini (nafas olish, ovozni boshqarish, nutq tempi) bilishi va o'z o'rnida qo'llay olishi.<br><br>• mukammal ijtimoiy perseptiv qobiliyatlarga (diqqat, kuzatuvchanlik, xayol) egaligi;<br>ma'lum bir reja asosida o'z oldiga qo'yilgan talablarning bajarilishini nazorat qilishi;<br><br>• ta'lim muassasasida va o'quvchilar jamoasida ta'lim-tarbiya bilan bog'liq bo'lgan ijodiy faoliyatni tashkil eta olishi;<br><br>• ta'lim-tarbiya jarayonida o'z xatti-harakatlarini boshqarishi, (mimika, pantomimika); | | |
| 8 | | | |

**2-topshiriq:**

Sharqona tarbiyaga hos bo’lgan yuz ifodasi hamda o’ziga hos talabchanlikni ifodalovchi yuz ifodasini yarating.

Bunda barcha mimik harakatlarni samarali qo’llash orqali ta’lim-tarbiya sohasida ijobiy holatlarni yuzaga keltirish yuz ifodalari (ko’z, qosh, lab, qovoq, burun, iyak) ga bir nechta misol keltiring:

O’quvchiga ishonch bildirish qiyofasi-
________________________________________________________________
________________________________________________________________

O’quvchiga hurmat ko’rsatish ifodasi-____________________________

________________________________________________________________
________________________________________________________________

O’quvchiga dalda berish ifodasi-__________________________________

________________________________________________________________
________________________________________________________________

O’quvchiga tanbeh berish ifodasi-________________________________

________________________________________________________________

________________________________________________________________

**3-topshiriq: Tabassum turli hissiyotlarni anglatganligi uchun ularning ba’zi turlarini hisobga olish maqsadga muvofiq:**

| | | |
|---|---|---|
| **1.** | **ortiqcha ko’p jilmayish** | **A- bo’ysunishga tayyorlik;** |
| **2.** | qiyshiq kulish | B-qo’llab quvvatlanishga ehtiyoj; |
| **3.** | ko’tarilgan qoshlar va tabassum | S-nazorat qilinayotgan asabiylik; |
| **4.** | pastga tushirilgan qoshlar va tabassum | D – samimiyatsizlik; |
| **5.** | tabassum bilan bir paytda pastki qovoqlarning ko’tarilmasligi | E- o’zini katta olish; |

| | | |
|---|---|---|
| **6.** | tabassum bilan bir paytda ko’zlarning olayishi | F- qo’rqitish. |

| | |
|---|---|
| | 4-topshiriq: Pedagogik texnikani bir maromda egallashda, har bir o’qituvchining o’z individual dasturini ishlab chiqishi muhim ahamiyat kasb etadi shu sababli yosh pedagog o’qituvchilarda mavjud bo’lishi kerak bo’lgan mimika, jest, pantomimika, pedagogik texnikani batafsil yoritingki toki ushbu harakatlaringiz sizga bo’lgan ishonch, hurmat olib kelsin.<br><br>(Mavzu yuzasidan berilgan materiallarga tayanib dastur tuzing!) |

**5-topshiriq: Blits savollar:**

1. Pedagogik texnika deganda nimani tushunasiz?
2. Pedagogik texnikaning qanday tamoyillari mavjud?

3. Pedagogik texnikaning tarkibiy qismlariga nimalar kiradi? Nima uchun ular ikki guruhga bo’linadi?

4. Pedagogik texnikaning usul va vositalari haqida nimalarni bilasiz?

5. Yosh o’qituvchilar faoliyatida yo’l qo’yadigan pedagogik texnikaga doir xatolarni tahlil eting.

6. Mimika va pantomimikaning o’qituvchining pedagogik mahoratida tutgan o’rni qanday?

7. O’qituvchining pantomimik harakatlari tizimida qanday psixologik holatlar o’z aksini topadi?

**Baholash mezoni:**

1-20 gacha; 2-10-20gacha; 3-10-20gacha;

4-10-20gacha; 5-10-20gacha;

**Jarima** ko'chirilgan va ko'chirtirilgan holat uchun-20ball,

Mobillik-20 ball

**Foydalangan adabiyotlar**

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev "Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga ko'ramiz" Toshkent "O'zbekiston" 2017 y.

2.Fayzullaeva N., Shodmonova SH. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. O'quv qo'llanma. –T.: TDIU, 2008. -18 bet.

3. Mavlonova R., Rahmonqulova N., Normurodova B. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. – T.: Tib-kitob, 2010.

4. Ishmuxammedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar/ – T.: Fan va texnologiya, 2010.

5.Ilinicha V.I. Fizicheskaya kultura studenta.Uchebnik.– M.:Gardariki,2005. – 448 str.

## 4- AMALI MASHG'ULOT: GURUH RAHBARI ISHINI TASHKIL ETISH – 2S.

**Reja:**

5. Guruh rahbarining tashkilotchilik funksiyasi
6. Guruh rahbari sifatida guruhda uchrashi mumkin bo'lgan turli muommolarni bartaraf etish.

**Tayanch iboralar:** pedagogik oliyjanoblik, oliyjanoblik hissini shakllantirish, kasbga nisbatan munosabati, o'quvchining munosabati, nuqsonlarni yo'qotishga yordam berish, o'quvchilrning yutuqlaridan hursand bo'lish.

**1-topshiriq:Guruh rahbarida ushbu sifatlar bo'lishi muhim hisoblanib qay hollarda ulardan o'z o'rnida foydalanish mumkinligini misollar orqali keltiring!**

Pedagogik texnika,
mahorat,
san’at,
moxirlik,
tashkilotchilik,
aktyorlik,
rejissyorlik,
mimika,
pantomimika,
savodli gapirish,
ma’noli qarash,
rag‘batlantiruvchi ,
istehzoli tabassum,
pedgogik ta’sir ko‘rsatish.

**2-topshiriq: Muommoli vaziyat:**

Farmatsiya yo’nalishi 202-guruh o’quvchilar guruhi doimiy ravishda davomati ijobiiy holatda bo’lib shu sababli dekanat doimo bu guruhdan ma’mnun qolaversa guruh o’quvchilari ham darslarda faollik bilan ishtirok etishadi. Guruh rahbari o’z guruhining holatidan ko’ngli to’q yurgan bir payt guruhidagi 2 ta o’quvchi darsdan vaqtli chiqib ketish holatiga bir necha bor payqadi, guvohi ham bo’ldi va ulardan buni sababini so’rasa uyga shoshayotganligini aytishdi doim uyga vaqtli ketishayotganligi sababini so’radi ular boshqa kunlar o’z vaqtida ketishiyotganini aytishdi.

**Diqqat savol**, ushbu o’spirin kollej o’quvchilardagi o’zgarishga nisbatan qanday chora va tadbirlar qo’llanilsa maqsadga muvofiq bo’ladi.

**Yechimini toping va bayon qiling!**

**3-topshiriq:**

Guruhda qulay mo’tadil, faollikga asoslangan iqlim yaratilishi uchun guruh murabbiysini o’ziga hos funksional faoliyati, vazifalarini ko’rsating!

Baholash mezoni:

1-20-30;

2-20-30;

3-20-30;

4-O’z vaqtida jo’natish qolaversa shaxsan bajarilganligi inobatga olinadi.

## 5-MAVZU. Munosabat pedagogikasi

**Reja:**

1.Muloqot  va munosabat

2. Kasb ta’lim o’qituvchisining o’quvchilar bilan muloqatga kirisha  olish.

3. Muloqot  jarayonida  uchraydigan psixologik  to`siqlarni bartaraf etish.

**Tayanch so'z va iboralar:** Muloqot, munosabat, muomala, Identifikatsiya, perseptiv kommunikativ, interaktiv, refleksiya, stereotipizatsiya, kommunikatsiya, Pedagogik muloqot, verbal, noverbal, paralingvistik.

1-topshiriq: Pedagogik faoliyatda (o’qituvchilar jamoasi, o’z murabbiylik guruhida, mashg’ulotlar davomida) turli hil konflikt holatlariga duch kelmaslik uchun muloqot jarayonida qanday hususiyatlarga alohida ahamiyat berish kerak.

**2-topshiriq:Berig[illegible]avzu bo‘yicha talabalar bilishi lozim bo‘lgan yozma javob savollari**

| Bilishi lozim bo‘lgan Savollar | Berilgan savollarning mazmuni |
|---|---|
| Muloqot o‘zi nima? | |
| Muloqotning funsiyalarini ayting? | |
| Biz muloqotni qanday amalga oshiramiz? | |
| Inson yuz ifodasiga qarab nimalarni bilish mumkin? | |

| | |
|---|---|
| Jilmayish va tabbassum qilish qiyin ishmi? | |
| Muloqot bu ehtiyojmi? Nima uchun shunday? | |
| Odamlar bir –biriga muloqot jarayonida qanday ta’sir ko‘rsatadilar? | |
| Nima uchun noverbal ya’ni nutqsiz ta’sirni eng kuchli deb bilamiz? | |
| Bizning muloqot qilishimiz ongimiga qanday ta’sir ko‘rsatadi? | |
| Muloqot olib borishda kimni faol deb o‘ylaysiz,ayollarmi yoki erkaklarmi? | |
| Muloqotning muvafaqiyatini ta’minlovchi omil nima? | |
| Oltin so‘zlarni bilasizmi? | |

**3-topshiriq:O’ziga mos tushunchani tanlang!**

| | **Muloqot jarayonida psixologik to`siqlar** | |
|---|---|---|
| **1** | shaxslarning muloqotga kirishishdan bosh tortishi, muomalani to`g`ri, aniq ko`rinishda olib borilishini xohlamasligi jarayonida namoyon bo`ladi; | *A.Aqliy (intellektual) to`siqlar* |
| **2** | shaxsning boshqa shaxsga nisbatan bilim doirasining kengligi, mantiqiy fikrlashining chuqurligi va intellektual savodxonligi mazmunan boy bo`lgan taqdirda yuzaga keladi; | *B.Motivatsion to`siqlar* |
| **3** | muloqotga kirishuvchilarning psixologik va emotsional-irodaviy holatlaridan kelib chiqadi (agressivlik, qo`rquv, asabiylashish, xo`rlanish va boshqalar); | *S. Emotsional to`siqlar* |
| **4** | ta’lim sohasida xamda huquqni muhofaza qilish organlarida «tarbiyasi qiyin» o`smirlar, nosog`lom oilalar va muqaddam sudlangan shaxslar bilan profilaktik chora-tadbirlar olib borayotgan vaqtda uchraydi. | *D. Tarbiyaviy jarayondagi to`siqlar* |

| | |
|---|---|
| | |
| | 4-topshiriq:<br>Javob bering!<br>Pedagogik muloqot madaniyatining har jihatdan to‘g‘ri tanlangan, o‘qituvchining ma’naviy saviyasi, betakror xususiyatlariga muvofiq keluvchi uslubi qanday vazifalar majmuini hal qilishga yordam beradi, yechimini ko’rsating! |

Baholash mezonlari:

1-10-20;

2-10-20;

3-10-20;

4-10-20;

Topshiriqlarni o’z vaqtida bajaring va jo’nating va individual bajaring! 20ballga ega bo’ling!

## 6-MAVZU: Jamoani shakllantirish metodikasi

**Reja:**

1.Jamoa haqida tushuncha.
2.Jamoani shakllantirish va uning bosqichlari.
3.O’qituvchining muhim vazifalaridan biri jamoani uyushtirish va jipslashtirish

**Tayanch tushunchalar:** jamoa, o’quvchilar jamoasi, jamoaning shakllanish bosqichlari, jamoaning shakllanish darajalari, konformizm, lider, norasmiy lider.

**1-topshiriq. “Har qanday guruh jamoa bo‘la oladimi?” Qanday sifatlarga e’tibor berish zarur?**

**2-topshirq. Jamoa va uning o‘ziga xos belgilarini o‘zlashtirilishiga doir blis-so‘rov savollari**

1. Jamoa deganda nima tushuniladi?
2. Jamoaning o‘ziga xos belgilari nimalardan iborat?
3. Ijtimoiy ahamiyatga ega yagona maqsad deganda nima tushuniladi?
4. Jamoaning birgalikdagi umumiy faoliyati nimalarda aks etadi?

5. O‘quvchilar jamoasining majburiy mas’uliyatli munosabatini yo‘lga qo‘yish nima uchun zarur?

6. Jamoaning rasmiy va norasmiy tuzilishidagi farqlar nimada namoyon bo‘ladi?

**3-topshiriq. O‘quvchilar jamoasini shakllantirish darajalari va bosqichlarini aniqlashtirishga doir toifalash jadvali**

| O‘quvchilar jamoasini shakllantirish darajalari | O‘quvchilar jamoasini shakllantirish darajalari mazmuni | O‘quvchilar jamoasini shakllantirish bosqichlari | O‘quvchilar jamoasini shakllantirish bosqichlari mazmuni |
|---|---|---|---|
| | | | |

**Umumiy ballning taqsimoti!**

1.15-30 ball; 2.15-30ball; 3.15-30ball; Mobillik va individuallik uchun 10 ball

## 7-MAVZU: JAMOADA SHAXSNI TARBIYALASH SHAKLLARI VA USULLARI

**Reja:**

**1.**Tarbiyaning o’ziga hos hususiyatlari, metodlari, qonuniyatlari haqida tushuncha.

2.Guruh jamoasini tashkil etish va tarbiyalashga qo‘yilgan talablar.

3. Guruh jamoasini o‘rganish va uni dasturini ishlab chiqish.

4.Guruh jamoasi bilan ishlash va unga rahbarlik qilish.

***Tayanch iboralar:*** “Ota-onalarga pedagogik bilim berishning namunaviy dasturi”, tarbiyaning qonuniyatlari, tarbiya metodlari, jamoa, adaptatsiya, jamoani shakllanish bosqichi, jamoa a’zolarining munosabati, jamoada yagona saylangan o’rganning mavjudligi.

1**-topshiriq. Quyida keltirilgan fikrlarni o'qing va ularni ikki –guruh rahbarining huquqlari va majburiyatlari tarzida turkumlang.**

1.Tarbiyalanuvchilarning jismoniy va psixik rivojlanishi haqida ma'lumotlar olish.

2. Murakkab muammolarni hal etishda o'quvchilarga yordam ko'rsatish.

3. Har bir o'quvchining o'zlashtirish ko'rsatkichlarini nazorat qilish.

4. O'quvchilarning o'quv mashg'ulotlariga qatnashishini nazorat qilish.

5. O'quvchilarning shaxsiy salohiyatining rivojlanishi uchun sinfda maqbul ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish.

6. Mazkur guruhda dars beradigan o'qituvchilar ishini muvofiqlashtirish.

7. Kollej jamoasidan zurar pedagogik yordam olish.

8. Ota-onalar bilan aloqa o'rnatish va ularga tarbiyaviy ishda yordam berish.

9.Bolalar bilan indiviudal ishlash tartibini aniqlashtirish.

10. "Kichik pedkengash", pedagogik konsilium, mavzuli va boshqa tadbirlar o'tkazish orqali guruh o'quvchilari bilan tarbiyaviy ishlarni tashkil etish.

**2-topshiriq:**

**Tarbiya metodlarini maqsadga muvofiq tanlash bir qator omillarga bog'liqlik holatlariga izoh bering!**

3-topshiriq:

Jamoaning rivojlanish darajasini belgilash metodikasini ishlab chiqing!

| | | |
|---|---|---|
| **1.** | **Tarbiyaning maqsad va vazifalari bu** | |
| **2.** | **Tarbiya mazmuni bu** | |
| **3.** | **Tarbiyalanuvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish** bu | |
| **4.** | **Jamoaning shakllanganlik darajasi bu** | |
| **5.** | **Tarbiyalanuvchilarning individual o'ziga xosliklari bu** | |
| **6.** | **Tarbiyaviy shart-sharoitlar bu** | |
| **7.** | **Tarbiya vositalari bu** | |
| **8.** | **Pedagogik malakani egallaganlik darajasi bu** | |
| **9.** | **Tarbiya vaqti bu** | |
| **10.** | **Kutiladigan natija bu** | |

**Baholash mezoni:**

1-topshiriq uchun-15 balldan-30ballgacha;

2-topshiriq uchun-15balldan-30ballgacha;

3-topshiriq uchun-15balldan-30ballgacha;

Tezkorlik va aniqlik uchun-10ball

## 8-MAVZU: OILA, JAMOA O'QUV BILIM YURTINING TARBIYAVIY ISHLARI HAMKORLIGI

**Reja:**

1.Guruh rahbari o'quvchilar faoliyatini tashkil etishda 3 tomonlama hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yish.

2.Guruh rahbarining shaxs va jamoani o'rganishi va tarbiyaviy ishlarni rivojlantirishi.

3.Jamoada sog'lom muhitni yaratishda pedagogik va psixologik tadbirlarni olib borish.

***Tayanch iboralar:*** Pedagogik oliyjanoblik, oliyjanoblik hissini shakllantirish, kasbga nisbatan munosabati, o'quvchining munosabati, nuqsonlarni yo'qotishga yordam berish, o'quvchilrning yutuqlaridan hursand bo'lish, hamkorlik ishlari

**1-topshiriq. Oila, uning vazifalari va turlariga doir blits-so'rov savollari**

1. "Oila" tushunchasiga ta'rif bering.
2. Oila qanday jihatlarni o'zida aks ettiradi?
3. Jamiyatga munosabatiga ko'ra oila qanday vazifalarni bajaradi?
4. Insonga nisbatan munosabatiga ko'ra oilaning vazifalariga nimalar kiradi?
5. Oilaning iqtisodiy funksiyasi qanday vazifani bajaradi?
6. Oilaning ijtimoiy funksiyasiga nimalar kiradi?
7. Oilaning reproduktiv funksiyasi nimalardan iborat?
8. Nikohiy holat bo'yicha oilalarni qanday turlarga bo'lish mumkin?
9. Bolalar soniga ko'ra zamonaviy oilalarning qanday turlari mavjud?
10. O'zaro munosabat turiga ko'ra oilalarni qanday turlarga tasnif qilish mumkin?
11. Shaxslararo munosabatlar tavsifiga ko'ra oilalar qanday guruhlashtiriladi?
12. Jamiyat va oilaning o'zaro munosabatini sharhlab bering.
13. O'zbek oilasidagi shaxslararo munosabatlar sizni qoniqtiradimi? Bunga munosabatingiz.
14. Oilaning maktab bilan hamkorligi qanday bo'lganda tarbiya samarali bo'ladi, deb o'ylaysiz?
15. Bola tarbiyasida mahalla, jamoatchilikning o'rni qanday?

**2-topshiriq. Zamonaviy oilalar rivojining o‘ziga xos xususiyatlarini tavsiflashga doir ikki qismli kundaliklar topshirig‘i**

**2-topshiriq:** Quyida keltirilgan “Zamonaviy oilalar rivojining o‘ziga xosliklari” mavzusidagi ikki qismli kundalikning chap tomondagi ustunida keltirilgan fikrlar bilan tanishing va o‘ng tomondagi ustunga ularning har biriga izoh yozing.

| | |
|---|---|
| **Shahar va qishloq oilalarining ijtimoiy hayot tarzidagi farq** | |
| **Ota-ona qanchalik yuqori mahlumotga ega bo‘lsa, ularning bolalari ta’lim muassasasida shunchalik muvafaqqiyatli o‘qishadi.** | |
| **Bozor iqtisodiyoti sharoitida moddiy jihatdan turlicha tahminlanganlik** | |
| **Oiladagilar sonini kamaytirish, tug‘ilishning oldini olish** | |
| **Zamonaviy oilalar ajralishlar sonining ko‘zga ko‘rinarli ko‘payganligi** | |
| **Oilada ota-onalar psixologik jihatdan tayyor bo‘lishi mumkin. Lekin hammasi ham yetarlicha pedagogik bilimlarga ega emas.** | |
| **Ijtimoiy hayotning madaniy saviyasining pastligi** | |

| | |
|---|---|
| **Oilada ayollarga tushadigan «yuk»ning kattaligi** | |
| **Avlodlar orasidagi konfliktlarning kuchayib borayotganligi** | |

**Umumiy reyting ball taqsimoti:**

1-topshiriq uchun-25 balldan- 40 ballgacha;

2-topshiriq uchun-25 balldan- 40ballgacha;

Tezkorlik va aniqlik uchun-20ball

## 8-MAVZU: OILA, JAMOA O'QUV BILIM YURTINING TARBIYAVIY ISHLARI HAMKORLIGI

**Reja:**

1.Guruh rahbari o'quvchilar faoliyatini tashkil etishda 3 tomonlama hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yish.

2.Guruh rahbarining shaxs va jamoani o'rganishi va tarbiyaviy ishlarni rivojlantirishi.

3.Jamoada sog'lom muhitni yaratishda pedagogik va psixologik tadbirlarni olib borish.

***Tayanch iboralar:*** Pedagogik oliyjanoblik, oliyjanoblik hissini shakllantirish, kasbga nisbatan munosabati, o'quvchining munosabati, nuqsonlarni yo'qotishga yordam berish, o'quvchilrning yutuqlaridan hursand bo'lish, hamkorlik ishlari

**1-topshiriq:**

**Oila, jamoa o'quv bilim yurtining tarbiyaviy ishlari hamkorligiga oid qonuniy, me'yoriy-hujjatlarni saralab bering!**

**2-topshiriq:**

**Biz quyida guruh rahbarining ota-onalar bilan ishlashning asosiy shakllari bilan tanishtirib chiqing :**

**Bunda an’anaviy ota-onalar bilan hanmkorlik shakli,**

**Yangi natijador innovatsion shakli bilan tanishtiring!**

| Yo’lga qo’yilgan tizim: | Sizningcha innovatsion samarador ishlash shakli: |
|---|---|
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |
| | |

**3-topshiriq:**

Muntazam ravishda guruh rahbari va muassasaning ma’naviy ishlar bo’yicha ma’sul hodimi bilan birgalikda, jamoada sog’lom muhitni yaratishda qanday pedagogik va psixologik tadbirlarni olib borilgan va aynan siz qanday tadbirlarni qo’llagan bo’lardingiz!

**Baholash mezoni:**

1.15-30 ball; 2.15-30ball; 3.15-30ball;

Mobillik va individuallik uchun 10 ball

## Foydalangan adabiyotlar

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev “Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga ko‘ramiz” Toshkent “O‘zbekiston” 2017 y.

2.Fayzullaeva N., Shodmonova SH. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. O‘quv qo‘llanma. –T.: TDIU, 2008. -18 bet.

3. Mavlonova R., Rahmonqulova N., Normurodova B. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. – T.: Tib-kitob, 2010.

4. Ishmuxammedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar/ – T.: Fan va texnologiya, 2010.

5.Ilinicha V.I. Fizicheskaya kultura studenta.Uchebnik.– M.:Gardariki,2005. – 448 str.

## 10-SEMESTR

- Eski taqa uchun egilib o‘tiramanmi – deb gap qaytardi o‘g‘li. Otasi indamasdan o‘zi egilib, taqani oladi-da, yo‘lida davom etadi. Kun issiq edi. Bola chanqay boshlaydi. Bir oz yo‘l yurganidan keyin olcha sotib o‘tirgan baqqol ko‘rinadi. Otasi boyagi taqani olchaga almashtirib, belbog‘iga tugib oladi. O‘g‘liga ko‘z-ko‘z qilib, bir dona olchani og‘ziga tashladi-da, bir donasini erga tashladi. O‘g‘li darrov egilib olchani oladi va chanqog‘ini bostirmoqchi bo‘lib og‘ziga soladi. Otasi olchani ketma-ket tashlaydi. O‘g‘li o‘n-o‘n besh marta egilib, olchalarni terib olib eganidan so‘ng nihoyat otasi to‘xtaydi va belbog‘ida qolgan olchalarni o‘g‘liga uzata turib deydi:

- Ko‘rdingmn o‘g‘lim, sen taqani ko‘tarib olish uchun bir marta egilishga

eringan eding, olchalarni terib olish uchun o‘n-o‘n besh marta egilding. Bundan keyin esingda bo‘lsin, agar engil mehnatni og‘ir deb hisoblasang, undan battar og‘iriga duch kelasan».

Bu ertakdagi pedagogik ta’sirning salbiy va ijobiy ko‘rinishlarini bolalarga izohlashda o‘qituvchi quyidagi savollar orqali tarbiyaviy mahorat bilan aniqladi.

**Keysni bajarish bo‘yicha topshiriqlar:**

- otani talabi to‘g‘ri-mi, yoki yo‘q-mi? Sababini ochib bering.
- otani bolaga mehnatdan bosh tortmaslik uchun tutgan ish usuli to‘g‘ri-mi? Bolaga dastlab o‘z harakati bilan o‘rnak bo‘lib, so‘ng xatosini tushuntiradi.
- bu borada sizlarnpng fikr va munosabatlaringiz qanday?

**Keysni bajarish bosqchilari va topshiriqlar:**

2. Keysdagi muammoni keltirib chiqargan asosiy sabablar va hal etish yo‘llarini jadval asosida izohlang (individual va kichik guruhda).

| Muammo turi | Kelib chiqish sabablari | Hal etish yo‘llari |
|---|---|---|
| | | |

## 8- Keys:

**Zamonaviy pedagogik atamalar topshiriq. Tinglovchilar keys bilan tanishadilar va pastda ko‘rsatilgan jadval asosida uning echimini topadilar.**

“Farmakogniziya” kafedrasida “Zamonaviy pedagogik atamalar” mavzusiga bag‘ishlangan seminar -trening o‘tkazildi. Seminar-treningda Hozirgi vaqtda ta’lim jarayonida qo‘llanilayotgan “metodika”, “texnologiya”, “interfaol metod”, “strategiya”, “grafik organayzerlar” kabi atamalar tahliliga alohida e’tibor qaratildi. Seminar-treningda pedagogik texnologiyalar sohasiga doir qator izlanishlar olib borgan mutaxassis olimlar taklif etildi.

Moderator birinchi bo‘lib so‘z navbatini “metodika” va “texnologiya” tushunchalari mohiyatini aniqlashtirib berish uchun pedagogika fanlari doktori, professor F.F.Urmanovaga berdi. U o‘z nutqida “Metodika – qat’iy ketma-ketlikka (algoritmik xarakterga), ilgari o‘rnatilgan reja (qoida), tizimga aniq rioya qilish bo‘lib, biror bir ishni maqsadga muvofiq o‘tkazish metodlari, yo‘llari majmuasi”ni, “texnologiya - bu rejalashtirilgan o‘qitish natijalariga erishish jarayoni tavsifi”ni ifoda etadi, degan umumiy fikrni berdi. SHundan so‘ng, “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi katta o‘qituvchisi A.Jabborov F.F.Urmanovaga shunday savol bilan murojaat etdi: “Domla, kechirasiz, sizningcha, metodika va texnologiyaning bir-biridan farqi nimada?”. F.F.Urmanova qisqa qilib “Metodika o‘rgatadi, texnologiya

faollashtiradi” degan javobni berdi. A.Jabborov javobni tushunmasdan hayron bo‘lib, indamay qo‘ydi. Olim unga “Nega siz javobdan qoniqmadingizmi?” savol nazari bilan qaradi, M.Alieva esa indamadi. Kafedra o‘qituvchisi G.Yo‘ldosheva A.Jabborovga “Nimaga tushunmaysiz, domla aytmoqchilarki, o‘qitish metodikasi o‘quvchilarni faollashtira olmaydi, texnologiya esa ta’lim oluvchini faollashtirib, o‘yin asosida mashg‘ulotlarni qiziqarli o‘tishini ta’minlaydi” deb tushuntirgan bo‘ldi.

F.F.Urmanova o‘z chiqishini yakunlagach, moderator so‘zni pedagogika fanlari doktori, professor DI.Ilesovga berdi va “zamonaviy pedagogik texnologiyalar” haqida ma’lumot berishni so‘radi. D.Ilesov bugungi kunda ko‘plab zamonaviy pedagogik texnologiyalar mavjudligi, ularga Aqliy hujum, B-B-B, kaskad, pinbord, klaster, zigzag, tarmoqlar, o‘yinli texnologiyalar kabilar borligini aytib, ularga qisqa-qisqa izoh berdi. D.Ilesov so‘zini yakunlagach, dotsent V.Ganiev unga quyidagi savol bilan murojaat etdi: “Ustoz, meni bir savol ko‘p vaqtdan beri qiziqtiradi: “Texnologiya bilan interaktiv metod” tushunchasi bir narsami? Har doim ularni aralashtirib qo‘llayveramiz, shu to‘g‘rimi?”. D.Ilesov savolga quyidagicha javob berdi: “Siz manimcha, savolni man yuqorida bir nechta texnologiyani sanab o‘tganimdan kelib chiqib beryapsiz. Ularni “texnologiya” deb aytish ham, “interfaol metodlar” deb nomlash ham mumkin” degan javobni berdi. Javobni eshitgach, V.Ganiev “unda birini qo‘llayversak bo‘lmaydimi?” degan savol nazari bilan qaradi. Unga javoban olima “Istaganigizni ishlatavering” deb javob berdi. SHu bilan D.Ilesov ham chiqishini yakunladi.

Siz nima deb o‘ylaysiz, seminar-trening oldiga qo‘yilgan maqsad to‘liq amalga oshdimi? Zamonaviy ta’lim-tarbiya jarayoni bilan bog‘liq holda qo‘llanilayotgan tushunchalarning mohiyati etarlicha aniqlashtirildimi? Siz mazkur tushunchalarni qanday izohlagan bo‘lar edingiz? Seminar-treningda qaysi tushuncha mohiyatiga umuman e’tibor qaratilmadi? “Metodika” va “texnologiya” tushunchalarini farqlashga doir F.F.Urmanova tomonidan berilgan javobga siz qanday munosabat bildirasiz? D.Ilesovning o‘z nutqida Aqliy hujum, B-B-B, kaskad, pinbord kabilarni texnologiya deb ishlatishi to‘g‘rimi? Z.Zaripovaning “metod” va “texnologiya” tushunchalariga nisbatan aytan fikrini qanday baholaysiz? Grafik organayzerlarni “ta’lim vositasi”mi yoki “metod” sifatida talqin etish maqsadga muvofiqmi?

Keys yechimi uchun taklif etilgan g‘oyalar taqdimoti uchun chizma namunasi

| **Muammo (asosiy va kichik muammolar)** | **Echim** | **Natija** |
|---|---|---|
| | | |

**9-Keys.**

Kasbiy ta’lim metodikasi bo‘yicha yaratilgan adabiyotlarni o‘rganish shuni ko‘rsatdiki, ularda “ta’lim jarayoni” tushunchasining mohiyati turlicha yoritilgan.

Ta’lim jarayoni – bu:

1. O‘quvchilarga bilimlarni berib, ularda ko‘nikma, malakalarni berish orqali u yoki bu darajada ularning o‘zlashtirilishini ta’minlash (o‘qitish)ga qaratilgan faoliyat.

2.O‘quvchilar tomonidan BKMning o‘zlashtirilishi (o‘qishi)ni ta’minlovchi jarayonini boshqarishga yo‘naltirilgan o‘qituvchi va o‘quvchilarning birgalikdagi faoliyati (chunki o‘qitish va o‘qitish – ta’limning o‘zaro aloqador va o‘zaro shartlangan tomonlaridir).

3.O‘qituvchining o‘quvchilar tomonidan BKMni ongli va puxta o‘zlashtirilishiga yo‘naltirilib, bu jarayonda bilimlarning mustahkamlanishi, aqliy va jismoniy mehnat madaniyati elementlarini o‘zlashtirish, dunyoqarashni boyitish va o‘quvchilar xulq-atvorining shakllanishini ta’minlovchi rahbarligi va harakatlarining izchilligi.

4.O‘quvchilarning o‘qituvchi rahbarligida BKMni o‘zlashtirish, qobiliyatlarini rivojlantirish va dunyoqarashlarini shakllantirishga qaratilgan faol bilish faoliyati.

**Keysni bajarish bo‘yicha topshiriqlar:**

1. Keys mohiyatini etarlicha anglab oling.

2. Berilgan manbalarga tayangan holda muammoning echimini topishga xizmat qiluvchi omillarni aniqlang.

3. Aniqlangan omillar orasidan muammoga barchasidan ko‘proq dahldor bo‘lgan omil (yoki ikkita omil)ni ajrating.

4. Ana shu omillar asosida echimni asoslashga uring.

5. Echimni bayon eting.

ishtirokida muhokama qilinadi.

**10-Keys.**

Markaziy Osiyo davlatlarida individual ta’lim usuldan qadim davrlarda unumli foydalanganlar.

Ushbu („Me’mor” romanining “Ustoz va shogird” ) bobidan keltirilgan parchada individul ta’lim olish uchun borgan tolibning sinovdan o‘tganligi haqida hikoyat qilingan. Zulfiqor sinovdan qanday o‘tdi.

Tinglovchilarga tavsiya etiladigan manbalar: „Me’mor” romanining “Ustoz va shogird” bobidan keltirilgan parcha .

**Keysni bajarish bo‘yicha topshiriqlar:**

1. Keys mohiyatini etarlicha anglab oling.

2. Berilgan manbalarga tayangan holda muammoning echimini topishga xizmat qiluvchi omillarni aniqlang.

3. Aniqlangan omillar orasidan muammoga barchasidan ko‘proq dahldor bo‘lgan omil (yoki ikkita omil)ni ajrating.

4. Ana shu omillar asosida echimni asoslashga uring.

5. Echimni bayon eting.

**7-Keys.** Kasbiy ta’lim metodikasi darsida o‘qituvchi o‘quvchilarga: “O‘rtog‘ingdan ko‘chirma!”, “O‘zing yoz, birovlarning daftariga qarama!”, “Obbo, ko‘chiradigan odamingni ham topibsanmi-a! Uning o‘zi xatto ko‘chirib olishni ham qoyillata olmaydi-yu!” singari zaharxanda so‘zlar bilan bir necha bor qattiq tanbeh berdi.

Boshqa guruhda esa o‘qituvchi darsiga yo‘l-yo‘lakay, albatta, ammo ta’sirli qilib: “O‘quvchilar bir-biringizdan berkitmanglar, bu yaxshi emas, hech kim sizlardan ko‘chirayotgani yo‘q!”, - dedi.

O‘quvchilarga tavsiya etiladigan material**:**“Pedagogik talab” va uning mohiyatini yoritishga oid materiallar.

**Keysni bajarish bo‘yicha topshiriqlar:**

1. Keys mohiyatini etarlicha anglab oling.
2. Manbalar asosida muammoning echimini toping.
3. Aniqlangan omillar orasidan muammoga barchasidan ko‘proq dahldor bo‘lgan omil (yoki ikkita omil)ni ajrating.
4. Ana shu omillar asosida echimni asoslashga harakat qiling.
5. Echimni bayon eting.

# IV.MUSTAQIL ISH MAVZULARI

## Mustaqil ishni tashkil etishning shakli va mazmuni

Tinglovchilarning mustaqil ishi o‘rganilayotgan mavzu yuzasidan ma’lumotlarni axborot texnologiyalarining imkoniyatlaridan keng foydalangan xolda yig‘ish, olingan ma’lumotlarni mustaqil ravishda ishlab chiqish, tahlil qilish va amaliyotda qo‘llay olishdan iborat bo‘lib, uning shakllari turli ko‘rinishda bo‘lishi mumkin. Mustaqil ishga mo‘ljallangan mavzular quyida keltiriritilgan.

Tinglovchilarning mustaqil ishiga shuningdek, bitiruv malakaviy ishlarini bajarilishi borasida olib boradigan faoliyati ham kiradi.

Mustaqil ishni bajarish natijalari baholanadi. Uyga vazifalarni bajarish, qo‘shimcha darslik va adabiyotlardan yangi bilimlarni mustaqil o‘rganish, kerakli ma’lumotlarni izlash va ularni topish yo‘llarini aniqlash, internet tarmoqlaridan foydalanib ma’lumotlar to‘plash va ilmiy izlanishlar olib borish, mustaqil ravishda ilmiy manbalardan foydalanib ilmiy maqola va ma’ruzalar tayyorlash kabilar tinglovchilarning mashg‘ulotlarda olgan bilimlarini chuqurlashtiradi, ularning mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatini rivojlantiradi.

## Mustaqil ish mavzulari

1.Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanining predmeti va mazmuni

2.Pedagogik texnika –pedagogik mahoratning birinchi bosqichi sifatida

3. Jamoada shaxsni tarbiyalash shakllari va usullari

4.Oila, jamoa o`quv yurtining tarbiyalash ishlarini hamkorligi

5.Tarbiyaviy ishda testr pedagogikasini tarkibiy qismlarini qo’llanishi

6.Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishga texnologik yondashuvda zamonaviy ta’sir etuvchi texnologiyalar

7.Tarbiya jarayonida zamonaviy treninglarni qo`llash

8.Ma’nazviy va ma’rifiy tadbirlarning yillik rejasini tuzish

# V.TEST



## TEST SAVOLLARI



***1. Pedagogika so'zining lugoviy ma'nosi nima?***

a) bolalarni o'qitadi
b) bolani o'ynatadi
v) bola etaklovchi ma'nosini anglatadi
g) bolaga tarbiya beradi

***2. «Ta'lim to'g'risida»gi Konunning maqsadi nima?***

a) kadrlar tayyorlash milliy dasturidagi 3 bosqichni amalga oshirish
b) davlat va nodavlat muassasalarini rivojlantirish
v) fuqorolarga ta'lim tarbiya berish, kasb-hunar o'rgatishning huquqiy asoslarini belgilaydi, hamda u har bir shaxsning bilim olishidan iborat
g) ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinstiplarini amalga oshirish

***3. Ta'limni og'zaki metodlariga nimalar kiradi?***

a) tushunish, anglash, ko'rsatish
b) suhbat, indukstiya, izlanish
v) test, algaritmlash, indukstiya, dedukstiya
g) suhbat, ma'ruza, seminar

***4. "Ta'lim to'g'risidagi qonun" qachon qabul qilingan?***

a) 1993 yil
b) 1997 yil
v) 2000 yil
g) 1999 yil

***5. SHaxs bu...?***

a) aqlli mavjudot
b) anatomik, fiziologik, jismoniy o'zgarishlar ifodasi
v) ijtimoiy tuzum maxsuli bo'lib, ongli faoliyat bilan shug'unlanuvchi ijtimoiy mavjudotdir
g) muayyan ijtimoiy tuzum mahsuli

***6. Eng qadimgi turkiy tilda yaratilgan (XI -XIII asrlarda) asarni toping?***

a) O'rxun, Enisey yodgorliklari
b) Hibatul-Xaqoyiq
v) Mahbub-ul qulub
g) Guliston

***7. Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish bosqichlarini aniqlang?***

a) 2 bosqich
b) 4 bosqich
v) 3 bosqich

g) 5 bosqich

***8. Oliy ta'limdan keyingi ta'limni toping*?**

a) ta'lim muassasasigacha ta'lim, o'rta ta'lim

b) aspirantura, doktarantura

v) umumiy o'rta ta'lim

g) bakalavriyat, magistratura

***9. Qobiliyatning shakllanishi va rivojlanishi shaxsda quyidagi sifatlardan qaysi birini yuzaga keltiradi?***

a) mehnatga ijodiy yondashish, yangilikka intilish, ijodiy aktivlik, jamoa bilan hamkorlik, o'z o'ziga talabchanlik

b) ijodiy aktivlik, yangilikka intilish

v) o'qitish, o'rgatish

g) o'qish, o'rganish, o'qitish

***10. Dialektik jarayon nima?***

a) u yoki bu jarayonlarni aynan miqdoriy takrorlanishi

b) jamiyatga xos ajralmas xususiyat

v) soddadan murakkabga boruvchi

g) sifat o'zgarishlar jarayonidir

***11. Tabiy sharoitda jarayonlarni o'rganish metodlariga:***

a) kuzatish, suhbat, anketa o'tkazish, intervyu olish, hujjatlarni tahlil etish

b) fFaoliyat natijalarini tahlil etish, o'qituvchi bilan ishlash

v) dasni tashkil etish va kuzatish

g) o'qitish, o'rgatish

***12. SHaxs rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?***

a) jamoa, axborot almashishi

b) bilim malakalar

v) etuklik, ko'p o'qish

g) irsiyat, muhit, ta'lim-tarbiya

***13. Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlari quyidagilarni qaysi biridan iborat?***

a) ta'lim olish huquqi, tabiy ta'limot huquqi

b) ta'lim muassasasigacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, oliy ta'lim

v) shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta'lim, fan, ishlab chiqish

g) ta'limning demokratlashuvi, ta'limning insonparvarligi, ijtimoiylashuvi

***14. Pedagogikaning bosh masalasi?***

a) tarbiya

b) barkamol inson

v) ta'lim, tarbiya, barkamol inson tarbiyasi

g) ta'lim tarbiya samaradoligini oshirish

*15. DAVLAT TA'LIMI STANDARTLARI TO'G'RISDAGI NIZOM QACHON QABUL QILINGAN?*

a) 5 yanvar 1998 yil

b) 6 iyun 1998 yil
v) 29 avgust 1997 yil
g) 6 may 1998 yil

***16. Qaysi guruhdagi fanlar pedagogika fanining tarmoqlari hisoblanadi?***

a) filosofiya, pedagogika, psixologiya
b) umumiy pedagogika, anatomiya, fiziologiya
v) pedagogika asoslari, didaktika, tarbiya nazariyasi, ta'lim muassasasishunoslik
g) ta'lim muassasasigacha tarbiya pedagogikasi, ta'lim muassasasi pedagogikasi, oliy ta'lim muassasasi pedagogikasi, maxsus pedagogika, xususiy metodika, pedagogika tarixi

***17. Muammoli vaziyat bu...?***

a) o'yin
b) o'quvchining ma'lum psixik holati
v) harakatli o'yinlar
g) ijodiy o'yin

***18 .Pedagogikaning asosiy kategoriyalari qaysilar?***

a) ta'lim-tarbiya
b) tarbiya, ma'lumot
v) shaxs faoliyati, tarbiya
g) ta'lim-tarbiya, ma'lumot

***19. Pedagogika fanlari tizimiga qaysi fanlar kiradi?***

a) pedagogika tarixi, gigiena, odam anotomiyasi va fiziologiyasi metodika
b) pedagogika tarixi, maxsus pedagogika, metodika
v) ta'lim muassasasi pedagogikasi, maxsus pedagogikalar, metodika
g) ta'lim muassasasi pedagogikasi, maxsus pedagogika, ta'lim muassasasigacha tarbiya pedagogikasi, metodika, gigiena

***20. Ta'lim nazariyasi qaysi masalalarni o'z ichiga oladi?***

a) ta'lim haqida barcha tushunchalarni
b) ta'lim prinstiplarini ta'lim muassasasi ta'lim mazmuni
v) o'qitish metodlari hamda tashkiliy shakllari
g) ta'lim jarayoni uning mohiyati, mazmuni, o'qitish qonuniyatlari, metodlari, uning tashkiliy shakllari va ta'limga ta'luqli barcha kategoriyalarni

***21. Ta'lim mazmuni deb nimaga aytiladi?***

a) aqliy tarbiya bilan bog'liq bo'lgan barcha vazifalarga aytiladi
b) o'O'quvchilarni bilimlar bilan qurollantirishiga aytiladi.
v) ta'lim xujjatlari o'quv rejasi, dasturi va darsliklariga aytiladi
g) o'quvchilarning o'qish jarayonida egallab olishi lozim bo'lgan hamda tizimga solingan bilim, ko'nikma va malakalarning aniq belgilangan doirasiga aytiladi.

***22. O'quv rejasi nima?***

a) o'quv rejasi asosida o'qituvchi ishlab chiqadigan soatlar
b) yil mobaynida o'tiladigan soatlar.
v) o'quvchiga beriladigan ilmiy bilim va malaka hajmi
g) davlat hujjati, unda har bir o'quv fanining mazmunini ochib beriladi.

***23. Ta'limni tashkil qilishning noa'nanaviy shakllarini aniqlang?***

a) muloqot

b) didaktik o'yinlar

v) trening va boshqalar

g) muloqot, baxs-munozara, didaktik o'yin, trening

***24. Ta'limni tashkil qilish shakllari qanday tanlanadi?***

a) ta'lim turiga qarab

b) ta'lim maqsadiga qarab

v) bolalarning yosh xususiyatlariga qarab

g) o'quv rejimi asosida

***25.Tarbiyaning maqsadga yo'naltirilganligi va g'oyaviyligining zarurligi nimada?***

a) tarbiyaning ijtimoiy muo'itning ob'ektiv va sub'ektiv oimllarga bog'liqligida

b) o'qituvchi ijtimoiy tarbiya maqsadi va vazifasini aniq tasavvur etish va anglab olinishda

v) tarbiyaning shaxs taraqqiyoti bilan aloqadorligida

g) tarbiyani ijtimoiy hayot bilan qo'shib olib borishda

*26. TARBIYA METODLARI GURUHLARINI TO'G'RI BELGILANG*

a) hikoya, tushuntirish, o'qitish, ma'ruza, axloqiy -ma'naviy suhbat va baxs

b) ijtimoiy ongni shakllantirishga xizmat qiluvchi metodlar odatlantirish va faoliyatda mashqlantirish, rag'batlantirish va jazolash metodlari.

v) rag'batlantirish va jazolash, hikoya tushuntirish metodlari

g) o'qitish, savol–javob, ma'ruza, suhbat va baxs

*27. GURUHDAN TASHQARI ISHLARNING O'ZIGA XOS TOMONI NIMADA?*

a) bolalarni ta'lim muassasasi bilan hayot o'rtasidagi bog'lovchi bo'g'in

b) bolalarni ijtimoiy foydali mehnatga o'rgatadi

v) guruhdan tashqari ishlarda o'quvchilar o'rtasidagi hamjihatlik xissi shakllanadi.

g) o'quvchilarning yosh xususiyatlariga tayanib o'qishdan biroz chalg'itish

***28. "Inson o'z mablag'ini sarflashni bilishi kerak. Pul sarflashda qizg'anchiqlik qilish xasislikka olib keladi. Pullarni rejasiz ishlatish esa insonni beboshlikka olib keladi". Ushbu fikr muallifini toping?***

a) Mahmudxo'ja Behbudiy

b) YUsuf Xos Xojib

v) Abu Nasr Farobiy

g) Abdulla Avloniy

***29. Xadis ilmining yaratilishida "oltin davr" qaysi asrga to'g'ri keladi?***

a) VIII-IX-asrlar

b) XV-asr

v) XVI-asr

g) X-XII-asrlar

***30. O'quvchilarga axloqiy tarbiya berishning samarali yo'llari qaysilar?***

a) o'qish jarayonining yuksak darajada uyushtirilishi, o'qituvchi va o'quvchilar

jamoasining saviyasi

b) tarbiyaviy ishlarning rejali bo‘lishi va hamjihatlik

v) faqat *a* javob to‘g‘ri

g) *a* va *b* javoblar to‘g‘ri

***31. XXI asrda AQSH da qanday dastur e’lon qilindi?***

a) “Amerika ta’lim strategiyasi”

b) “Porloq kelajak sari”

v) “Muammoli o‘qitish”

g) to‘g‘ri javob berilmagan

***32. AQSH dv majburiy ta’lim necha yoshgacha?***

a) 14 yoshgacha

b) 15 yoshgacha

v) 16 yoshgacha

g) 17 yoshgacha

***33. YAponiyada majburiy ta’lim necha yillik?***

a) 8 yillik

b) 9 yillik

v) 10 yillik

g) 11 yillik

***34. YAponiyadagi kollejlar turlari qaysilar?***

a) kichik kollejlar, texnik kollejlar, maxsus kollejlar

b) texnik kollejlar, maxsus kollejlar

v) 1-toifali kollejlar, maxsus kollejlar

g) to‘g‘ri javob berilmagan

***35. Franstiya ta’lim tizimidagi boshlang‘ich guruh bosqichlari qaysilar?***

a) tayyorlov bosqichi (1 yil), elementar kurs (2 yil)

b) tayyorlov bosqichi (1 yil), elementar kurs (2 yil), chuqurlashtirilgan bosqich (1 yil)

v) tayyorlov bosqichi (1 yil), chuqurlashtirilgan bosqich (1 yil)

g) elementar kurs (2 yil), chuqurlashtirilgan bosqich (1 yil)

***36. Franstiya pedagoglari guruh o‘quvchilarini 3 tabaqaga ajratib o‘qitishni afzal ko‘radilar. Ular qaysilar?***

a) gomogenlar – matematika va gumanitar fanlar yo‘nalishidagi o‘quvchilar, yarim gomogenlar – tabiiy fanlarni o‘zlashtirayotgan o‘quvchilar, gegeron – barcha fanlarni har xil saviyada o‘zlashtirayotgan o‘quvchilar

b) gomogenlar – matematika va gumanitar fanlar yo‘nalishidagi o‘quvchilar, yarim gomogenlar – tabiiy fanlarni o‘zlashtirayotgan o‘quvchilar, tabaqalashtirilgan guruh o‘quvchilari

v) gomogenlar – matematika va gumanitar fanlar yo‘nalishidagi o‘quvchilar, individual guruh o‘quvchilari, gegeron – barcha fanlarni har xil saviyada o‘zlashtirayotgan o‘quvchilar

g) faqat *a* javob to‘g‘ri

***37. YAponiya ta’lim muassasasilarida o‘qish qaysi oydan boshlanadi?***

a) fevral oyidan

b) mart oyidan
v) aprel oyidan
g) may oyidan

***38. "Eksperiment" so'zining ma'nosi nima?***

a) "tahlil"
b) "analiz", "sintez"
v) "umumlashtirish"
g) "sinab ko'rish", "tajriba qilib ko'rish"

***39. Elektron o'quv adabiyoti nima?***

a) aniq bir tartibda joylashgan so'zlar jamlanmasi
b) foydalanishga qulay shaklda yaratilgan ma'lumotlar to'plami
v) zamonaviy axborot texnologiyalari asosida ma'lumotlarni jamlash, tasvirlash, yangilash, saqlash, bilimlarni interaktiv usulda taqdim etish va nazorat qilish imkoniyatiga ega bo'lgan manba
g) fanning o'quv dasturi bo'yicha undagi barcha mavzularning asosiy mazmuni qisqa
yoritilgan, birlamchi yangi bilimlarni beruvchi to'plam

***40. "Guruhdan va ta'lim muassasasidan tashqari tarbiyaviy ishlar Konstepstiyasi" qachon qabul qilingan?***

a) 1997 yil
b) 1998 yil
v) 1999 yil
g) 2000 yil

***41. "O'quvchilarni tarbiyalashda oila, mahalla va ta'lim muassasasi hamkorligi Konstepstiyasi" qachon qabul qilingan?***

a) 1997 yil
b) 1998 yil
v) 1999 yil
g) 2000 yil

***42. "Qat'iy aytish mumkinki, yolg'iz o'g'il yoki qiz tarbiyalash bir necha bolani tarbiyalashga qaraganda ancha qiyin ish. Xatto, agar moddiy jihatdan bir muncha qiynalgan taqdirda ham yolg'iz bola bilan kifoyalanib qolish yaramaydi". Fikr muallifini toping?***

a) Ushinskiy
b) Disterveg
v) Suxomilinskiy
g) Makarenko

***43. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi Qonunning nechanchi moddasida "Voyaga etmagan bolalarning ota-onalari yoki qonuniy vakillari bolaning qonuniy huquqlari va manfaatlarini himoya qilishlari shart hamda ularning tarbiyasi, ta'lim muassasasigacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi olishlari uchun javobgardirlar" deb belgilab qo'yilgan?***

a) 30-moddasida
b) 31-moddasida

v) 32-moddasida

g) 33-moddasida

***44. Mamlakatimizda jismoniy tarbiya mazmuni yuzasidan yagona "mudofaa va mehnatga tayyorlash" kompleksi tashkil etilgan. Mazkur kompleks necha darajadan iborat?***

a) 4 darajadan

b) 5 darajadan

v) 6 darajadan

g) 7 darajadan

***45. "Aqllilik – biror ishni bajarishda shoshma-shosharlik qilishdan saqlovchi quvvat". Ushbu fikr muallifini toping?***

a) Abu Ali Ibn Sino

b) YUsuf Xos Xojib

v) Kaykovus

g) Makarenko

***46. "Badanning salomat va quvvatli bo'lmog'i insonga eng kerakli narsadir. CHunki, o'qimoq, o'qitmoq, o'rganmoq va o'rgatmoq uchun insonga kuch va sog'lik lozimdur". Ushbu fikr muallifini toping?***

a) Mahmudxo'ja Behbudiy

b) YUsuf Xos Xojib

v) Kaykovus

g) Abdulla Avloniy

***47. O'zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o'tishi nechta tamoyilga asoslanadi?***

a) 3 tamoyilga

b) 4 tamoyilga

v) 5 tamoyilga

g) 6 tamoyilga

***48. Milliy istiqlol mafkurasining asosiy g'oyalari qaysilar?***

a) Vatan ravnaqi, xalq farovonligi

b) komil inson, millatlararo totuvlik

v) barkamol shaxs tarbiyasi

g) faqat *a* va *b* javob to'g'ri

***49. O'zbekiston respublikasining "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida" gi Qonuni qachon qabul qilingan?***

a) 1991 yil 9 dekabrda

b) 1992 yil 9 dekabrda

v) 1993 yil 9 dekabrda

g) 1994 yil 9 dekabrda

***50.. "Men bolalar "Alifbe"ni ochib, birinchi so'zini g'ijjalab o'qishlariga qadar, avval, dunyodagi eng ajoyib kitob – tabiat kitobini mutolaa etishlarini istardim". Ushbu fikr muallifi kim?***

a) Ushinskiy

b) Disterveg

v) Suxomilinskiy g) Makarenko

# VI.GLOSSARIY




**Glossariy**

*Adekvatlik* – teng, o‘xshash, muvofiq kelmoq.

*Analogiya* – psixik xodisalar va xulq-atvor xususiyatlarining o‘xshashligi.

*Anketa* – metodlardan biri bo‘lib, respondent to‘g‘risida aniq ko‘zlangan ma’lumotlarni yig‘ish maqsadida qo‘llaniladi.

*Assosiasiya* – psixik xodislar orasidagi o‘zaro bog‘lanish, u ma’lum qonunlar bo‘yicha tarkib topadi.

*Attraksiya* – bir kishini boshqa kishi ko‘rib qolganda, idrok etishda yuz beradigan tafakkur turi.

*Apatiya* – kishining tevarak atrofdagi olamga nisbatan befarqlik xolati.

*Audivizual idrok* – shaxsning bir vaqtning o‘zida ham eshitib, ham ko‘rib idrok qilishi.

*Autogen mashq* – shaxsning o‘z-o‘zini ishontirish va o‘z-o‘zini idora qilishga asoslangan psixoterapevtik usul.

*Affekt* – kuchli, jo‘shqin va nisbatan qisqa muddatli emosional kechinmalar sifatida ro‘y beradigan psixologik holat.

*Biografik metod* – odamni uning tarjimai holi bilan bog‘liq bo‘lgan xujjatlar orqali o‘rganish usuli.

*Bixeviorizm* – psixologiyaning o‘rganish predmeti sifatida odam xulq-atvorini olinishi nazariyasi.

*Breynshorming* – aqlga xujum – baxslarni tashkil etishda qo‘llaniladigan interfaol usuldir.

*Bosqichlar* – muloqotda mavjud bo‘lgan shaxsning o‘zi bilan, boshqalar bilan va avlodlar orasida kechadigan jarayoni.

*Verbal* – og‘zaki ifodalangan nutq.

*Genotip* – ota-onadan farzandga o‘tadigan irsiy belgilar majmui.

*Gnostik* – butun borliqni bilishga yo‘naltirilgan faoliyat.

*Guruh* – odamlarning birgalikdagi faoliyat mazmuni yoki muloqotda bo‘lish xarakteri kabi qator belgilarga asoslangan ijtimoiy jamoa.

*Dunyoqarash* – odamning tevarak-atrofdagi oamga va unda o‘zining tutgan o‘rniga qarashlaridan kelibchiqqan tizim. Uning falsafiy, siyosiy, ilmiy, diniy, aqliy va estetik qarashlari yig‘indisi.

*Diqqatning barqarorligi* – diqqatning ma’lum ob’ektga uzoq vaqtdavomida muttasil qaratilishi.

*Diqqatning ko‘lami* – bir vaqtning o‘zida diqqatning bir qancha ob’ektga qaratilishi imkoniyati.

*Diqqatning taqsimlanishi* – diqqatning bir vaqtda bir necha ob’ektga taqsimlanish xusuiyati.

*Diqqatning ko‘chishi* – diqqatni ixtiyoriy ravishda bir ob’ektdan ikkinchisiga ko‘chirish.

*Dialog* – ikki va undan ortiq kishilarning o‘zaro og‘zaki gaplashishi**.**

*Dialogik nutq* – nutq turlaridan bo‘lib, bunda so‘zlovchilar barobar teng, birgalikda faollik ko‘rsatadi.

*Dominant shaxs* – boshqalar bilan muomala va munosabat o‘rnatishda o‘z fikrini o‘tkazish xislatining yorqin namoyon bo‘lishi.

*YOsh davri nizolari* – o‘ziga xos, uncha uzoqqa cho‘zilmaydigan ontogenez davrlari bo‘lib, bu vaqtda keskin psixik o‘zgarishlar yuz beradi.

*Jamoa* – maqsadlari jamiyat maqsadiga ms keladigan umumiy faoliyat bilan birlashgan odamlar guruhi.

*Jamoaning negizi* – umuiy fikr, maqsad va ishlab chiqarishag taalluqli qarorlarni shakllantiruvchi jamoa a’zolari.

*Yo‘nalish* – shaxsning xatti-harakati va faoliyatini aniq sharoitlardan qat’i nazar ma’lum yo‘lga yo‘naltiruvchi barqaror motivlar yig‘indisi.

*Individuallik* – individning boshqalardan farqlanadigan ijtimoiy xususiyatlari va psixikasining o‘ziga xosligi, qaytarilmasligi.

*Idrokning konstantligi* – idrok sharoiti o‘zgarsa-da, idrok qilishdan hosil bo‘lgan narsa obrazlarning nisbatan o‘zgarmasligi.

*Idrokning predmetliligi* – jamiki olamdan olingan ma’lumotlarni ichki olam ob’ektiga kiritish xususiyati.

*Idrokning butunliligi* – sezgi a’zlariga bevosita ta’sir etib turgan ob’ektlarni, ularning belgi va xususiyatlari bilan birgalikda qo‘shib idrok etish.

*Istedod* – shaxsning ma’lum faoliyatda ifodalanadigan qobiliyatining yuqori darajasi.

*Ijtimoiylashuv* - inson tomonidan ijtimoiy tajribani egallash va hayot - faoliyat jarayonida uni faol tarzda o‘zlashtirish jarayoni.

*Ijtimoiy tasavvurlar* – shaxsga jamiyat orqali ta’sir etgan narsa va xodisalarning yaqqol obrazi.

*Ilmiy taxmin* – tekshirish va tadqiqot olib borish maqsadida ilgaridan kutilishi mumkin bo‘lgan xolatning bashorat qilinishi.

*Interaktiv* – shaxslararo munosabatlarda bir-biriga xulq-atvor ta’sir ko‘rsatish jarayoni.

*Introvert shaxs* - shaxsning xar qanday sharoit va xolatlarida o‘z ichida kechayotgan fikrlarini bayon etish ehtiyojining nihoyatda pastligi.

*Kasb* – faoliyat shakllari birlashmasi bo‘lib, mazmun, vositalar, tashkilotlar, mehnat natijalari hamda mehnat sub’ektini tayyorlashga qo‘yiladigan talablar majmui.

*Kontent-analiz* – tekshirilayotgan matnda so‘z, ibora, abzaslarni ma’no-mohiyatini takrorlanish darajasiga qarab tahlil etish usuli.

*Kuzatish* – sinaluvchini aniq maqsad, faoliyat, vaqt, guruh bilan bog‘liq ravishda tekshirish, o‘rganish, ma’lumotlar to‘plash metodi.

*Kommunikativ* – shaxslararo munosabatlarda ma’lumot, axborot, g‘oyalar almashinuvi jarayoni.

*Kichik guruh* – a’zolari birgalikdagi faoliyat bilan shug‘ullanuvchi va bevosita shaxslararo munosabatda bo‘luvchi kishilar guruhi.

*Ko'nikma* – odamening ma'lum ishni bajarishga tayyorligida ko'rinadigan qobiliyati. K. mahoratning asosini tashkil etadi.

*Longityud tadqiqot* – sinaluvchini uzoq muddat va doimiy ravishda o'rgansh.

*Metod* – bilishning nazariy va amaliy o'zlashtirish usullari yig'indisi.

*Metodologiya* – tadqiqot, tekshirish usuli bo'lib, bilishning nazariy va amaliy o'zlashtirish usullari yig'indisidir.

*Motiv* – ma'lum ehtiyojlarni qondirish bilan bog'liq faoliyatga undovchi sabab.

*Motivasiya* – odamni faol faoliyatga undovchi sabablar majmui.

*Malaka* – mashq qilish jarayonida ish harakatlar bajarilishining avtomatlashgan usullari.

*Mehnat* – inson ehtiyojini qondirish asosida tashqi olamni o'zgartirishga qaratilgan maqsadli faoliyat.

*Mutaxassislik* – faoliyatning aniq shakli bo'lib, mehnat egasining kasbiy tayyorligi, mehnat vositalari, mehnat jarayoni va maqsadining maxsus xususiyatlari bilan belgilanadi.

*Mehnat sub'ekti (*egasi) – bu faol harakat qiluvchi, anglash va o'zgartirishga layoqatli, ong va iroda bilan ish olib boruvchi individ yoki ijtimoiy guruh.

*Muloqot* – ikki yoki undan ortiq odamlarning o'zaro bir-biriga ta'sir etishi.

*Melanxolik* - temperament turlaridan biri bo'lib, psixik faollikning sust, tez ta'sirlanuvchanlik, xatto arzimagan narsalar uchun ham juda chuqur ta'sirotga berilishi bilan xarakterlanadi.

*Monologik nutq* – bir odamning o'z fikrlarini og'zaki yoki yozma ravishda ifodalash nutqi.

*Monolog* – ma'ruzachi tomonidan nutq so'zlanishi, ma'ruzachi aktiv, tinglovchi passiv bo'lgan jarayon.

*Mobil shaxs* - shaxsning bir faoliyat turidan boshqasiga o'tish va moslashish imkoniyatining yuqori darajada kuzatilishi.

*Negativizm* - individning har qanday sharoiitda ham guruh fikriga qarshi turishi va o'zicha mustaqil fikr, mavqeni namoyon qilishi.

*Norasmiy* – odamlarning birgalikdagi muloqot va faoliyatlarida ular orasidagi munosabatlarning o'zaro ishonch, bir xil qarash va maqsadlarning ko'zda tutilishi.

*Noverbal* - nutqsiz ifodalangan xarakat, mimika, xolatlarning boshqa shaxsga yo'naltirilishi.

*Nizolar* – o'zaro ta'sir ko'rsatayotgan kishilarning qarama-qarshi turishi, bunda fikrlar, pozisiyalar, qarashlar teskariligi kuzatiladi.

*Nizo turlari* – nizolarning kimlar orasida yuzaga kelishiga ko'ra farqlari: shaxslararo, guruhlararo, shaxsiy, etnik, milliy; namoyon bo'lish xususiyatiga ko'ra: ochiq, yopiq, uzoq muddatli, qisqa; mavqe yoki darajaga ko'ra: vertikal va gorizontal; yo'nalishiga ko'ra: destruktiv va konstruktiv.

*Nizo bosqichlari* – uch bosqichda, ya'ni nizo oldi, nizo va nizodan keyingi bosqichlar.

*Nizo hal etish yo'llari* – komromiss, ya'ni kelishuv; joyida hal etish; nizodan

chekinish; orqaga surish; qochish.

*Operativ xotira* – xotira turlaridan biri bo‘lib, faoliyat bajarish jarayonida uzoq xotiradan vaqtincha foydalaniladi.

*Oila* – turmush qurish, qarindosh-urug‘chilik asosidagi kichik guruh.

*Pilotaj tadqiqot* – tadqiqotning muammoli izlovchi turi, asosiy tadqiqotgacha o‘tkaziladigan va soddalashtirilgan shakli

*Polilog* – guruh ichidagi munozara bo‘lib, barcha ishtirokchilar faoolashuvi kuzatiladi.

*Perseptiv tomon* – shaxslararo munosabatlarda tushunish, his etish, idrok etishga qaratilgan jarayon.

*Professiografiya* - mehnat sub’ektining faoliyat tarkiblari (uning mazmuni, vositalari, sharoitlari, tashkilot) bilan o‘zaro munosabati va bog‘liqligini o‘rganish va aniqlashga qaratilgan kompleks metod.

*Professiogramma* - kasbning turli ob’ektiv xarakteristikalarining tasnifi.

*Rasmiy* – odamlarning birgalikdagi faoliyatlarida, ijtimoiy rollar taqsimotida mavqe, martabaning inobatga olinishi

*Real* – birgalikdagi faoliyat jarayonida bevosita muloqot amalga oshishi imkoniyati.

*Referent guruh* – shaxsning har tomonlama ishongan, o‘ziga yaqin tutgan guruhi.

*Sangvinik* – temperament turlaridan bo‘lib, chaqqon, harakatchan, taassurotlari tez o‘zgaradigan, boshqalarga nisbatan dilkashlik, mehribonlik xislatlari bilan xarakterlanadi.

*Sanoat psixologiyasi* – sanoat va ishlab chiqarishda turli yuzaga keladigan muammo va xolatlarni psixologik va ijtimoiy omillarini tahlil qilib olishga qaratilgan xizmatlari turi.

*Simpatiya* – bir kishida boshqasiga nisbatan kuzatiladigan moyillik va yoqimlilik hislarining ichki namoyon bo‘lishi.

*Sosiologiya* – jamiyatda yuz beradigan turli-voqea-xodisalarni va o‘zaro munosabatlarni o‘rganishga qaratilgan fan.

*So‘rov* – asosiy metodlardan biri bo‘lib, nutq muloqoti yordamida bevosita yoki bavosita ma’lumot olinadi.

*Ta’lim maskanlari psixodiagnostikasi* – shaxsni ta’lim tizimda qobiliyati, iqtidori, iste’dodini aniqlab olish maqsadida olib boriladigan psixologik xizmat turi.

*Test* – sinaluvchini tekshirish jarayonida maxus qo‘llaniladigan metodlardan biri bo‘lib, bu metod orqali aniq bir psixologik xususiyat aniqlanadi.

*Tushuncha* – narsa va xodisalarning muhim belgi va xususiyatlarini bitta so‘z yoki so‘zlar guruhi bilan ifodalashdan iborat tafakkurning mantiqiy shakli.

*Tushunish* – biror narsaning ma’nosi va ahamiyatini anglash qobiliyati, asosiy erishilgan natijasi.

*Taxlil* – tafakkur qilish usuli, bunda murakkab ob’ektlar qismlarga bo‘linib o‘rganiladi.

*Taqqoslash* – narsa va xodisalar o‘rtasidagi o‘xshashlik va tafovutlarni

aniqlashga asoslangan fikrlash operasiyasi.

*Trening* – mashq qilmoq, guruxlarda muloqotning samarali tashkil etish usuli bo‘lib, shaxsning muloqotga o‘rgatish va obro‘li bo‘lishini rivojlantirish maqsadida o‘tkaziladi.

*Tobe* shaxs – muloqot va boshqa jarayonlarda shaxsda ko‘nikuvchanlik, boshqa kishilarga bog‘liqlik, fikriga bo‘ysunish xususiyatlarining tarkib topishi.

*Umumlashtirish* – voqelikdagi narsa va xodislarni umumiy va muhim belgilariga qarab fikran birlashtirishdan iborat tafakkur jarayoni.

*Uyushganlik* - guruh a’zolarining bir-birlarini yaxshi bilishlari, bir-birlarining dunyoqarashlari, hayotiy prinsiplari, qadriyatlarini anglashlari.

*Faoliyat* – insongagina xos, ong bilan boshqariladigan ehtiyojlar tufayli paydo bo‘ladigan va tashqi olam bilan kishining o‘z-o‘zini bilishga, uni qayta qurishga yo‘naltirlgan faolligi.

*Faollik* – tirik materiyaning umumiy xususiyati, tevarak muhit bilan o‘zaro ta’sirda bo‘lishida namoyon bo‘ladi.

*Xarakter* – kishidagi barqaror psixik xususiyatlarining individual birligi bo‘lib, shaxsning mehnatga, narsa va xodisalarga, o‘ziga va boshqa kishilarga munosabatlarida namoyon bo‘ladi.

*Harakat* – maqsadga muvofiq yo‘naltirilib, ongli ravishda amalga oshiriladigan harakatlar yig‘indisi. H. Ongli faoliyatning tarkibiy qismlari va motivlaridan biridir.

*Xulosa chiqarish* – tafakkurning mantiqiy shakllaridan bo‘lib, bir qancha xukmlar asosida ma’lum xulosa chiqariladi. X.ch. induktiv, deduktiv va analogik turlarga ajratiladi.

*SHaxs* – ijtimoiy munosabatlarga kiruvchi va ongli faoliyat bilan shug‘ullanuvchi betakror odam.

*SHaxs ijtimoiylashuvi* - inson tomonidan ijtimoiy tajribani egallash va hayot - faoliyat jarayonida uni faol tarzda o‘zlashtirish jarayonidir.

*SHaxslararo munosabat* – muloqot jarayonidagi o‘zaro ta’sir etish natijasida ro‘y beradigan ijtimoiy-psixologik hodisalar.

*SHakllar* – bevosita va bavosita tur bo‘lib, yuzma-yuz yoki vosita orqali amalga oshishi ko‘zda tutiladi.

*SHakllanganlik* - odamlarning nima uchun jamoalarda ishlashi, odamlar ichida bo‘lishi bilan bog‘liq psixologik jarayon.

*SHartli* – odamlarning turli belgi, faoliyat shakllariga ko‘ra biror guruhga taalluqli deb qarash.

*emosiya* – odam va hayvonlarning sub’ektiv ifodalangan ichki va tashqi qo‘zg‘oluvchilar ta’siriga javob reaksiyasi.

*Ekstrovert shaxs* – shaxsning xar qanday sharoit va xolatlarida o‘z ichida kechayotgan fikrlarini bayon etish ehtiyojining yuqoriligi.

*Empatiya* – boshqa odamlarning psixik holatini tushunish qobiliyati.

*O‘qish* – shaxsning bilim va faoliyat usullarini egallashga hamda uni mustahkam esda saqlab qolish jarayoni.

*O‘yin* – faoliyat turlaridan biri bo‘lib, bolalarning kattalar faoliyatini, ish

xarakatlarini aks ettirishda ifodalanadigan va atrofni bilishga qaratilgan faoliyatdir.

*O‘z-o‘ziga baho berish* – shaxsning o‘z-o‘ziga baho berishi.

*Qobiliyat* – shaxsning ma’lum faoliyatidagi muvaffaqiyatlarini va osonlik bilan biror faoliyatni egallay olishini ta’minlaydigan individual psixologik xususiyati.

*Qiziqish* – shaxsning o‘zi uchun qimmatli va yoqimli narsa yoki xodisalarga munosabati.

*Qobiliyatlar* – shaxsning ma’lum faoliyatdagi muvaffaqiyatlarini va osonlik bilan biron faoliyatni egallay olishini ta’minlaydigan individual psixologik xususiyati.

*«Axloq»,* «xulq» va «atvor» so‘zlari arabcha so‘z bo‘lib, ular o‘zbek tilida xam o‘z ma’nosida qo‘llaniladi. Axloq kishilarning xar bir jamiyatga xos xulq me’yorlari majmuidir. Axloq ijtimoiy ong shakllaridan biri bo‘lib, xamma soxalarda kishilarning xatti-xarakatlarini tartibga solish funksiyalarini bajaradi.

*Bakalavriat*- o‘rta maxsus, kasb-xunar ta’limi negizida oliy ta’lim yo‘nalishlaridan biri bo‘yicha fundamental bilimlar beradigan, o‘qish muddati to‘rt yildan kam bo‘lmagan tayanch oliy ta’limidir.

*Bilish, anglash*-dunyo xaqidagi yangi bilimlar xisoblanadigan sub’ekt va ob’ektning o‘zaro ta’sirini, voqelikning ruxiyatda qayta ta’sir etilishi va aks ettirish jarayonidir.

*Dars*- ma’lum maqsad asosida , belgilangan vaqtda aloxida, bir xil yoshdagi o‘quvchilar, yoshlar bilan o‘qituvchi raxbarligida olib boriladigan ta’lim jarayoni.

*Darslik*- maxsus ravishda o‘quvchilar uchun yozilgan kitob darslik deb ataladi.

*Jamoa*-insonparvrlik va javobgarlik ma’suliyatlariga bog‘likligi bilan xarakterlanadigan munosabatlar xamda xamkorlikdagi ijtimoiy ijobiy faoliyatiga asoslangan, kishilarning tashkil etilgan umumiyligi, jamoasidir.

*Idrok*- mazkur muddatda sezgi organlarida ularning bevosita ta’sir etishi davomidagi bir butun xodisalar yoki narsalarning inson ongida aks etishidir.

*Maqsad*-bo‘lg‘usi natijalar xaqida xar doim aqlan o‘ylab qurilgan, rivojlantirilgan xayoliy tasavvurlar, kelgusidagi rejalar.

*SHaxsiy fazilat* - shaxs tomonidan o‘zining axloqiy, ruxiy va ishchan-lik qobiliyatining ijtimoiy axamiyatini, jamiyatdagi o‘rnini anglay olish xususiyati.

*e’tikod* - shaxs amal qiladigan bilim, tamoyil va xodisallarning qalban va asosli ishonch bilan bog‘langan, uning atrof-muxitga xamda o‘zining xatti-xarakatlariga bo‘lgan sub’ektiv munosabati.

e*vristika* ilmiy tadqiqotning mantiqiy usullari va metodik ko‘rsatmalari.

e*mpirik* - tajribaga asoslangan.

empirik bosqich tadqiqot ob’ekti to‘g‘risida xar tomonlama tasavvur xosil qilish, ta’lim amaliyoti, ilmiy bilimlar saviyasi va xodisalar moxiyatiga erishishga bo‘lgan talab o‘rtasidagi ziddiyat, ilmiy muammoni nomlash.

e*stetik tarbiya* - go‘zallikni xis qilish, atrof-muxitdan go‘zallikni payqay olish va tushunishga bo‘lgan qobiliyatni tarbiyalash.

e*xtiyoj* - individning biror narsa-xodisaga muxtojligi va kishining ruxiy

quvvati xamda faolligi manbai xisoblanadigan asosiy xususiyati. Uyin faoliyatnini bir turi bo‘lib, ijtimoiy tajribalarni o‘zlashtirish va bunyod etishga, o‘z xatti-xarakatlarini takomillashtirishga qaratilgan bo‘ladi.

*O‘z-o‘zini baxolash* -shaxsning o‘z psixologik sifatlari, xulqi, yutuqlari va muvaffaqiyatsizliklari, qadr-qimmati, kamchiliklarini baxolay olishi.

*O‘z-o‘zini tarbiyalash* I) shaxsga xos bo‘lgan madaniyatning shakllanishi va rivojlanishiga qaratilgan izchil va ongli faoliyati; 2) shaxsning o‘z jismoniy, ruxiy va axloqiy sifatlarini tinmay amalga oshirish.

O‘qitish - ta’lim oluvchining bilish faoliyatini boshqarishga qaratilgan o‘qituvchining faoliyati.

*O‘qitish* - 1) ta’limning o‘ziga xos usuli bo‘lib, shaxsga nazariy va amaliy bilimlar berish jarayonida uning rivojlanishi ta’minlanadi; 2) o‘quvchi va o‘qituvchi, o‘quvchining boshqa o‘quvchilar bilan aloqasi natijasi o‘laroq atrof-muxit, uning qonuniyatlari, taraqqiyot tarixi va ularning o‘rganilish usullarini bilishning muntazam boshqarilish jarayoni.

*O‘qituvchining innovasion faoliyati* - ijtimoiy pedagogik fenomen bo‘lib, ijobiy imkoniyatni aks ettirish, kundalik faoliyatdan chetga chiqishdir.

*O‘qitish vazifasi* - ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlanish vazifalari.

*O‘qitish turlari* - sokratcha suxbat metodi, qoloq ta’lim, izoxlash-namoyish etish asosida o‘qitish, bilimlarni mustaqil egallash, dasturlashti-rilgan ta’lim, o‘quv jarayonini algoritmlash, differensiasiyali xamda indnvidual ta’lim va boshqalar.

O‘QISH – o‘quvchinnng o‘z qobiliyati, bilimi, malaka va ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan xarakat.

*O‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish* - o‘quvchi-yoshlarga kelajakda o‘z kasblarini aniqlab olish uchun yordam ko‘rsatishga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy, psixologik, pedagogik, tibbiy-biologik va ishlab chiqarish texnik tadbirlarnnng asoslangan tizimi.

*O‘quv-bilish faoliyati* - insoniyat tomonidan to‘plangan madaniy boylikni egallash bilan bog‘lik faoliyat.

*O‘quv faoliyati* shaxsning yangi bilim, malaka va ko‘nikmalarni egallash jarayoni.

*Qiziqish* - shaxs xarakatiga sabab bo‘ladigan faoliyat yo‘nalishining ongli shakli.

*Xalollik* - shaxsiy va ijtimoiy majburiyatlarni, axloqiy me’yorlarni rostguylik bilan saqlash.

*Xasad* - o‘zgalarpiig muvaffaqiyatlarini ko‘ra olmaslikdan kelib chiqadigan tyyg‘u.

*Pedagogikaning nazariy vazifasi*- ilg‘or va yangi pedagogik tajribalarni o‘rganish.

*Pedagogikaning texnologik vazifasi* - diagnostik satx - pedagogik xodisalar xolatini aniqlash; bashorat qilish satxi - pedagogik faoliyatni eksnerimental tadqiq qilish va shu asosda pedagogik voqelikni yaratish modellarini o‘rnatish; loyixa satxi- pedagogik faoliyatning nazariy konsepsiyasi, uning mazmuni va xarakteri asosida ularga muvofiq metodik materiallar (o‘quv reja, dastur, darslik va o‘quv

ko‘planmasi, pedagogik tavsiyanomalar) ishlab chiqish; yaratuvchilik satxi - pedagogik fan yutuqlarini takomillashtirish va qayta rejalashtirish maqsadida ta’lim amaliyotiga tatbiq etish; reflsktik tuzatma (korrektirovka) satxi - ilmiy tadqiqotlar natijalarining ta’lim va tarbiya amaliyotiga singib ketishini baxolash.

*Pedagogika fani* - maxsus institutlarda (oila, ta’lim va tarbiya, madaniyat muassasalari) maqsadga muvofiq tashkil etiladigan real, yaxlit pedagogik jarayon.

*Pedagogik jarayon* - ta’lim masalalari, uning taraqqiyotini xal qilishga qaratilgan, maxsus tashkil etilgan pedagog va tarbiyalanuvchilarning maqsadli o‘zaro munosabatlari.

*Pedagogik jarayon tamoyillari* - pedagogik faoliyatni tashkil etishning asosiy talablari bo‘lib, u pedagogik jarayonning yo‘nalishini ko‘rsatadi va uning qonuniyatlarini ochib beradi.

*Pedagogik ixtisoslik* - ta’lim natijasi o‘laroq bilim, malaka va ko‘nikmalar majmuidan iborat bir kasbiy gurux doirasidagi faoliyat turi.

*Pedagogik ixtisoslashish* - pedagogik ixtisoslik doirasidagi faoliyatning bir turi.

*Pedagogik malaka* - muayyan toifadagi vazifalarni xal qilish imkoniyatiga ega bo‘lgan mutaxassisning kasbiy pedagogik tayyorgarligi darajasi va turi.

*Pedagogik masala* - pedagogik jarayonning asosiy birligi, o‘ziga xos tizimidir. U voqelikni bilish va qayta yaratish zaruriyati bilan bog‘lik tafakkur qilinadigan pedagogik vaziyatdir. Ta’lim qatnashchilarining ma’lum bir maqsadini ko‘zlagan ta’lim va tarbiyadagi moddiylashtirilgan vaziyatdir.

*Pedagogik mahorat* - pedagogik jarayonni bilish, uni tashkil eta olish, xarakatga keltira olish (A.S. Makarenko), pedagogik jarayonning yuqori samaradorligini belgilovchi shaxsning ish sifati va xususiyatlari sintezi.

*Pedagogik muloqot* - ta’lim oluvchilarning maqsadlari xamda ularning birgalikdagi faoliyatlari mazmunidan kelib chiqadigan o‘zaro aloqalarni o‘rnatish va rivojlantirishni, bir-birini anglash va qo‘llab-quvvatlashni tashkil etishning ko‘p qirrali jarayoni.

*Pedagogik takt* - shaxslar faoliyatinish turli doiralarida ular bilan muloqotda bo‘lishning pedagogik tamoyili, o‘lchovi, o‘quvchilar bilan ularning shaxsiy xususiyatlarini xisobga olgan xolda to‘g‘ri muloqotda bo‘la olish malakasi.

*Pedagogik texnika* – 1) xar bir ta’lim oluvchiga va jamoaga pedagogik ta’sir o‘tkazishning samarali qo‘llash uchun zarur bo‘lgan malaka va kunikmalar majmuasi; 2) xar bir ta’lim oluvchi va jamoaning faolligini pedagogik jixatdan ta’minlash uchun zarur bo‘lgan malaka va kunikmalar.

*Pedagogik tizim* - shaxsni rivojlantirish va yaxlit pedagogik jarayonni birlashtirgan ta’limning o‘zaro bog‘langan tashkiliy tuzilmasi.

*Pedagogik faoliyat* - ta’lim maqsadlarini amalga oshirishga qaratilgan ijtimoiy faoliyatning aloxida turi.

*Pedagogik uyin* - bilim olishga qaratilgan va ma’lum bir pedagogik natijani ko‘zlagan xamda ta’lim jarayonida muayyan maqsadni amalga oshiruvchi faoliyat turi.

*Pedagog nuqtai nazari* (pozisiyasi) - pedagogning dunyoga, pedagogik

voqelikka va pedagogik jarayongʻa boʻlgan intellektual va xissiy munosabati.

*Pedagogik xaqqoniylik* – oʻqituvchining obektivlik mezoni, uning ma’naviy tayyorgarlik darajasi.

*Proektiv malaka* - malakaning maxsus turi boʻlib, kutilgan pedagogik natijalarni aniq ta’lim va tarbiya rejalarida aks ettiradi.

*Preskreptiv* - me’yoriy.

*Retrospektiv* - oʻtmishga murojaat etish.

*Ruxiy pedagogik tayyorgarlik* - pedagogikaning metodologik acoclari va kategoriyalarini, shaxsniig ijtimoiylashuvi va taraqqiyoti qonuniyatlari, ta’lim va tarbiyaning moxiyati, maqsadi va texnologik gʻoyalarini bilish.

*Suxbat* - kuzatuv juda etarli darajada aniq, boʻlmagan zarur axborotni olish uchun qoʻllanadigai tadqiqot metodi.

*Tadqiqot ob’ekti* - ziddiyat va muammoli vaziyat tugʻdiruvchi, bilishga qaratilgan ilmiy taxlilga muxtoj ob’ekt.

*Tadqiqot predmeti* - bevosita oʻrganilishi lozim boʻlgan va amaliy yoki nazariy jixatdan muxim axamiyat kasb etadigan ob’ektning moxiyati, ma’lum bir tomoni, xususiyati.

*Tayzik oʻtkazish* - uyatga qoʻyish, aybdorlik xissi yoki koʻngli chukkanlarning fikri, xissiyoti, intilishi va moyiliggi ularning ongidan xalos qilish.

*Takabbur* - oʻz manfaatlarini yuqori quyuvchi, manman shaxs.

*Takt* - misli koʻrilmagan tarzda oʻzini tuta bilish.

*Ta’lim* - I) shaxsning jismoniy va ma’naviy shakllanishining yagona jarayoi, ijtimoiy etalonlarnipg ijtimoiy ong sifatida u yoki bu darajada qayd qilingan, tarixan shartlangan ideal timsollarga ongli yoʻnaltirilgan ijtimoiylashish jarayoni; 2) muayyan bilimlarni egallash gʻoyaviy-axloqiy kadr, malaka, koʻnikma, axloq me’erlariga qaratilgan jamiyat a’zolarining ta’lim va tarbiyasi vazifasini bajaradigan nisbiy mustakil tizim Tarbiya - 1) shaxsning ma’naviy va jismoniy xolatiga muntazam va maqsadga muvofiq, tasir etish;

2) pedagogik jarayonda ta’lim maqsadlarini amalga oshirish uchun pedagog va tarbiyalanuvchilarning maxsus tashkil etilgan faoliyati.

*Pedagogik faoliyat* - ta’lim maqsadlarini amalga oshirishga qaratilgan ijtimoiy faoliyatning aloxida turi.

## VII. “Tarbiyaviy ishlar metodikasi” fani bo‘yicha talabalar bilimini baholash va nazorat qilish mezonlari

| | | | |
|---|---|---|---|
| **Baxolash usullari** | Ekspress testlar, yozma ishlar, og‘zaki surov | | |
| **Baholash mezonlari** | ***86-100 ball “a’lo”*** xulosa va qaror qabul qilish;<br>ijodiy fikrlay olish;<br>mustaqil mushohada yurita olish;<br>olgan bilimlarini amalda qo‘llay olish;<br>mohiyatini tushunish;<br>bilish, aytib berish;<br>tasavvurga ega bo‘lish. | | |
| | ***71-85 ball “yaxshi”*** talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:<br>mustaqil mushohada yurita olish;<br>olgan bilimlarini amalda qo‘llay olish;<br>mohiyatini tushunish;<br>bilish, aytib berish;<br>tasavvurga ega bo‘lish. | | |
| | ***55-70 “qoniqarli”*** talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:<br>mohiyatini tushunish;<br>bilish, aytib berish;<br>tasavvurga ega bo‘lish. | | |
| | ***0-54 “qoniqarsiz”*** ) quyidagi hollarda talabaning bilim darajasi 0-55 ball bilan baholanishi mumkin:<br>aniq tasavvurga ega bo‘lmaslik;<br>bilmaslik. | | |
| | **Reyting baxolash turlari** | **Maks. ball** | **O‘tkazish vaqti** |
| | **Joriy nazorat:**<br>Amaliy mashg‘ulotlarida faolligi, savollarga to‘g‘ri javob berganligi, Amaliy topshiriqlarni bajarilganligi uchun | **45** | Semestr boshlan-gandan ikkinchi mashg'ulotdan oxirgi mashg'u-lotga qadar har bir mashg'ulotda 100 ballik tizim-da joriy bahola-nadi, so'ngra ushbu ballar yig'indisidan o'rtacha ball chiqarilib, 0,45 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | | koeffitsientga ko'paytiriladi. |
| | **Mustaqil ta'lim** | **5** | |
| | **Oraliq nazorat:**<br>Amaliy mashg'ulotida og'zaki so'rov va yozma ko'rinishida qabul qilinadi. Ma'ruzachi o'qituvchi va amaliy mash-g'ulot o'qituvchisi tomonidan birgalikda o'tkaziladi. Oraliq nazorat savollari va retsept topshi-riqlari 2 xafta avval e'lon-lar doskasiga joy-lashtiriladi.<br>Oraliq nazorat 20 ballni tashkil etib, undan:<br>(86-100 %) 17,2-20,0 **A'lo "5"**<br>(71-85 %) 14,2-17,2 **Yaxshi "4"**<br>(55- 70 %) 11-14,2 **Qoniqarli "3"**<br>(0-54 %) 11 baldan kam **Qoniqarsiz "2"** | **20** | Har bir semestrning 19 xaftasida |
| | **Yakuniy nazorat (yozma, og'zaki, test)** | **30** | 19-20 xaftada |
| | **JAMI** | **100** | |

- qoldirilgan amaliy mashg`ulot kelgusi darsga qadar guruh o`qituvchisiga qayta topshirish va maslahat kunida topshiriladi. 3 ta mashg`ulotni qoldirgan talaba fakultet dekani ruxsati bilan qayta topshiradi.
- ON ni 2 hafta muddatda qayta topshirishga ruxsat beriladi;
- akademik qarzdor talabalarga semestr tugaganidan keyin dekan ruxsatnomasi asosida qayta o`zlashtirish uchun – 2 hafta muddat beriladi. Shu muddat davomida o`zlashtira olmagan talaba belgilangan tartibda rektorning buyrug`i bilan talabalar safidan chetlashtiriladi (birinchi kurs talabalariga o`quv yili yakunlari bo`yicha amalga oshirish maqsadga muvofiqdir).

## VIII.ADABIYOTLAR RO‘YXATI



### I. Maxsus adabiyotlar

**I. O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari:**

